

# TAFAKKUR GULSHANI

*Vatandosh va dunyo allomalarining  
aforizmlari va hikmatli so'zlari*

**Vladimir Vorontsov kompozitsiyasi**

**Sharifa Abdurazzoqova tarjimasi**

Toshkent  
G'afur G'ulom nomidagi  
Adabiyot va san'at nashriyoti  
1989

## Madaniyatning vorisiyligi haqida

Men qadimgi donishmandlarning o'z asarlarida bizga qoldirib ketgan aql durdonalarini ko'zdan kechiraman; agarki biz ularda nimadir yaxshi bir narsaga duch kelsak, uni o'zlashtirib olamiz va juda katta foyda orttirgan hisoblanamiz.

SUQROT

Olg'a intilgan har bir kishi o'tmish va o'z davri boyliklaridan foydalanishi turgan gap.

A. DISTERVEG

Mukammal zakovat, agar ta'bir joiz bo'lsa, avvalgi barcha asrlardagi aqlni o'zida mujassam etadi.

B. FONTENEL

Xalq — bamisoli oltin qidiruvchi, dur qidiruvchidek gap: u faqat eng nodir, eng buyuk narsalarnigina ajratib, avaylab, bag`rida asrab, necha o'n yillar davomida sayqallab keladi.

M. I. KALININ

Qadimgi donishmandlik shu qadar ko'p durdonalarni meros qoldirganki, ularni bir-biriga qarab chiqish natijasida butun bir yiqib bo'lmas devor vujudga kelgan.

M. Ye. SALTIKOV-SHCHEDRIN

Insonning eng yaxshi va go'zal fikrlarini jamlash beqiyos xazina yaratish bo'lur edi.

J. DELIL

Turli-tuman tarbiyaviy hikoyatlar va hikmatli so'zlarni to'plash tengsiz davlatdir.

I. GYOTE

Maqolga aylanib ketgan yoki alifbe va kitoblarni bezab turuvchi ko'pgina haqiqatlar agar biz uchun jonsizdek va siyqa gapdek tuyulmaganda edi biz nihoyatda aqlli va juda baxtli odamlar bo'lardik.

D. I. PISAREV

Donolar bisotini o'rganish bizni yuksaklikka ko'tarib, qudratli va olijanob insonga aylantiradi.

Ya. KOMENSKIY

## Aforizmlar haqida

Shunaqangi lo`nda hikmatli so`zlar yoki maqollar borki, ularni hamma biladi va hamma foydalanadi. Agar bunday hikmatli so`zlarga barcha kishilar ishonishmaganda edi, ular asrlardan-asrlarga o`tib kelmasdi.

KVINTILIAN

Lo`nda fikrlash xalqqa xos...

M. GORKIY

Men maqollardan juda ko`p narsani, boshqacha qilib aytganda,— lo`nda fikrlashni o`rganganman.

M. GORKIY

Inson tafakkuri va tajribasining boqiy xazinalari ming yillar osha so`zda jamlanadi va abadul-abad yashaydi.

M. A. SHOLOXOV

Ko`chirmalar, nodir fikrlar va shu singarilar serqirra shishaga qiyos — ular yozuvchilarning asarlarida sochilib yotgan aql, bilim yog`dularini bir yerga jamlaydi va bu yog`dularni o`quvchi ongida o`zgacha kuch va jonli tarzda mujassamlashtirib beradi.

J. SVIFT

Ayrim fikrlar bir yerga jamlangan nur oqimidek odamni u qadar charchatmaydi.

P. BAUST

Aforizmlar — falsafiy mushohadalarni ifodalashning deyarli eng qulay shaklidir.

L. N. TOLSTOY

Axloq uzundan-uzun gap, nasihatgo`ylikdan ko`ra ixchamgina hikmatli so`zlarda yaxshi ifodalanadi.

K. IMMERMANN

Aforizmlar hayot daraxtida yetilgan mevadek bo`lishi kerak.

J. NIZAR

Aforizmlar — ixcham shakldagi donolik, fikr va tuyg`ular javhari.

U. OLJER

Maqollar ulkan ma`noning uch-to`rt og`iz so`z bilan ifodalangan shaklidir.

T. FULLER

Jamiki hikmatli so`zlarda tugallik ma`lum darajada qisqa ifoda shakliga qurbon beriladi.

S. JONSON

Aql fikrning bir tutamgina nuri va yog`dusini to`plab olib, shu beozor lazzatni hamma narsani sistemaga solish va hamma narsani muhokama qilish kasali bilan xarob etmagani holda undan zavqlangan ma`qul.

A. FRANS

Shunday fikrlar borki, ularni benihoya keng ma`noda qo`llash mumkin; shu sababdan bunday fikrlar

qanchalik ko'pchilikka mos shaklda ifodalangan bo'lsa, aql va yurakka shunchalik ko'p oziq beradi, ular shu darajada chuqur his etilgan fikrlar bo'lib chiqadi.

L. N. TOLSTOY

Axloqiy aforizmlar ma'naviyatdagi mustahkam negizlarni, inson faoliyati va ongidagi sabr-bardosh asoslarini belgilab beruvchi hayotiy majburiyatlarni, turmush donishmandligi, nuqtai nazarlarni qisqa shaklda bayon etadi.

GEGEL

Klassiklardan o'rganish ajoyib natija beradi, darvoqe, ularda hammavaqt nimadir uchraydiki, u miyanga qattiq o'rnashib qoladi, qon va jismingga o'tadi.

Ya. KOMENSKIY

Mutafakkirlarning fikrlari bilan tanishish miya uchun tengsiz mashq: aqlga aql qo'shadi va fikrni charxlaydi.

I. GERDER

Muxtasar ifodalangan o'tkir fikrlar hayotni yaxshilashga ko'p xizmat qiladi.

SITSERON

Teran fikrlar — aqlga o'rnashgan po'lat mixdek, ularni sug'urib bo'lmaydi.

D. DIDRO

So'zlar — asrga, fikrlar esa asrlarga tatiydi.

N. M. KARAMZIN

Lo'nda hikmatli so'zlar kishilarning miyasiga singib qoladi, ildiz otib, gullaydi, hosil beradi va hamisha ta'sir ko'rsatib boradi.

F. BODENSHTEDT

Fikr, va hikmatli so'zlar, xonani bezab turgan gul singari ko'ngilni bezaydi.

E. KAPIYEV

Go'zal tashbehtar go'zal fikrga yarashib, uni avaylab turadi.

V. GYUGO

Hikmatli so'z kitoblari aqlning mustaqil faoliyatiga nafaqat tazyiq o'tkazadi, aksincha, mustaqil faoliyatga chorlaydi.

L. N. TOLSTOY

Lo'nda fikrlarning afzalligi shundaki, ular jiddiy kitobxonni o'zicha o'ylashga majbur etadi.

L. N. TOLSTOY

Aksari hollarda yoshlarning men birovning aqli bilan yashamayman, degan gaplarini eshitasan. O'ylab ko'rilganlarni o'ylab o'tirish senga ne hojat? Tayyorini olib, olg'a ketaver. Insoniyatning qudrati shunda.

L. N. TOLSTOY

O'zi bilan o'zi o'ralashib, hech kimni tan olmay qo'yganlarga ta'na bo'lmasin, yaxshi fikr qaerdan

olinganidan qat'iy nazar, o'zingning nodon fikringdan ko'ra afzalroqdir.

F. LAMOTLEVAYYE

Men, ayniqsa, ziddiyatli hodisalarga sinchkovligimni uyg'otuvchi va o'sha ziddiyatlarni hal etib beruvchi har turli ixcham hikmatli so'zlarni qadrlayman.

I. GYOTE

Aqlli odam doimo buyuk kishilar sinovidan o'tgan yo'lni tanlashi va eng ajoyib shaxslarga taqlid qilishi kerak, chunki u mabodo o'sha buyuklik darajasiga ko'tarilolmagan taqdirda ham har nechuk qittay bo'lsada, uning yogdusini emadi.

N. MAKIAVELLI

## Vatan va vatanparvarlik haqida

Cho'lda o'rmalab yurgan jonivorlar ham tug'ilshidanoq o'z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryolardagi baliqlar ham o'z oshyonlarini his qiladilar, hatto bolari va shunga o'xshashlar ham o'z uyalarini muhofaza qiladilar,— shuning kabi odamlar ham qaerda tug'ilib parvarish topsalar,— o'sha joyga cheksiz mehr qo'ygan bo'ladilar.

F. SKORINA

Vatanparvarlik — yolgiz o'z vataniga mehr qo'yishdan iboratgina emas. Bu juda katta his... Bu — vatan bilan o'zini bir butun deb bilish, uning yaxshi-yomon kunlarida asqatish demakdir.

A. N. TOLSTOY

Kim xalq bilan uning qayg'usini bab-baravar bo'lishib olmasa, uning shodlpk bayramida o'zini xo'rlangan his etishi shubhasizdir.

L. M. LEONOV

Kimki umumiy falokat daqiqalarida vatan xaloskorligidan boshqa biron-bir xayolga borsa, — ozod davlatda yashagaga haqlga emas.

F. KLINGER

Inson hammadan avval o'z mamlakatining farzandi, vatan manfaatlarini diliga jo qilgan grajdanindir.

V. G. VELINSKIY

Saxovatning eng buyuk jasurliklari vatanga muhabbat tufayli yuzaga kelgan.

J.J. RUSSO

Vatanparvar — o'z vatani kamoloti yo'lida, o'z xalqiga muhabbati tufayli ezguliklari tugul, jonini ham ayamaydigan insondir, xalqqa va vatani ozodligi, farovonligi uchun o'zini qurbon qiluvchi insondir.

M. OXUNDOV

Vatanparvarlikning tarbiyaviy ahamiyati juda katta, bu kishini bashariyat haqidagi g'oyalar bilagt ulg'aytiradigan maktabdir.

M. Ye. SALTIKOV-SHCHEDRIN

Vatan g'oyasi hamma uchun bir xil manfaatlidir. U halol kishilarda jasorat haqida fggkr uyg'otadi, nopok kishilarni esa, agar vatan g'oyasi bo'lmaganda qplishlari aniq bo'lgan ko'pgina qabihliklardan saqlaydi.

M. Ye. SALTIKOV-SHCHEDRIN

Vatan g'oyasi shonli yillarda ham, kundalik hayotda ham uning farzandlariga birdek xos bo'lmog'i zarur, binobarin, bu g'oyani chinakam his etgandagina kishi o'zini grajdan deya hisoblashga haqlidir.

M. Ye. SALT IKOV-SHCHEDRIN

Vatanparvarlik tantanavor xitoblar va umumiy gaplardan iborat emas, balki u vatanga qizgin muhabbat hissi bilan ortiqcha dabdabalarsiz o'z fikrini bildirish, faqat ezgulikda hayratlanmay, balki muqarrar har qaerda, har qanday vatanda ham bo'ladigan yovuzlikni jinidan battar yomon ko'rish demakdir.

V. G. BELINSKIY

Kim bo'lishdan qat'iy nazar, uning vatanparvarligi so'zi bilan emas, ishi bilan isbot qilinadi.

V. G. BELINSKIY

Vatan oldidagi burch inson uchun muqaddasdir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Vatanga nafi yo'q yashalgan har kun, inson hayotida qolur bemazmun.

M. SALMON

Vatan uchun chala ish qilish, uning uchun hech nima qilmaslikdir.

M. ROBESPVER

Olimaqom vatanparvarlik — vatan farovonligi yo'lida benihoya jonbozlikdir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Vatanga muhabbat mavhum tushuncha bo'lmay, tashkilotchilikni, taraqqiyot va madaniyatni talab qiladigan real ruhiy qudratdir.

A. N. TOLSTOY

Sof vijdonli kishida vatanparvarlik o'z vatatti foydasiga mehnat qilish inttiyoqidan bosh-qanarsa bo'lmasligi kerak va bu boshqa biron narsadan emas, balki iloji boricha ko'p va xo'b ezgu ishlar qilish istagidan kelib chiqadi.

N. A. DOBROLYUBOV

Vatanga muhabbat, avvalo, unga samimiyat, qizg'inlik bilan, samarali istak bilan ezgulik va ma'rifat tilashdan iboratdir, uning mehrobiga hamma narsani, shirin jonni ham fido etish, undagi barcha yaxshi narsalarga qizgin hamdardlik bildirish hamda uning kamolot yo'luga g'ov tushayotgan narsalarga qahriltg bo'lmoqlikdir.

N. A. NEKRASOV

Vatanparvar — vatanga xizmat qilayotgan kishidir, vatan esa bu avvalambor xalqdir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Vatanparvarlik — nomusli va nazokatli tuyg'udir... Muqaddas so'zlarni ehtiyot qil, vatanga muhabbat xususida duch kelgan joyda og'iz ko'pirtirma. Yaxshisi — uning farovonligi va qudrati yo'lida indamaygina mehnat qil.

V. A. SUXOMLINSKIY

Yaqin-yaqinlarda ham vatanparvarlik vatandagi barcha yaxshi narsalarni madh etishdan iborat edi; vatanparvar bo'lmoq uchun endi bu narsalar kifoya qilmaydi. Chunonchi, barcha yaxshi narsalarni madh etishga hali bizda mavjud bo'lgan bema'niliklarni ayovsiz fosh qilish va ta'qib etish ham qo'shilgan.

Ya. A. DOBROLYUBOV

Xalq farovonligi yo'lida har turli usullarni axtarmoq va iloji boricha vatanga zarar yetkazadigan illatlarga barham bermoq kerak.

I. A. KRILOV

Vatanparvarlik bizni mahliyo qilib qo'ymasligi kerak; vatanga muhabbat ko'r-ko'rona ehtiros emas,

balki dono aql faoliyatidir.

M. KARAMZIN

Har kimning hayoti vatanga tegishlidir, binobarin, abjirlik emas, balki rasmana dovtoraklik unga foyda keltiradi.

NAXIMOV

Eng yoqimli va dolzarb ishlar ham vatanga xavf soluvchi xatar oldida nari surib qo'yiladi.

L. M. LEONOV

Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrabolar qimmatlidirlar; lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» otli so'zda mujassamlashgandir. Vatanga nafi tekkudek bo'lsa, —axir qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilanar ekan?

SITSERON

Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi.

G. GEGEL

Eng maqbul fazilat — vatanga va odamzodga ko'rsatilgan xizmatda.

J. DELIL

Agar hayot go'zalligi haqida so'z boradigan bo'lsa, vatan uchun kurashda fidokorlik ko'rsata bilish go'zal hayotnigp eng yuksak namunasidir.

M. I. KALININ

Vatandan tashqarida baxt yo'q, har kim jonajon yerida ildiz otsin.

I. S. TURGENEV

Begona yurt vatan bo'la olmaydi.

I. GYOTE

Vatan tarkin bir nafas aylama,  
Yana ranji g'urbat havas aylama.

A. NAVOIY

Elga qo'shulg'on esh topti.

A. NAVOIY

O'zingni vatanga qanchalar yaqin his etsang, uni shu qadar jonli vujud kabi aniqroq va sevibroq tasavvur qilasan.

BLOK

Har kimning qalbida o'z xalqining jajji qiyofasi yashaydi.

FREYTAG

Harqalay, eng muhimi vatanga muhabbating, muhabbating va yana muhabbatingdir! Binobarin, shu muhabbat senga kuch-quvvat beradi qolgan hammasini ham osongina hal qilasan.

M. Ye. SALTIKOV-SHCHEDRIN



Vatan sog'inchi hammaga bir xilda ta'sir qiladi: u o'tmish manzaralarini ideallashtirilgan holda jilolantiradi, uning fazilatlari oshaveradi, kamchiliklari esa vaqt va masofa taqozosi bilan xiralashib boraveradi, oxiri tasavvurimizdan butkul o'chib yo'qoladi.

J. SAND

Faqat hamiyatsiz odamlargina vatan tuyg'usining go'zal va yuksakligini his etolmaydilar.

I. P. PAVLOV

Kim o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.

J. BAYRON

Kimda o'z yurtiga bo'lmasa mehr.  
U qalban shikasta u qalban majruh.

T. SHEVCHENKO

Kim o'z vataniga daxldor bo'lmasa, u insoniyatga ham daxldor emas.

V. G. BELINSKIY

O'z yurtidan yuz o'girganlar o'z vijdonlaridag ham yuz o'giradilar.

Ya. GALAN

Kim vatanni xor qilsa — u oilasidan ham ayriladi.

KORNEL

O'z vataniga dog' tushirish — uni sotttsh degan so'z.

V. GYUGO

Shunday jinoyat borki, uni oqlab bo'lmaydi,— bu vatanga xiyonatdir.

BUAST

Vatanga xiyonat qilmoq uchun qalban g'oyatda tuban bo'lmoq kerak.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Sotqinni hech kimga va hech narsaga solishtirib bo'lmaydi. Menimcha, hatto terlama biti ham sotqinga qiyoslansa, haqoratlangan bo'lur edi.

M. GORKIY

Hayvonlar to'dasi deb hisoblanishi mumkin bo'lgan xalq tarixda yo'q va xuddi shuningdek, alohida e'tiborga sazovor guruhlardan iborat xalq ham bo'lishi mumkin emas.

A. I. GERTSEN

Dunyodagi barcha xalqlar har jihatdan ham teppa-teng: biri ikkinchisidan ortiq emas.

G. LESSING

Haqiqiy sof vijdonli kishi o'zidan — oilani, oiladan — vatanni, vatandan — insoniyatni ustun qo'ymog'i kerak.

J. DALAMBER

Insonning oyog'i o'z yurti zaminiga tomir otishi kerak, lekin uning nigohi butun dunyoni kuzatsin.

## J. SANTAYANA

Vatanga muhabbat butun dunyoga muhabbat bilan uyg'unlashib ketadi. Bilim nuridan bahramand bo'lgai xalq, bu bilan yonberidagi qo'shnilariga ziyon keltirmaydi. Aksincha, davlatlar qanchalik ma'rifatli bo'lishsa, bir-birlari bilan til topishib, yanada qudratliroq kuchga aylanadilar, olamshumul tafakkur yanada ravnaq topadi.

## K. GELVESIN

Vatanga bo'lgan muhabbatim meni xorijiyar yutug'idan ko'z yumishga majbur qplmaydi. Aksincha, vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo'lsa, vatanimni jahondagi g'aznalar bilan yana-da shunchalik boyitgim keladi.

## F. VOLTER

O'zlikdan kechmang, lekin o'zgalardan ham arzirli narsalarni o'rganishga odatlaning.

## T. G. SHEVCHENKO

## Axloqning asosiy prinsiplari xususida

Millatning muhim boyligi — xalqning ma'naviy qiyofasidir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Davlatning qadr-qimmatini oxir-oqibat uni tashkil qilgan shaxslar qadr-qimmatiga bog'liq.

J. MILL

Hayotdan uzib olingan axloq har qanday axloqiy mohiyatni yo'qotgan hayot yanglig axloqsizdir.

V. G. PLEXANOV

Taraqqiyotning chinakam belgisi — boylik yoki ta'lim darajasi emas, shaharning kattaligi emas, hosilning mo'l-ko'lligi ham emas, balki shu o'lka bag'rida tarbiya topgan inson qiyofasidir.

R. EMERSON

Odamlarga inson tabiati, tajribasi, idrokiga asoslangan insoniy axloq kerak.

K. GELVETSIY

Tabiat inson qo'lga qurol — intellektual axloqiy kuch-qudratni berdi, lekin u bu qurolni aks tomonga xizmat qildirishi ham mumkin, binobarin, axloqiy e'tiqodi, jinsiy va did instinktlari pastkash bo'lgan odam eng nopok va vahshiy kimsaga aylanib qoladi.

ARASTU

Inson uchun xizmat qilmagan tafakkur nihoyatda dahshatlidir.

SOFOKL

Madaniy vahshiylik — barcha vahshiyliklardan yomonroqdir.

K. VEBER

Sivilizatsiya so'zini tom ma'nosi ehtiyojlarning kuchayishi emas, balki o'z xohishlarini ixtiyoriy va yaxshi o'ylagan holda tiyishdan iboratdir.

M. GANDI

Yaxshi kishilar yuksak axloqiy yetuklik va yuksak axloqiy obro' bilan ajralib turadilar.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Insonning axloqiy tabiati uning jismoniy tabiatidan shu bilan ajralib turadiki, unda hech qanday absolyutlik yo'q: yurish-turish biron-bir hodisa tufayli yuzaga chiqadigan xarakterlar yoki g'oyalar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'ladi.

O. BALZAK

Donoga aqlsiz barcha axloqiy qoidalar behudadir.

N. I. PIROGOV

Avvalo yaxshi axloqni, keyin donishmandlikni o'rgan, chunki axloqli bo'lmay turib, donishmand bo'lish amri mahol.

SENEKA

Vaqt, mehnat, halollik, bilim, o'zni qo'lga olib bilish, kishining jismoniy, aqliy va axloqiy qudrati — har

qanday boylikning sababchisi mana shulardir.

K. D. USHINSKIY

Kishi o'zini yaxshilik haqidagi va'zga emas, ezgu ishlar va fazilalarga o'rgatmog'i kerak.

DEMOKRIT

Inson qanday bo'lishi haqida qachongacha jar solish mumkin, inson bo'lish vaqti ham kelgandir.

MARK AVRELIY

Olijanoblik qanday bo'lishini bilish uchun emas, balki yaxshi inson bo'lish maqsadida fikr yuritishimiz lozim.

ARASTU

Olijanoblik haqida muhokama yurgizish, bu hali olijanoblikni bildirmaydi, xuddi shuningdek, odillik haqida o'ylashning o'zi ham amalda odil bo'lish degan gap emas.

ARASTU

Axloqli kishi hatto o'z hayotidan ayrilgan taqdirida ham do'stlari va vatani uchun ko'p ishlarni qiladi.

ARASTU

Axloqiy fazilatlar odamning niyatida aks etadi.

ARASTU

Jinoiy xohishlar — bu badbaxtlikdir. Nopoklik bilan nimanidir qo'lga kiritganingdan ko'ra, istaganingga yetisholmaganing ham tuzuk.

SITSERON

Bir o'zing xoli qolganda ham badxoh ishga qo'l urma, yomon so'z aytma. Boshqalarga qaraganda o'z-o'zingdan ko'proq istihola qilishni o'rgan.

DEMOKRIT

Uyatli ish qiluvchi avvalo o'zidan uyalishi kerak.

DEMOKRIT

Insonning ma'naviy qiyofasi haqida hukm chiqarganda uning ayrim jonbozliklarini emas, kundalik hayotini hisobga olish darkor.

B. PASKAL

Ma'naviylik fe'l-atvorda mujassam bo'lmog'i kerak.

I. KANT

Qaerda ulug'vor ma'naviy qiyofa bo'lmasa, u yerda ulug' odam ham yo'q.

R. ROLLAN

Kishi qanchalik aqliy va axloqiy kamol topgan bo'lsa, u o'zini shuchalik ozod his qiladi, unga hayot shunchalik kulib boqadi.

A. P. CHEXOV

O'rinli, axloqli va adolatli yashamay turib, yaxshi umr kechirib bo'lmaydi va aksincha, yaxshi umr

kechirmay turib, o'rinli, axloqli va adolatli yashab bo'lmaydi.

EPIKUR

Aqliy halovatga axloqiy fazilatlar tufayli erishiladi.

D. I. PISAREV

Inson axloqsizlikdan huzur-halovat topishi mumkin emas; faqat axloq va yaxshilik bilangina u oliy huzur-halovatga yetishadi.

A. I. GERTSEN

Idroklilik va axloqiylik hamisha bir-biriga muvofiq keladi.

L. N. TOLSTOY

Nimaki go'zal ekan — u axloqiydir.

G. FLOBER

Axloqli inson Anteyning aksidir: u jismi yerga tekkanda emas, balki erishib bo'lmaz darajada tuyulgan olis samodagi idealga ko'z tikib kuchga to'ladi.

A. FULE

## Jamiyat va shaxs

Inson insonga har jihatdan zarur.

T. G. SHEVCHENKO

Kishi ko'pgina narsalarsiz ham yashay oladi, lekin tanholikda yashay olmaydi.

L. BERNE

Biri mahv bo'layotgan joyda ikki kishi birlashib biri-birini qutqarishi mumkin.

O. BALZAK

Kishi jamiyatda yashash uchun yaralgan; uni jamiyatdan ajratib, yakkalab qo'ysangiz —fikrlari ham almoysi-aljoyi bo'lib qoladi, xarakteri yomonlashadi, yuragida yuzlab noraso ehtiroslar tug'iladi, xuddi cho'lda o'sgan yovvoyi tog'olcha singari miyasida bema'ni g'oyalar tomir yoyadi.

D DIDRO

Kishi odamlarning do'sti bo'lmog'i kerak,— o'zida va ularda mavjud fazilatlarning bari uchun u odamlardan qarzdordir.

M. GORKIY

Kishi jamiyat uchun yaralgan. U bir o'zi yashashga layoqatli emas va bir o'zi yashashga jur'ati yetmaydi.

U. BLEKSTOUN

Kishi uzlatda yashay olmaydi, unga jamoat kerak.

I. GYOTE

Sen qanchalik istaganingda ham, odamzod turmushidan o'z hayotingni ajratib ololmaysan. Sen u bilan bir jonu bir tansan. Oyoq, qo'l-ko'z singari biz o'zaro aloqa uchun yaralganmiz.

MARK AVRELIY

Odam tabiatan ijtimoiy mavjudotdir.

ARASTU

Tarix davomida hammavaqt va hamma joyda insonni xalq yaratgan.

M. GORKIY

Jamiyatsiz inson o'zida kamolotga yetishish istagining ojizligi bilan g'arib bir holga tushgan bo'lardi. Lekin hammadan ham muhimi — bizning kamolotimiz jamiyatsiz deyarli maqsadsiz bo'lur edi.

U. GODVIN

Faqat odamlar orasidagina kishi o'z-o'zini anglashga qodir.

I. GYOTE

Inson odamlar orasidagina odam bo'la oladi.

I. VEXER

Muloqot kishini go'zallashtirib, unga ulug'vorlik baxsh etadi; jamoat ichida odam har qanday soxtagarchilikni yig'ishtirib qo'yib, o'zini beixtiyor boshqacha tutadi.

L. FEYERBAX

Yakka odam uzlatda qolgan Robinzon singari ojizdir; faqat boshqalar bilan hamkorlikdagina u ko'p ishlarni qila olishi mumkin.

A. SHOPENGAUER

Kishining tanho qolishi, ayniqsa, u yakka o'zi ishlasa behad yomon; agar u biron-bir narsaga erishmoqchi bo'lsa, unga ham-dardlik va ma'naviy yordam kerak.

I. GYOTE

Kishi agar faqat o'z-o'zi bilan yashashga majbur bo'lsa va faqat o'zi haqida o'ylasa, u behad azob chekishi muqarrar.

B. PASKAL

Yerdan sug'urib olinib, qumli sahroga tashlang'an giyoh halok bo'lganidek, shaxs baxti ham jamiyatdan tashqarida bo'lmaydi.

A. N. TOLSTOY

Aynan boshqalarning xayrixohligidan bahra topg'an holdagina hayot nash'ali bo'ladi.

I. GYOTE

Agar odamlar senga xalaqit bersalar, u holda sen uchun yashashning ma'nosi qolmaydi. Odamlardan uzoqlashish esa o'z-zini o'ldirish bilan teng.

L. N. TOLSTOY

Ko'pchilikdan ayrilib, o'zini tan olinmagan iste'dod yoki olimaqom daho hisoblovchilarning holiga voy. Jamoa hamisha kishining martabasini ulug' qiladi va hayotini mustahkam izga soladi.

N. A. OSTROVSKIY

Shaxsiyatparastlik — oshkora ojizlikdir.

M. M. PRISHVIN

Shaxsiyatparastlik yoki o'zicha jamiyatdan ayrilib qolish, bizning tasavvurimizcha, o'z-o'zini o'ldirishdek bema'nilikdir.

A. N. TOLSTOY

Kim, boshqa odamlarsiz kunimni o'tkaza olaman, desa xato qiladi, lekin kimki odamlarga mensiz qiyin bo'ladi, deb o'ylasa, undan battar xato qiladi.

F. LAROSHFUKO

Kishi qanchalik iste'dodli bo'lmasin, baribir kollektiv hamisha donoroq va qudratliroqdir.

N. A. OSTROVSKIY

Tanholik bir me'yordagi qon aylanishiga muhtoj sog'lom organizmga muvofiq kelmaydi. Kollektiv bilan birlashib ketishni o'rganish kerak, bu esa o'zlikni asrab qolishga xalal bermaydi.

R. ROLLAN

Kollektiv — qandaydir notayin to'da emas. U o'z shaxsiyatiga ega kishilarni birlashtirgan boy xazinadir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Kollektivning tarbiyaviy kuchi haqida g'amxo'rlik qilish — bu kollektivdagi har bir kishining ma'naviy boyligi va kamoloti haqida, o'zaro munosabatlarning boyishi haqida qayg'urishdan boshqa narsa emas.

V. A. SUXOMLINSKIY

Shaxs kollektiv bilan qo'shilib o'zligini yo'qotmaydi. Aksincha, u kollektivda ma'naviyat va kamolotning gultojiga aylanadi.

A. BARBYUS

Jamiyat boyligi uni tashkil etgan shaxslarning rango-rangligidan tarkib topadi, chunki tarbiyaning oliy maqsadi — insonning o'zi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Har qanday kishi ham odamlardan o'zini ajratadigan emas, balki ularga bog'laydigan ishlarni qilish zarurligini biladi.

L. N. TOLSTOY

Boshqa odamlardan o'zini ayirgan odam o'z baxtiga zomin bo'ladi, chunki o'zini qanchalik ayirsa, hayoti shunchalik yomonlashadi.

L. N. TOLSTOY

Biz hayotimizning har bir soniyasida boshqa odamlardan bizni nima ayirayotganini emas, balki ular bilan bizni nima uyg'unlashtirayotganini qidirishimiz lozim.

J. RESKIN

Ayrim kishining yoxud ayrim millatning farovonligi barcha uchun mushtarak farovonlik bilan uzviy bogliq.

A. BARBYUS

Umum farovonligi uchun xizmat qilish istagi qalbning zaruriy ehtiyojiga, shaxsiy baxt shart-sharoitiga aylanishi kerak.

A. P. CHEXOV

Inson ijtimoiy, davlat manfaatlariga qanchalik keng naf keltirsa, u shunchalik kamolotga yetishgan bo'ladi.

D. I. MENDELEYEV

Boshqalarga yorqin nur bo'lish, o'zingga ham nur taratishing — inson erishishi mumkin bo'lgan oliy baxt shudir. Shundagina inson azobdan ham, og'riqdan ham, g'amdan ham, muhtojlikdan ham qo'rqmaydi. Shundagina u hayotni chinakamiga sevishni endigina o'rgangan bo'lishiga qaramay, o'limdan ham qo'rqmaydi.

F. E. DZERJINSKIY

Xalq uchun mehnat qilish — kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir.

V. GYUGO

Agar kishi faqat o'zi uchun mehnat qilsa, ehtimol, u mashhur olim, buyuk donishmand, ajoyib shoir



bo'lishi mumkin, lekin hech qachon tom ma'nodagi kamolotga erishgan ulug' inson bo'lolmaydi.

K. MARKS

Kimning qalbi hamma uchun tepayotgan bo'lsa, u odam chinakam buyukdir.

R. ROLLAN

Baxtimiz mukammal bo'lishi uchun atrofimizdagi odamlarning xayrixohligi va yordamiga muhtojmiz, atrofimizdagi odamlar esa biz ularning baxti yo'lida ter to'kishga qay darajada tayyor tursak, ular ham shu darajada bizni sevish va hurmat qilish, rejalarimizda yordamlashish, bizning baxtimiz yo'lida ter to'kishga rozi bo'ladilar, bu zaruriy aloqani ma'naviy burch, ma'naviy vazifa deb ataydilar.

P. GOLBAX

## Inson - olam bezagi

Men uchun insondan qimmatliroq biron-bir kitobiy haqiqat yo`q. Inson demak o`ziga butun bir olamni olib yuradigan jonu jahondir va u abadul-abad yashasin.

M. GORKIY

Hayotimning eng mushkul damlarida ham, eng og`ir daqiqalarida ham qalbm: «Yashasin inson!» — degan gimnni kuylagan.

M. GORKIY

Yerdagi jamiki go`zal narsalar – oftobdan va barcha yaxshi narsalar – insondan.

M.M.PRISHVIN

Olam ulug` kishilarga boy. Axir har bir qishloq, har bir shahar, har bir o`lka o`z buyuk kishiga ega emasmi?

K.BOUVI

Men insonman degan ulug` fikrla, hamisha ko`ksimni tutaman baland.

V. A. JUKOVSKIY

Inson — butun bir olam, faqat undagi asosiy tuyg`u olijanoblik bo`lsa bas.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Inson qanchalar ajoyib, agar u chinakam inson bo`lsa.

MENANDR

Olim, shoir, jangchi-yu, qonunshunos va hokazo bo`lish yaxshi, lekin shular barobarida inson bo`lmaslik yomon.

V. G. BELINSKIY

Kishining haqiqiy inson bo`lmoqlikdan boshqa maqsadi bo`lishi mumkin emas.

L. SHEFER

Hamisha qahramon bo`lish mumkin emasdir, lekin hamisha inson bo`lib qolish mumkin.

I. GYOTE

Vatanini sevuvchi har bir grajdanin o`z yuragida soxtagarchilik emas — chinakam sevgi degan shiorni olib yurmog`i kerak. Ham ilmiy jihatdan, ham ax-loqiy jihatdan haqiqatga xizmat qilmoq darkor. Inson bo`lmoq darkor.

N. I. PIROGOV

Inson bo`lish — bu mas`liyat sezishingdir. O`zingga aloqasizday tuyulsa ham qashshoqlik oldida andisha qilishingdir. Do`stlaring erishgan har bir g`alabadan faxrlanishingdir, o`z g`ishtingni quya turib, dunyodagi bunyodkorlikka ko`maklashayotganingni his etishingdir.

A. SENT-EKZYUPERI

Inson bo`lish — kurashchi bo`lmoqlikdir.

I. GYOTE

Biz, faqat kurashuvchi insongina qadr-qimmatga ega bo'lgan zamonda yashamoqdamiz.

E. TELMAN

Inson ezgulikni va ulug'likni orzu qilishi kerak.

A. GUMBOLDT

Odamga buyuklar oldida ta'zim qilishgina emas, balki ulardan o'zib ketishga intilish ham xosdir.

V. I. MUXINA

Kishi bekordan-bekor quruq gavdani ko'tarib yurish uchun emas, balki ulug' va ko'lamli vazifalar ustida ishlash uchun dunyoga keladi.

L. ALBERTI

Hech bir kishi tap-tayyor holda, ya'ni keragicha shakllangan holda dunyoga kelmaydi, lekin uning hamma hayoti to'xtovsiz harakatdagi taraqqiyot, doimiy shakllanishdan boshqa narsa emas.

V. G. BELINSKIY

O'z-o'zini tarbiyalamoq uchun avvalo kishi o'zini beshafqat, xolis sudga chaqirmog'i kerak, o'z nuqsonlari, kamchiliklarini aniq va ochiq-oydin, g'ururini ayab o'tirmay, tushunib olishi va ular bilan kelisha olamanmi yoki yo'qmi, ularni ortiqcha yuk qilib bo'ynimga ilib yuramanmi yoki chetga uloqtirib tash-lashim zarurmi, degan masalani uzil-kesil hal etib olmog'i kerak.

N. A. OSTROVSKIY

O'z yo'lini topish, o'z o'rnini bilish — inson uchun eng muhimi shu, bu insonning o'zligini tanishi demakdir.

V. G. BELINSKIY

Birdan tushunib yetish va his qilish mumkin, lekin birdan inson bo'lib qolinmaydi, balki inson sifatida shakllanmoq kerak.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Eng mushkul kasbu kor inson bo'lishdir.

XOSE MARTI

Inson bo'lish — bu san'atdir.

NOVALIS

Agar sen o'zingni majbur etmasang va o'z-o'zingga talabchan bo'lmasang, yuzta o'qituvchini senga biriktirib qo'rganlarida ham bundan hech natija chiqmaydi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Bu dunyonint bir kamligini pesh qilib, o'z kamchiliklaringizga bu qadar yopishib olmang.

J. RENAR

O'zingda qandaydir ojizlikni payqab qoldingmi, soxtagarchilik va mug'ambirlikni yig'ishtirib qo'yib, tuzalish payida bo'l.

E. DELAKRUA

Xulq tuzatilishga qaraganda buzilishga moyilroq.

L. VOVENARG

G'ayrat ma'naviy kamolotning zarur shartidir.

L. N. TOLSTOY

O'zimni yomon ishdan tiyishga qurbim yetmaydi, deyish — odam o'zini odam emas, hatto hayvon ham emas, balki buyum, deb tan olishi bilan barobardir.

L. N. TOLSTOY

Kishi badantarbiya qilgani singari aql va fe'l-atvorini ham mashq orqali toblashi mumkin.

D. I. PISAREV

Badantarbiya mashqi tanani baquvvat qilsa, fikr yuritish mashqi aqlni kuchaytiradi.

A. N. RADISHCHEV

Qalbning ham xuddi tanaga o'xshab o'z badantarbiyasi bor, busiz u xarob bo'ladi, harakatsizlik loqaydligiga tushadi.

V. G. VELINSKIY

Inson dono, odmi, odil, jasur va saxovatli bo'lishi kerak. Shundagina u Inson degan yuksak unvonga loyiqdir.

K. G. PAUSTOVSKIY

## Shaxsiy munosabatlar madaniyati haqida

Turmush — aslida siyqa tushunchadir, bu tushunchani jonlantirib turish, uning mohiyatini shaxsiy munosabatlar madaniyati bilan ochib berish kerak.

M. M. PRISHVIN

Biz bir-birimizga e'tibor bilan munosabatda bo'lishni o'rganishimiz kerak, dunyoda eng ajib, eng oliy xilqat — inson ekanligini tushunmog'imiz kerak.

M. GORKIY

Kurramizdagi eng dilbar, eng ajoyib xilqat deb hisoblangan inson bilan faxrlanishni o'rganmagunimizcha, to o'sha payt kelmaguncha hayotimizdagi qa-bihlik va yolg'ondan qutula olmaymiz.

M. GORKIY

Har bir kishida yaratuvchining dono qudrati yashiringani, shuning uchun bu qudratning taraqqiy etishi, gullab-yashnashiga imkon berish lozimligini unutmagan holda bir-biringizni izzat-ikrom qiling.

M. GORKIY

Jahonda inson uchun odamlardan ko'ra g'aroyibrog'i yo'q.

V. GUMBOLDT

Ko'nglimda saqlagan durri nihonim — bu yaxshilarga nisbatan o'tli munosabatimdir.

M.M.PRISHVIN

Demokratik ta'limotlardan eng birinchisi — barcha odamlar ma'naviy go'zaldir, deya tan olishdan iboratdir.

G. CHESTERTON

Har bir kishi — butun bir kitobdir, hamma gap uni o'qiy olishda.

U. CHENNING

Biz birinchi taassurotdan keyinoq yoki ikki-uch tashqi belgi bilanoq bir-birimiz haqimizda hukm chiqara olishimiz uchun har birimizda ko'p murvatlaru g'ildiraklaru va qopqoqchalar mavjud.

A. CHEXOV

Agar odamni bir qarashdayoq butun sirru asrorini bilib olsang, unga qiziqmay qolasan. Inson imkon qadar o'zida barcha xislatlarni jamlagani holda, yana nimasi bilandir sirli tuyulmog'i kerak.

M. GORKIY

Bir qarashdayoq kishi haqida hukm chiqarish yaramaydi. Fazilatlar odatda kamtarlik qobig'i bilan o'ralgan, kamchiliklar riyokorlik niqobiga yashiringan bo'ladi.

J. LABRUYER

Kishilar haqidagi hukmimizda tasodifiy qadamlarga katta e'tibor berishdan saqlanmoq kerak. Tasodifiy ishlar bilan ojiz kishilar o'zlariga izzat-ikromlarni qaytarmoqchi, shuhratparastlar — jamiyat ko'z oldida o'zlarini azizu mukarram qilib ko'rsatmoqchi bo'ladilar.

G. TEYLOR

Odamlar hech qachon mislsiz yaxshi yoki haddan tashqari yomon bo'lmaydilar.

F. LAROSHFUKO

Kishi olijanoblighi haqida uning ahyondagi g'ayratiga qarab emas, balki kundalik ishlariga qarab baho berilishi kerak.

B. PASKAL

Ko'pincha shunday bo'ladiki, agar diqqat bilan o'rganilsa, «yomon odamlar» yaxshi chiqib, «yaxshilar» esa yutqazib qo'yadilar.

G. LIXTENBERG

Kishi haqida hukm chiqazishdan oldin loaqal uning fikr-asrori, uning baxtsizligi, uning hayajoniga sherik bo'lish kerak.

BALZAK

Kishining tashqi ko'rinishiga qarab baho berib bo'lmaydi — ko'rinishga qarab faqat taxmin qilish mumkin.

J. LABRUYER

Insonni bilish uchun uni sevish kerak.

L.FEYERBAX

Odamlar bilan ellashish va ularga yoqimli bo'lish uchun aqldan ko'ra qalb ko'proq foyda beradi.

J. LABRUYER

Kishilarni o'zgartirmoq uchun ularni sevish kerak. Ularga ta'sir o'tkazish bilan ularni sevish proporsionaldir.

I. PEST ALOSSI

Kimningdir fazilatini baholamoqchi bo'lgan odamning o'zi ham shu fazilatga yot bo'lmasin.

V. SHEKSPIR

Yaqinlarimiz qanchalik bizga o'xshagan bo'lsalar, ular shunchalik bizga xush yoqadilar; kimnidir qadrlash — bu aftidan, uni o'ziga tenglashtirishning o'zginasidir.

J. LABRUYER

Boshqaning insonligini his etgan taqdiringdagina inson bo'la olasan.

A. N. RADISHCHEV

O'zi haqida hukm chiqazishni o'rganmagan odam boshqalar haqida hukm chiqarolmaydi.

I. GYOTE

Kimki insonlikni o'zida sinab ko'rmagan ekan, u hech qachon odamlarni chuqur bilmaydi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Har bir kishi boshqalardan ajralib turadi va kundun-kunga o'zidan ham farqlanib boradi.

A. POP

Kishiga tug'ilgan joyiga qarab emas, uning ma'naviy qiyofasiga, qaysi yurtدانligiga qarab emas,

qanday nuqtai nazar bilan yashashga jazm qilganiga qarab baho beriladi.

APULEY

Kishi qanchalik dono bo'lsa, u shunchalik yangi-yangi odamlarni topadi. O'rtamiyona shaxslar ko'pchilik orasida u qadar sezilmaydi.

B. PASKAL

Birovni tushunmoq uchun o'zingni uning o'rniga qo'yib ko'rmog'ing, uning sevinchi va dardini his etmog'ing lozim.

D. I. PISAREV

Yoningdagi kishini his qila bil, uning qalbiga kir, ko'zlariga boqib, ichki olamini — shodligi, qayg'usi, baxtsizligi, g'am-alamini ko'ra bil.

V. A. SUXOMLINSKIY

O'zga odamning daxlsizligi, nozikligi, hamiyatini ehtiyot qil, aya. Odamlarga yomonlik qilma, ranjitma, dilini og'ritma, tashvish va notinchlikka qo'yma.

V. A. SUXOMLINSKIY

Butun hayot davomida insonga yengiltaklik va loqaydlik bilan qarash mumkin hisoblangan biron soniya ham bo'lmasligi kerak.

D. I. PISAREV

O'zingda ham, boshqalarda ham insoniy shaxsiyatni e'zozla.

D. I. PISAREV

Boshqalarni hurmat qilish o'z-o'zini hurmat qilishga olib keladi.

R. DEKART

Odamlarni hurmat qilish — o'zini hurmat qilishdir.

J. GOLSUORSI

Kim hech kimni sevmasa, menimcha, uni ham hech kim sevmaydi.

DEMOKRIT

Boshqalarni hurmat qilgan odamgina hurmatga loyiq.

V. A. SUXOMLINSKIY

Kimki boshqalarga nisbatan hurmat hissini yo'qotishga moyil bo'lsa, u avvalambor o'zini hurmat qilmaydi.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Hech qachon kishiga yaxshiligidan ko'ra yomonligi ko'p deya yondashmang.

M. GORKIY

Hammavaqt boshqa odamlardan yomon jihatlarni emas, yaxshi jihatlarni qidir.

L. N. TOLSTOY

Chinakam yaqinlik o'zaro muruvvat ko'rsatishdadir.

## PUBLILIIY SIR

Hech kimni xush ko'rmaydigan kishi hech kimga yoqmaydigan kishidan ko'ra ancha baxtsizroqdir.  
F. LAROSHFUKO

Bizga tashvish orttiradiganlarga ko'pincha muruvvat bilan qaraymizu, ammo tashvishimizni yeganlarning esa qadriga yetmaymiz.  
F. LAROSHFUKO

Hech kimga ziyonimiz tegmaydi, deb yuradigan odamlar aksar hollarda ko'pchilikka ziyondosh bo'ladilar.  
F. LAROSHFUKO

Tarbiyali kishilar inson shaxsini hurmat qiladilar, shuning uchun ham ular marhamatli, oqko'ngil, xushmuomalali va ko'ngilchandirlar.  
A. P. CHEXOV

Boshqalar qusrini afv eta olish yuksak kamolot belgisidir.  
G. VINKLER

Nazokat o'rinli bo'lsa, ya'ni shaxsning g'ayrati va o'z qadr-qimmatini anglab yetishi mutanosib kelsa, u yuksak insoniy fazilatlardan biriga aylanadi. Soflik, adolat va o'z qurdoshlari taqdiriga faol aralashish unga omixta bo'lib keladi.  
N. A. DOBROLYUBOV

Yaqin kishilarimizga o'zlariga munosib muomala qilib, biz ularni battar buzamiz. Agar biz ularga o'zlaridan ko'ra yaxshiroq odamlar deya yondashsak, ularni biz yanada yaxshiroq bo'lishga majbur etamiz.  
I. GYOTE

Buyuk qalblarning iste'dodi boshqa odamlardagi ulug'likni bilishdir.  
I. M. KARAMZIN

Kishini maqtash foydalidir, bu unda o'ziga hurmat hissini oshiradi, o'z ijodiy kuchlariga ishonchni kuchaytirishga yordamlashadi.  
M. GORKIY

Kishi erkalash — hech qachon ziyon keltirmaydi.  
M. GORKIY

Agar kishiga hammavaqt "cho'chqasan" deyilaversa, darhaqiqat, oxir-oqibatda u hurillab yuboradi.  
M. GORKIY

O'zingizga nisbatan ishonch hissiyotiga putur yetkazmoqchi bo'lganlardan qoching. Bu mayda odamlarga xos xususiyat. Buyuk odam, aksincha, sizning ham buyuk bo'lishingiz mumkinligiga ko'nglingizda ishonch tug'diradi.  
MARK TVEN

O'z ko'nglingni ko'tarishning eng yaxshi yo'li — kimningdir ko'nglini ko'tarishdir.



MARK TVEN

Mehnati kam kishilar boshqalarni kam maqtaydi.

PLUTARX

Odamlarga diqqat bilan razm solsangiz, hech kimni maqtamaydigan, hammani yomonlab, hech kimdan ko'ngli to'lmaydigan odamlarning o'zi ayni hech kim yoqtirmaydigan odamlar ekanini bilib olasiz.

J. LABRUYER

Agar sizni hech kim yoqtirmasa, imoningiz komil bo'lsinki — ayb sizda.

F. DODRIJ

Inson qadr-qimmatini oyoq osti qilish, o'zini juda baland olib, boshqalarni nazarga ilmaslik katta nuqsondir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Bir xil toifa kishilar o'z fuqarolarini kamsitib, buni sharaf deb bilishlari menga hamisha aql bovar qilmaydigan hol bo'lib tuyuladi.

M. GANDI

Birovni yerga ursang, bu bilan o'zing ham yerga urilasan.

B. VASHINGTON

Atrofidagilarni kamsitgan odam hech qachon buyuk bo'lolmaydi.

I.ZEYME

Odamlar birgina nurdan bunyod bo'lgan farishtalar emas, lekin ular hayvon ham emaski, og'ilxonaga haydab kiritilsa.

V. G. KOROLENKO

Hech qachon o'zing qilishing mumkin bo'lgan ishni birovga yuklab, uni tashvishga qo'yma.

L. N. TOLSTOY

O'zingni o'ylab, birovning halovatini o'g'irlash adolatdan emas.

TOMAS MOR

Boshqalarni o'zingga tenglashtirishga majbur etishdan ko'ra, o'zingni boshqalarga tenglashtirish ko'pincha oson va foydalidir.

J. LABRUYER

Odamlar bilan muomalada bo'lib, o'z foydangni emas, o'sha odamlarning foydasini o'yla, o'zing haqingda o'zing emas, sen haqingda ular nima fikr yuritishini o'yla.

L. N. TOLSTOY

Biz yordam kutgan odamlarimizning emas, balki yordam bermoqchi bo'lgan odamlarimizning xayrixohligini izlashimiz kerak.

J. LABRUYER

Odamlar bilan munosabatda ehtiyot bo'lib, eng muhimi — kulgili xushomadgo'ylikka o'tma.  
E. DELAKRUA

## Insonparvarlik haqida

Odamlar, insonparvar bo'ling! Bu sizning birinchi burchingiz.

J.J. RUSSO

Inson odamlarni sevishi kerak. Agar u odamlarni sevsa, yashashi oson bo'ladi, quvnoqroq yashaydi, chunki jahonda hech kim odamovilardek miskin umr kechirmaydi.

M. I. KALININ

Barcha kamchiliklaridan qat'iy nazar, odamlar har narsadan ham ko'ra ko'proq mehrga loyiq.

I. GYOTE

Odamlarga mehr — bu shunday qanotdirki, u bilan inson eng yuksakka parvoz qiladi.

M. GORKIY

Menimcha, inson to tirik ekan, u sevadi, agar u odamlarni sevmasa, uning nima keragi bor!

M. GORKIY

Odamning hayoti uning sahovati bilan teppateng.

R.EMERSON

Yo'qlik qa'riga ketgan xalqlar va taraqqiyotdan qolgan yagona meros — ehtimol insonparvarlikdir, bu demak — kitoblar, xalq naqlari, marmar obidalar va me'morchilik yodgorliklaridir.

L. N. TOLSTOY

El g'ussasini singurmaging maqsud et,

Bu sheva bilan oqibating mahmud et.

A. NAVOIY

Davron elining jismida ham jon bo'lg'il,

Ham jonlariga moyai darmon bo'lg'il.

A. NAVOIY

Nekim o'z qoshingda erur noravo,

Ulusqa oni ko'rma aslo ravo.

A. NAVOIY

Naf'ing agar xalqqa beshak erur,

Balki bu naf o'zingga ko'prak erur.

A. NAVOIY

Odamzodning tabiiy intilishlarini oddiygina xulosa qilib, ikki og'iz so'z bilan: «Hamma ham yaxshi yashasin», deya ifodalash mumkin.

N. A. DOBROLYUBOV

Ezgulik insonning ma'naviy olamidagi quyoshdir.

V. GYUGO

Hayotimining abadiy va oliy maqsadi – ezgulikdir. Yaxshilikni biz qanday tushunmaylik, hayotimizning

o'zi yaxshilikka intilishdan boshqa narsa emas.

L.N.TOLSTOY

Inson tani uchun sihat-salomatlik qanchalik zarur bo'lsa, qalb uchun ezgulik ham shunchalik muhim: ezguliging bo'lsa, u har ishda muvaffaqiyat keltirsa, uni sezmayсан ham.

L. N. TOLSTOY

Ulug' muhabbat teran aql bilan uzviy bog'langan; aqlning kengligi qalbning teranligiga teng. Shuning uchun ham insonparvarlik cho'qqisini buyuk qalb egalari zabt etadilar: chunki ular — buyuk aql egalari hamdirlar.

I. A. GONCHAROV

Men ezgulikdan boshqa biror afzallikni bilmayman.

L. BETXOVEN

Ezgulikni nafrat yoki, ayniqsa, adovat bilan yuzaga chiqarib bo'lmaydi. U faqat muhabbatdan tug'iladi.

J. RESKIN

Inson qanchalik dono va saxovatli bo'lsa, u kishilardagi yaxshilikni shunchalik ko'proq payqaydi.

B. PASKAL

Baxtli onlarimizda biz hamisha saxovatlimiz, lekin yaxshilik qilganimizda hamisha ham baxtiyor bo'lavermaymiz.

O. UAYLD

Kim chinakam qalb egasi bo'lmasa, u ezgulik qilishga qodir emas: faqat xushfe'l bo'la olishi mumkin.

N. SHAMFOR

Ezgulik — hech eskirmaydigan birdan-bir libosdir.

G. TORO

Yaxshilik — ko'p bo'lsa ham zarar keltirmaydigan fazilatdir.

J. GOLSUORSI

Ezgulik — shunday bir lisonki, u orqali soqovlar tilga kirib, karlar eshitishi mumkin.

K. BOUVI

Biror-bir kimsaga yaxshilik qilsang, shuni bilki, sening saxovatingdan u behad shod bo'lgani kabi, senga ham shunchalik zavq nasib etadi.

QOBUS

Boshqalarga shodlik ato etish — eng noyob shodlikdir.

J. LABRUYER

Yaxshilik qilgan chog'ingda ko'ksing qandaydir tog'dek ko'tarilib, qonuniy g'ururlanasan, sof vijdonli odamdagina shunday bo'ladi.

M. MONTEN

Birovgga qilingan yaxshilik kishinn shunisi bilan rom etadiki, u shafaqqa o'xshab oxiri o'chib ketmaydi,

qaytaga yanada yorqinlashib o'zimizga qaytib keladi.

V. GYUGO

Boshiga kulfat tushgan odamga yaxshi so'z bilan tasalli berish — ko'pincha temir yo'ldagi ko'rsatkichni vaqtida to'g'rilab qo'yishdek muhimdir: ravon va xavfsiz hayot yo'lini atigi bir qarichgina masofa ajratib turadi.

G. BICHER

Boshqalarni deb jon kuydirib yurgan kishi o'zining adolat uchun kurashayotganiga qat'iyon ishonadi; o'zi uchun nimanidir tilagan odam esa xuddi gadoydek orlanib, uyatga qoladi.

J. LABRUYER

Yaxshilik qilish har qanday yuksaklik sari tashlangan qadamdir; ezgulik qilmasang, bir kunmas-bir kun tubanlik seni o'z qa'riga tortadi, yaxshilik o'rniga yomonlik qilasan.

J.RESKIN.

Qaysidir bir odamning muayyan baxtsizligiga sherik bo'la olgan kishigina ko'pchilik g'amini ham his qila oladi.

F. E. DZERJINSKIY

Vatanning shodligi va qayg'usini ko'ngliga yaqin olgan kishi har qanaday odamning qayg'u va shodligiga ham befarq qaray olmaydi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Ayrim kishilarning qalbi suvqog'ozga o'xshaydi: yaqin kishilarining ko'z yoshi ularga singmay, dumalab tushib ketaveradi.

P. A. VYAZEMSKIY

Yaxshilik qilishni biladigan odam emas, bировga yomonlikni ravo ko'rmaydigan kishi saxovat egasidir.

V. O. KLUCHEVSKIY

Ezgu ish mashaqqat mahsuli, lekin bu bir necha bor takrorlansa ko'nikmaga aylanadi.

L. N. TOLSTOY

Haqiqiy insonparvarlik eng avvalo adolatdir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Payti kelganda qattiqqo'l bo'lishga qurbi yetadigan odamgina ezguligi uchun maqtovga sazovardir: aks holda, irodaning bo'shligi yoki faolsizligidan kelib chiqadigan muloyimlik ham ezgulik bo'lib tuyulishi mumkin.

F. LAROSHFUKO

Shunday odamlar borki, ularga odamday muomala qila boshlasang, maxluqqa aylanib ketadilar.

V. O. KLUCHEVSKIY

Ezgulik — ilm emas, u faoliyatdir.

R. ROLLAN

O'ylagan ishing yaxshilikka olib kelmasa, barcha ezgu orzularing behudadir.

J. JUBER

Ko'rsatma bo'yicha qilingan yaxshilik — yaxshilik emas.

I. S. TURGENEV

Majburan qilingan yaxshilikning qimmati yo'q.

D. I. PISAREV

Yasama ezgulikdan yomoni yo'q. Oshkora yomonlikdan ko'ra odam yasama ezgulikdan ko'proq nafratlanadi.

L. N. TOLSTOY

Saxiylik ko'p ehson berishda emas, balki uni o'z vaqtida berishdadir.

J. LABRUYER

Kimki yaxshilik qilaman deb haddan tashqari uzoq muhokama yuritsa, yaxshilik qilishga vaqti qolmaydi.

R. TAGOR

Ezgu ishni hech qachon keyinga qoldirmaslik kerak: har qanday paysalga solish bema'nilik va ko'pincha xavflidir.

M. SERVANTES

## Jismoniy va ma'naviy go'zallik xususida

Ro'yi zaminda biz uchun eng maroqlisi — inson chehrasidir.

G. LIXTENBERG

Chehra — qalb ko'zgusidir.

M. GORKIY

Inson chehrasi hamisha uning ichki olamini aks ettiradi, shu sababli, fikr yuzda aks etmaydi, deb o'ylash xatodir.

V. GYUGO

Inson chehrasi uning tiliga nisbatan ko'p va qiziqroq narsalarni aytib berigshi mumkin: til faqat inson fikrlarini bayon etsa, chehra — fikr mohiyatini ko'rsatadi.

A. SHOPENGAUER

Go'zallik — haqiqiy baxt-saodat va rasmana qahramonlik bo'lib, u balandparvoz so'zlarga muhtoj emas.

V. RAABE

Go'zal chehra o'z nomi bilan go'zal.

F. BEKON

Chehrasi ochiq kishining qalbi ham ochiq.

F. SHILLER

Go'zallik har yerda intiq kutilgan mehmondir.

I. GYOTE

Go'zallik butun olamni qalbga olib kiradigan kuch va iste'dodga ega.

M. SERVANTES

Aql uchun sog'lom fikr lozim bo'lganidek, tanaga , nafislik kerak.

F. LAROSHFUKO

Ma'naviy fazilatlar husnni oshiradi, lekin bizning zamonda fazilatsiz go'zallik qalb uchun emas, faqat ko'z uchun kerak.

V. G. BELINSKIY

Go'zallik ba'zi xislat va belgilardan iborat emas, balki umumiy qiyofada va unda hayot mohiyati qay daraja aks etishidadir.

N. A. DOBROLYUBOV

Yaxshi, dilkash odamni ko'zidan ham bilsa bo'ladi.

MARK AVRELIY

Dil go'zalligi bilan yo'g'rilmagan hech qanday tashqi husn mukammal bo'la olmaydi.

V. GYUGO

Ma'nosiz joyda go'zallik bo'lishi mumkin emas.

E. L. BULE

Tashqi go'zallik o'zining pinhoniychki olami bilan yanada qimmatlidir. Kitob muqovasi zarhalli bo'libgina qolmay, ichidagi mazmuni ham oltinga teng bo'lsa, u alohida ahamiyat kasb etadi.

V. SHEKSPIR

Tashqi musaffolik va ko'rkamlik, ichki musaffolik va ko'rkamlikning ifodasi bo'lishi kerak.

V. G. BELINSKIY

Kamtarlik bilan yo'g'rilgan go'zallikka go'zallik deya atalishga haqli. Kamtarligi bo'lmagan go'zallik — go'zallik emas, shunchaki xushbichimlikdir.

M. SERVANTES

Go'zal, kelishgan qad-qomat, ko'rkam qiyofa, xushovozli kishining oshig'i olchi bo'lishi mumkin. Lekin go'zallikka ortiqcha baho berib yuborish yaramaydi: boshqa fazilatlar bilan uyg'unlashmagan go'zallik zarar keltirishi ham mumkin.

Ya. KORCHAK

Go'zallik manmanlikni tug'diradi.

T. FONTANE

O'ta go'zallik, eng dilbar tashqi qiyofa ham agar hech kim shaydo bo'lmasa uch pul.

O. BALZAK

Husni jamoli go'zal odamlar ko'pu, lekin ularning ichki olamlari maqtasa maqtagudek emas.

F. KUPER

Bema'ni go'zallik — go'zallik emas. Befahm sohibjamolga tikil: yuzidagi har bir belgiga, jilmayishi, qarashlariga razm solib ko'rsang — uning go'zalligi bora-bora aqlni tang qoldiradigan darajadagi bema'nilikka aylanadi.

I. A. GONCHAROV

Husn — shabnam kabi o'tkinchidir.

G. SHVAB

Dunyoda faqat go'zalgina bo'lgan ayol hayotidan ham qayg'uliroq hayot yo'q.

V. FONTENEL

Go'zallik — bu qisqa muddat hokimlik qiladigan qirolichadir.

SUQROT

Go'zallikka boshqa olijanobliklarni ham qo'shishga intiling.

EZOP

Men o'zini ko'z-ko'z qilishga muhtoj bo'lmagan, o'zida ma'naviy fazilatlarini namoyon etgan go'zallikni afzal ko'raman.

R. TAGOR



Tan goʻzalligi haqiqiy oshiqqlarni shaydo qilishi mumkin, ularni bir umr maftun etish uchun esa qalb goʻzalligi talab qilinadi.

K. KOLTON

Oqila qiz qilgan ishni husndor qiz hech qachon qilolmaydi.

P. A. PAVLENKO

Ayollarda goʻzal boʻlmoqlikning birgina, lekin jozibador boʻlmoqlikning esa yuz ming imkoniyati bor.

Sh. MONTESKYE

Samimiylik ham xuddi husn va aql kabi ehsondir.

V. I. KACHALOV

Sahovat goʻzallikdan koʻra afzalroq.

G. GEYNE

Ezgu nom goʻzal chehradan afzalroqdir.

T. FULLER

Nafosat — bu maʼnaviy ezgulik ramzidir.

I. KANT

Qalb goʻzalligi hatto xunuk tanga ham koʻrkamlik baxsh etadi, xuddi shuningdek, qalb bemaʼniligi eng ajoyib qiyofaga va tanning eng dilbar aʼzolariga ham qandaydir alohida dogʻ tushiradiki, ular bizda cheksiz ijirgʻanish uygʻotadi.

G. LESSING

Aql yetukligi husn oʻrnini bosishi mumkin.

STENDAL

Joziba chehraga qaraganda koʻpincha aqlda mujassamdir, chunki yuz husni yaqqol koʻzga tashlanadi, uning kutilmagan sir-asrori yoʻq; biroq aql oʻsha kishi istagiga qarab, u xohlagan meʼyorda oz-ozdan namoyon boʻla boradi.

Sh. MONTESKYE

Koʻpchilik tomondan eʼtirof etilgan olijanob fazilatli va oqil odam garchand badburush boʻlsa xam xunuk sanalmaydi: badburushlik aslida boru, ammo u diqqatni tortmaydi.

J. LABRUYER

Goʻzallik — bu erkin qalb va mustahkam sogʻliq samarasidir.

L. SHEFER

Goʻzallik oʻzini-oʻzi payqamagan taqdiridagina yaxshi.

V. O. KLUCHEVSKIY

Yaxshi xulq chehra koʻrkiga qaraganda ming chandon afzalroqdir. Yaxshi xulq sizni maftun etsa, husn faqat diqqatni tortadi.

A. LAMARTIN

Maftunkorlik — yashnab turgan goʻzallikdir.

G. LESSING

Yoshligi boʻlmagan husn ham, husni boʻlmagan yoshlik ham bir xilda benefidir.

F. LAROSHFUKO

Dunyoda qoraygan muskul va silliq badandan ham koʻrkamroq libos boʻlishi mumkinmi.

V. V. MAYAKOVSKIY

Yal-yal yongan yoshlik husni ortiqcha pardoz-andoz kasridan gullagan paytidayoq xazon boʻladi.

LEONARDO DA VINCHI

Serxasham liboslar husnni buzadi.

P. BUAST

Goʻzallik ortiqcha hashamga zo-oz emas — unga koʻproq odmilik yarashadi.

I. GERDER

Biz ortiqcha hashamatsiz goʻzalroqmiz.

G. LESSING

Tashqi qiyofani bezayvermasdan maʼnaviy olamni bezash kerak.

FALES

Madaniyat bilan tashqi jilo — butunlay boshqa-boshqa narsalardir.

R. EMERSON

Hurmatga loyiq boshga hammavaqt ham goʻzal qalpoq kiyilavermaydi.

T. FULLER

Patlari chiroyli toʻtiqushdan oʻzga yana qanday suluv nodon boʻlishi mumkin?

Ya. KOMENSKIY

Kiyinishda oliftalikdan qochib, yoqimtoy boʻlishga harakat qiling: odob — koʻrkamlik, isrofgarchilik esa — oliftalik belgisidir.

SUQROT

Toʻning xohi shohi va yo beqasam,  
Tushar paxta gar narxi kam boʻlsa ham.

SAʼDIY

Pala-partish kiyinish maʼnaviyatning susayganligidan dalolat beradi, bu pala-partishlik va qaysarlik tagida riyokorlik yashiringan boʻlishi ham mumkin.

M. SERVANTES

Inson hayotida tashqi koʻrinish ham katta ahamiyatga ega, iflos va irkit kishi oʻz xatti-harakatlarini jilovlay olishini tasavvur qilish qiyin.

A. S. MAKARENKO

Ust-bosh, xona, zinapoya, dastgohlar estetikasi odob estetikasidan zarracha kam ahamiyat kasb etmaydi.

A. S. MAKARENKO

## Hayot mohiyati haqida

Inson uchun eng qadrli narsa nima? Hayot, chunki bizning barcha quvonchlarimiz, bizning butun baxtimiz, bizning jamiki umidlarimiz faqat hayot bilan bog'liqdir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Shunday yashamoq kerakki, toki hayotga cheksiz talablar qo'yish mumkin bo'lsin.

A. BLOK

Har bir kishining hayoti — agar u o'zini inson deb tushunsa, o'zini tor egoistik manfaatlar yo'lida emas, balki qandaydir muazzam ishga intilayotgan, ulug'vor umum ishi uchun kurashayotgan ilg'or kishilarning ko'tarinki maqsadlari uni shaxsan ilhomlantirayotganini his etsa — u to'la ma'nodagi insondir.

M. I. KALININ

Hayot — oliy darajadagi progressiv faoliyatdir va uning taraqqiyotga yo'l ochajak bosh harakatlantiruvchi prujinalari ezgulikka intiluvchi insonlar, ya'ni naslimizning sog'lom hamda normal vakillarining tafakkuri va orzu-istaklariga ulangandir.

D. I. PISAREV

Inson jamiyat va davlatning ko'lamli manfaatlari uchun qanchalik foyda keltirsa, u shu qadar barkamoldir.

D. I. MENDELEYEV

Jamiyatning keng manfaatlari va vazifalariga xizmat qilishga bag'ishlanmagan umrni umr demasa ham bo'ladi.

N. S. LESKOG

Jamiyat ishlari to'g'risidagi fikrlar ta'sirisiz, ularda qatnashish tufayli tug'iladigan tuyg'ularning ta'sirisiz inson kamol topa olmaydi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Yer yuzida loaqal birgina bo'lsa ham baxtsiz kishi yashayotganini ko'rib turib, xotirjam yashash va baxtli bo'lish mumkin emas. Yashashdan maqsad, butun insoniyat farovonligini va baxtini ko'zlashdir.

Ya. BOLVAY

Och odam, so'zsiz, o'zini yomon his etadi, biroq to'q odam ham yon-atrofdan eshitalayotgan ochlarning ohu nolasiga tobu toqat qilishi mumkin emas.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Quloqdan dilingga gar kirmasa nur,  
Sichqon kavagidan ne farqi bo'lur.

A. JOMIY

Boshi bilan sho'ng'ib kirmasa har dam,  
Suv ostidan durni toparmi odam?

A. JOMIY

Yaxshi xulqli bo'lgil hamda sof ko'ngil,

Odamlarga doim insofli bo'lgil.  
Bu mehnatxonada yaxshiyu yomon  
Uchraydi, yaxshilik qilaver hamon.  
A. JOMIY

Faqat bashariyat baxti uchun qilingan mehnatgina chinakam va boqiy shuhrat keltirishi mumkin.  
Ch. SEMNER

Doimiy tashvish, mehnat, kurash, yo'qchilik — bu zaruriy shart-sharoitlardir, hech kimsa bular haqida o'ylashdan o'zini bir daqiqa ham chetga olmasligi kerak... Halol yashamoq uchun intilmoq, adashmoq, urinmoq, yanglishmoq, nimanidir boshlamoq va tashlab qo'ymoq va yana boshlab, yana tashlab qo'ymoq, doimo kurashmoq va yo'qchilikka chidamoq kerak. Xotirjamlik ruhiy pastkashlikdir.  
L. N. TOLSTOY

Inson hayotining ma'nosi tinib-tinchimaslik va doimiy tashvishdan iboratligini tushungan odam kaltafahmlikdan qutulgan bo'ladi.  
A. BLOK

Tor manfaatparast odam chala, o'z qobig'idan chiqmagan, o'zini hech narsaga va hech kimga javobgar deb hisoblamaydigan odamdir.  
M. I. KALININ

Inson hayotini jirkanch yo'nalishga solib yuborishning yo'li ko'p, ammo eng ashaddiysi — insonni faqat o'zini o'ylash, o'z shaxsiga sig'inish, o'zida ma'naviyatning har qanday to'liqlinini barbod etish va o'zining sirli hayotini qorin g'amida yurilgan barcha vaqt davomida benaf bir kun o'tkazish darajasiga tushirib qo'yilganiga uni majburan ko'ndirishdan iboratdir.  
M. Ye. SALTIKOV-SHCHEDRIN

Dunyoda qurbonsiz, jon koyitmay, mashaqqatsiz yashab bo'lmaydi: hayot — faqat gulga burkangan bo'ston emas.  
I. A. GONCHAROV

O'z kuchiga ishonch va boshqalar uchun yashash istagi qudratli kuchdir.  
F. E. DZERJINSKIY

Kishi o'ziga qanchalik kam talab qilib, odamlarga shunchalik ko'proq foyda yetkazsa, uning yaxshiligi shu qadar ulug'dir; boshqalarga qanchalik kam foyda yetkaza turib, o'ziga ko'pni talab qilsa, yomonligi ham shu qadar ortiqdir.  
L. N. TOLSTOY

Bir odam uchun emas, balki hamma odamlarning farog'atini ko'zlash hamisha muhim masala bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.  
L. N. TOLSTOY

Odami ersang demagil odami,  
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.  
A. NAVOIY

«O'zi uchun va o'zicha» yashash — hayot emas, balki loqayd bir holatdir: so'z va ish birligi, kurash

zarur.

I. A. GONCHAROV

Yashash, bu kurash demakdir, nafaqat tiriklik uchun, balki hayotni yaxshilash va mukammallashtirish uchun kurash hamdir. Shuning uchun «inson», bizning nazdimizda, kurashuvchidir, faqat kurashayotgan chog'ida yashayotganini sezadigan, har xil to'qnashuvlardan qo'rqmaydigan, hatto ana shu kurashdan surur topadigan kishidir, negaki kurash bor joyda hayot mashaqqati bor va kishi o'sha yerda kurash zavqini tuyadi.

N. A. RUBAKIN

Fidokor kishilar quyoshdek zarur. Ular jamiyatning eng shoirona va hayotbaxsh elementi bo'lib, boshqalarga hayajon, taskin beradilar va yoshartiradilar. Ularning shaxsiyatlari — optimizm va pessimizm to'g'risida bahs yurituvchi, zerikkanidan xomxatala novestlar, keraksiz loyihalar va bir miriga arzimaydigan dissertatsiyalar yaratuvchi, hayotni inkor etish uchun axloqsizlik qiluvchi va bir burda non deb yolg'on gapiruvchi kishilar toifasidan tashqari boshqacha odamlar, jasorat, e'tiqod va aniq maqsadga ega odamlar ham borligini jamiyatga uqtirib turuvchi jonli guvohlardir.

A. P. CHEXOV

Yashash — xarakat qilmoq demakdir.

A. FRANS

Taqdirni o'z ixtiyoriga bo'ysundirmoqchi bo'lgan, davri uchun yangi yo'llar ochmoqchi, o'z xalqini porloq istiqbolga olib bormoqchi bo'lgan, o'z burchini sezadigan va o'z oldiga boshqalarning qalbida orombaxsh alanga yoqishni vazifa qilib qo'ygan kishi — nodonlik, loqaydik dunyosiga, dushmanlik dunyosiga qarshi jangga chiqadi. Chunki hayotning ma'nosi faqat kurashdadir.

E. TELMAN

Buyuk ishlarni amalga oshirish uchun kishi xuddi hech o'lmaydigandek yashashi kerak.

L. VOVENARG

Nima adolatli ekanini tushunish, go'zallikni his etish, faqat yaxshilikni ravo ko'rish — oqilona yo'l-yo'riq mana shudir.

A. PLATEN

Har bir xayrli ishni ikkinchisi bilan shunday mahkam bog'lab yuborish kerakki, ular o'rtasida zarracha ham oraliq qolmasin — mana shuni men hayot rohati, deb atayman.

MARK AVRELIY

Haet shunchalik poyonsiz va ko'pqirraliki, kishi unda qariyb hammavaqt o'zining kuchli va chinakam ehtiyojiga yarashasini topa oladi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

O'z tuyg'usi va ehtiyojlari haqida safsata sotib, aslida o'zini ko'z-ko'z qilishdan bo'lak hech qanday tuzukroq ehtiyoji va tuyg'usi bo'lmagan quruq kishilarninggina hayoti bo'sh va nursiz bo'ladi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

O'ziga yengil hayot axtargan kishi chindan ham ayanchlidir.

D. JORDAN

Har g'aniyki, tirikligida ehsonidin ko'ngullarni shod qilmag'ay, o'lganidin so'ng ani kimsa duo bilan yod qilmag'ay.

A. NAVOIY

Ahmoqona, bema'ni, qanoatsiz yashash chakki yashash emas, asta-sekin o'lish demakdir.

DEMOKRIT

Hayot men uchun erib tugayotgan sham emas. U mening qo'limga bir lahzaga berilgan va men uni kelajak avlodga tutqizishdan oldin mumkin qadar yorug'roq alanga oldirishga majbur etishim kerak bo'lgan allaqanday ajib mash'aldir.

B. SHOU

Bizgacha yashab o'tganlarning mehnati, kuchi vujudimizda yashaydi. Binobarin, kelajak avlod ham o'z navbatida bizning mehnatimiz, bizning bilak kuchimiz va bizning aqlimizdan naf olib yashasin. Shundagina biz o'z burchimizni munosib ado etgan bo'lamiz.

J. FABR

O'zingdan keyingilarga avvalgidan ko'proq bilim va baxt qoldirishga intil, bizga meros qolgan narsalarni takomillashtirish va ko'paytirish, tinmay mehnat qilmog'imiz zarur bo'lgan soha mana shudir.

D. DIDRO

Inson o'z hayotini yaxshilash ishtiyoqidan hech qachon to'xtamaydi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Har bir subhi tongni o'z hayoting ibtidosi deb bil va quyoshning har bir botishini o'z hayoting intihosi deb tushun. Shu kundalik qisqa hayoting qandaydir xayrli ish bilan, o'z ustingdan biron-bir g'alaba qozonishing yoki nimanidir o'rganishing bilan nishonlansin.

J. RESKIN

Umr bag'oyat qisqa va u mohiyat-e'tibori bilan zo'r saodatdir.

S. N. SERGEYEV-SENSKIY

Eng yaxshi zavqu safo, hayotning eng katta quvonchi o'zingni odamlarga yaqin va kerakli deb bilishingdir.

M. GORKIY

Hayotda doimo o'zing erisha olmagan biron narsaga shaydo bo'lib yashash kerak. Inson yuksaklikka intilgan sari yanada barkamollashadi.

M. GORKIY

Inson yashashga monelik qiluvchilarga qarshi kurashgan taqdirdagina uning hayoti yanada mukammal va maroqli bo'ladi.

M. GORKIY

Umr o'tib ketmoqda: kim unga yetolmasa, ikkilanib qoladi.

M. GORKIY

Qololmas jahon ichra mangu kishi,

Faqat qolgusi yaxshi nomu ishi.

SA'DIY

Har narsada uch asosga: haqiqiy, halol va nafli narsalarga e'tibor berish kerak.

J. MARMONTEL

Na ehtiroslar, na biron-bir yumush, na ko'ngil ochishlar, na nimagadir mashg'ullik bilan tinchi buzilmagan odamga, ayniqsa, qiyin. Ana shu ahvolga tushgan kishi o'zini beqadr, benavo his etadi, boshqalarga mute, ojiz va notavon sezadi.

B. PASKAL

Yashamoq-hamisha to'xtovsiz olg'a intilmoq demakdir.

S.JONSON

Harakatsizlik uzoq uyquga chalinish kasalligidir, xolos.

J.J. RUSSO

Yashamoq o'zingni kurash, izlanish va xavf-xatar olovida yondirmog'ingdir.

E. VERXARN

Hayot tomosha ham, bayram ham emas, hayot — mashaqqatli ish.

J. SANTAYANA

O'tgan ishga afsuslanish yaramaydi, bizga qiyinchilik tug'dirgan o'zgarishlardan nolimaslik kerak, chunki o'zgarishlar hayotning asosiy shartidir.

A. FRANS

Hayot turli xil holatlarning almashinuvidir, istagan joyda qulay ahvolda qolish uchun ularni o'rganish, kuzatish kerak.

O. BALZAK

Hayot o'z holicha hech narsani anglatmaydi: hayotning qimmatini unda qanday yashay bilish bilan bog'liq.

J.J. RUSSO

Hayot o'z-o'zicha — yaxshilik ham, yomonlik ham emas: siz uni nimaga aylantira olishingizga qarab yaxshilikning ham, yomonlikning ham uyasi bo'lishi mumkin.

M. MONTEN

Hayot azob-uqubat ham, orom ham emas, u zimmamizdagi va biz vijdonan oxiriga yetkazishimiz zarur bo'lgan burchdir.

A. TOKVIL

Hayot mezoni uning davomiyligida emas, balki siz undan qanday foydalana olganligingizdadir.

M. MONTEN

Munosib yashalgan hayotni yillar bilan emas, balki bajarilgan ishlar bilan o'lchamoq zarur.

R. SHERIDAN



Yillar uzoq yashashlikdan guvohlik berolmaydi. Inson hayoti nima ish qilinganligi va nimani tuyganligi bilan o'lchanadi.

S. SMAYLS

Hayot faqat yosh bilan o'lchanmaydi. Yigirma to'rt yilgina yashaganlar ham bo'lgan, yuzga chiqqan qariyalar ham bo'lgan. Vaqt o'taverishi bilan u qariyalar unutilib yuborildi. O'z xalqi bilan bir tanu bir jon bo'lgan otashqalb yigirma to'rt yoshlilar esa unutilmadi, ular xalq yuragida uzoq vaqt yashadi.

M. I. KALININ

Har bir daqiqani chuqur mazmun bilan boyita olgan kishi o'z umrini cheksiz uzaytirgan bo'ladi.

I.KURS

Tirik ulki, undan keyin qolsa joy —

Hovuz, ko'lu ko'prikla karvonsaroy.

SA'DIY

Hayot ham masal kabi, u uzunligi bilan emas, balki mazmuni bilan qadrlı.

SENEKA

Hayot o'tgan kunlar emas, balki esda qolganlaridir.

P. A. PAVLENKO

Hayot yashashning o'zidagina emas, balki yashayotganligingni his etishingdadir.

V. O. KLUCHEVSKIY

Uzoq yashash emas, to'g'ri yashay bilishing muhimdir.

SENEKA

Har qanday umrmas, balki yaxshi o'tkazilgan umr — baxt-saodat hisoblanadi.

SENEKA

Hayot to'laqonli bo'lsa uzoqqa cho'ziladi... Uni vaqt bilan emas, bajargan ishlarimiz bilan o'lchaymiz.

SENEKA

Har narsada uch asosga: haqiqiy, halol va nafli narsalarga e'tibor berish kerak.

J.MARONTEL

Isonning insonligi shunchaki umr o'tkazishi emas, balki yashashidadir.

J.LONDON

Yaxshi o'tgan har qanday umr uzoq umrdir.

LEONARDO DA VINCHI

Benaf yashashdan bevaqt o'lim afzal.

I.GYOTE

Eng dahshatlisi tirik murda bo'lmoqdir.

M.ANDERSEN-NEKSE

Chumoliga o'xshab tashib, ye bukun,  
Seni go'rdada qurtlar yemasdan burun.  
SA'DIY

Odam ikki marta yashamaydi, lekin bir marta yashashni ham bilmaydiganlar ko'p.  
F.RYUKKERT

Ba'zi odam yuz yoshida qabrga kiradi-yu, aslida esa tug'iliboq o'lgan bo'ladi.  
J.J.RUSSO

Gapning sirasini aytganda, juda oz kishilar bugungi kun bilan yashaydi. Ko'pchilik esa keyin keladigan kunlarning g'amini yeydi.  
J.SVIFT

Ko'p odamlar hayotliklarida ham yashashmaydi, ular faqat yashamoqqa urinadilar.  
V. G. BELINSKIY

Umrni biz bugun-erta deb orqaga suramizu, u o'tib ketadi.  
SENEKA

Eng jirkanchlisi, dunyoda samarasiz yashamoqlikdir.  
N. M. KARAMZIN

Yerug' dunyoda yashash — doim kurashish va doim g'alaba qozonish demakdir.  
D. I. PISAREV

Kimki kurahsa gar erk va hayot deb,  
O'shanga loyiqdir erk ham, hayot ham.  
I. GYOTE

Yuraksizlik — ojizlar qismati. Kim jur'atli va tutgan ishi vijdoniga monand bo'lsa — u o'z e'tiqodini umrining oxirigacha himoya qila oladi.  
T. PEYN

Xomxayollik bilan umr o'tkazish g'oyat bezavqdir. Ko'proq faollik ko'rsatish kerak.  
N. SHAMFOR

Alanga va nur bir-biri bilan qanchalik uyg'unlashgan bo'lsa, hayot bilan faoliyat ham bir-biriga shu qadar mustahkam bog'langan. Nimaiki nur sochsa, shubhasiz, yoritadi, nimaiki yashayotgan ekan so'zsiz harakatda bo'ladi.  
F. N. GLINKA

Inson tabiatining mohiyati — harakatda. Tek turmoqlik o'lim demakdir.  
P. PASKAL

Kurashning to'xtab qolishi hayotning bosh fojiasidir.  
N. A. OSTROVSKIY

Agarda razm solib qaralsa, aksariyat kishilar hayotining ko'p qismi bo'lmag'ur ishlarga, anchaginasini —

bekorchilikka, umrning yaxlit o'zi esa — nokerak narsalarga sarflanadi.

SENEKA

O'z hayotining mohiyatini bilmaydigan kishilarning ahvoliga voy.

V. PASKAL

Hayot uni o'rganadigan kishilargagina o'rgatadi.

V. O. KLUCHEVSKIY

Bizning boyligimiz sihat-salomatlik, oddiy turmush tarzi, erkinlik, tan va ruhning mustahkamligi, yaxshilikka mehr... qo'shnilar bilan ahillik, do'stlarga bog'liqlik... omadi kelganda mag'rurlanmaslik, osoyishtalik, muloyimlik, baxtsizlikdan hayiqmaslik, xushomadgo'ylikka nafratdir.

F. FENELON

Farosatsizlik, axloqsizlik orqasida faqat huzur-halovatga mukkasidan ketganlarning hayoti sariq chaqaga ham arzimaydi.

I. KANT

Sharafli ish bilan tezkor zamonga

Kim sayqal berolsa xushbaxtdir o'sha.

A. K. TOLSTOY

Kurash hayot shukuhidir.

L. N. ANDREYEV

Yashash kurash demakdir; kurash yashashdir.

P. BOMARSHE

Kurashsiz shon-shavkat ham xazon bo'ladi.

SENEKA

Kurash hayot shartidir: kurash tugasa, hayot ham mahv bo'ladi.

V. G. BELINSKIY

Hayot faoliyatdan iborat, faoliyat esa kurash demakdir.

V. G. BELINSKIY

Kurashsiz xizmat, xizmatsiz mukofot bo'lmaydi, harakatsizlikda esa — hayot yo'q.

V. G. BELINSKIY

Aqlli va g'ayratli odamlar oxirigacha kurashadilar, quruq va sariq chaqaga arzimaydiganlar esa o'zlarining ma'nosiz hayotlari davomida mayda-chuyda tasodiflarga ham kurashsiz bo'yin egadilar.

D. I. PISAREV

Yashamoq tananing faqat moddiy ehtiyojlarini qondirishgina emas, eng muhimi, insoniy qadr-qimmatni tushunib yetishdir.

JYUL VERN

Yashamoq — his etish, hayot gashtini surish, yashayotganligimizni eslatib turuvchi yangilikni muttasil

tuyishdir.

N. I. LOBACHEVSKIY

Yashamoq — his etish va mulohaza yuritish, dard chekish va rohatlanishdir. Bulardan boshqa har qanday hayot o'limdir.

V. G. BELINSKIY

Ko'rish va sezish, bu mavjud bo'lmoqlikdir, mulohaza yuritish esa yashash demakdir.

V. SHEKSPIR

Hayot doimiy mehnatdan iborat. Unga shu nuqtai nazardan qaragan odamgina hayotni insonchasiga to'la tushunadi.

D.I.PISAREV

Hayot g'ayratli mehnat tufayli jonli va go'zaldir, u og'ir yuk bo'lmay, balki qanot, ijod va quvonchdir, agar kimdakim uni og'ir yukka aylantirsa, bunga uning o'zi aybdor.

V. V. VERESAYEV

Jasoratga tashnalikni hamisha oqlash mumkin. Shu tashnalikda jonli insoniy qalb tepib turadi, unda sinchkov va hech qachon tinib-tinchimaydigan inson aqli yashiringan bo'ladi.

M. Ye. SALTIKOV-SHCHEDRIN

Jasorat ko'rsatishni sevgan odam har qachon uning uddasidan chiqa oladi va qaerda jasorat ko'rsatishni ham biladi. Agar bilsang, hayotda jasorat ko'rsatishga hamisha o'rin bor.

M. GORKIY

Jasorat iste'dod singari maqsad sari boradigan yo'lni osonlashtiradi.

L. M. LEONOV

Osuda va beg'am hayotda surur yo'q! Nimadir yurakni o'rta, fikrni tinch qo'ymasligi kerak.

D. DAVIDOV

Hayotda o'z o'ringni topishing uchun biron ish qilmagan bo'lsang, yashash benihoyat mushkuldir.

D. V. VENEVITINOV

Chuqur iz qoldirmagan umr qadam sayin o'chib boraveradi.

A. I. GERTSEN

Inson shuni tushunishi kerakki, u dunyoning ijodkori va sohibidir, hayotdagi barcha ezguliklarning shon-shuhrati ham, yerdagi hamma baxtsizliklar ham uning zimmasiga tushadi.

R. ROLLAN

## Umr va vaqt

Hayotni sevasanmi? Sevsang, vaqtni boy berma, chunki vaqtdan hayot degan mato yaraladi.

B. FRANKLIN

Tezkor vaqt, qaytib kelmaydigan vaqt insonning eng qimmatbaho boyligidir, binobarin, uni yelga sovurmoq borib turgan talon-torojlikdir.

S.MOEM

Odamzod hayoti tejalgan vaqtga qarab uzayadi.

F. KOLLIYER

Vaqt bizning eng arzon va ayni vaqtda eng qimmatbaho mulkimizdir, chunki vaqt tufayli biz hamma narsaga erishamiz.

Ya. RAYNIS

Vaqt mavjud vositalarning eng qimmatlisidir.

TEOFRAS

Vaqt eng ulug'vor novatordir.

F. BEKON

Qo'limizdan keladigan barcha uddaburonliklar chidam va vaqtning aralashmasidan boshqa narsa emas.

O.BALZAK

Pul aziz, inson hayoti undan ham aziz, vaqt esa hamma narsadan azizdir.

A. V. SUVOROV

Modomiki vaqt eng qimmatbaho mulk ekan, unda vaqtni talon-toroj qilish eng og'ir gunohdir.

B. FRANKLIN

Inson boshiga tushishi mumkin bo'lgan eng og'ir yo'qotish vaqtni boy berishdir.

TEOFRAS

Zoe ketgan har bir diqiqa boy berilgan ish, boy berilgan foydadir.

F. CHESTERFIELD

Eng og'ir yo'qotishlardan biri — vaqtni yo'qotish.

J. BUFFON

Soatlarning har bir daqiqasini ham qadrla.

B. FRANKLIN

Odam tabiatan qiziq yaratilgan — boyligini yo'qotsa xafa bo'ladiyu umri zoe ketayotganiga esa parvo qilmaydi.

ABUL FAROJ

O'z vaqtining loaqal bir soatini behudaga o'tkazmoqchi bo'lgan kishini hayotning butun qadr-

qimmatini hali tushunib yetish darajasiga bormagan desa bo'ladi.

Ch. DARVIN

Ayniqsa vaqtni boy berish bilimdon odam uchun qimmatga tushadi.

I. GYOTE

Vaqtni boy berayotganida xunob bo'ladigan odam eng dono odamdir.

DANTE

Arzimagan va befoyda narsalarga keragidan ortiqcha vaqt sarflash dono odam uchun nihoyatda og'irdir va bu uni mislsiz tashvishga soladi.

AFLOTUN

Vaqt — aqliy mehnat kishisining sarmoyasi.

O. BALZAK

Vaqt qobiliyatlarni o'stirish uchun zarur bo'lgan kenglikdir...

K. MARKS

Vaqt aqlliroq, yaxshiroq, yetukroq va mukammalroq bo'lib yetishishimiz uchun bizga in'om etilgan qimmatbaho sovg'adir.

T. MANN

Vaqt — ulug' murabbiy.

E. BERK

Vaqtning qadriga yetmagan kishiga shon-sharaf nasib bo'lmaydi.

L. VOVENARG

Har bir kunni o'lcha, sarflagan har bir daqiqangni hisobga ol! Faqat vaqt masalasidagina xasislik qilish mumkin.

T. MANN

Uzing va o'zgalarniig vaqtini tejay bilmaslik — o'taketgan madaniyatsizlikdir.

N. K. KRUPSKAYA

Biz uchun vaqtni tejash besh qo'lday aniq narsadir.

F. E. DZERJINSKIY

Har qanday tejamkorlik oxir-oqibatda vaqtni tejashdan iboratdir.

K. MARKS

Vaqtni oqilona taqsimlash — ish poydevori.

Ya. KOMENSKIY

Tuban niyatlarni oliy niyatlarga qurbon qila borar ekansan, ma'lum vaqt uchun, yil uchun, oy uchun, hafta uchun, kun va soatlar, lahzalar uchun, bus-butun hayot uchun maqsading bo'lsin.

L. N. TOLSTOY

O'z iste'dodlari bilan dong taratgan kishilar vaqtlarini o'zlari va avlodlariga hurmat keltiradigan qilib sarflashlari kerak. Agar avlodlarga hech narsa qoldirmasak, ular biz haqimizda nima deb o'ylashlari mumkin.

D. DIDRO

O'z vaqtini qo'lida mahkam ushlagan odamgina rasmana buyukdir.

GESIOD

Kimki bo'sh vaqtini oqilona o'tkaza olsa, shaxsiy madaniyati oliy darajadagi kishidir.

B. RASSEL

Vaqt orom nimaligini bilmaydigan nihoyasiz harakatdir — uni boshqacha tushunish mumkin emas.

L. N. TOLSTOY

Vaqt va suv toshqini hech qachon kutib turmaydi.

V. SKOTT

Vaqt hamma narsaga o'z ta'sirini o'tkazadi; yillarning poyonsiz halqasi nomni ham, qiyofani ham, fe'l-avtorni, hatto taqdirni ham o'zgartira oladi.

AFLOTUN

O'rtamiyona odam vaqtni tez o'tkazish payida bo'ladi, iste'dod sohibi esa undan foydalanib qolishga urinadi.

A. SHOPENGAUER

Vaqtni boy berish boqiylikka zarar keltirishdan boshqa narsa emas!

G. TORO

Vaqtni boy berish o'z-o'zini qatl etish bilan barobar.

J. PEKK

Biror kun ham o'z niyatingdan og'ishma, vaqtni uzaytirishning vositasi shudir, boz ustiga, garchand undan foydalanish mushkul bo'lsa-da, juda to'g'ri vosita ham shudir.

G. LIXTENBERG

Har doim vaqtim yo'q deguvchilar aslida hech narsa qilmaydilar.

G. LIXTENBERG

O'z vaqtidan oqilona foydalana olmaydigan odam hammadan burun vaqt yetmasligidan noliydi: u kunlarni kiyinishga, ovqatlanishga, uxlashga, oldi-qochdi gaplarga, nima qilish kerak, degan xayollarga, hech nima qilmaslikka sarflaydi.

J. LABRUYER

Agar yaxshi tasarruf qilinsa, hamisha yetarlicha vaqt topish mumkin.

I. GYOTE

Biron ish bilan mashg'ul bo'lmagan onimni sira tasavvur etolmaydi.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Dam olishga ham vaqtim qolsin desang, vaqtni behuda o'tkazma.

B. FRANKLIN

Vaqting kam bo'lishini istasang, hech nima qilma.

A. P. CHEXOV

Vaqtdan oqilona foydalanish uning qimmatini yanada oshiradi.

J.J. RUSSO

Behuda o'tkazilgan vaqt to'g'risida armon qiladigan kishilarga qolgan vaqtdan oqilona foydalanish ham muyassar bo'lmaydi.

J. LABRUYER

Inson xarakteri hammadan ham ko'proq unga qay tarzda dam olish ma'qul va o'ng'ay ekanligi bilan belgilanadi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Men hamisha bo'sh paytimda ko'proq band bo'laman.

SITSERON

Qarta o'yini aqliy inqirozning yaqqol nishonasidir. Odamlar fikr almashishga qurblari yetmasa, qarta tashlashadi.

A. SHOPENGAUER

Kolleksiya yig'ishga ishqibozlik — aqldan ozishning birinchi bosqichi.

O.BALZAK

Baliq oviga qiziqish mansabdorlarga idora xizmatini eslatadi.

O.BALZAK

Ayni vaqtini bilish — vaqtni avaylash demakdir, vaqtida qilinmagan ish esa behuda qilingan ishdur.

F. BEKON

Hech bir ishni ertaga qo'yma — vaqtning qadriga yetadiganlarning ustunligi ham, siri ham shunda.

E. LABULE

Hech bir ishni orqaga surma, chunki u ish sendan keyin osonlashib qolmaydi.

JAN POL

Bugungi bir soat ertangi ikki soatga aylanadi.

T. FULLER

Bittagina bugun ikkita ertaga arziydi.

B. FRANKLIN

«Ertaga» «bugun»ning zo'r dushmanidir; «ertaga» bizni bor-budimizdan ayiradi, faolsizlikda ushlab, oxir-oqibat notavon qiladi.

E. LABULE



«Ertaga» soʻzi qatʼiyatsiz kishilar va bolalar uchun oʻylab topilgan.

I. S. TURGENEV

Muddatni choʻzish vaqtni oʻgʻirlash demakdir.

E.YUNG

Tezkorlik kerak, shoshqaloqlik esa zarar.

A. V. SUVOROV

Agar sen shoshmasang, hamma narsani aniq va ravshan koʻrasan, kishi shoshqaloqlikda koʻr-koʻrona va shuursiz harakat qiladi.

TIT LIVIY

Oʻylab ol ishingni va olisga boq.

Oʻylab ul ishingni, keyinga surma.

A. SHUKUR

Bu kungi yumushni ertaga qoʻymoq margub emas,  
Tongla ne hol roʻy berurin kajraftor aytib bermas.

FIRDAVSIY

Ulugʻ yoʻl kutayotgan boʻlsa, sustkashlik jinoyatdir.

Sh. RUSTAVELI

Hadeb oʻylayvergan odam hamisha ham toʻgʻri qarorga kelavermaydi.

I. GYOTE

Hayotdagi muhim ishlarga har doim shunday shoshilish kerakki, goʻyo bir daqiqa boy berilsa, hamma narsa barbod boʻladiganday tuyulsin.

V. G. BELINSKIY

Baʼzan osoyishta vaqtlarda foydali koʻringan sustkashlik sinov soatlarida halokatli boʻlishi ham mumkin.

A. LAMARTIN

Sustakashlik oson ishni ham mushkillashtiradi, qiyin ishni esa chorasiz bir ahvolga olib keladi.

J. LORIMER

Sustkash odamning umri omadsizlik bilan olishuvga ketadi.

GESIOD

Baʼzan sustkashlik oʻlimga teng boʻladi.

M.V.LOMONOSOV

## Baxtga intilish

Baxtga intilish bo'lmagan joyda umuman intilish ham yo'q. Baxtga intilish intilishlarning intilishidir.  
L. FEYERBAX

Insonga baxt kerak, uning bunga haqqi bor, nechog'li qiyin bo'lmasin, inson baxtga erishishi darkor.  
N. A. DOBROLYUBOV

Har bir kishi baxtli bo'lgisi keladi, u baxtli bo'lishi kerak va baxtli bo'lishga huquqlidir.  
N. V. SHELGUNOV

Baxtli bo'lish huquqi inson huquqining ajralmas tarkibiy qismidir.  
K. D. USHINSKIY

Qush parvoz uchun, inson baxt uchun yaralgan.  
V. G. KOROLENKO

Inson o'zini muhofaza etishga hamda baxtiyor bo'lishga intiluvchi ta'sirchan, sezgir, aqlli va fikr yurituvchi mavjudotdir.  
P. GOLBAX

Baxt bizga to'la-to'kis nasib bo'luvchi yuksak darajadagi huzur-halovat, baxtsizlik esa yuksak darajadagi musibatdir.  
J. LOKK

Baxtsizlikni yaxshi maktab deydilar, balki shundaydir. Lekin eng yaxshi dorilfunun baxtda mujassam. U ezgulik va go'zallikka qodir qalb tarbiyatini nihoyasiga yetkazadi.  
A. S. PUSHKIN

Faylasuflar emas, balki lo'ttibozlargina inson o'z istagicha yashasa baxtlidir, deya gap sotadilar: bu g'irt yolgon. Jinoiy istaklar eng manfur badbaxtlikdir. Jinoiy istakdan ko'ra istaganingga yeta olmasliging ancha durustdir.  
SITSERON

O'z shaxsiy baxtini yaratishni istagan har bir kishi barcha ishchi va dehqonlar baxtining toblovchisi, bunyodkori bo'lmog'i kerak, qachonki u barchani baxtiyor qilsa, o'z shaxsiy baxtini ham toblagan bo'ladi.  
M. I. KALININ

Jamiyatning maqsadi hammani baxtiyor qilishdir.  
G. BABEF

Hamma uchun baxt — hammaning ahil mehnati bilan yaratiladi.  
G. IBSEN

Do'stlar bilan baham ko'rilmagan, faqat o'zimiz bahra olgan har qanday turmush farog'ati bizga ham unchalik botmaydi.  
ERAZM ROTTERDAMSKIY

Kishi boshqalarga qancha shodlik va baxt ulashsa, u faqat o'shancha shodlik va baxtga da'vogar bo'lishi mumkin.

E. FEYXTERSLEBEN

Boshqalarning baxtini o'ylab, o'z baxtimizni ham topamiz.

AFLOTUN

Ezgulik faqat insonga xos xususiyat, binobarin, birov-birovning baxti va rohati uchun xizmat qilsa, bu yana ham insoniy xususiyatdir.

TOMAS MOR

Kishi dunyoda boy bo'lish uchun emas, balki baxtli bo'lish uchun yashaydi.

STENDAL

Oz narsaga qanoat qilgan odam davlatmanddir, negaki, bunday qanoat uning ma'naviy boyligidan dalolat beradi.

SUQROT

Farosatsiz odamning omadi yurishsa ham u aqlsiz bo'lgani uchun uning to'qligi surbetlikka aylanadi.

FEOGNID

Hayotda baxtli bo'lishning birdan-bir yo'li: jahonga va ayniqsa o'z Vataniga foydali bo'lishdir.

N. M. KARAMZIN

Iloji boricha ko'proq odamlarga baxt hadya qilgan kishi eng baxtiyor kishidir.

D. DIDRO

...Iloji boricha ko'proq odamlarga baxt keltirgan kishini tajriba eng baxtiyor kishi sifatida ta'riflaydi.

K. MARKS

Boshqalarning qayg'usini o'z qayg'usi deb bilgani uchun ham inson barcha jonzotlar orasida azizu mukarram bo'ldi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Umrini boshqalarning baxti to'g'risida gamxo'rlik qilish bilan o'tkazgan kishlar eng ajoyib va ayni vaqtda eng baxtiyor kishilardir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Eng yuksak shaxsiy baxt shaxsiy manfaatlardan ham ahamiyatliroq maqsadlar uchun kurashmoqlikdir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Kishi o'z baxtini boshqalarga keltirgan baxtiga qarab o'lchaydi.

I. BENTAM

Umum farovonligi yo'lida xizmat qilish ishtiyoqi qalb ehtiyoji va shaxsiy baxt garovi bo'lmog'i lozim.

A. P. CHEXOV

Boshqalarning baxtsiz shaxsiy baxt ham bo'lmaydi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Hayotda faqat birgina chinakam baxt bor, u ham bo'lsa boshqalar uchun yashamoqlikdir.

L. N. TOLSTOY

Kishi o'zgalarning baxtidan baxt topsa, u haqiqiy yashagan hisoblanadi.

I. GYOTE

Baxt boshqalar bilan baham ko'rilgandagina barqaror bo'ladi.

J. LAMETRI

Boylik yaratmay turib undan foydalanishga haqqimiz bo'lmaganidsk, baxt keltirmay turib uni baham ko'rishga ham haqqimiz yo'q.

B. SHOU

Shaxsiy farog'at to'g'risida o'ylash tabiiydir, buni e'tiborga olish kerak. Lekin el-yurt baxt-saodati va butun insoniyat jamiyati muhofazasidan ko'z yumib, faqat shaxsiy farog'at haqida o'ylansa, hayot chirkinlashadi, maydalashadi, ochig'ini aytganda — tuban bir holga tushadi.

R. ROLLAN

Kishi o'zicha shug'ullanganda u juda kam hollarda va shunda ham o'zi va boshqalar uchun foyda keltirmay o'zining baxt sari intilishini qondirishi mumkin. U o'z ehtiyojlarini qondirish vositalari bo'lgan tashqi dunyodagi: oziq-ovqat, boshqa jins individi, kitoblar, dam olish, munozaralar, faoliyat, iste'mol va mehnat buyumlari bilan muomalada bo'lishi kerak.

F. ENGELS

Baxtga — bu masalada har bir odamga alohida-alohida yondashish zarurligidan qat'iy nazar,— odamning eng zarur moddiy ehtiyojlarini qondirgandagina yetishish mumkin.

N. A. DOBROLYUBOV

Boylik — shunday narsaki, usiz ham baxtli yashash mumkin. Ammo farovonlik — baxtiyor yashash uchun zarur shart.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Yashamoq va baxtiyor bo'lmoq huquqiga qurbi yetmaydigi odam shunchaki bir sharpadir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Inson baxtli bo'lishi kerak. Agar u baxtsiz ekan, uning o'zi aybdor. Binobarin, u shu noqulaylik yoki nohaqlikni bartaraf etmaguncha o'zi uchun kuyib-pishib harakat qilmog'i lozim.

L. N. TOLSTOY

Baxtli bo'lmoq uchun baxtli bo'lish mumkinligiga ishonmoq kerak.

L. N. TOLSTOY

Baxtli bo'lish uchun doimo shu baxtga intilmoq va uni anglamoq zarur. Baxt vaziyatga emas, kishining o'ziga bog'liq.

L. N. TOLSTOY

Baxt saxovatli odamning qo'lidan tayyor holda olinmaydi, u kurash orqali qo'lga kiritiladi va

shakllanadi.

D. I. PISAREV

Baxt havoda esmaydi, mehnatdan keladi.

RUDAKIY

Baxt ko'p mehnat qilganga nasib bo'ladi.

LEONARDO DA VINCHI

Har bir kishi — o'z baxt-saodatining ijodkori.

R. STIL

...Baxt sotilmas va kimki agar

Ter to'kishga bo'lolsa molik,—

Shunda tole bo'lur jilvagar,

Shurda shodlik qilur oshnolik.

MIRZA SHAFIY

Noshud! kishilarga baxtning nafi tepfyidi.

SOFOKL

Omadimiz — vaziyatning muvozanati xolos, binobarin, kutilmagan baxtsizlik shu muvozanatni buzishiga yo'l qo'ymaslik kerak, donolik mana shunda.

R. BRIJES

Na bo'sunishga, na o'zining nimaga qodirligini ko'rsatish uchun buyruq berishga ehtiyoji yo'q kishigina chinakam baxtiyor va ulug'vordir.

I. GYOTE

O'z ehtirosiga monand yashaydigan kishi baxtiyordir, lekin o'z ehtirosini har qanday og'ir sharoitga ham moslashtira biladigan kishi undan ham baxtlidir.

D. YUM

Siz agar baxt orqasidan quvib qachondir unga yetishsangiz, ko'zoynagini axtargan kampir singari, baxt doim burningiz ostida yurganini sezib qolasiz.

B. SHOU

Izlaganimiz ajoyib narsa yonimizda bo'lganligini biz doim kechikib tushunamiz.

A. BLOK

Yuraksizlarga baxt yor bo'lmaydi.

SOFOKL

Baxt har doim mard odam tomonida.

P. I. BAGRATION

Odamni baxtli bo'lishga o'rgatishning iloji yo'q, lekin uni baxtiyor bo'la oladigan darajada tarbiyalash mumkin.

A. S. MAKARENKO

Besaranjom odam chinakam baxtli bo'lolmaydi; chinakam baxt osoyishta, yoz faslidagi dengiz singari vazmin bo'ladi.

A. I. GERTSEN

Baxtiyor bo'lishimizga shaxsiy xislatlarimizdan eng ko'proq foyda beradigani quvnoqligimizdir.

A. I. SHOPENGAUER

Kim doimo quvnoq bo'lsa u baxtiyordir, kim baxtiyor ekan, u yaxshi insondir.

V. G. BELINSKIY

Tashvishsiz va g'amsiz hayot -baxt emas, baxt — ko'ngilning besaranjomligi.

F. E. DZERJINSKIY

Kingadir baxtli ko'ringan emas, balki o'zini baxtli sezgan odam baxtlidir.

PUBLILIIY SIR

O'zini baxtli deb biladigan odam baxtlidir.

G. FILDING

O'zini baxtli deb hisoblamaguncha hech bir odam baxtli emas.

MARK AVRELIY

Odamning baxt haqida tasavvuri qanday bo'lsa, o'zi ham shunday.

V. A. SUXOMLINSKIY

Agar siz o'zingizni baxtli deb bilsangiz, baxtingizni tekshirmang: bu — nafis kapalakning go'zalligini yaxshiroq ko'rish niyatida uni burdalab tashlash bilan barobar.

P. MANTEGASSO

Baxt sog'liqqa o'xshaydi: u bor bo'lsa, payqamaysan.

I. S. TURGENEV

Ba'zilar o'zlari bilmaganlari holda baxtli yashaydilar.

L. VOVENARG

Bizning his etish qobiliyatimiz hududiga ham sig'maydigan kuchli baxt va qayg'ular bo'ladi.

F. LAROSHFUKO

Baxt yoki alamdand g'ofil kishi dushman bilan duch kelmagan soldat singari dunyodan o'tadi.

F. KLINGER

Agar faqat baxtli bo'lishgina maqsad qilib qo'yilsa, bunga tezda erishish mumkin. Lekin odamlar ko'pincha boshqalardan ko'ra baxtliroq bo'lishni istay-dilarki, buning deyarli iloji yo'q, chunki aslida bizga o'zgalarning baxti hamisha ko'proq bo'lib ko'rinadi.

Sh. MONTESKYE

Shunday odamlar borki, ular doim nolish va diqqatbozlikdan xuzur qiladiganga o'xshaydilar va undan mahrum bo'lmaslik uchun baxtsizlikni izlashga ham tayyor turgandek tuyuladilar.

P. KALDERON

Baxt baxtsizlikni nafratlashdan, kishini tasqara qilib, uni buzadigan jamiki narsalarga fiziologik jirkanch bilan qarashdan, tarix bo'roni tufayli yanada vayron bo'layotgan soxta farovonlik xususida oh urgan, ingragan, noligan notavonlardan chinakamiga voz kechishdan boshlanadi.

M. GORKIY

...Ko'plar o'z hayotlarini arzimagan narsalar bilan hech qan-day asossiz buzayotganlarini ko'rganimda men o'zimni baxtiyor his etaman, negaki men ruhimning bukilmas tetikligini saqlab qolganman va har qanday bo'lmag'ur narsalar ustidan kulaman.

F. ENGELS

Quvonch va umidga moyillik chinakam baxtdir; hadiksirash va ruhiy tushkunlikka berilish —haqiqiy baxtsizlik.

D. YUM

Baxt qushi boshga qo'nganda undan foydalana bilmagan odam u qo'lidan ketganda nolimasligi kerak.

M. SERVANTES

Hayotdagi qariyb hamma baxtsizliklar ishimizning yurishmayotgani xususidagi soxta tasavvurlarimizdan kelib chiqadi. Binobarin, odamlarni yaxshi bilish va voqealar haqida sog'lom fikr yuritish bizni baxtga yetaklaydi.

STENDAL

To'g'ri, qiyin daqiqalar ham bo'ladi, ammo unga bo'yin egma — yomon narsadan yuzini o'girdi, shunda ko'ngling bahori seni qo'llab-quvvatlaydi. Hatto kek-salik ham tun zulmati sovug'idan hamma vaqt yengilib qolavermaydi.

LUKRETSIY

Baxt besabr odamlarga ko'p narsalarni pullab qoladi-yu, sabrlilarga ularni tekinga beradi.

F. BEKON

Bir qadar aziyat qo'shilmagan sof baxt bo'lmaydi.

V. SHEKSPIR

Illatsiz baxt bo'lmaydi.

GORATSIY

Erimaydigan muz bo'lmagani kabi abadiy baxt ham yo'q.

A. I. GERTSEN

Bizning baxtimiz hech nar-ani orzu qilmaydigan holga tushib, butun istaklarning to'la qondirilishidan iborat emas va bunday bo'lmisligi kerak, chunki bu aqlimizning o'tmaslashuviga olib kelgan bo'lur edi. Yangi-yangi rohat-farog'atlarga va yangidan-yangi mukammallik-arga beto'xtov intilish — baxt shudir.

G. LEYBNITS

Insonni chinakam baxtiyor qila oladigan ikki xil xohish bor,— odamlarga naf keltirish va sof vijdonli bo'lish.

L. N. TOLSTOY

Istagan huzur-halovat hambaxt emas, u huzur-halovatlar halol va pok bo'lmog'i kerak.  
TOMAS MOR

Baxt pushaymonsiz huzur qilish demakdir.

L. N. TOLSTOY

Baxtning zarur tarkibiy qismi — bu to'g'ri yashayotganingga, ortingda xudbinlik, qallob-lik, makkorlik, zararkunanda-lik va yana shunga o'xshash boshqa bir razilliklar yo'qligiga qat'iy ishonishingdir.

A. S. MAKARENKO



## Quvonch, g'am va qayg'u haqida

Oldinda quvonadigan narsasi bo'lmasa, kishi dunyoda yashay olmaydi.

A. S. MAKARENKO

Hayot uzluksiz quvonchga aylanishi kerak va shunday bo'lishi mumkin.

L. N. TOLSTOY

Inson doim quvnoq yashashi kerak. Agar quvonching tugasa, nimada yanglishganingni axtar.

L. N. TOLSTOY

Agar hayot senga beqiyos baxtiyorlik bo'lib tuyulmasa, bu faqat aqlning adashganidan dalolat.

L. N. TOLSTOY

Atrofimizdagilar emas, balki bizning ularga bo'lgan munosabatimiz bizga shodlik keltiradi.

F. LAROSHFUKO

Zo'r quvonchga faqat katta mehnat bilan erishish mumkin.

I. GYOTE

Ko'ngil quvonchi uning kuchliligidan dalolat beradi.

R. EMERSON

Hayotning eng zo'r huzur-halovati, eng yuksak quvonchi o'zingni odamlarga kerakli va yaqin deb his qilishingdir!

M. GORKIY

Hayotni quvonchsiz, deyish yolg'on, unda faqat jarohatu ohu nola, alam va ko'z yoshidan boshqa narsa yo'q, deyish ham yolg'on!.. Hayotda inson istagan hamma narsa bor, insonda esa hayotda yo'q yaratuvchilik qudrati mavjud.

M. GORKIY

Quvonchga peshvoz chiqishning o'zi quvonch.

G. LESSING

Tanho shodlanish ko'ngilsizdir.

G. LESSING

G'amga bir kishi chidashi mumkin, lekin quvonchni ikki kishi baham ko'rishi kerak.

E. XABBARD

Baham ko'rilgan quvonch ko'pga tatiydi.

J. XOLLEND

Esda qolmaydigan quvonchlar haqiqiy quvonch emas.

F. ZANDERS

Ko'pincha bizga sevinch qanotida qayg'u ham uchib keladi.

E. KAPIYEV

Xafa bo'lishni bilmaydigan odam quvonishni ham bilmaydigan yoki kulgini tushunmaydigan odamdek nochoridir. Shu xususiyatlardan birontasining yetishmasligi o'taketgan ma'naviy cheklanganlikdan dalolat beradi.

K. G. PAUSTOVSKIY

Sevinch esdan chiqadi-yu, qayg'u esa hech vaqt unutilmaydi.

M. Yu. LERMONTOV

G'am — qattol hukmdor.

M. Yu. LERMONTOV

Qattiq alam va behad quvonch kishiga qariyb bir xil ta'sir ko'rsatadi, ular to'satdan bizga yopirilganda shunday dovdiratib va hovliqtirib qo'yishi mumkinki, natijada ko'pincha o'zimizning hamma qabilyatlarimizdan mahrum bo'lib qolamiz.

G. FILDING

Qayg'u — bu yo'qotilgan, ammo hali ancha rohatini surish mumkin bo'lgan baxt haqida o'ylash oqibatidagi ruhiy bezovtalikdir yoki hozirgi daqiqada cheki-layotgan alamdan iztirobga tushishdir.

G. LEYBNITS

Qiziq, sevinch ba'zan ko'p jihatdan qayg'uga o'xshab ketadi-yu, lekin, afsuski, qayg'u hech qachon sevinchga o'xshamaydi.

P. V. VALUYEV

Qayg'u dardmanning og'zini bir me'yorda yumishi ham, ochib yuborishi ham mumkin.

M. SERVANTES

Arzimagan g'am-g'ussalar darrov tilga chiqadi, chuqur qayg'u esa unsizdir.

SENEKA

Sukut — inson qayg'usining butun zahmatini chekkan oddiy qalbga boshpana misol.

V. GYUGO

Quvonch gashtini surish oson, yaxshisi, boshingga tashvish tush-ganda bardam bo'li!

Sh. RUSTAVELI

Barcha tuyg'ularimiz ichidagi eng esdan chiqmaydigani — qayg'u.

O. BALZAK

Men boshga tashvish tushganda tabassum qiladigan, qayg'uni yenga turib kuch oladigan va tafakkurni mardlik manbai hisoblaydiganlarni e'zozlayman.

T. PEYN

Inson uchun g'amdan yomoni yo'q.

MENANDR

Qayg'u yengilayotgan odamni ko'rsa, battar kuchga kiradi.

V. SHEKSPIR

Qayg`uda ham ulug`vorlik bo`ladi. Ko`z yoshi to`kishning ham me`yori bor, faqat aqlsiz odamlar sevingan paytlarida ham, kulfatli damlarda ham hovliqib qoladilar.

SENEKA

Qalb iztiroblari kishini har qanday ishdan ham ko`iroq charchatadi.

O`. KAMOL

Kulfat damlaridagi eng yax-shi malham ruhiy bosiqlikdir.

PLAVT

Haqiqiy qayg`u andishali bo`ladi.

E. GEBBEL

Har qanday qayg`udan ham uning dahshati zo`rroq.

I. SHOKKE

Eng bedavo qayg`u — uni hadeb o`ylayverishdir.

M. EBNER-ESHENBAX

Kulfatdan xavotirlanish kulfatning o`zidan ko`ra doimo dahshatliroq va og`irroqdir.

D. I. PISAREV

Tunu kun qo`rqinchda yashagandan ko`ra yovuz qismat ham durust.

F. SHILLER

Ba`zan biz judolikning o`zidan ham taskin topamiz, ba`zan esa orttirgan narsamizdan achchiq-achchiq yig`laymiz.

V. SHEKSPIR

Baxtsizliklarimizning ko`pi ular to`g`risida do`stlarimiz beradigan taskindan ko`ra yengilroqdir.

K. KOLTON

O`zgalarning baxtsizligiga chidash masalasiga kelganda bizlarning har birimiz yetarli kuchga egamiz.

F. LAROSHFUKO

Doimo baxtsizlar aybdor:yashaganlari uchun ham, gapirganlari uchun ham, boshqalarga muhtoj bo`lganlari va ularga ko`maklasholmaganlari uchun ham aybdordirlar.

O.MIRABO

Inson hech qachon o`ziga tuyulganchalik baxtli yoki baxtsiz bo`lolmaydi.

F. LAROSHFUKO

O`z ahvoldingdan qanoatlanishing uchun o`zingni o`zgalarning og`irroq ahvoli bilan solishtirib ko`r.

B. FRANKLIN

Boshingga qayg`u tushganda atrofingga qarab, o`zingni bos: senga qaraganda qismati og`irroq kishilar ham bor.

EZOP

Dilingni yorsang, ko`pincha darding yoziladi.

P. KORNEL

Odamlar boshlariga qayg`u tushganda taqdiridan, xudolardan va boshqa istagan narsalardan zorlanadilaru, ammo o`zlaridan sira zorlanmaydilar.

AFLOTUN

Beparvolik ming turli sitamlarning sababchisidir.

A. JOMIY

Baxtsizlik faqat kurash bilan yengiladi.

A. SHENE

Olamda yo`q tuganmas qayg`u Va yo`qdir davasiz g`ussa ham.

A. K. TOLSTOY

Hamma narsa, hatto g`am-alam ham eskiradi.

G. FLOBER

Vaqt hamma jarohatlarni davolaydi.

MENANDR

Aql tufayli va vaqt o`tishi bilan yumshamaydigan musibat yo`q.

F. ROXAS

Qayg`u vaqt qanotida uchib ketadi.

J. LAFONTEN

Qat`iy e`tiqod va g`ayrat kerak — muhimi shu, umidsizlik esa faqat faoliyatsizlikka olib boradi.

N. P. OGAREV

Ko`ngil iztiroblariga kurashsiz bo`ysunish — yengilmay turib jang maydonini tashlab ketish bilan barobar.

E. TELMAN

Ko`ngil jarohatlari vaqt o`tishi va yana ish bilan tuzaladi. Bilakda kuch bor ekan, ishlash kerak!  
Yurakka bundan ortiq davo yo`q.

J. FABR

Ko`ngil iztiroblaridan qutulishning birdan bir yo`li mehnatdir.

P. I. CHAYKOVSKIY

Kulfatdan hayiqma, uning ustiga to`g`ri bostirib bor.

VERGILIY

## Umid haqida

Inson hayotida eng ko'p foyda beradigan narsa — umid.

A. F. VELTMAN

Hammamiz uchun nima mushtarak? — Umid; chunki odamning hech narsasi bo'lmasa ham umidi bor.

FALES

Hatto juda keksayib qolgan odamlar ham umid bilan yashaydilar va o'z ahvollarini yaxshilash uchun rejalar tuzadilar.

J. LEOPARDI

Inson tirik ekan, hech qachon umidsizlanmasligi kerak.

SENEKA

Dard, o'kinch, afsus, noumidlik — bular o'tkinchi, qalbdagi ildiz otmaydigan musibatlardir; alamli tuyg'ular ta'sirida baxtsizlikdan sira qutulmaymiz, deya o'ylashimiz ham mutlaqo soxtaligi tajribadan bizga ma'lum.

J.J. RUSSO

Umid bilan istak o'zaro bir-birini ta'qib qilib yuradi, biri soviganda ikkinchisi ham soviydi, biri alanga olgan paytda, keyingisi qaynab ketadi.

F. PETRARKA

Hamisha umid bilan yashamoq, hech qachon tugakunlikka berilmaslik chinakam mard odamning fazilatidir.

LUSIY FLOR

Umidsiz kishi langarsiz kema kabidir.

E. TELMAN

Umid tungi osmon monanddir: zo'r berib tikilgan nigoh oqibat-natijada biron-bir go'shadagi yulduzni topmasdan qolmaydi.

O.FELE

Tirik odam hali hech narsani yo'qotmadim, desa bo'ladi.

R. ROLLAN

Har qanday tumanda ham yo'l topib yursa bo'ladi. Eng muhimi dadillik bilan olg'a borishdir.

R. ROLLAN

Har qancha og'ir musibatlar ham aqlu idrok va vaqt ta'sirida malham topadi.

F. ROXAS

Hamma narsani boy berilgan taqdirda ham hali oldinda kelajak bor.

K. BOUVI

Hech qaysi tabib toliqqan vujud va azob chekkan qalb uchun umidchalik dori topib berolmaydi.

S. SVEYG

Umid, garchi aldoqchi bo'lsa ham, harqalay, hayotimizni risoladagidek yakunlashimizga xizmat qiladi.  
F. LAROFUSHKO

Sevinchga umid bog'lashning yetishib turgan farog'atimizdan ozgina farqi bor.  
V. SHEKSPIR

Baxtli kunlarni kutish ba'zan o'sha kunlarning o'zidan ancha yaxshiroq bo'ladi.  
K. G. PAUSTOVSKIY

Umid hech qachon odam to'ymaydigan boylikdir.  
L. VOVENARG

Umr bo'yi bizga hamroh bo'lgan umid hatto o'lim to'shagida ham bizni tark etmaydi.  
A. POP

Hatto qabr yoqasida ham umid yashaydi.  
I. GYOTE

Diling kuymasin, noumidlik bilan  
Yorug' kun tug'ilgay qaro kechadan  
SA'DIY

Umid yurak yorilib ketmasligi uchun qalqondir.  
T.FULLER

Umid tugagan joy huvillab qoladi.  
LEONARDO DA VINCHI

## Mehnat haqida

Ishchi mehnati, dehqon g'allasi — shu ikki o'q atrofida tezkor davr shitob bilan oqib bormoqda va butun hayot shu o'qlar atrofida aylanmoqda.

V. V. MAYAKOVSKIY

Jamiyatning butun boyligi beistisno o'sha jamiyat mehnati bilan belgilanadi.

D. I. PISAREV

Ozod mehnat — dunyoni to'ntarish uchun Arximed talab qilgan tayanch nuqtasi ham shu.

M. GORKIY

Butun umrim davomida mehnatsevar va ishlashni bilgan odamlarnigina chinakam qahramon, deb bilganman.

M. GORKIY

Mehnat bizning zamonda buyuk huquq va buyuk burchdir.

V. GYUGO

Madaniyat yuksakligi doimo to'g'ridan-to'g'ri mehnatga muhabbat bilan bog'liqdir.

M. GORKIY

Madaniyat qanchalik yuksak bo'lsa, mehnat shunchalik yuksak qadrlanadi.

V. ROSHER

Mehnat hamisha inson hayoti va madaniyatining asosi bo'lgan.

A. S. MAKARENKO

Hamma narsa mehnat sharofatidandir. Hamma narsa — inson mehnatidan, tarixning shiori shu.

D. I. MENDELEYEV

Hayotda hech narsa mashaqqatli mehnatsiz qo'lga kiritilmaydi.

GORATSIY

Biz yashayotgan dunyo so'z bilan emas, balki faoliyat, mehnat bilan yaralgan.

M. GORKIY

Vijdonan bajarilgan harqanday mehnat foydalidir, binobarin, u hurmatga loyiq.

STENDAL

Har qanday mehnat olijanoblikdir va faqat mehnatgina olijanob.

T. KARLEYL

Har bir odam nimadir bajarmoq uchun dunyoga keladi. Yer yuzida yashab yurgan har bir insonning hayotda o'z vazifasi bor.

E. XEMINGUEY

Qilayotgan ishingni sevishing kerak, ana shunda mehnat — hatto eng og'ir mehnat ham — ijodga aylanadi.

M. GORKIY

Dildan mehnat qilgan odam har qanday ishni ham san'at darajasiga ko'taradi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Jismoniy mehnat nafaqat aqliy faoliyat imkoniyatini inkor etadi, nafaqat uning qadrini oshiribgina qoladi, aksincha, aqliy mehnatni kuchaytiradi.

L. N. TOLSTOY

Zo'r berib mehnat qilinmasa, na iste'dod va na daho tug'iladi.

D. I. MENDELEYEV

Ulug' kishilarni mehnat yetiltiradi.

SENEKA

Shon-sharafga olib boradigan yo'l mehnatda.

PUBLILIY SIR

Shon-sharaf mehnatning qo'lida.

LEONARDO DA VINCHI

Mehnatdan, kollektiv, ahil, ozod mehnatdan bo'lak har qanday kuch ham insonni bu qadar buyuk va dono qilolmaydi.

M. GORKIY

Birgalikda qilingan mehnat kishilarda shunchalik g'ayratshijoat uyg'otadiki, yakka holda kamdan-kam bunday samaraga erishish mumkin.

R. EMERSON

Odamzodning irodasi, mehnati, hayratomuz ajoyibot yaratur!

N. A. NEKRASOV

Doimiy mehnat san'atning ham, hayotning ham qonunidir.

O.BALZAK

Inson tabiatida chuqur ildiz otgan ehtiyojlardan biri — ko'ngil istagan ishni tanlash va uni rang-barang qilishga intilishdir.

A. BEBEL

Mehnat miya va mushaklar faoliyatidir, u tabiiy, ichki ehtiyojdan kelib chiqadi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Mehnatga ko'nikkandan keyin usiz yashab bo'lmaydi. Bu dunyoda hamma narsa mehnat bilan bog'liq.

L. PASTER

Kingaki ish bo'ldi qanoat fani, bilki, ani qildi qanoat g'aniy.

A. NAVOIY

Inson mohiyati hammadan ko'ra yaxshiroq, hammadan olijanobroq va mukammalroq tarzda uning



faoliyati, uning mehnati va ijodida namoyon bo'ladi.

A. FADEYEV

Namaiki mehnatsiz, o'ng'ay orttirilgan bo'lsa, u harqalay shubha qilishga arziydigan omonat boylikdir.

L. M. LEONOV

Faoliyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ko'nikma va u orqali qo'lga kiritilgan ishlash qobiliyati buyuk yutuqdir. Qiladigan ishi bo'lmagan vaqtida ham qo'l qovushtirib o'tirmagan odam payti kelishi bilan faol harakat qila oladi.

V. G. BELINSKIY

Mehnatsevarlik kundalik hayotiy yumushlarda har qanday buyuk aql egasi qila oladigan va shu bilan birga u qila olmaydigan ko'pgina ishlarga ham qodirdir.

G. BICHER

Ishchining jismoniy g'ayrati mo'jizalar yaratishga qodir.

M. GORKIY

Hech bir millat toki yer haydash ham — doston yozishdek munosib ish ekanligini tushunib yetmas ekan, u yuksaklikka ko'tarilolmaydi.

B. VASHINGTON

Oyog'ida tik turgan dehqon tiz cho'kkan oliftadan ming bora afzal.

B. FRANKLIN

Birdan-bir chinakam davlat inson mehnatidir.

A. FRANS

Mehnat chinakam olijanoblikning yagona unvonidir!

R. ROLLAN

Inson mehnat yordamida kamol topadi.

T. KARLEYL

Mehnat odamni yuksaklikka ko'taradi.

V. G. BELINSKIY

Odamni hech narsa mehnatchaliik yuksaklikka ko'tarmaydi. Odam mehnatsiz o'z insoniy qadr-qimmatini saqlay olmaydi

L. N. TOLSTOY

O'ziga xoslik va o'z qadrini bilish faqat mehnat va kurash bilan qo'lga kiritiladi.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Mehnat insonda ijodiy kuch uyg'otadi.

A. N. TOLSTOY

Shunday sharoitda yashash kerakki, mehnat zaruratga aylansin. Mehnatsiz sof va quvnoq hayot bo'lishi mumkin emas.

A. P. CHEXOV

Inson kim bo'lishidan qat'iy nazar, mehnat qilishi, terga botib ishlashi kerak, uning yashashdan maqsadi, baxti va hayajonlari ham ayni shu mehnatda mujassamlashgan.

A. P. CHEXOV

Butun irodani ishga solib mehnat qilish kerakki, irodamiz xuddi minaga o'xshab portlasinu to'siqlarni uloqtirib tashlasin.

J. FABR

Ishlamoq, ishlamoq va doimo ishlamoq kerak. Aks holda, tiriklikdayoq mog'or bosib qolasan.

G.GAUPTMAN

Yashamoq ishlamoq demakdir. Mehnat — kishining hayoti.

F. VOLTER

Inson mehnat qilayotgan vaqtdagina tom ma'noda inson-ga aylanadi.

J. GYUYO

O'zingni boshqalar uchun mehnatda kamol toptir — asosiy qonun mana shu.

Ya. RAYNIS

Toki seni ish zo'rlamasdan butun ishingni o'zing zo'rla.

B. FRANKLIN

Ish bizni uch xil illatdan: zerikish, qusur, muhtojlikdan halos etadi.

F. VOLTER

Yesam arpa nonini mehnat bilan, Shirindir birovlarning oq nonidan.

SA'DIY

Hayot kemasi mehnat langariga suyanmasa, hamma shamollaru dovullarga dosh berolmaydi.

STENDAL

Odamlar uchun haqiqiy xazina — mehnat qila bilishdir. Kunda mehnat qilib o'rganganlar nogiron va qari bo'lsalar ham kuchli va ko'nikmasi yo'q o'spirinlarga qaraganda ishni oson bajaradilar.

GIPPOKRAT

Mehnat ishlayotgan kishi bilan shu mehnat foyda keltirayotgan jamiyat o'rtasidagi eng mustahkam va ishonchli aloqadir.

D. I. PISAREV

Insoniyat farovonligi yo'lida mehnat qilish qanchalar buyuk ishdir!

A. SEN-SIMON

Mehnat hayot qonuni ekanini bolaligidanoq bilib olgan, non peshona teri bilan undirilishini yoshligidanoq tushungan odam jasorat ko'rsatishga qodirdir, chunki zarur kun va soatda u jasorat ko'rsatishga o'zida iroda ham va bunga kuch ham topa oladi.

JYUL VERN

Jamiyat va o'zi uchun befoyda bo'lishdan hamda aqlu idrokni hech qanday ish qilmaslikka sarflashdan ham ortiqroq uyatli narsa, yo`q.

B. PASKAL

Mehnat kishini yerga urmaydi; afsuski, ba'zan mehnatni yerga uradigan odamlar uchrab turadi.

U. GRANT

Qilayotgan ishing toza bo'lmasa ham undan uyalma, faqat bir narsadan: bekorchi hayotdan uyalish mumkin va uyalish lozim.

L. N. TOLSTOY

Hatto eng nozik jismoniy yoki axloqiy fazilatlar ham ishlab chiqarishda qatnashmay turib tekintomoqlik qilishdek ijtimoiy gunohni yuvishga ojizlik qiladi.

B. SHOU

O'zini mehnatdan ozod qilish — jinoyat.

L. N. TOLSTOY

Ishyoqmas va tekinxo'r odamlar asalari qutisidagi zahmatkash ari yiqqan asalni yeb qo'yuvchi tekintomoq ariga o'xshaydilar.

M. SERVANTES

Tekinxo'rlarni yo`q qilish va mehnatni ulug'lash tarixning doimiy tendentsiyasi bo'lib kelgan.

A. N. DOBROLYUBOV

Yuvindixo'rlar, parazitlar, xushomadgo'ylarga xalq aql-zakovatiga zid bo'lgan istisno tariqasida qarovchi qadimgi Afina singari mamlakat, ularni telbalik deb qarovchi mamlakat— bunday mamlakat erkin va mustaqil mamlakatdir.

K. MARKS

Kelajak bundan buyon ikki xil toifa kishilar: aqliy va jismoniy mehnat kishisi qo'lidadir. Aslida ular bir butunlikni tashkil etadi, zero fikrlash mehnat qilish demakdir.

V. GYUGO

Har qadamda ishdan o'zini olib qochishga urinuvchi, boshqalar mehnatiga tomoshabin bo'lib turuvchi, ular mehnatining mevalaridan foydalanuvchi odam jamiyatdagi eng axloqsiz odamdir.

A. S. MAKARENKO

Mehnatni xalq qadrlar, muqaddas u, do'stlar, bas,  
Usiz bizning umrda muhabbat yo`q, baho yo`q.

Qayda mehnat bo'lmasa u yerda bog` gullamas,

Qayda ishga mehr yo`q, u yerda hech vaqo yo`q.

S. N. SERGEYEV-SENSKIY

## O'z-o'zini anglash va burch tuyg'usi haqida

Eng qiyini o'zingni anglay bilishingdir.

FALES

Kishi o'zini qanday anglashi mumkin? Harqalay, xayolparastlik bilan emas, faqat faoliyatda anglashi mumkin. O'z burchingni ado et, o'sha zahoti o'zingni anglaysan.

I. GYOTE

Inson mushohada bilan emas, balki harakatda o'z-o'zini anglaydi. Qilinishi lozim bo'lgan ishga kuch-g'ayrat sarflagandagina u o'zining kimligini biladi.

I. GYOTE

Burchingni ado etishga harakat qil, shunda darhol o'zingning kimligingni bilib olasan.

L. N. TOLSTOY

Kishi o'z qobiliyatlarini amalda tatbiq etgan taqdirdagina bilishi mumkin.

SENEKA

Insonning haqiqiy fazilati kerak bo'lgan chog'ida, uni ish bilan ko'rsatib, ishda isbotlagan taqdirdagina namoyon bo'ladi.

L. FEYERBAX

Qalbimizning go'zal intilishlariga, agar ular faqat intilish bo'lib qolaverar ekan, biz hech qachon amaliy ahamiyat bermaymiz; ha, biz faqat faktlarni qadrlaymiz va faqat qilgan ishiga qarab odamlarning fazilatini belgilaymiz.

N. A. DOBROLYUBOV

Ko'zga tashlanib turmagan saxovatni hech kim axtarib o'tirmaydi.

O. BALZAK

Jamiyat amalda isbotlangan yaxshi fazilatlarnigina e'tirof etadi va hurmatlaydi... Kimda-kim o'z bahosini aniq bilmocqchi bo'lsa, uni faqat xalqdan bilishi mumkin, binobarin, o'zini xalq hukmiga havola qilishi kerak.

K. GELVETSIY

Eski gumanizm bunday der edi: «Sen nima bilan shug'ullansang ham menga baribir, menga sening insonliging muhim». Sotsialistik gumanizm bunday deydi: «Agar sen hech narsa bilan shug'ullanmasang va hech ish qilmasang, sen qanchalik aqlli va yaxshi bo'lsang ham seni inson deyolmayman».

A. A. FADEYEV

...Odamga u o'zi haqida nima deyishi yoki nima o'ylashiga qarab emas, balki qilayotgan ishiga qarab baho beriladi.

V. I. LENIN

Na o'zingizning, na bironing gapiga emas, o'zingizning va boshqalarning ishiga ishonung.

L. N. TOLSTOY

Hammamizning yagona langarimiz borki, agar o'zimiz xohlamasak, hech qachon undan yiqilmaymiz: u bizning burchimiz.

I. S. TURGENEV

Burchingni unutma, u birdan-bir dil navosidir. Burchsiz hayot ham, ehtiros ham yo'q.

A. BLOK

O'z burchini bajarishdan mamnun odamgina erkin yashaydi.

SITSERON

Insonni o'z majburiyatlariga bog'lab turgan burch hissi,— mayda manfaatlar ustidan g'olib chiquvchi yuksak manfaatlarni anglab yetganidan boshqa narsa emas.

N. BENTAM

Burch! Sen avj pardadagi buyuk so'zsan... Bu shunday buyuklikki, chindan ham insonni o'zidan ham yuksaklikka ko'taruvchi buyuklikdir.

I. KANT

Burchga sodiqlik shaxsiy manfaatlardan voz kechishni talab qiladi.

V.GYUGO

Kichik bo'lsa ham har kuni biron-bir burchni ado etish — ajoyib ish.

E. DELAKRUA

Ado etilgan burch ulug'vorligidan ko'ra zo'rroq ulug'vorlik yo'q, undan zo'rroq quvonch qam yo'q.

E. RENAN

Inson o'z burchini bajarar ekan, o'zi majburan qilayotgan ishiga muhabbat bilan qaraydi.

I. GYOTE

Burchini sevmay turib, uni bajarib bo'lmaydi.

I. A. GONCHAROV

Mas'uliyat hissidan nur olmagan hayot aslida hech narsaga arzimagan bo'lur edi.

S. SMAYLS

Burchdan voz kechib va o'z vazifasini tan olmagan holda, yana o'zi uchun hamma huquqlarni talab qilish to'ng'izlikdan boshqa narsa emas.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Hayotdagi eng zo'r huzur-halovat ado etilgan burchdan zavqlanishdir.

U. GEZLITT

Burchga sadoqat xarakter gultojidir.

N. V. SHELGUNOV

Umumaxloq qoidalariga nisbatan hurmatimiz ayni shu burch tuyg'usining o'zidir.

A. SMIT

Burch va nomus yo'lini hech vaqt tark etmang, bu bizni baxtga erishtiradigan yagona yo'ldir.  
J. BUFFON

Baxtsizlikda burchga sodiq qolish buyuk xislatdir.  
DEMOKRIT

Har doim o'z burchingizni ado etishga intiling, shunday qilsangiz, muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdiringizda ham insoniyat sizni kechiradi.  
T. JEFFERSON

O'z burchini sidqidildan ado etgan odam o'z quvonchi bilan o'zini mukofotlaydi va birovlarining maqtovi, izzat-ikromi, minnatdorchiligiga ham zor bo'lib o'tirmaydi.  
J. LABRUYER

## Faoliyat haqida

Insonning vazifasi oqilona faoliyatdir.

ARASTU

Ilgarilari tabiati boy mamlakatlar eng badavlat mamlakatlar hisoblanardi, endilikda odamlari g'ayratli bo'lgan mamlakatlar — badavlat hisoblanadi.

G. BOKL

Inson faoliyat uchun yaratilgan. Faoliyatsizlik esa yo'qlik degan so'z.

F. VOLTER

Hayot bilan faoliyat alanga va yorug'lik singari o'zaro chambarchas bog'langandir.

F. N. GLINKA

Ish qilishdan to'xtasak — yashashdan to'xtaymiz.

B. SHOU

Hech narsa qilmaslik yashamaslikdir... Kimki diliga hayot manbai, ya'ni jonli faoliyat manbaini jo etib yurmas ekan, kimki o'ziga ishonmas ekan,— u doimo hamma narsani tashqaridan va tasodifdan kutadi.

V. G. BELINSKIY

Chinakam g'ayrat sohibi yo'lga chiqishi bilanoq ro'parasida darhol shu qadar ko'p ishlarni ko'radiki, oxir-oqibat u boshqalarning ishlatmayotganidan ham shikoyat qilmaydi, nimadir bir ish topib, nimadir qilishga ham ulguradi.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Borliqning elementi — mehnat va borliqning eng aniq belgisi faoliyatdir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Hech qanday mavqe faoliyatsizlikni oqlay olmaydi; har doim ham nimadir bir ish qilish mumkin; iloji bor bo'lgan ishni hamisha bajarish kerak.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Ishchanlikning mukofoti o'zi bilan. Harakat qilish, yaratish, vaziyat bilan kurashga kirishish, uni yengish yoki o'zini yengilgan his qilish, mana, quvonch qaerda; insonning butun sihat-salomatligi ham mana shunda!

E. ZOLYA

Buyuk ishlar tezda yuzaga chiqmaydi.

SOFOKL

Bordi-yu haddan tashqari o'zbiarmonlikka berilib, birinchi martadayoq juda ko'p qo'shimcha ma'lumotlar, fikr bildirishda aql yetukligi va hayot tajribasi talab qilinadigan ishda o'z kuchini sinab ko'rmoqchi bo'lgan odam, eng noyob iste'dod egasi bo'lsa ham osongina o'zini sharmanda qilib qo'yadi.

N. I. PIROGOV

Yirik muvaffaqiyat avval nazarda tutilgan va puxta o'ylangan behisob mayda chuydalardan tashkil topadi.

V. O. KLUCHEVSKIY

Inson faoliyati yuksak g'oya bilan sug'orilmagan bo'lsa, samarasiz va hech narsaga arzimaydi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Hech narsa hayotni yagona maqsadga qaratilgan faoliyatdek zavqli qilolmaydi.

F. SHILLER

Har bir odamga muayyan bir faoliyat turi hamroh bo'ladi, bu faoliyat uni jamiyat uchun foydali kishiga aylantiradi va ayni paytda unga baxt keltiradi.

M. BARRES

Faqat harakatgina ezgulikning haqiqiy qadr-qimmatini belgilaydi.

SITSERON

Bizning asosiy vazifamiz nigohimiz va e'tiborimizni olis ufqlardagi narsalarga qaratishda emas, balki bevosita o'zimizga yaqin yumushlarni bajarishdadir.

T. KARLEYL

Hamma kobilyatlarning sarvari sog'lom fikrdir. Xayrli ishning o'zi kifoya emas, bu ishni vaqtida va mavridi bilan bajarmoq lozim. Iste'dod egasi nima qilish zarurligini biladi, ichki me'yor qachon va qanday ish qilish lozirligini aytib turishi kerak.

U. METYUZ

Maqsad aniq bo'lmasa, hech bir ishni ko'ngildagidek bajarib bo'lmaydi.

A. S. MAKARENKO

Asossiz ish, nimaga qaratilganidan qat'iy nazar, doimo inqiroz bilan tugaydi.

I. GYOTE

Eng halokatli xatolarimizdan biri — yaxshi ishni ham yomon bajarib, barbod berishi mizdir.

U. PENN

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun bilim qatori o'sha darajada ishbilarmonlik ham kerak.

P. BOMARSHE

Harakatchan kishilar odatda omadli bo'ladilar, aksincha, qiladigan ishlarini hadeb o'ylayveradigan va sustkashlik qiladiganlarga omad kamdan-kam nasib etadi.

GERODOT

Biron-bir ishni bajarolmayman deb ko'ngilga keltirdingizmi, shu paytdan boshlab uni amalga oshirish siz uchun g'oyat mushkul bo'lib qoladi.

V. SPINOZA

Ikkilanish — kuchni yo'qotish demakdir.

O. BALZAK



Ishning qadriga yetgan odam uning uchun jon kuydirishi kerak, aks holda, u o'zini boshqa hech narsada ko'rsatolmaydi.

I. GYOTE

Yutuq aksariyat dadil harakat qilguvchilarga nasib etadi, jur'atsiz, hadeb oqibatini o'ylayveradigan kishilarning esa ishi chappasidan ketadi.

J. NERU

Bizning asosiy kamchiligimiz shundaki, biz ishdan ko'ra ko'proq muhokama qilishga berilib ketamiz.

J. NERU

Istakning o'zi yetarli emas, harakat qilish kerak.

I. GYOTE

Insonning insonligi, fikrlari qanchalik olijanob bo'lmasin, fikrlaridan emas, balki qilgan ishlaridan bilinadi.

T. KARLEYL

Ish fikr uchun emas, fikr ish uchun yaralgan.

F. VOLTER

Kishilarning faoliyati — fikrlarining eng yaxshi tarjimonidir.

J.LOKK

Ishni so'zga aylantirishdan ko'ra so'zni ishga aylantirish ancha qiyin.

M. GORKIY

So'z hamisha ishga nisbatan botirroq bo'ladi.

F. SHILLER

Ko'pincha shunday bo'ladiki, kerakli ishni qilishni istamagan odam dabdabali so'zlar bilan niqoblanadi.

N. K. KRUPSKAYA

Dangasalar doimo nimadir qilmoqchi bo'ladilar.

L. VOVENARG

Kimki yoshi bir joyga borgan bo'lsa ham ish o'rniga gap sotsa, u inson deb atalishga haqli emas.

Ya. KOMENSKIY

Suhbat va so'zlar ham kerak, lekin ular muqaddima xolos, hayotning tom ma'nosi mehnatdadir, so'zdan ishga o'tishda, ularni bir-biri bilan uyg'unlashtira bilishdadir.

D. I. MENDELEYEV

Faoliyat bilimlarga olib boradigan yagona yo'ldir.

B. SHOU

Harakat nazariya va amaliyotning jonli birligidir.

ARASTU

Ma'naviy boyligingiz qanchalik mustahkam bo'lsa, fikringiz, so'zingiz, ishingiz ham o'zaro shunchalik chambarchas bog'lanib ketgan bo'ladi.

N. I. PIROGOV

## Inson va mehnat

Yashash uchun biron-bir ishni bilmoq kerak.

M. GORKIY

Odamning nima qilayotganiga qarab uning kimligini aytib bersa bo'ladi.

G. GEGEL

Kishining qalbi uning qilgan ishlarida aks etadi.

G. IBSEN

Xar qanday odamga uning qilgan ishlarigya qarab baho berish kerak.

M. SERVANTES

Har birimiz — o'z ishlarimizning farzandimiz.

M. SERVANTES

Haykalni ko'rinishi, odamni esa qilgan ishlari bezaydi.

PIFAGOR

Inson umr bo'yi biron-bir ish qilishi kerak — umr bo'yi!

M. GORKIY

O'zingni ayama, bu yer yuzidagi eng tanti, eng go'zal donishmandlikdir. Yashasin o'zini ayamaydigan inson.

M. GORKIY

Ertaga nima ish qilishini bilmaydigan odam baxtsizdir.

M. GORKIY

Bu kungi ishni tonglag'a qo'maslar.

A. NAVOIY

Ishlaringni tezroq bajar, yer yuzida hali qilinadigan ishlar ko'p.

K. SETKIN

Inson o'z kuchini qayta tiklamoq maqsadidagina tungi hordiq uchun to'xtamog'i darkor. To'xtab qolgan hayot esa o'lim bilan barobar.

R. ROLLAN

Gar faollik ko'rsatmasangiz,

Ne naf aql xazinasidan.

Sh. RUSTAVELI

Ertalab o'rningdan turib o'zingdan: «Nima ish qilishim kerak?», kechqurun yotishdan oldin esa: «Nima ish qildim?» — deya so'ra.

PIFAGOR

Har bir kishi asosan qo'lidan keladigan va o'ziga yarashadigan ishga urinishi zarur.

## ARASTU

Qilayotgan ishingizga yurak qo`ringizni qo`shing, lekin avvalo uning ezgu ish ekanligiga ishonch hosil qiling.

J. RESKIN

O`zingizdan: «Jiddiy ish bilan shug`ullanyapmanmi yoki bo`lmag`ur ish bilanmi?» — deb so`rashingiz hech qachon kechmas.

A. P. CHEXOV

Kishi o`zining va jismoniy hayotida va na ijtimoiy hayotida qo`lidan kelmaydigan ishga qo`l urmasligi kerak.

N. SHAMFOR

Hamma ishni birdaniga bajarishga urinish — hech narsa qilmaslik bilan bab-barobar.

G. LIXTENBERG

Hali u ishga, hali bu ishga urinish — o`ziga-o`zi suiqasd qilish demakdir.

Sh. GUNO

Ikki kishi ayni bir ishni qilsa, undan hech narsa chiqmaydi.

TERENSIY

Ishda oshiqqan ko`p toyilur,

Ko`p toyilg`on ko`p yiqilur.

A. NAVOIY

Biz hammamiz, afsuski, hamma ishga ham bir xilda yaroqli emasmiz.

PROPERSIY

Qurbi kelmagan ishga uringan — Nasibasiz, baxtadan suringan.

N. XISRAV

Qo`lidan keladigan ishga emas, o`zi tushunmaydigan ishga qo`l urgan kishi baxtsizdir.

I. GYOTE

Qurbing yetmagan ishga urinish bema`nilikdir. Ishni buzasanda, rasvosi chiqadi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Tug`ilishdan nimagaki bo`lsang qodir,

Shuni qilgil, sening uchun shu ish nodir.

I. A. KRILOV

Iqtidoring yetmagan ishni qilma,

Sababsiz o`zingni donishmand bilma.

N. XISRAV

Ish — qaysar va kuchli hayvondek gap, uni ustalik bilan boshqarish kerak, jilovini yaxshi tutmasang, seni yengib qo`yadi.

M. GORKIY

Agar sen nimadir qilayotgan bo'lsang, yaxshilab bajar. Yaxshi bajarish qo'lingdan kelmasa yoki xohlamasang, yaxshisi, u ishni yig'ishtirib qo'y.

L. N. TOLSTOY

...Shaxs nima ish qilayotgani bilangina emas, balki shu ishni qanday bajarayotgani bilan ham xarakterlanadi...

F. ENGELS

Ikki bora qilingan ish puxta bo'ladi.

J. XAUPELL

O'n bora ko'p ish qilgandan ko'ra bittagina ishni tobiga yetkazgan ma'qul.

ARASTU

Ish mehr bilan bajarilgan taqdirdagina uni yaxshi ish deb baholash mumkin.

J. RESKIN

Ishni muhim deb bilsang, uni to'g'ri bajarasan.

PLAVT

Har qanday ishni yaxshi ado etmoq uchun uni sevish kerak.

M. GORKIY

Haqiqiy ehtiros va mehr bo'lmasa, har qanday ish ham yurishmaydi.

I. P. PAVLOV

Agarda xohish bo'lmasa har qanday ish ham og'ir, samarali chiqishi va muhimligiga to'la ishonib kirishgan har qanday ishimiz esa yengil ko'chadi.

G. V. PLEXANOV

Deyarli hamma ishda eng qiyini boshlab olishdir.

J.J. RUSSO

Ishni yaxshi boshlasang — yarmini bajardim deyaver.

AFLOTUN

Ishning boshi — ishning yarmidan ham ko'proq.

ARASTU

Nimadir qilish uchun unchalik ko'p kuch ham kerak emas, ammo ayni nima qilish kerakligini hal etish esa haqiqatan ham katta kuch talab etadi.

K. XABBARD

Har qanday olijanob ish ham avvaliga juda mushkuldek bo'lib tuyuladi.

T. KARLEYL

Hech qachon katta qiyinchiliksiz katta ish bo'lmaydi.

F. VOLTER

Mashaqqati bo'lmagan, aql va irodani obdan safarbar etmagan ish yoki mashg'ulot insonga munosib emas.

U. CHEPNING

Yaxshi ishni qiyinchilik bilan bo'lsa ham bajarsang, qiyinchilik o'tib ketadi, yaxshilik qoladi, zavq bilan bo'lsa ham yomon ish qilsang, zavqi o'tib ketadi-yu, yomoni qoladi.

M. V. LOMONOSOV

Hech qanday ishga dabdaba bilan kirishmaslik kerak: tantanavorlik ish tugaganda yarashadi.

I. GYOTE

Inshi natijasiga qarab bahola.

OVIDIY

Birinchidan, hech bir ishni sababsiz va maqsadsiz qilma. Ikkichidan, jamiyat foydasiga o'tmaydigan hech bir ish qilma.

MARK AVRELIY

Ishni uning maqsadi boshqarib turadi, buyuk maqsadga qaratilgan ish buyuk ish deb hisoblanadi.

A. P. CHEXOV

Nima qilishingni oldindan bilsang, bu senga dadillik baxsh etib, ishing oson ko'chadi.

D. DIDRO

Mohiyati noma'lum ish hafsalani o'ldiradi.

J. FABR

Yaxshisi, ishga kirishishdan oldin o'ylab olgan ma'qul, keyin baribir befoyda.

DEMOKRIT

Istagan hamma ishingizni qilolmaganingizdan keyin qo'lingizdan keladiganining payida bo'ling.

TERENSIY

Agar odam bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki ishga qo'l ura,— ulardan biri so'zsiz amalga oshmaydi.

EZOP

Har safar qiyin ishni boshlashdan hech shoshma, ishga qarab, vaqtni qo'yib ber, shu qiyin ishga kirishishda o'ylamay, hovliqib qadam bosma, o'zingni unga yaxshilab safarbar et.

I. P. PAVLOV

Aqlli kishi ba'zan shoshadi-yu, ammo shoshilib ish qilmaydi sira.

P. CHESTERFIELD

Behudaga chiranma.

FIRDAVSIY

Ortiqcha shoshqaloqlik ham xuddi sustkashlik kabi yomon oqibatlariga olib keladi.

V. SHEKSPIR

Har kimsaki aylamas oshuqmoqni xayol  
Yaproqni ifak qilur, chechak bargini bol.

A. NAVOIY

Shoshib qilingan ishning umri qisqa.

SA'DIY

Keyin ko'p ish qilish uchun kuchingizni ayab sarflang, lekin kam ish qilishdan o'zni saqlang.

J.J. RUSSO

Har bir ishda, eng muhimi, ishlagingiz kelmay qolgan paytni yenga olishingizdir.

I. P. PAVLOV

Baxt xohlagan ishingni xohlagan paytingda qilaverishing emas, balki qilayotgan ishingni hamisha xohlab turishingdadir.

L. N. TOLSTOY

Chorasiz zarurat oni kelganda dovdirab qolmasliging uchun har kuni yoki kun oralab xohlamagan ishingni qilishga ham o'zingni majbur et.

U. JEYMS

Yaxshi ishning oxiriga yetkazilishi — uning mukofoti shu.

R.EMERSON

Ishga shoshilmay kirish, lekin uni boshlaganingdan so'ng qo'lingda mahkam tut.

BIAS

Har kim o'z ishida ulug'vor bo'lishi kerak.

B. GRASIAN

Buyuk ishni va'da qilmay turib, buyuk ish qil.

PIFAGOR

Har qanday buyuk ish avvalambor ko'zko'zlanmay, kamtarlik bilan va oddiygina bir sharoitda qilinadi: dabdaba va yaltiroqlik bilan na yer, chorva boqib bo'ladi, hatto fikr yuritib ham bo'lmaydi. Ulug'vor, chinakam ishlar hamisha oddiygina, kamtaronadir.

L. N. TOLSTOY

Ikkilanib turgan oningda tez harakat qil va ortiqcha bo'lsa ham birinchi qadamni qo'yishga urin.

L. N. TOLSTOY

Yarim yo'lda ishni chala tashlab, bundan nima chiqarkin, deb bir chekkada og'zini ochib turgan odam tentakdir.

F. SHILLER

Ish bormi — uni jadalroq tugatmoq kerak.

F. SHILLER

Buyuk odamlar hech narsani chala qoldirishmaydi.

X. VILAND

Ishlaringizning natijasiga boshqalar baho beradi, faqat qalbingizning toza va halol bo'lishiga harakat qiling.

J. RESKIN

Eng zo'r rohat boshqalar nazarida siz bajarolmaydigan ishni bajarishingizdir.

U. BEJOT

Qilgan ishlaring qariganingda eslab yurishga arziydigan bo'lsin.

MARK AVRELIY



## Mehnatdagi qat'iyat haqida

Muvaffaqiyatni kishi hayotda erishgan mavqe bilan emas, balki o'sha muvaffaqiyatni qo'lga kirita turib, u qanday to'siqlarni yengib o'tgani bilan o'lchash kerak.

B. WASHINGTON

Yengib o'tilgan to'siqlarning ko'pligina jasoratga va jasorat ko'rsatgan insonga haqiqiy to'g'ri baho bo'la oladi.

S. SVEYG

Buyuk qalb egasining qariyb butun sir-asrori qat'iyat degan so'zdir. Qat'iyat mardlik uchun g'ildirakning o'qidek gap; bu tayanch nuqtasining to'xtovsiz yangilanib turishidir.

V. GYUGO

Iste'dodli va mehnatga muhabbatli odam uchun hech qanday to'siq yo'q.

L. BETHOVEN

Mehnat bilan hamma narsaga erishsa bo'ladi.

J. BRUNO

Qunt va san'at hal etolmaydigan ish kamdan-kam uchraydi.

S. JONSON

Izchil mehnat hamma to'siqlarni yengadi.

M. V. LOMONOSOV

Har qanday to'siq qat'iyat bilan zabt etiladi.

LEONARDO DA VINCHI

Dunyoda hali hech bir yuksaklik yo'qki, uning cho'qqisini oxir-oqibatda qat'iyat zabt et magan bo'lsin.

Ch. DIKKENS

Qat'iyat — muvaffaqiyat garovi.

I. I. DMITRIYEV

Hamma odamlar ham buyuk ish qilishlari shart emas. Ko'pincha oddiy sabr-qanoatning o'zi ham kuch-qudratning buyuk ramziga aylanishi mumkin.

G. BUSHNELL

Sabr-toqatli odamning istagan narsaga erishishga ham sabr-toqati yetadi.

B. FRANKLIN

Sabr-toqat va vaqt besabrlikka qaraganda ko'p narsaga erishtiradi.

J. LAFONTEN

Kimki mayda ishni eplolmasa, kattasi ham qo'lidan kelmaydi.

M.V.LOMONOSOV

Kimki sekin va shoshmay yursa, har qanday manzil ham unga uzoqlik qilmaydi; kimki safarga chidam

bilan tayyorlansa, u soʻzsiz maqsadga yetadi.

J. LABRUYER

Nima hodisa yuz bermasin, biz sabr va iroda bilan hammasini yengamiz.

VERGILIY

Sabr bilan kutganlarga hamma narsa oʻz vaqtida keladi.

O.BALZAK

Sabr achchigʻu, lekin mevasi shirin.

J. J. RUSSO

Qatʼiyat peshona shoʻrini yuvadi.

G. FLOBER

Yarim ish qilindi, bunga shubha yoʻq,

Uyogʻiga bersin sabru tahammul.

I. GYOTE

Sabr va vaqt kuch yoki ehtirosga qaraganda koʻproq samara keltiradi.

J. LAFONTEN

Sabr-toqat orqali biz kuch bilan erishganimizga qaraganda koʻproq narsaga erishishimiz mumkin.

E. BERK

Nish unmas biyobon, shoʻrxok tuproq ham

Gulzorga aylanur sabr qilsa odam.

GULXANIY

Sabr bilan yumush bitar, sabrsizlar oʻz oyogʻidan ketar.

SAʼDIY

## Mehnat — rohat va baxt

Mehnat va rohat inson hayotining ikki muhim sharti — shaxsiy va ijtimoiylikni tashkil etadi.

V. VEYTLING

Mehnatning samaradorligini anglab yetish eng zoʻr lazzatlardan biridir.

L. VOVENARG

Mehnat va huzur-halovat tabiatan turlicha boʻlsa ham, baribir ular orasida qandaydir tabiiy bogʻlanish mavjud.

TIT LIVIY

Rohatning otasi koʻpincha mehnatdir.

F. VOLTER

Mehnat oddiy kunlarni ham bayramga aylantirib yuboradi.

Ya. RAYNIS

Faqat mehnatgina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va oʻz-oʻzidan qanoat tuygʻusini olib kirib, uni baxtiyor qiladi.

V. G. BELINSKIY

Hayotda eng asosiysi mehnatdir. Hamma kasofatlardan, hamma qiyinchiliklardan faqat bir yoʻl — mehnat bilan qutilish mumkin.

E. XEMINGUEY

Dunyodagi hamma shodlik, hamma ezguliklarning manbai mehnatdir.

M. GORKIY

Boqmasa dehqon chamanin tunu kun, Naql tarin ongl qurugʻon oʻtun.

A. NAVOIY

Faqat ichki, maʼnaviy, orom-baxsh mehnat kuchigina inson qadr-qimmatining, shu bilan birga axloqiy poklik va baxtiyorlikning manbai boʻlib xizmat qiladi.

K. D. USHINSKIY

Faqat mehnat, qatʼiy, astoydil qilingan mehnatgina kishiga maʼnaviy barkamollik bagʻishlaydi.

A. I. GERTSEN

Mehnat baxt padaridir.

B. FRANKLIN

Ishdan bir daqiqa ham boʻshamagan soatlaringda oʻzingni gʻoyat baxtli sezasan.

J. FABR

Kishi mutlaqo jiddiyat bilan mehnat qilmasa, yaʼni oʻzi yeydigan bir burda nonini oʻz mehnati bilan ishlab topmasa — u baxtli boʻlolmaydi.

D. I. PISAREV

Kishini tang qoldiradigan gumrohliklardan biri — inson baxti uning hech narsa qilmasligida, deb tushunilishidadir.

L. N. TOLSTOY

Baxtning eng zarur sharti — mehnat: birinchidan, sevimli va ozod mehnatdir; ikkinchidan, ishtaha ochadigan va qattiq, tiniqtirib uxlatadigan jismoniy mehnatdir.

L. N. TOLSTOY

Mehnat, mehnat! Mehnat qilayotganimda o'zimni qanchalar baxtiyor his etaman.

D. N. TOLSTOY

Mehnat odamlar uchun huzur-halovatdir.

EZOP

Ish mening birinchi huzur-halovatimdir.

V. MOTSART

Huzur-halovatga erishmoq uchun mehnat qil.

J. J. RUSSO

Jismoniy mehnat ma'lum sharoitlarda «mushaklarning shodligi»ga aylanadi.

I. P. PAVLOV

Faqat mehnatgina hayot safosini suring huquqini beradi.

N. A. DOBROLYUBOV

Baxt mehnatni takomillashtirib borishdadir.

Ya. RAYNIS

Dala, dastgoh, stol uzra bo'lmasin  
Ter to'kmoqlik, mehnat — muazzam shodlik!  
Tandan qaynoq ter chiqquncha bilma tin,  
Ishla, tirish, mehnatda bo'l otashin,  
Mehnat bilan dunyodagi obodlik!

V. Ya. BRYUSOV

O'z ishini topa olgan odam saodatlidir, u boshqa saodatni axtarmay qo'ya qolsin. Uning qiladigan ishi va yashashdan maqsadi bor.

T. KARLEYL

Agar siz ishni o'rinli tanlay bilsangiz va unga o'zingizni, butun qalbingizni baxsh etsangiz, baxtning o'zi sizni qidirib topadi.

K. D. USHINSKIY

Har doim o'z sevgan ishi bilan mashg'ul bo'lish insonning nodir baxtidir.

V. I. NEMIROVICH-DANCHENKO

Baxtga mehnat to'g'ri yo'l solgay,  
Boshqa yo'l baxt sari bormagay.

A. SHUKUR

Doimiy ravishda va izchil olib boriladigan biron-bir ish turmushdagi qolgan hamma narsalarni ham tartibga soladi, hamma narsa shuning atrofida aylanadi.

E. DELAKRUA

Mehnat qilgan va sabr qilgan — Kishiga oshnodir chin baxtiyorlik.

I. GYOTE

Sevgan ish g'amga davo.

V. SHEKSPIR

Jismoniy mehnat ruhiy iztiroblarni unutishga yordam beradi.

F. LAROSHFUKO

Ko'ngling g'ash bo'lsa ishla, bug'amdan qutulishning yagona vo-sitasidir. Iztirobga tushmas-lik uchun ishla: ishdan boshqa hech narsa bu g'amnok bo'shliqdan xalos etolmaydi. Omading yurishganda ham ishlayver: dimog'dor bo'lib ketishning oldini oladigan ishdan ham zo'rroq dori-darmon yo'q.

I. BEXER

Halovatga qaraganda har qanday ish ham ko'gilliroqdir.

DEMOKRIT

Dunyoda o'zi uchun munosib ish topolmagan odam eng baxtsiz odamdir.

T. KARLEYL

Ishni xohlagan, lekin o'ziga ish topolmagan odam — yer yuzida baxt hammaga birdek taqsimlanmaganini ko'rsatuvchi eng noxush manzaradir.

T. KARLEYL

Kommunizmda eng tuban qilmish uchun mehnatdan chetlashtirishdan ko'ra og'irroq jazo bo'lmaydi.

L. M. DEONOV

## Mehnat umrni uzaytiradi

Inson uchun eng go'zal, eng qadrli narsa uning o'z hayotidir. Hayot esa har tomonlama, muttasil mehnat bilan barqarordir. Inson mehnati to'xtasa bormi — uning hayoti ham to'xtaydi.

G. M. KRJIJANOVSKIY

Mehnatsevar qalb doimo o'z kasbi bilan mashg'ul bo'lmog'i lozim, binobarin, tanaga badantarbiya zarur bo'lganidek, unga ham surunkali mashq hayotbaxsh ta'sir ko'rsatadi.

A. V. SUVOROV

Bu dunyoning eng birinchi oqilona printsipli mehnatdir. Odamning butun a'zolari ishlashi kerak.

A. A. BOGOMOLETS

Umrim bo'yi aqliy va jismoniy mehnatni yaxshi ko'rib kelganman va yaxshi ko'raman ham, hatto jismoniy mehnatni ko'proq yaxshi ko'raman... Jismoniy mehnat oliy nerv faoliyati buzilgan taqdirda eng katta davo bo'lib xizmat qiladi.

I. P. PAVLOV

To'g'ri yashash — ishlash demakdir. Mashina bekor turib qolsa, uni zang bosadi.

J. FAVR

Ishlagan odam hamisha navqiron. Ba'zan menga shunday tuyuladiki, ehtimol, mehnat hayot quvvatini oshiradigan qandaydir maxsus garmonlarni ishlab chiqarayotgan bo'lishi ham mumkin.

N. N. BURDENKO

Mehnat yuz yil umr ko'rish san'atining zaruriy shartlaridan biridir.

M. SHEVREL

Uzoq umr siri mehnatda.

S. N. SERGEYEV-SENSKIY

Mehnat hayot chirog'i yog' quyib turadi.

J. VELLERS

Biror dangasaning qariguncha yashagani haqida hech qanday dalil yo'q.

X. GUFELAND

Dangasalik qilib sihat-salomat bo'lishni ko'zlagak odam jim turib ovozini ochmoqchi bo'lgan nodon bilan barobardir.

PLUTARX

Hech narsa uzoq vaqt davomida jismoniy harakat qilmaslikdek kishi madorini quritmaydi va uni mahv etmaydi.

ARASTU

Mehnatdan yaroqsiz bo'lishdan ko'ra odamni dangasalik xuddi zang singari tezroq ishdan chiqaradi.

V. FRANKLIN

Dunyoda harakatsizlikdan ham ortiqroq halokatli va toqat qilib bo'lmaydigan narsa yo'q.

A. I. GERTSEN

Izsizlikdan lavand tan, ko`r, naqadar barbod erur,  
Harakatsiz ko`l kabi tiniqligin tez boy berur.  
OVIDIY

Mehnat bilan charxlanib turmagan kuch susayadi.  
D. I. PISAREV

Ishlamaslik har doim lanjlikni keltirib chiqaradi, lanjlikdan keyin esa nogironlik keladi.  
APULEY

Bekorchilik va aysh-ishrat nafaqat nodonlikka olib keladi, ayni vaqtda kasallikning tug`ilishiga ham sabab bo`ladi.  
IBN SINO

Aysh-ishrat va bekorchikdan buzuqlik va kasalmandlik kelib chiqadi — aksincha, aqlning nimagadir intilishi sog`liqni muttasil mustahkamlab boradigan bardamlikni yuzaga chiqaradi.  
GIPPOKRAT

Mehnat ochlikning da`vosi, oshqozonning malhami, sihat-salomatlikning garovidir.  
M. SAFIR

Eng yaxshi axloqiy va estetik dori — mehnat.  
A. FRANS

Mehnat — barcha xastaliklardan xalos etuvchi shifobaxsh malham.  
N. A. OSTROVSKIY

Harakat ishtaha ochgani singari mehnat ham rohatga tashnalikni oshiradi.  
F. CHESTERFIELD

Ishtiyiq bilan qilgan ishimiz — dardimizni davolaydi.  
V. SHEKSPIR

Mehnat ijodga aylangan joyda, tabiiyki, o`lim dahshati hatto fiziologik jihatdan ham yo`q bo`lib ketadi.  
A. N. TOLSTOY

## E'tiqod va ideallar haqida

A'molsiz yashagan kishi g'aribdir!

I. S. TURGENEV

Idealni inkor etgan odam pastkashlikni osonlik bilan go'zallik deb qabul qilishi mumkin.

I. GYOTE

Idealsiz yashash yaramaydi. Sog'lom idealga, shunday idealki, xalqimizning qalbidan, vujudidan otilib chiqqan idealga ega bo'lmoq kerak.

G. DIMITROV

Ideal yo'lchi yulduzdir. Usiz aniq yo'lni topish qiyin, aniq yo'l bo'lmasa — hayot ham yo'q.

L. N. TOLSTOY

Idealsiz, ya'ni ma'lum darajada qandaydir ezgulikka intilishsiz hech qachon hech qanday yaxshi jamiyat bo'lishi mumkin emas.

F.M. DOSTOYEVSKIY

Tabiat odamni to'rt oyoqlab yurishdan xalos qilgandan boshlab, unga hasa shaklida — idealni taqdim etdi! O'shandan beri inson beixtiyor ravishda mukammallikka — tobora yuksaklikka intiladi.

M. GORKIY

Hayot hali mavjud bo'lmagan, lekin fikrda bor, amalga oshirilishi mumkindek tuyulgan ideal rahnamoligida kamolot sari boraveradi.

M. GORKIY

Idealga muhabbat faol va o'ta fidoyilikka moyil tuyg'udir.

M. GORKIY

Insoniyat oldiga burungisiga qaraganda ancha yuksak ideal qo'yilishi bilan avvalgi ideallarning hammasi quyosh chiqishi bilan so'ngan yulduzlardek so'nadi va inson quyoshni ko'rib turganidek yuksak idealni e'tirof etmasligi ham mumkin emas.

L. N. TOLSTOY

Kishining faoliyati g'oya bilan sug'orilmagan bo'lsa, qupquruq va g'aribdir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Agar senga g'oya yoqib qolsa, undan ruhlan. Chunki Insonda ruhlanish qobiliyati bo'lishi kerak.

E. TELMAN

Zarur bo'lganda jon fido etmagan kishyani oqil deyish xato.

G. BICHER

Olijanob g'oyalarsiz insoniyat yashay olmaydi.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Odanzod baxti uchun hamma narsadan voz kechishga o'rgatadigan ajib g'oyalarni kishilarga singdirish buyuk san'atdir.



## STENDAL

Insoniyatning butun maqsadlari, butun mehnatlari muhabbatsiz nimaga ham arzirdi?

M. Yu. LERMONTOV

Kimda g'oya bor ekan, kimki tirik ekan, undan so'zsiz naf keladi, agar u o'z g'oyasidan o'zi voz kechmagan bo'lsa.

F. E. DZERJINSKIY

G'oyadan qo'rqqan odam bora-bora o'z tushunchasini ham yo'qotadi.

I. GYOTE

G'oyadan begonalashgan har qanday odam oqibat-natijada yalang'och tuyg'ulari bilangina qoladi.

I. GYOTE

Insonda izchil va ongli e'tiqod, faqat yo jamiyat ta'siri ostida yoki adabiyot yordamida rivojlanishi mumkin.

N.G. CHERNISHEVSKIY

Barcha g'oyalar tajribadan olingan, ular voqelikning to'g'ri yoki buzilgan in'ikosidir.

F. ENGELS

Tirik jon kuchli e'tiqodga ega bo'lmasligi mumkin emas... E'tiqodsiz kishilargina e'tiqodni amalga oshira olmaydilar; kaltafahm odamlar yoki vijdotsiz odamlargina e'tiqodsiz bo'ladilar.

Ya. G. CHERNISHEVSKIY

Haqgo'y va foydali bo'lish uchun halollikning o'zi kamlik qiladi; shu bilan birga g'oyaviy izchillik ham kerak.

N. G. CHERNISHEVSKIY

G'oyani foydali deb e'tirof eta turib, lekin undan foydalana bilmaslik ham mumkin.

Ya. GYOTE

O'z e'tiqodingni aytmog'ing uchun jur'atli bo'lishing kerak.

Ya. M. SECHENEV

Har bir kishi o'z e'tiqodini himoya qilishi uchun mard bo'lishi kerak.

A. GUMBOLDT

E'tiqod o'zimizniki bo'lgani uchun emas, balki haqqoniyligi uchungina qimmatlidir.

V. G. BELINSKIY

Har qanday qat'iy e'tiqodlarimiz ham bilimlarning yanada yuksalishi tufayli ulotirib tashlanishi yoki juda bo'lmaganda o'zgartirilishi mumkin.

T. GYEKSLI

Faqat tentaklar va murdalargina hech qachon o'z fikrlarini o'zgartirmaydilar.

J. LOUELL

Agar sen odamlardagi samimiy, chuqur, beg'araz e'tiqodlarni rad etgudek bo'lsang, unda men sening o'zingda hech qanday e'tiqod yo'qligini har jihatdan asoslab bera olaman.

Ya A. DOBROLYUBOV

E'tiqod aktiv faoliyatda namoyon bo'lishdan tashqarida yashay olmaydi.

V. A. SUXOMLINSKIY

E'tiqod o'z tabiatiga ko'ra faolsiz ma'naviy boylik bo'lolmaydi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Eng yuksak ideallarning targ'iboti ham ularga erishishning ijobiy yo'lini ko'rsata bilmasa, hech nimaga xizmat qilolmaydi.

A. BARBYUS

Agar ezgu ishlarga boshlamasa, eng zo'r ma'naviy istaklar ham uch pul.

J. JUBER

Insonning eng yuksak xohishlari, g'oyalari, niyatlari va tuyg'ulari kundalik hayotda o'z burchini ko'ngildagidek bajarishga uni undamasa, sariq chaqaga ham arzimaydi.

G. BICHER

E'tiqodni devorga osib ko'z-ko'z qilib bo'lmaydi.

O. BALZAK

Hayotini o'z e'tiqodiga bag'ishlagan odam yangi metallni ixtiro etgan yoki yangi gazni topgan tadqiqotchiga qaraganda ham insoniyatga ko'proq xizmat qilgan bo'ladi.

J. LOUELL

Talant ommani o'z g'oyalarining haqqoniyligiga ishontirishi kerak va shunda ularning amalga oshirilishi xususida tashvishlanib o'tirmaydi, ular o'zlashtirilishi bilan o'z-o'zidan amalga oshaveradi.

F. ENGELS

G'oyalar ommaga singgan taqdirdagina kuchga aylanadi.

V.I. LENIN

Tabiatan irodasiz bo'lgan ko'pgina odamlar o'z qadrlarini bilmaganliklari uchun ham butunlay ortiqcha bo'lib qoladilar va nojo'ya ovoz bilan kuylayotgan umumiy xirgoyidan hech bir ajrala olmaydilar.

D. I. PISAREV

E'tiqodsiz odam notavon, har bir a'moli yo'q odam g'arib kimsadir.

Ya. Ye. REPIN

Jiddiy odamning g'oyalari ko'p bo'lmaydi. G'oyasi ko'p odam hech qachon jiddiy bo'lolmaydi.

P. VALERI

Salgina epkinga ham aylanaveradigan ongsiz piri-pirakka o'xshamaslik kerak.

J. LONDON

Mening e'tiqodlarim yuragimning urushiga qarab o'zgaraversa, unda holimga voy.

F. SHILLER

Inson sifatida o'z fikrining qadriga yetmaydigan odam vijdotsizdir.

V. G. BELINSKIY

Birinchi uchrashgan kimsaga yoqish uchun o'z fikrini darrov o'zgartiraveradigan odamni biz bo'lmag'ur, pastkash, hech bir ixlosi yo'q odam deymiz.

N. A. DOBROLYUBOV

## Maqsad haqida

Hayotdagi maqsad inson qadr-qimmatini va baxtning asosidir.

K. D. USHINSKIY

Insonning barcha istaklarini qondiringu, lekin undan yashash maqsadini olib qo'yingchi, qarabsizki, u naqadar baxtsiz va ojiz kimsaga aylanib qoladi.

K. D. USHINSKIY

Inson musibatlarini tobora kamaytirib, inson rohat-farog'atini tobora oshirish. Dono va sofdil odamlarning butun kuch-g'ayrati doimo ongli yoki ongsiz ravishda, bevosita yoki bilvosita mana shu maqsadga qaratilgan edi.

D. I. PISAREV

Hayotiy kurash belgilangan maqsad sari ongli intilishga aylangan paytdan boshlab kishi o'zini baxtli hisoblashi mumkin.

D. I. PISAREV

Maqsad baxtga erishishdan iborat bo'lmog'i lozim, aks holda, gulxan yetarli darajada gurillab yonmaydi, harakatlantiruvchi kuch yetarli darajada qudratli bo'lmaydi — binobarin, muvaffaqiyatga ham to'la erishilmaydi.

T. DRAYZER

Hayotning ma'nosi orzu-niyatlar sari intilishning go'zalligi va qudratidir, shuning uchun tiriklikning har daqiqasi o'zining yuksak maqsadiga ega bo'lishi kerak.

M. GORKIY

Mening nazarimda, o'z oldiga maqsad qo'ygan va shu maqsadi uchun bor kuchini fido etgan kishigina baxtli bo'lmog'i mumkin.

M. I. KALININ

Shon-shavkat yuksak maqsad sari intilganing mulkidir.

FIRDAVSIY

Aytish mumkinki, har bir ayrim kishida va umuman hammada ham ma'lum maqsad bo'ladi, shu maqsadga intila turib, ular bir yo'llarni e'tirof etadilar, ba'zilarini esa rad qiladilar.

ARASTU

Hayot mudom harakatda bo'lmog'i uchun xohish o'lmasligi kerak.

S.JONSON

Har kimning ko'z o'ngida, harqalay, o'ziga buyuk ko'rinuvchi va agar uni eng chuqur e'tiqod, chinakam qalb ovozi buyuk deb e'tirof etsa, chindan ham buyuk bo'lgan muayyan maqsadi bor...

K.MARKS

Qalbni orzudan mahrum qilish yerni havodan ayrib qo'yish bilan barobar.

E. BULVER-LITTON

Insonning mohiyati uning xohishlarida aks etadi.

## B. SPINOZA

Istak ado bo'lgan yerda odam ham ado bo'ladi.

L. FEYERBAX

Odamlarni o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga qarab baholash kerak.

N. N. MIKLUXO-MAKLAY

Odamning o'z jonini tikishga ham tayyor turgan biron maqsadi bo'lmasa yomon.

L. N. TOLSTOY

Bir jihatdan, mohiyat-e'tibori bilan o'z oldiga mazmundor maqsad qo'yib, ikkinchi bir tomondan, shu maqsadga qattiq amal qilgan odam chinakam xarakterli insondir, chunki u shu maqsadlardan voz kechsa, uning o'ziga xosligi yo'qolgan bo'lur edi.

G. GEGEL

Uzoqni ko'radigan odam o'zining har bir istagi uchun alohida o'rin topa bilishi va keyin ularni navbatma-navbat amalga oshirishi kerak. Ochko'zligimiz ko'pincha bu tartibni buzib yuboradi va bir vaqtning o'zida bizni shunchalar ko'p maqsadlar ketidan chopishga majbur etadiki, natijada maydachuydalarga o'ralashib, eng muhim narsani esa esdan chiqarib qo'yamiz.

F. LAROSHFUKO

Sira shoshilmaydigan odam ham mabodo u o'z maqsadidan chalg'ib ketmagan bo'lsa, maqsadsiz tentirab yurgan odamga qaraganda jadalroq yuradi.

G. LESSING

To'g'ri yo'lda sudralib borayotgan odam ham yo'ldan adashgan shoshqaloqdan o'zib ketadi.

F. BEKON

O'z intilishing marrasiga yetmoqchi bo'lsang — muloyimlik bilan adashgan yo'lingni so'ra.

V. SHEKSPIR

Qanday maqsad bo'lishidan qat'iy nazar, unga g'oyat jiddiyat bilan intilish o'sha maqsadga erishish yo'lidagi yarim yutuqdir.

V. GUMBOLDT

Dunyoni ko'pdan beri ummonli okean deyishadi, lekin unda kompas bilan suzgan odam baxtlidir.

N. M. KARAMZIN

Printsipsiz va irodasiz kishi kompasi va ruli yo'q kemaga o'xshaydi, u sal shamol o'zgarishi bilan yo'nalishini o'zgartiraveradi.

S. SMAYLS

Shunday odamlar borki, ular suvga tushgan xasdek hech bir maqsadsiz dunyodan o'tib ketadilar; ular suzishmaydi, oqim ularni olib yuradi.

SENEKA

Agar maqsadsiz bo'lsang hech narsa qilolmaysan, maqsading katta bo'lmasa buyuk ish qilolmaysan.

D. DIDRO

Mayda ishlarga zeb bergan odam buyuk ishlarga noqobil bo'ladi.

F. LAROSHFUKO

Inson bor kuchini ishga solishi uchun o'z oldiga ilhom bag'ishlaydigan biron-bir olijanob maqsad qo'ymog'i lozim.

E. RENAN

Kishi hayotda o'z oldiga muayyan bir maqsad qo'ymog'i lozim... O'z kuchiga yarasha maqsad qo'yish uchun so'zsiz yetarli darajada aql-farosatli bo'lish ham kerak.

N. A. OSTROVSKIY

Odamlar ichida eng bo'lmag'uri istagi yo'q kishidir.

OBAY QO'NONBOYEV

Maqsadi ulug'lashgan sari odamning o'zi ham ulug'lashib boradi.

F. SHILLER

Maqsadsiz faoliyat yo'q, manfaatsiz maqsad yo'q, faoliyatsiz esa hayot yo'q. Manfaatlar, maqsadlar va faoliyat manbai — ijtimoiy hayot substantsiyasidir.

V. G. BELINSKIY

Ulug' aql egalari o'z oldilariga maqsad qo'yadilar, qolgan odamlar o'z istaklari orqasidan ergashadilar.

U. IRVING

Muayyan bir maqsadga yo'naltirilmagan aql izsiz yo'qoladi; hamma yerda bo'lmoq hech yerda bo'lmaslik degan so'zdir.

M. MONTEN

O'z oldingizga yaxshi maqsadlar qo'ying. Biz biron-bir narsaga qarshi kurashibgina qolmay, balki eng avvalo biron-bir narsa uchun ham kurashishimiz lozim.

Ye. I. MARSINOVSKIY

Yuksak maqsadlar yuzaga chiqmay qolgan taqdirda ham biz uchun u amalga oshgan past maqsadlardan ko'ra qimmatliroqdir.

I. GYOTE

Agar intilish sof ko'ngildan chiqsa, harqalay, chalaroq qolib, aniq nishonga tegmasa ham juda katta foyda keltirishi mumkin.

I. S. TURGENEV

O'z tabiatiga ko'ra turlicha bo'lgan bosqichlarni qat'iy farqlash, ularning kelib chiqish sharoitini xushyorlik bilan o'rganish, aslo pirovard maqsadni orqaga surish emas, aslo o'z yo'lini sekinlatish emasdir.

V. I. LENIN

Vaziyat o'zgaruvchan bo'lsa ham printsiplar hech qachon o'zgarmaydi.

O. BALZAK

Maqsadga yaqinlashgan sari mashaqqat ortib boradi. Lekin har bir kishi yulduzlarga o'xshab sokinlik bilan, shoshmasdan, biroq belgilangan maqsad tomon uzluksiz intilgan holda o'z yo'llarini bosib o'tishlari kerak.

I. GYOTE

Kim buyuk maqsadga intilsa, o'zini o'ylamasligi zarur.

I. S. TURGENEV

Maqsadga olib boradigan yo'lning uzoq-yaqinligi ahamiyatsiz.

Ye. I. MARSINOVSKIY

Kam kuch sarflab o'z maqsadiga yetishishlik eng zo'r mukammallik bo'lub tuyuladi menga.

Sh. MONTESKYE

Vositalar xarakteri xuddi maqsad xarakteriga o'xshagan bo'lishi kerakki, shundagina vositalar maqsadga olib borishi mumkin. Noo'rin vositalar faqat noo'rin maqsadlarga yaraydi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Olijanob maqsad shu maqsad yo'lida kishi faoliyatini yanada xushfazilat qiladi.

K. LIBKNEXT

Eng muqaddas ish ham uni ro'yobga chiqarish yo'lida jinoyatdan tap tortilmasa, tahqir va kufurlikka aylanadi.

F. LAMENNE

Harakat vositalari uning natijalari bilan qo'shilib ketadi.

O. BALZAK

...Nohalol vositalarni talab qiladigan maqsad halol maqsad emas...

K. MARKS

Nomunosib vositalarni oqlovchi maqsad hech qachon yuksak maqsad bo'lolmaydi.

A. E. EYNSHTEYN

Vosita maqsadning jon-taniga singib ketgan taqdirdagina maqsadga erishish mumkin.

F. LASSAL

Ulug' g'oya ham yaramas muhitda buzilib, qator bema'niliklarga aylanib ketadi.

V.O. KLUCHEVSKIY

Odamlar vositani maqsad deb bilib, o'zlarini ham, boshqalarni ham yanglishtiradilar, natijada ularning butun urinishlaridan hech narsa chiqmaydi, chiqqanda ham o'zlari intilgan narsaning aks natijasi chiqadi.

I. GYOTE

Mo'ljalidan o'tib ketgan odam ham mo'ljalga tegolmagan odamdek dog'da qoladi.

M.MONTEN

Me'yordan oshirib yuborish — maqsadga yetish emas.

O. BALZAK

Faqat maqsadga yetolmagannigina emas, balki besh qo'lni og'izga tiqqanni ham maqsadsiz deya hisoblash kerak.

V. O. KLUCHEVSKIY

Hayotimiz — sayohat, g'oya esa — yo'lchi yulduz. Yo'lchi yulduz bo'lmasa hammasi to'xtaydi-qoladi. Maqsad boy berilsa, kuch go'yo mutlaqo bo'lmagandek.

V. GYUGO

Inson qaysi manzilga ketayotganini bilmasa, uning yelkaniga hech bir shamol ham duch kelmaydi.

SENEKA



## Ehtiroslar va tashabbus haqida

Ehtiros yordamisiz tarixda biron-bir muazzam qadam bosilmagan, ehtiros ma'naviy kuchlarni chandon oshirib, arboblarning aqliy qobiliyatini charxlaydi, ehtirosning o'zi buyuk taraqqiyparvar kuchdir.

V. G. PLEXANOV

G'ayrat belgilangan maqsadga muhabbat kuchidir.

P. A. PAVLENKO

Tuganmas huzur-halovat — mehnatda.

U. BLEYK

Faqat tetik qaynoq shijoatdan, ona yurtga otashin muhabbatdan, jasurlik va g'ayratdangina g'alaba tug'iladi. Gap unda-bunda ko'rsatib qo'yiladigan shijoatda ham emas, balki bor kuchlarni qat'iyat bilan safarbar qilishdadir, tog'larni ham asta-sekin va to'xtovsiz qo'zg'atadigan, noma'lum teranliklarni ochadigan va ularni quyosh tiniqligiga olib chiqadigan doimiy jo'shib yonish haqida gap boryapti.

M. V. LOMONOSOV

Dunyodagi hech bir ulug' ish ehtirossiz sodir bo'lmaydi.

G. GEGEL

Hech qachon hech qanday ulug' ish g'ayratsiz yuzaga chiqmagan.

R. EMERSON

Ehtiros ko'p narsaga qodir. U insonda mislsiz g'ayriinsoniy qudrat uyg'ota oladi. U o'zining sira bo'shashmaydigan tazyiqi bilan hatto eng bosiq qalblardan ham aql bovar qilmas darajadagi kuch-qudratni tortib oladi.

S. SVEYG

Kuchli ehtirosarga oshno bo'ling, ularni o'stirib, ular bilan o'zingiz ham unib-o'sing. Keyinroq shu ehtirosaringizni o'zingizga bo'ysundirganingizdan so'ng ehtirosaringizning kuchi sizning kuchingizga, ulug'vorligi — sizning husnu savlatingizga aylanadi. Ehtiroslar insonning ma'naviy boyligidir.

A. FRANS

Ehtirosni xavfli deb, insonni undan mahrum qilmoqchi bo'lgan odam miyaga qon quyilishiga sababchi bo'ladi deb insondan uning butun qonini chiqarib olishni o'ylagan nodonni eslatadi.

F. VOLTER

Qachon qarasa ehtirosni qoralashadi, odamzodga xos barcha baxtsizliklarni ehtirosdan ko'rishadi, lekin ayni paytda ehtiroslar barcha shodliklarimizning manbai ekanligini esa unutib qo'yadilar.

D. DIDRO

Ehtiroslar yelkanlarni ishga soluvchi shamollardir, ba'zan kemalarni g'arq qiladilaru, ammo shamolsiz suzish mumkin emas. Inson ehtiroslardan begona bo'lmasligi, lekin ularni boshqarib borishi kerak.

JAN POL

Ehtirosni o'rinli va o'rinsizga bo'lib, birinchisiga mukkadan ketgancha, ikkinchisidan o'zini olib qochuvchilar haq emaslar. Inson mahkam tursa, hamma ehtiroslar yaxshi, ehtirosarga qul bo'lsa, unda hammasi yomon.

J. J. RUSSO

Ehtiroslar bizni adashtiradi, chunki ular butun diqqatimizni ko'z o'ngimizdagi narsaning bir tomoniga qaratadi-yu, uni har tomonlama tadqiq qilishimizga yo'l qo'ymaydi.

K. GELVETSIY

Istak — fikrning otasi.

V. SHEKSPIR

Aqlning eng katta g'alabalari, ehtimol, ehtiroslar tufayli ro'yobga chiqqandir.

L. VOVENARG

Ehtiroslar osoyishtalik dushmanidir, lekin ehtiroslarsiz na san'at, na ilm-fan ravnaq topadi va har kim o'z isqirtliklari ichida dumalab, mudrab yotgan bo'lar edi.

A. FRANS

Ehtiros undovi aql undoviga qaraganda dadilroq ekan, demak, o'sha istakni amalga oshirishda ehtiros aqlga qaraganda ko'proq kuch ham beradi.

L. VOVENARG

Donolik ehtirosizlikda emas, balki ehtiroslarni boshqara bilishdadir.

G. SHOU

Har qanday ehtiros hamisha mubolag'a bilan yashaydi, aks holda u ehtiros bo'lmas edi.

N. SHAMFOR

Ehtirosni tizginla, aks holda u seni tizginlaydi.

EPIKTET

O'zini ehtirosdan butunlay tiyadigan odam emas, balki undan kema yoki arg'umoqdan foydalangandek, ya'ni uni kerakli va foydali tomonga bura olgan kishigina ehtiros ustidan hokimlik qila oladi.

ARASTU

Ehtiroslar odatiy tusga aylansa, illatga yoki odatga qarshilik ko'rsatsa — ezgulikka, aylanadi. Ehtiros hayot sururi va bezagidir, lekin qalbda iroda bo'lmasa ehtirosdan ne foyda.

V. G. VELINSKIY

Kuchli ehtiroslar tagida ko'pincha bo'sh iroda yashiringan bo'ladi.

V. O. KLUCHEVSKIY

Ehtirosga ixtiyorni berish — oqillarning ishi emas.

QOBUS

Oqil odam ehtiros bilan kurashadi, tentak esa uning quliga aylanadi.

EPIKTET

## Sovuqqonlik haqida

Hamma narsani yaxshi deydigan yoki hamma narsani yomon deb hisoblaydigan, ayniqsa, hamma narsaga sovuqqon qaraydigan odamga ishonmang.

I. LAFATER

O'rtamiyona odam hukmron fikr va hukmron modaga har doim moslashib oladi, u narsalarning hozirgi holatini yagona to'g'ri holat deb hisoblaydi va hamma narsaga passiv qaraydi.

K. LIXTENBERG

Odamlarga zarari ham, foydasi ham tegmaydigan kishidan faqirroq odam yo'q.

QOBUS

Eng katta gunoh hamyurtlarimizga nisbatan nafrat emas, balki sovuqqonlikdir.

B. SHOU

Ma'naviy sovuqqonlik o'ta o'qimishli kishilar kasalligidir.

A. AMIYeL

Hamma narsani maqtaydigan odamga uncha ishonmang, hamma narsani qoralaydiganga esa yana ham kamroq ishoning, ammo hamma narsaga sovuqqon odamga esa mutlaqo ishonmasa ham bo'ladi.

I. LAFLTER

Men «hammaga do'st» odamlardan ko'ra nodo'stroq odamlarni bilmayman, ular doimo hamma narsadan zavqlanib, doimiy ravishda yovuzlarni rag'batlantirib keladilar va o'zlarining jinoyatkorona olijanobliklari bilan jamiyatga dog' tushiruvchi illatlarga xushomadgo'ylik qiladilar.

J. J. RUSSO

Insoniy fazilatlarga begona, ona diyor taqdiriga, yaqin kishilari taqdiriga sovuqqonlik bilan qaragan odamdan xavfliroq kimsa yo'q.

M. Ye. SALTIKOV-SHCHEDRIN

Dushmanlardan qo'rqma — nari borsa, ular seni o'ldirishlari mumkin. Do'stlardan qo'rqma — nari borsa, ular senga munofiqlik qilishlari mumkin. Sovuqqon odamlardan qo'rq — ular o'ldirmaydilar va munofiqlik qilmaydilar, ammo ularning indamay qilgan razilliklari tufayli yer yuzida sotqinlik va qotillik hukm suradi.

B. YASENSKIY

Agar halol bir kishining yuziga tarsaki ursalar — sof ko'ngilli odamlarning hammasi uning dardi va nafratiga, insoniy qadr-qimmati xo'rlanganidan o'ksishiga sherik bo'lmoqlari kerak.

L. N. ANDREYEV

Bir odamga qilingan adolatsizlik barchaga qilingan dag'dag'adir.

Sh. MONTESKYE

Haqsizlikni ko'ra turib indamaslik — o'sha haqsizlikda qatnashish bilan baravar.

J. J. RUSSO

Kamtar bo'lish yaxshi, lekin sovuqqon bo'lish yaramaydi.

F. VOLTER

Gar sen o'zgalarning qayg'usiga loqayd qarasang, inson degan nomga noloyiqsan.

SA'DIY

Qaerdaki loqaydlik — u yerda xato, qaerdaki sovuqqonlik — u yerda jinoyat bor.

G. LIXTENBERG

Sovuqqonlik o'taketgan zolikdir.

M. UILSON

Sovuqqonlik — qalbning og'ir kasali.

A. TOKVIL

Sovuqqonlik qalbning falajligi, bevaqt o'limdir.

A. P. CHEXOV

Sovuqqon bo'lmang, chunki sovuqqonlik inson qalbini mahv etishi mumkin.

M. GORKIY

Sovuqqonlik kim kuchli bo'lsa o'shani, kim hukmronlik qilayotgan bo'lsa o'shani indamay qo'llab-quvvatlashdir.

V. I. LENIN

Yaxshilik yomonlik bilan, haqiqat yolg'on bilan, taraqqiyot tanazzul bilan hech qachon kelishmagan va kelishishi mumkin emas.

J. MADZINI

Do'zaxning eng olovli xilqatlari buyuk ma'naviy sinov daqiqalarida betaraf turgan odamga atalgandir.

DANTE

Hayot shu darajada chalkash yaratilganki, nafratlanmay turib chinakamiga sevib bo'lmaydi.

M. GORKIY

Ezgulikni yaxshi ko'rish uchun bor vujud bilan yomonlikni nafratlash kerak.

V. VOLF

Yomonlikni butun vujudi bilan astoydil nafratlay bilgan odamgina yaxshilikni yurakdan seva oladi.

F. SHILLER

Yomonlikni chinakam yomon ko'rmagan odam yaxshilikni ham chinakam yaxshi ko'rmaydi.

R. ROLLAN

Yomonlikka shafqat ko'rsatish yaxshilikka sovuqqon bo'lish bilan qo'shilishib ketadi.

N. S. LESKOV

Kim yaxshi ko'rmasa, nafratlanolmaydi ham; kim zavqlana bilmasa, g'azablanolmaydi ham; kim hech nimani ulug'lamasa, hech nimani la'natlayolmaydi ham.

L. BERNE

Biron-bir narsani sevgan kishigina biron-bir qadr-qimmatga ega bo'ladi. Qadr-qimmatsizlik bilan hech nimani sevmaslik ayni bir xil narsadir.

L. FEYERBAX

## Tanqid haqida

Tanqidsiz bir-birini anglash bo'lmaydi, binobarin, birlik ham bo'lmaydi.

F. ENGELS

Kasalni davolash uchun uni aniqlash, ochish kerak va bu eng qulay va to'g'ri yo'l hisoblanadi.

F. E. DZERJINSKIY

Illatning sababini topish — deyarli unga qarshi davoni topish degan so'z.

V. G. BELINSKIY

O'zingning emas, boshqalarning yanglishishiga toqat qilishing — buni harholda tushunish va qadrlash mumkin, lekin razillikka esa men toqat qilolmayman.

V. G. BELINSKIY

Har doim tinch va osoyishta bo'l, har joyda shirin gapir va muloyim bo'l, qarabsizki, vijdotsizlik, aldamchilik, nodonlik uchun keng yo'l ochib berilibdi: hech kim uni fosh ham etmaydi, haqiqatning qudratli so'zini aytadigan odam ham yo'q.

V. G. BELINSKIY

Tanqid qonning yaxshi aylanishidir, usiz turg'unlik va kasallikka chalinish muqarrar.

N. A. OSTROVSKIY

Tanqid yangilishlikning, garchi inqilobiy bo'lsa ham quruq gapning dushmanidir, ammo u haqiqatning eng muhim tayanchi. U haqiqatning onaizori va doyasidir; u haqiqatning rizq beruvchi do'stidir. Haqiqat tanqid bilan tirik.

G. V. PLEXANOV

Biz kamchiliklarimizni ko'rsatgan kishilardan minnatdor bo'lishimiz kerak.

B. PASKAL

Eng buyuk daho ham o'z barkamolligi va kamchiliklarini ko'rsatuvchi tanqidga muhtoj.

N. A. BESTUJEV

Men umrim davomida ixlosmandlarimga qaraganda tanqidchi do'stlarimdan, ayniqsa ularning tanqidi muloyim va do'stona suxan bilan izhor etilganda, ko'proq foyda olganman.

M. GANDI

Dono odam har doim o'ziga hujum qilganlar tomonini oladi, chunki u o'z kamchiliklarini tushunishda ulardan ham ko'proq manfaatdordir.

R. EMERSON

Kamchiliklarimizni bilib olsak, endi ular bizga zarar keltirolmaydi.

G. LIXTENBERG

Bo'yalmagan achchiq haqiqatning yuziga tik qaramoq uchun mard bo'lmoq kerak.

V. I. LENIN

Illat bilan qat'iy kurash olib bormoq uchun uni qo'rqmay tan ola bilish kerak.

V. I. LENIN

Chirigan, havo kirishi bilan to'zonga aylanadigan Misr mo'miyosiga o'xshash odamgina tanqid tegishidan qo'rqadi.

D. I. PISAREV

Chirigan narsaga qo'l tekkizib bo'lmaydi.

V. SHEKSPIR

...Agar biz hatto achchiq va og'ir haqiqatni ham to'ppa-to'g'ri aytishdan qo'rqmasak, biz hamma narsani va harqanday qiyinchiliklarni yengishni o'rganib olamiz, albatta va so'zsiz o'rganib olamiz.

V. I. LENIN

...Oshkoralik shunday bir tig'ki, o'zi yetkazgan jarohatni o'zi davolaydi.

V. I. LENIN

Odamlarni aslida qanday bo'lsalar o'shandayligicha ko'rsatish bilangina ularni tuzatish mumkin.

P. BOMARSHE

Illatga qarshi kurashish kerak. Illatga chidab bo'lmaydi. Illat bilan murosa qilish — o'zini-o'zi axloqsiz kishiga aylantirish demakdir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Odamlarning ra'yiga qarshi o'laroq, ularni qutqarish jur'atiga ega bo'lish kerak.

R. ROLLAN

Odamga o'zining kimligini ko'rsatib bersangizgina u o'zini yengil his etadi.

A. P. CHEXOV

Odamni qutqarish uchun uning jonini og'ritish ham mumkin.

PUBLILY SIR

Haqiqat rahmdillikdan baland turadi.

M. GORKIY

Haqiqatni gapirish — har kimga ham nasib etavermaydi!

M. GORKIY

Tanqid qilish huquqiga ega bo'lish uchun biror-bir haqiqatga ishonish kerak.

M. GORKIY

Faqat sevgan odamgina koyish, pand berish huquqiga ega.

I. S. TURGENEV

Ishdagi xatoni topish — hali bu o'sha ishning butkul noraso ekanligini isbotlash emas.

V. G. BELINSKIY

...To'la tuzatilgan xatolarni alohida zarurat bo'lmaganda ham eslayverish to'g'ri emas.

V. I. LENIN

O'rnida aytilmagan haqiqat yolg'ondan yomon, vaqtida ko'tarilmagan masala faqat chalg'itadi-yu, xalaqit beradi.

I. S. TURGENEV

Odamlarga haqiqatni aytishga o'rganish uchun kishi o'ziga haqiqatni aytishni o'rganishi kerak.

L. N. TOLSTOY

Aqlning adashganligini qahru g'azab bilan emas, olijanob ehtiros bilan ko'rsatib berish zarur.

N. M. KARAMZIN

Tanqid yomonlikni qoralashi bilan birga, nima qilganda o'sha yomonlik bo'lmasligini ko'rsatsagina samarali bo'ladi.

L. N. TOLSTOY

Xatoni sezish uncha qiyini emas; bama'ni odamni ajratib turadigan xususiyat o'sha xatodan tuzukroq yo'l topib berishidir.

M.V.LOMONOSOV

Bunday qilma, deyish yetarli emas. Mana bunday qil, deb qo'shib qo'yish ham kerak.

M. GORKIY

Faqat inkor qilishni biladigan aql qashshoqlashib, oxiri quriydi.

I. S. TURGENEV

Hayhot, eng qiyini, uzoq yillar davomida har kuni mehnat qila bilish jasoratidir. Kamchiliklar haqida shovqin-suron ko'tarish — buning uchun katta aqlning keragi yo'q. Safsata va quruq gap haqiqatan ham nafratga loyiq. Gapdan ko'ra ish qilish kerak.

V. A. SUXOMLINSKIY

Me'yoridan ortiq berilgan doridan naf bo'lmagani singari adolat me'yori chegarasidan chiqqan dashnom va tanqiddan ham naf yo'q.

A. SHOPENGAUER

Bilmay xato qilib qo'ygan odamlarga uncha g'azab sochmaslik kerak.

SOFOKL

Ba'zan sukut ham eng qattiq tanqid o'rniga o'tadi.

Ch. BAKSTON

O'zgalarning ishi to'g'risida qattiq gapirgan odam o'zining ishi ham boshqalarnikidan yaxshiroq bo'lishini o'z zimmasiga yuklaydi.

V. G. BELINSKIY

Biz ko'pincha boshqalarning nuqsonini gapiramizu, lekin hammavaqt ham ulardan ibrat olib, o'z kamchiliklarimizni to'g'rilayvermaymiz.

F. LAROSHFUKO

Boshqalarning kamchiligini ipidan-ignasigacha ko'rib, o'zinikiga e'tibor bermaslik yuzsizlikdir.



## DEMOKRIT

Odam ayni o'zini juda qattiq tanqid qilishi kerak, ayni o'ziga eng qat'iy talab qo'ymog'i lozim, aks holda, to'g'ri yo'ldan toyib botqoqqa qulashi hech gap emas.

K. LIBKNEXT

O'zgarlar senga shafqatsiz bo'lishini istamasang, o'zing o'zingga shafqatsiz bo'l.

L. M. LEONOV

Yoshligingdan yaqin kishilaringning gunohini kechishga, o'z gunohingni esa mutlaqo kechirmaslikka o'rgan.

A. V. SUVOROV

Haq yo'lida urilgan har bir zarba nafaqat bolg'adek, ayni paytda bosqonga o'xshab ham qattiq bo'lishi kerak.

J. XOLLEND

Haqiqat ba'zan nafrat tug'diradi.

TERENSIY

Haqiqatni yomon ko'radigan odamlar uni dadil aytadiganlarni ham yomon ko'radilar.

FELENON

Shunday odamlar borki, ularga har qanday to'g'ri so'z ham qanchalik muloyim aytilmasin, og'ir botadi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

O'zlari haqidagi bor haqiqatni chin yurakdan egaitadigan odamlar kamdan-kam uchraydi.

F. LAROSHFUKO

Yaramaslar, zulmkorlar, talonchilar hokimiyati uchun haqiqat hamisha xavflidir. Shuning uchun haqiqatni bostiradilar.

Yu. DEBS

Qabihlikni keltirib chiqaradigan sharoitlarga tegmay turib, haqiqat talab qilish, yomg'ir yog'ayotganda tosh yotqizilmagan ko'chada loy bo'lmasligini talab qilish bilan baravardir.

D. I. PISAREV

## **Noto'g'ri mulohazalar va tuhmat haqida**

Yaxshiyamki tanqidning o'zi tanqidga muhtoj, yo'qsa, u kim ko'ringanga dahshatli qurol bo'lib xizmat qilgan bo'lur edi.

V. G. BELINSKIY

Agar achchiq so'z iz qoldirganda edi, biz hammamiz tasqara bo'lib yurardik.

V. SHEKSPIR

Tuhmat har doim ham g'arazning ishi bo'lavermaydi: u ko'proq hammani qoyil qoldiraman, deb gap sotishdek beziyon bir orzudan kelib chiqadi, ba'zan esa samimiy va ayni paytda to'la niyat va xayrixohlik iatijasi ham bo'lishi mumkin.

V. G. BELINSKIY

Hayotning nuqul salbiy jihatlarini tasvirlash tuhmat qilish degan emas, balki faqat biryoqlamalikka tushish deganidir; tuhmat qilish esa hayotda mavjud bo'lmagan nuqsonlarni, unda yo'q dog'larni unga to'nkashdan iboratdir.

V. G. BELINSKIY

Bizni yaxshi bilmay turib, biz haqimizda yomon gapiradigan odamlardan xafa bo'lmaslik kerak: uning tuhmatlari bizga emas, o'zini tasavvurida tug'ilgan sharpaga taalluqlidir.

J. LABRUYER

Yolg'on gapirish boshqa, gapda adashish va qasddan emas, adashish oqibatida haqiqatdan chekinish boshqa gap.

P. ABELYAR

Yaxshi ko'rish tufayli qandaydir jon kuydirib aytilgan nasihatni yovuz niyat yoki gunoh deb hisoblash lozim emas.

ABELYAR

Odamlar odatda birovga yomonlik tilab emas, balki shuhratparastliklari uchun g'iybat qiladilar.

F. LAROSHFUKO

Kaltafahm odamlar odatda aqllariga sng'magan narsalarning hammasini qoralaydilar.

F. LAROSHFUKO

Iste'dodsiz kishilar ko'pincha talabi katta tanqidchilardir, ular imkoni bor oddiy ishlarni ham uddalolmay, nima qiliga va uni qanday qilishni bilmaganlari holda boshqalar-dan butunlay imkonsiz ishlarni talab qiladilar.

V. O. KLUCHEVSKIY

Eng nozik ta'b kuzatuvchi va eng teran mutaffakkir doimo eng shafqatli hakamdir; o'z tasavvuridagi azobdan jafo chekkan odamovigina kishining yaxshi fazilatlarini qadsizlantirib, yomon sifatlarini bo'rttirib ko'rsatishga moyildir.

G. BOKL

Tirnoq ostidan kir qidirish o'rtamiyonadan yo oshgan, yo oshmagan odamlarning azaliy xususiyatidir. Iqtidorli aql egalari esa yaxlit hodisalarga qarshi e'tiroz bildiradilar yoki indamay qo'ya qoladilar,

buyuk allomalar bo'lsa hech kimni ayblamay, o'zlari kashf etadilar.

G. LIXTENBERG

Ko'p bilgan odam xato qilmaslik uchun o'z fikrini ehtiyotlik bilan bayon etishni biladi. Yuzaki bilgan o'zbiarmon esa hamma narsa haqida g'ayritabiiy bir jasorat bilan valaqlayveradi.

L. N. TOLSTOY

Kaltafahmlar faqat odamlarning kamchiligini ko'radilaru yaxshi fazilatlariga e'tibor bermaydilar. Ular badanning nuqul gazak olgan a'zosiga qo'nmoqchi bo'layotgan pashshaga o'xshaydilar. Biron-bir narsani ta'kidlay turib, uni qonuniy ravishda isbotlay olmaslik tuhmat qilish demakdir.

P. BOMARSHE

Eshitar quloq uchun tuhmat tilga chiqqan chipqondek gap.

Sh. RUSTAVELI

Bo'hton qilichdan ham mudhishroq quroldir, chunki uning yarasini umrbod davolab bo'lmaydi.

G. FILDING

Bo'hton xuddi miltiq kabi xavfli quroldir.

A. G. RUBINSHTEYN

Tuhmatga ishonish orqali qancha-qancha do'stlik iplari uzilgan, qancha-qancha xonadonlar vayron bo'lgan.

LUKIAN

G'iybat isbotlanmaganda ham deyarli bir umrga dog' qoldiradi.

A.S. PUSHKIN

Fisqu fasod juda qulay narsa: bir so'z bilan hamla qilinadiyu, himoya uchun esa qancha-qancha sihifalar kerak.

J. J. RUSSO

Bo'hton — hasad quroli.

S. SEGUR

Bo'hton — g'ariblikka e'tibor bermaydi.

O. BALZAK

Odatda mevaning sarasini qurtlandek, bo'hton ham yaxshi odamlarga yopishadi.

J. SVIFT

Yaxshilar yonidan o'tmas hech qachon,

Dushmani taqamay unga bir bo'hton.

SA'DIY

Bo'hton va yolg'on meshchanlar siyosatining qonunlashtirilgan usulidir. Bu dunyodagi buyuk kishilar orasida yolg'on yoki bo'hton balchig'i chaplanmagan birona odam topilarmikin.

M. GORKIY

Meshchanlik o'rmalovchi devpechakdir, u to'xtovsiz ko'payish xususiyatiga ega va qo'yib berilsa yo'lida uchragap hamma iarsani bo'g'ib tashlashga ham tayyor.

M. GORKIY

Meshchanlik — katta illat, u daryodagi to'g'on singari doimo turg'unlikka xizmat qiladi.

A. CHEXOV

Bo'hton g'alati xususiyatli illatdir: siz uni yo'q qilaman deb aslida hayot bag'ishlaysiz; uni o'z holiga qo'ying — o'zidan-o'zi o'lib ketadi.

T. PEYN

Bo'hton g'ing'illab jonga tegadigan ariga o'xshaydi: uni joyida o'ldira olishingizga ishonmasangiz, yaxshisi uni haydashga ham urinmang, qaytaga u sizga battar yopishadi.

N. SHAMFOR

Aqli hamda ayni paytda odobli odam o'z vijdoni oldida halol bo'lishi bilan birga, o'ziga hurmat nuqtai nazaridai, bo'htonning oldini olish va bartaraf qilish ma'nosida yapa ziyrak ham bo'lmog'i kerak.

N. SHAMFOR

Bo'htopga eng yaxshi javob sukut bilan unga jirkanib qarashdir.

F. ENGELS

G'irt yolg'on narsalarni, haqiqatni bo'yab ko'rsatishlarni rad etmoq darkor.

A. BARBYUS

Xotira va vijdon hech qachon bo'htonni kechirmagan va kechirmaydi.

D. GALIFAKS

Boshqalarga tuhmat qilib shivirlyadigan odamni uyingdan haydab chiqar.

FALES

Kim tuhmatchipi qoramasa, uni qo'llagan bo'ladi.

SVETOPiy

## Xatolarga munosabat haqida

...Hech bir amaliy ish qilmaydigan odamgina xato qilmaydi.

V. I. LENIN

Hech nima qilmaydigan odamgina xato qilmaydi, holbuki uning asosiy xatosi ham shudir.

A. N. TOLSTOY

Shunday odamlar borki, hech qanday aqlli fikrlar bilan mashgʻul emaslar va shuning uchun ham hech qachon adashmaydilar.

I. GYOTE

Shunday odamlar borki, ularning bor xizmati hech nima qilmaslikdir.

V. O. KLUCHEVSKIY

Koʻp narsaga ruju qilgan odam koʻp iarsada xato qilishi muqarrar.

MENANDR

Har bir odam oʻzicha xato qiladi, negaki xatolar koʻpincha apiqlikni har xil tushunishdan kelib chiqadi.

G. LIXTENBERG

Xatoning boisi mukammallikni bilmaslikdadir.

DEMOKRIT

Xato bor-yoʻgʻi notoʻgʻri mulohazalarning oqibati, xolos, ammo oʻjarlik bilan xatoda turib olnsh koʻzga yaqqol tashlansa, bu irodasizlik belgisidir.

K. BOUVI

Turlicha xato qilish mumkin, ammo toʻgʻri yoʻl esa bitta. shu sababli ham toʻgʻri yoʻldan koʻra xato qilish oson; moʻljalga tegishdan koʻra tegmaslik oʻngʻay. .... . ARASTU

Oʻzni benuqson hisoblash adashishniig eng toʻgʻri yoʻlidir.

P. BUAST

Xatolardan qoʻrqmang, ularsiz yashab boʻlmaydi.

M. GORKIY

Xatolar aql beradi.

L. N. TOLSTOY

Birovning xatosi — boshqaga saboq.

J. REY

Birovlarning nuqsoni uchun oʻzingga pand berishing — men koʻpincha shunday qilaman — notoʻgʻri boʻlganidek, oʻz nuqsonlaringni birovda koʻrib, uni tanqid qilishing ham mutlaqo oʻrinsizdir, nuqsonga hech yerda oʻrin qoldirmay, hamisha va hamma joyda uni fosh etish kerak.

M. MONTEN

Xatolaring va adashgan yoʻlingdan xafa boʻlma. Hech narsa senga oʻz xatoingni anglab yetishingdan

ortiqroq saboq bermaydi. O'z-o'zini tarbiyalashning eng asosiy omillaridan biri ham shudir.

T. KARLEYL

Doimo xato qilib qo'yishdan qo'rqish hayotda yo'l qo'yishingiz mumkin bo'lgan eng katta xatodir.

E. XABBARD

Kim uzluksiz ravishda g'ayrat bilan oldinga intila borib o'z xatolarini yo'qotsa va kamchiliklarini yengsa, u shaxsiy kamolotnda yuksak cho'qqilarni zabt etadi.

E. TELMAN

Hali yosh ekanmiz, xato ham foydadan holi emas, faqat uni to qariguncha sudrab yurmasak bo'lgani.

I. GYOTE

Xatolar, agar ularni tan olishga bo'yin yor.bera, hamisha kechirimlidir.

F. LAROSHFUKO

Kishi xato qilishi mumkin. Xatoni riyokorlikka yo'ymaydilar... Haq ish bir qancha xatodan keyin ham o'lmaydi. Juda bo'lmaganda asosiy g'oyasi mustahkamligicha qoladi. Agar birinchi qadamdan natija chiqmasa, ikkinchisidan chiqadi.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Buyuk kishilar ham xato qiladilar, ulardan ayrimlari shunchalik ko'p yanglishadilarki, ularni o'rtamiyona odamlar qatoriga qo'shib qo'yishingga sal qoladi.

G. LIXTENBERG

Gap hech vaqt xato qilmaslikda emas, balki uni mardlarcha tan olib, aql bilan ish ko'rigaingdadir.

V. G. BELINSKIY

Odam qanchalik qudratli, axloqi qanchalik yuksak bo'lsa, o'zining zaif tomonlari va kamchiliklariga ham gaunchalik jur'at bilan qaray oladi.

V. G. BELINSKIY

Xatolarni tuzatish o'rniga qaysarlik qilish har bir odam-ning yoki butun bir jamoatning obro'sini to'kadi.

B. FRANKLIN

Soxta fazilatli kishilar o'z kamchiliklarini boshqalardan ham, o'zlaridan ham yashiradilar, yaxshi fazilatli kishilar esa o'z xatolarini aniq biladilar va ular haqida ochiqdan-ochiq gapiraveradilar.

F. LAROSHFUKO

Kim hech qachon telbalpk qilmagan ekan, u o'zi o'ylaganchalik dono emas.

F. LAROSHFUKO

Kishining ziyrakligi hech qachon xato qilmaslikda emas, balki uni qayta takrorlamaslikdadir.

K. BOUVI

Tuzatib bo'lmaydigan mayda xatolardan yirik illatlarga o'tish oson.

SENEKA

Inson o'zini boshqacha qilib bo'yab ko'rsatmagan bo'lsagina o'z kuchiga ishonadi.

P. A. PAVLENKO

Faqat kuchli odamgina o'z aybiga iqror bo'ladi. Faqat kuchli odam kamtar, faqat kuchli odam kechiradi... hatto yozilib kulgan ham kuchli odam, aksariyat uning` kulgisi ko'z yoshlaridir.

A. I. GERTSEN

Kim o'z kamchiliklarini tan olishdan uyalsa, bora-bora u orsizlarcha katta gunoh bo'lgan o'z qabihliklarini ham oqlay boshlaydi.

G. S. SKOVORODA

Fanda darslarni yodda tutish uchun ularii takrorlab turish kerak; axloqda esa xatolarni qaytarmaslik uchun ularni yodda tutish kerak.

V. O. KLUCHEVSKIY

Ko'plar xato qilmaslikka intilishdan ko'ra xatodan pushaymon bo'lishni yaxshi fazilat deb hisoblaydilar.

G. LIXTENBERG

Agar kishi aynan bir xatoni ikki marta takrorlasa, u qo'lini ko'tarib yo tuturuqsizligini, yoki qaysarligini tai olishi kerak.

J. LORIMER

Shuni yodda tutki, fikringni o'zgartirib, xatoingni tuzatadigan yo'lga yurishing o'z xatoingga yopishib olganingga qaraganda ko'proq senga erkinlik beradi.

MARK AVRELIY

Barcha odamlar yanglishadilar, lekin buyuk kishilargina o'z xatolarini tan oladilar.

B. FONTENEL

Ishni tuzatib bo'lmaydigan darajaga olib borgandan ko'ra xatoni tan olish ancha olijanobroqdir.

L. N. TOLSTOY

...Agar xatoda turib olinsa, agar uni chuqur asoslab bera boshlansa, agar uni «oxirigacha yetkazilsa», arzimagan xatodan ham har vaqt haddan tashqari katta xato keltirib chiqarish mumkin.

V. I. LENIN

Og'ir xato ko'pincha jinoiy ahamiyat kasb etadi.

SENEKA

Har kim xato qilishi mumkin, faqat nodongina o'z xatosini tan olmaydi.

SITSERON

Bizning har qanday nuqsonimiz shu nuqsolini yashirmoqchi bo'lib qilgan nayranglarimizdan ko'ra kechirarlidir.

F. LAROSHFUKO

Uyatchanlik o'z xatolaringni tan olishdan boshqa barcha hollarda o'runlidir.

G. LESSING

Sernuqsonlik, shubhasiz, yomon, ammo undan ham yomonrog'i, o'zingda ularni tan olmaslik istagi, bunda mazkur nuqsonlarga o'z-o'zini aldash ham qo'shiladi.

PASKAL

O'zini-o'zi aldash dahshat, chunki bunda aldovchi hamisha aldanuvchida mujassam bo'ladi.

AFLOTUN

O'zgalarni aldash ishni chigallashtiradi va bir qarorga kelishni qiyinlashtiradi, lekin haqiqat deb ro'kach qilin-gan inson ko'nglidagi yolg'on esa odamni umrbod nobud etadi.

L. N. TOLSTOY

O'z illatlaringni so'z bilan niqoblashga emas, aksincha, oshkora davolashga urin.

PIFAGOR

O'z nuqsonini bartaraf etishda o'zi to'grisidagi yomon gapdan foydalana bilgan kishigina baxtiyordir.

V. SHEKSPIR

O'z ustingizdan kulishdan cho'chimang, o'z-o'zini tanqid ham xuddi yuvinish kabi zarurdir.

M. GORKIY

Tom ma'nodagi o'z-o'zini tanqid — vijdonning ovozi.

V. A. SUXOMLINSKIY

O'z ayblaringni yashirish bilan yaxshi odam bo'lib qolmaysan; bu nuqsonlarni sidqidildan tan olsak obro'yimiz qaytaga ortadi.

LIXTENBERG

O'z nohaqligingizni tushunishingiz, avvalgidan ko'ra aqlliroq bo'lishingiz demakdir.

P. BUAST

O'z ojizligini tan olish bilan inson yanada baquvvatlashadi.

O. BALZAK



## Bilim haqida

Yaxshi yashamoq uchun yaxshi ishlamoq zarur, shu zaminda dadil turmoq uchun ko'p bilmoqlik darkor.

M. GORKIY

Bilimdan qudratliroq kuch yo'q; bilim bilan qurollangan odam yengilmasdir.

M. GORKIY

Inson qanchalik ko'p bilsa, u shu qadar kuchli.

M. GORKIY

Siviliatsiya tarixini olti so'z bilan ifodalash mumkin: qancha ko'p bilsang, shuncha ko'p qodirsan.

E. ABU

Bilimga intilish tuyg'usidan ko'ra tabiiyroq tuyg'u bo'lmasa kerak....

M. MONTEN

Ma'naviy hayotda ham amaliy hayotdagidek, kimki bilimga tayansagina to'xtovsiz kamol topadi va yutuqlarga erishaveradi.

U. JEYMS

Bilim, faqat bilimgina insonni ozod va ulug'vor qiladi.

D. I. PISAREV

Narsalar qanday bo'lmog'i lozimligini bilish aqlli odamga xosdir; narsalarning haqiqatda qandayligini bilish tajribali odamga xos; narsalarni yanada takomillashtirishni bi-lish buyuk odamga xos.

D. DIDRO

Sizni ulug'likka undaydigan hech bir narsaga e'tiborsiz bo'lmang.

STENDAL

Bizning ishimiz — o'qish va o'qish, imkoni boricha ko'proq bilimga ega bo'lish uchun intilishdir, chunki jiddiy ijtimoiy yo'nalishlar — bilim bor yerda, insoniyatning istiqbol baxti ham faqat bilimdadir.

A. P. CHEXOV

Aqlli, bilimli odamlar kerak; insoniyat porloq hayotga yaqinlasha borgan sayin, bunday odamlar aksariyatni tashkil etmaguniga qadar, ularning soni ko'payib boraveradi.

A. P. CHEXOV

Har kim otasi va bobosi ko'rgan va bilganiga qaraganda ko'proq ko'rish va bilishga intilmog'i lozim.

A. P. CHEXOV

Bilmaganni so'rab o'rgangan — olim,  
Orlanib so'ramagan — o'ziga zolim.

A. NAVOIY

Oz-ozdan o'rganib dono bo'lur,  
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

A. NAVOIY

Yigitlikda yig' ilmning maxzani.

Qarilik chog'i xarj qilgil ani.

A. NAVOIY

O'qish, o'rganishda mardi maydon bo'! Sening qadr-qimmating — o'z imkoniyatlaringdan to'la foydalanib o'qishingda. Er kishining izzat, sha'ni — tekinxo'r, hamtovoq bo'lmaslikda. Fikr yalqovligidan hazar qil!

V. A. SUXOMLINSKIY

Bilim — kuch, kuch esa bilimdadir.

F. BEKON

Bilim va qudrat — ikkovi egizak.

F. BEKON

Eng dovyurak odam ham toki unda qat'iy e'tiqod yo'q ekan, nomardga aylanishi mumkin.

E. DELAKRUA

Bilim — barcha kulfatlarga qalqon.

A. RUDAKIY

Bilim shunday kuchki, bu kuchga bizni qurshab turgan tabiat inerniyasi qarshi turolmaganidek, eng tosh qotgan yanglishishlar ham dosh berolmaydi.

A. I. GERTSEN

Odamlar mehnati bilan yaratilgan, fanda jamlangan bilim tobora o'sib, teranlashib, beqiyos tig'nz bo'lib bormoqda va bizning bilish qobiliyatimiz, njo'diy quvvatimizning benihoya yuksalishi uchun tayanch xizmatini o'tamoqda.

M. GORKIY

Insonga bilimning zarurligini uqtirish, unga ko'rishning ahamiyatini uqtirish bilan baravardir.

M. GORKIY

Ruhiyat ham tana singari muttasil ozuqlanishsiz yashay olmaslik qonuni izmidadir.

L. VOVENARG

Bilim — biz yashayotgan dunyoning mutlaq qimmatli boyligi. O'qimoq zarur, bilmoq zarur. Bilib bo'lmaydigan narsa yo'q, biz bilib olinmagan narsalar xususidagina gap yuritishimiz mumkin.

M. GORKIY

Bilganlarimizning cheki bor, bilolmagan narsalarimizning esa had-chegarasi yo'q.

LAPLAS

Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on

Shunda bilursankim, ilm bepoyon.

A. FIRDAVSIY

Bilim manbai behad: insoniyat bu yo'lda qanchalik yutuqlarga erishmasin, barcha odamlarning izlanishi, kashfi va bilimi uchun o'rin topiladi.

I. A. GONCHAROV

Inson tushunib bo'lmaydigan narsalarni ham tushunish mumkinligiga inonmog'i lozim: aks holda, u bular haqida fikr yuritmay qo'ygan bo'lur edi.

I. GYOTE

Umrning butun ma'nosi mavhumlikni to'xtovsiz zabt etish, tobora va hamisha ko'proq bilishga intilishdir.

E. ZOLYA

Inson dunyoni qanchalik bilsa, o'zligini ham shunchalik anglaydn.

I. GYOTE

Siz nimani tushunmasangiz, u sizga begona.

I. GYOTE

Bilimsizlikdan hech qachon maqtanmaslik kerak: bilimsizlik — ojizlik.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Bilimsizlik — kulfatdan qutulishning yomon vositasi.

SENEKA

Bilmaslik — ulg'aymaslik, harakatsizlik bilan baravar.

M. GORKIY

Bilim insonga hamma yo'lida hamrohdir.

D. GURAMISHVILI

O'z turmushini yaxshilash ehtiyoji aqliy mehnatga intilish zaruriyatini tug'diradi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Bilimga eltuvchi yagona yo'l, bu — faoliyatdir.

B. SHOU

Inson bilimga intiladi va qachonki unda bilimga tashnalik so'nsa, u insoniylikdan mahrum bo'ladi.

F. NANSEN

Narsalarga qiziqishing yo'qolsa, xotiringdan ham ayrilasan.

I. GYOTE

Har qanday bilim bizni g'ayratga undagan taqdirdagina qimmatlidir.

I. ETVES

## Axloqiy va aqliy kamolot haqida

Odamning ulug'ligi bo'yi bilan o'lchanmaganidek, xalqning ulug'vorligi ham uning soni bilan o'lchanmaydi; yagona o'lchov, uning aqliy kamoloti va axloqiy barkamolligidir.

V. GYUGO

Hozirgi jamiyatlar uchun tarbiya masalasi kelajak taqdiri bilan bog'liq hayot-mamot masalasidir.

E. RENAN

Avvalgi zamonlarda vorislik yordamida, asriy urf-odatlar, urug'-aymoqchilik va xalk, udumlari yordamida erishilgan narsalarga endilikda faqat ta'limning ko'magi bilangina erishish mumkin.

E. RENAN

Ta'limga ehtiyoj har bir kishida mujassam; xalq nafas olish uchun havoni qanchalik ardoqlasa va izlasa, u ta'limni ham shu qadar e'zozlaydi va izlaydi.

L. N. TOLSTOY

Tarbiya — vijdon ishi; ta'lim esa fanning vazifasi. Keyinchalik, inson voyag'a yetgach, bilimning bu ikki turi biri birini to'ldiradi.

V. GYUGO

Barcha ta'limlarning bosh vazifalaridan biri shundaki, ular mutlaq farog'at sari nihoyasiz intila borishdek umumiy ishda insoniyat uchun muttasil ravishda yangi avlodlarni yetishtirib beradi.

K. D. USHINSKIY

Bilim odamiing ijodiy maqsadlariga xizmat etmog'i lozim. Vilim orttirishning o'zi kifoya emas, uni iloji boricha keng yonmoq va hayotga tatbiq etmoq zarur.

N. A. RUBAKIN

Tarbiyaga jamiyat a'zolari o'rtasida qaror topgan munosabatlarni saqlab turish uchun juda zarur bo'lgan bilimlarni uzluksiz egallash, deb qarash mumkin.

A. SEN-SIMON

Umumiy ta'lim insoniyat va ayrim shaxs orasidagi mavjud tabiiy aloqaning tasdig'i va anglashinishidir.

D. I. PISAREV

Sivilizatsiyaning buyuk vazi-fasi — odamni fikrlashga o'rgatishdir.

T. EDISON

Fikr! Buyuk narsa! Insonning ulug'vorligi ham fikrdan bo'lmay nimadan?

A. S. PUSHKIN

Bilimli odam, uni qurshab turgan hayotning barcha tomonlari va jabhalari bo'yicha o'z dunyoqarashi, o'z mushohadasiga ega bo'lgan kishidir.

N. A. RUBAKIN

Ta'lim va kamolotning turi ko'p, ularning har biri o'zicha muhim, ammo axloqiy ta'lim ularning barchasidan yuqori turmog'i lozim.

V. G. BELINSKIY

Tarbiya ishida har bir kishining individual qobiliyatini rivojlantirish haqida g'amxo'rlik qilish bilap ayni chog'da, ularda atrofda qilarga nisbatan mas'uliyat hissini tarbiyalashga ham e'tibor bermog' zarur.

A. EYNSHTEYN

Davlatning gullab-yashnashn, xalqning farog'ati beshak olijanob xulq-odobga bog'liq, olijanob xulq-odob esa tarbiya tufaylidir.

N. I. NOVIKOV

Tarbiya asoson bizning dilimizga individ va jamiyat uchun foydali bo'lgan fazilat urug'larini sochmog'i lozim.

K. GELVETSIY

Odamda cheksiz ijodiy quvvatlar mujassamki, aks holda, u odam bo'la olmasdi. Bu quvvatlarni ro'yobga chiqarmoq va ochmoq lozim. Buni adolatga undovchi hamdu sanolar bilan emas, balki insonga qulay ijtimoiy va moddiy shart-sharoitlarni yaratib berish bilan hal etmoq zarur.

A. N. TOLSTOY

Tarbiya — faqat insonzehni-ni o'stirish va unga ma'lum hajmdagi bilimni singdirishgina emas, balki u insonda mehnatga tom ma'nodagi chanqoqlik hissini uyg'otmog'i lozim, busiz odam hayotda na e'tiborli va na baxtiyor bo'la oladi.

K. D. USHINSKIY

Tarbiya, bu nisbatan keksaroq avlodning o'z tajribasi, o'z ehtirosi, o'z e'tiqodini yosh avlodga topshirishi demakdir.

A. S. MAKARENKO

Tarbiyaning bosh vazifasi odamni yaxshi qadam bosishga majbur etishgina emas, balki shu yaxshi ishlardan huzurla-nishga ham o'rgatishdir; faqat ishlabgina qolmay, ishni sevish ham kerak.

J. RESKIN

Tarbiya bizni yo'ldan ozdirmay turishining o'zi kifoya emas, u tobora bizni yaxshilab bormog'i lozim.

M. MONTEN

Nazarimizda bolalarning a'zoyi-badani va ruhiyatini tabiat qanday yaratgan bo'lsa, shundayligicha qoldiraverishdan qoniqmaymiz,— biz ularning tarbiyasi va o'qishi haqida gamxo'rlik qilamiz, toki yaxshi yanada yaxshilanishi, yomon esa o'zgarib, yaxshi bo'lishi kerak.

LUKIAN

Tarbiya odamda mehnatga ko'nikma va mehrni kuchaytirmog'i lozim, u insonga hayotda o'ziga loyiq ish topa biliat imkoniyatini bermog'i zarur.

K. D. USHINSKIY

Tarbiya qiyin ish va tarbiya shart-sharoitlarini yaxshilash — har qanday kishining ham muqaddas burchlaridan biridir, zero o'zini va tevarak-atrofdagilarni ma'lumotli qilishdan ham ko'ra muhimroq ish yo'q.

SUQROT

Har bir mamlakatda insonni voyaga yetkazish san'ati idora etish uslubi bilan shu qadar chambarchas

bog'lanib ketganki, ijtimoiy tarbiyaga doir u yoki bu muhim o'zgarishni davlat tuzumining o'ziga o'zgartirish kiritmasdan turib amalga oshirish mumkin emas.

K. GELVETSIY

Ta'lim haqiqiy, to'la, ravshan va mustahkam bo'lmog'i zarur.

Ya. KOMENSKIY

Tarbiya chinakam tarbiya bo'lsagina yuksak ezgulikdir, aks holda, u hech nimaga yaramaydi.

R. KIPLING

Tarbiya — buyuk ish: tarbiya bilan inson qismati hal etiladi.

V. G. VELINSKIY

Odam qanchalik ma'rifatli bo'lsa, el-yurtga shunchalik foydasi tegadi.

A. S. GRIBOYEDOV

Barcha kashfiyotlar ichida eng go'zali yaxshi tarbiya olgan insondir.

EPIKTET

Tarbiya ikki negizga — axloq va oqillikka tayanmog'i lozim: birinchisi — yaxshi fazilatni o'stirsa, ikkinchisi — o'zgaralar illatidan himoya qiladi. Agar faqat axloqqagina tayanilsa, unda siz g'irt befahtlar yoki dodvoychi dardisarlarni, faqat oqillikka tayanilsa — xudbin shaxsiyatparastlarni tarbiyalab yetishtirishingiz mumkin.

N. SHAMFOR

Odam bolalikdanoq yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga qadam qo'ymasligi kerak, avlodlarni ham yaxshilik va go'zallik kurtaklarisiz hayotga yo'llab bo'lmaydi.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Go'zallik tuyg'usini singdirmay turib, to'laqonli barkamol insonni voyaga stkazish mumkin emas.

R. TAGOR

Go'zallikni his etgan kishigina chin inson hayoti mohiyatini anglab yetishi va tushunishi mumkin.

F. E. DZERJINSKIY

Madaniyat tarixini bilmay turib, madaniyatli kishi bo'lish mumkin emas.

M. GORKIY

Muzika ko'ngilga axloqan muayyan ta'sir ko'rsatish quvvatiga ega; hamonki, muzika shunday xislatga ega ekan, u yoshlarni tarbiyalash predmetlari qatoriga qo'yilmog'i lozim.

ARASTU

Muzika — tafakkurning qudratli manbai. Musiqiy tarbiyasiz tom ma'nodagi aqliy kamolot bo'lishi mumkin emas.

V. A. SUXOMLINSKIY

Gimnastika inson qaddini rostlaganidek, muzika ham inson qalbini rasolaydi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Ta'limning inson uchun buyuk ezgulik ekanini isbotlab o'tirishning hojati yo'q. Ma'lumotsiz odamlar ham dag'al, ham qashshoq va ham baxtsizdir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Inson tom ma'noda ma'lumotli bo'lmog'i uchun unga uch xislat — chuqur bilim, fikrlash ko'nikmasi va olijanob tuyg'ular zarur. Kimdagi bilim sayoz ekan, u nazokatsiz bo'ladi; kimki mulohaza yuritish odatidan mahrum ekan, u dag'al yoki befarosatdir; kimdagi olijanoblik tuyg'usi bo'lmasa, u bema'ni odamdir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Ilmsiz odam ko'rolmagan, ko'rganda ham uning biror tomonini ko'rib shu haqda mulohaza yuritgan joyda bilimli odam uning barcha qirralarini ko'ra oladi.

N. A. RUBAKIN

Yomon tarbiya ko'rgan odamning dadilligi qo'pollikka o'xshaydi; donishligi o'taketgan rasmiyatchilikka; gapga chechanligi — maynabozchilikka, oddiyligi — dag'allikka, ko'ngilchanligi — tilyog'lamalikka aylanib ketadi.

J. LOKK

## Maktab, o'qituvchilar va o'quvchilar to'g'risida

Xalq uchun nondan so'ng eng muhimi maktabdir.

J. DANTON

Maktab, o'z sistemasida mujassamlangan asosiy predmst va printsiplariga ko'ra, xalqlar va davlatlar turmushi va taqdirini belgilashda bag'oyat buyuk kuchdir.

D. I. MENDELEYEV

Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir; agar kelajakni qo'ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo'lda mustahkam tutmog'ing lozim.

A. BARBYUS

Mehnat jarayoniga asoslangan bilimdan o'tkirroq qurol yo'q.

M. GORKIY

Odalarning ijtimoiy-madaniy yuksalishi, qachonki qo'l miyani o'rgatgan, so'ngra teranlashgan miya yana qo'lni o'rgatib, miyaning o'sishiga kuchliroq ta'sir ko'rsatgan holdagina normal bo'lishi mumkin.

M. GORKIY

Bir soatlik ish bir kunlik tushuntiruvdan ko'ra ko'proq narsa beradi, chunki men bolani ustaxonada mashg'ul qilar ekanman, uning qo'llari aqli uchun ishlaydi: u o'zini bor-yo'gi hunarmand hisoblagani holda faylasufga aylanadi.

J. J. RUSSO

O'quvchini mehnat qilishga o'rgat, uni nafaqat mehnatni sevishga, u bilan shunday uyg'unlashishga ko'niktirginki, toki mehnat uning vujudiga singib ketsin, uni shunga o'rgatki, uning uchun o'z kuchi bilan biron-bir narsani bilib ololmaslik aqlga sig'maydigai holat hisoblansin; u mustaqil o'ylamog'i, izlamog'i, o'zini ko'rsatmog'i, o'zining uyg'onmagan qobiliyatlarini rivojlantirmog'i, o'zini sobitli inson qilib yetishtirmog'i lozim.

A. DISTERVEG

O'z shogirdlarida mehnatdan zavqlanish xislatlarini uyg'ota bilgan muallim sharaflarga loyiq.

E. XABBARD

O'qituvchi inson ruhining injeneridir.

M. I. KALININ

O'qish — tarbiya deb ataluvchi gulning faqat birgina gulbargi xolos.

V. A. SUXOMLINSKIY

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado oping haqin yuz ganj ila.

A. NAVOIY

Tarbiyada butun ish tarbiyachiniig kim ekanligiga bog'lpq.

D. I. PISAREV

Bizga ta'lim berayotgalar haqli ravishda bizning o'qituvchilarimiz deb ataladilar, ammo bizni



o'qitayotganlarning har biri ham bu nomga loyiq emas.

I. GYOTE

Tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchilarini qanday ko'rishni istasa, avvalo uning o'zi o'shanday bo'lmog'i lozim.

V. I. DAL

Tarbiyasi birovni hayotga tayyorlamog'i uchun avvalo o'zi hayotni chuqur bilmog'i lozim.

L. N. TOLSTOY

Tarbiyalovchining o'zi zehqli, nihotda bosiq, xushfe'l, yuksak axloqiy xislatlarga ega bo'lmog'i kerak.

M. I. DRAGOMANOV

...Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lmog'i zarur.

K. MARKS

Boshqalarni o'qitib, o'zimiz ham o'rganamiz.

SENEKA

Kimki oz bilsa, ozga o'rgatadi.

Ya. KOMENSKIY

O'qitish, ikki barobar o'qish demakdir.

J. JUVER

Birovni o'rgatish uchun, o'zing o'rganishing uchun lozim bo'lgandan ko'ra ham ko'proq aql kerak.

M. MONTEN

Kimki nasihatga o'tar ekan, o'git tinglovchiga nisbatan o'zini tadbirkor his etmog'i lozim: kichik bir xatosi ham ishni buzadi.

R. DEKART

Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun nimani o'qitsang — o'shanga, kimni o'qitsang — o'shalarga mehr qo'ymog'ing zarur.

V. O. KLUCHEVSKIY

Pedagogika faoliyat uchun, birinchidan, tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchisini har jihatdan bilishi, ikkinchidan, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi orasida to'la ishonch bo'lmog'i zarur,

D. I. PISAREV

Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri — o'quvchiga hurmatda.

R. EMERSON

Agar odamdan ko'p narsani talab etmasang, ko'p narsani ololmaysan ham.

A. S. MAKARENKO

Tarbiyachi hamisha, tarbiya kuchi shu qadar beqiyoski, undan hech qachon butun borligicha foydalana olmasligiga ishongan bo'lishi kerak.

K. D. USHINSKIY

Tarbiyachi mansabdor to'ra emas; agar u mansabdor to'ra bo'lsa, demak tarbiyachi emas.

K. D. USHINSKIY

Tarbiyachining ma'naviy da-rajasi qanchalik tuban, axloqiy qiyofasi bemaza bo'lsa va u faqat o'z tinchi va oromini o'ylasa, go'yo bolalarning tashvishi taqozo etgan har xil buyruq va taqiqlarni shu qadar ko'i chiqaraveradi.

Ya. KORCHAK

Kimki bolalarni ularning o'zlari o'zlashtira oladigan darajada emas, balki men o'zim istagan darajada o'qitishim zarur, deb hisoblasa, u mutlaqo kaltabindir.

Ya. KOMENSKIY

Inson — istagan suyuqlik bilan to'ldirib qo'yish mumkin bo'lgan bo'sh idish emas.

D. I. PISAREV

Tarbiyadagi eng katta xato, o'ta shoshqaloqlikdir.

J. Sh. RUSSO

Bolalarga o'qitilayotgan darslar ularning yoshiga muvofiq kelmog'i lozim, aks holda, ularda o'zbilarmonlik, o'ziga bino qo'yish, mag'rurlanish kasali xavfi tug'iladi.

I. KANT

Odamlarni hamma narsaga o'rgatishadi-yu, ammo andishaga o'rgatishmaydi, holbuki ular bilimdonlik bilan emas, o'zlari hech qachon o'rganmagan o'sha andishalilik bilan ajralib turishga ko'proq intiladilar.

B. PASKAL

Yomon tarbiya ko'rgan odamni qayta tarbiyalashdan og'irroq narsa yo'q.

Ya. KOMENSKIY

Bir umr cho'tka tegmagan ko'ylakni tezda tozalab bo'lmaganidek, odamni ham birdaniga qayta tarbiyalash mumkin ems.

M. Ye. SALTIKOV-SHCHEDRIN

Shu narsa ravshanki, turmush uchui foydali bo'lgan predmetlarning beistisno jamini emas, haqiqatan zarurlarini o'rganmoq lozim.

ARASTU

Shunday hayot haqiqatlari mavjudki, ularni siyosiy, huquqlar singari ma'lum yoshdan keyingina o'rgatish mumkin.

A. I. GERTSEN

Aytishlaricha, siyosatdagi eng yaxshi qoida ma'muriyatchilikni oshirib yubormaslikdir. Bu qoida tarbiyaga ham shu daraja-da muvofiq keladi.

JAN POL

Bolalarni o'qitishdagi bosh masala ularga nima o'rgatilayotganligida emas, balki qanday o'rgatilayotganligidadir. Bolaga yaxshi va mohirona uqtirilgan odatdagi kundalik narsalar uning

tushunchasiga mos tugpmaydigan, g'aliz izohlangan yuksak haqiqatlardan ko'ra kelajakda unga yuz karra ko'proq foyda beradi.

N. I. PIROGOV

Qiyin fanlar yo'q, faqat hazm etilishi qiyin bo'lgan fanlarga bor.

A. I. GERTSEN

Qaerdaki bo'lmasin, so'z odamlar o'rtasidagi vositachilik xizmatini o'tar ekan, ayniqsa ta'lim sohasida ortiqcha gapirish ham, gapni to'mtoq tugatish ham nomaqbuldir.

V. O. KLUCHEVSKIY

So'z degan narsa o'qituvchilarga o'z fikrlarining bayoni uchun emas, balki boshqalar tafakkurini uygotish uchun berilgan.

V. O. KLUCHEVSKIY

Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi.

V.O. DISTERVEG

Hech bir murabbiy o'zining asosiy vazifasi o'z tarbiyalanuvchilarini aqliy mehnatga o'rgatishdan iboratligini va bu vazifa dars o'qitishdan ham ko'ra muhimroq ekanligini unutmasligi lozim.

K. D. USHINSKIY

Agar o'quvchilarda tashabbuskorlik va faollik rivojlanmas ekan, har qanday bilim jonsizdir; o'quvchilarni faqat fikrlashga emas, istakka ham o'rgatmoq kerak.

N. A. UMOV

Istak uyg'otmaydigan tarbiya qalbni xarob etuvchi tarbiyadir. Tarbiyachi istashga ham o'rgatmog'i zarur.

A. FRANS

O'quvchilar va o'qituvchilarning muvaffaqiyat uchun bilimning har bir sohasida darsni izohlashda iloji boricha kelgusida o'quvchilar oladigan bilimlarning umumiy va juz'iy ahamiyatini ishonarli asoslash bag'oyat foydalidir.

J. PEYO

Pedagogikani inson haqida emas, balki bola haqidagi ilm hisoblash qo'pol xatolardan biridir.

Ya. KORCHAK

Haqiqiy ta'lim odamni odamiylikka tayyorlashdir.

N: I. PIROGOV

Maktabning maqsadi, tarbiya va faqat tarbiyadir.

I. PESTOLOSSI

Tarbiya ta'limdan ustun turadi. Insonni tarbiya voyaga etkazadi.

A. SENT-EKZYUPERI

Ma'rifatning maqsadi xarakterni tarbiyalashdan iboratdar.

G. SPYeNSYeR

Tarbiyaning eng muhim qismi fe'l-atvorni shakllantirishdir.  
USHINSKIY

Insonga yaxshi tarbiya-berishning eng muhim asosi uning xarakterini shakllantirishdan iboratdir.  
E. TELMAN

Inson tarbiyasining bosh yo'li ishonchdir.  
K. D. USHINSKIY

Chiroyli haykalcha yasab, unga hayot baxsh etmoqlik yaxshi, ammo yosh aqlni ulg'aytirish, yosh qalbni o'ziga xos shakllantirib, unda adolat tuyg'usini jonlashtirish yanayam yaxshidir.  
V. GYUGO

E'tiqod nazariya yo'li bilan singdiriladi, xulq esa namuna ko'rsatish orqali shakllantiriladi.  
A. I. GERTSEN

Ilm o'qub amal qilmag'on, kariz qazib tuxum solmag'onga o'xshar.  
A. NAVOIY

Ulki buyurub o'zi qilmagay va hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay.  
A. NAVOIY

Ish erur ulkim, o'zi oni qilur,  
Hikmat ulkim, ham o'zi oni bilur.  
A. NAVOIY

Namunasiz to'g'ri o'qitish ham, yaxshi o'qish ham mumkin emas.  
L. KOLUMELLA

Namunasiz hech narsani o'rga-nolmaysan.  
Ya. KOMENSKIY

Oldingda to'g'ri ketayotganning izidan to'g'ri borish oson.  
Ya. KOMENSKIY

Tarbiyachi o'zining qaysidir ehtirosiga erk berar ekan, uning ehtirosilarni jilovlash haqidagi gaplari foydasiz; o'zi yo'l qo'yadigan illat yoki nomunosib odatlarni shogirdlarida tugatishga urinishi ham samarasiz bo'lib chiqadi.  
J. LOKK

O'rgatmoq uchun so'kish, yordam bermoq uchun haqorat qilish shart emas.  
F. LAROSHFUKO

Haqiqiy tarbiya qoidalarda emas, mashqlardadir.  
J. J. RUSSO

Olijanob odatlar namuna tufayli tarkib topadi.

## A. FRANS

Jon kuydirib o'rganish va ezgu ish qilishga, tirishqoqlik bilan yanada takomillashishga, gayrat bilan undan ham takomillashishga o'rgatuvchi maktabgina baxtiyordir.

Ya. KOMENSKIY

Yaxshi tarbiya har qanday nodon kishini ham odam qatoriga qo'shadi.

V. G. VELINSKIY

Dunyoda kurtak paytidanoq mukammallikka erishadigan hech bir narsa yo'q, aksincha, har qanday hodisada ham avvalo — oddiygina xadikli umidlar, so'ngra esa shak-shubhasiz to'la qiyofa namoyon bo'ladi.

APULEY

Tabiat har bir odam zamiriga donli boshqoq yoinki yovvoyi o't urug'ini tashlaydi; shuning uchun o'z vaqtida birinchisini parvarishlash, ikkinchisini qiyratmoq lozim.

F. BEKON

Odamning yaxshi tomonini ko'ra bilish hamia qiyin. Odamdagi yaxshi fazilatlarni odatda xayolan tasavvur etishga to'g'ri keladi va pedagog shunday qila bilishi lozim. U odamga, hatto birmuncha yaiglishish xavfi bo'lsa ham yaxshi umid bilan yondashmog'i lozim.

A. S. MAKARENKO

Agar siz odamlarni aslida ular qanday bo'lsalar, shundayligicha, barcha nuqsonlari bilan qabul qilsangiz, hech qachon siz ularni yaxshilay olmaysiz. Agarki siz odamlar bilan ideal odamlardek munosabatda bo'lsangiz, siz ularni o'zingiz ko'rmoqni istagan yuksaklikka ko'tarishingiz mumkn.

I. GYOTE

Zehni o'tkir va har narsaga qiziquvchan, lekin odamovi va o'jar bolalar bo'ladi. Maktabda odatda bundaylarni ko'rgani ko'zlari yo'q, doimo ularga ishonchsizlik bilan qaraydi-lar; vaholanki, yaxshi tarbiya berilsa, ulardan buyuk odamlar chiqadi.

Ya. KOMENSKIY

Agar yaxshilab tarbiya berilsa, yaxshilab sovitilsa, eng hurkak toylardan eng uchqur bedovlar chiqadi.

PLUTARX

O'z mohiyatingni o'zgartirishing mumkinmas, tarbiyaning buyuk siri va buyuk kuchi ham shundan iboratki, u xarakterdagi har xil moyilliklarni hatto nuqsonlarni ham ezgulikka yo'naltiradi.

J. SAND

Bolaga ta'lim berishdan maqsad, uni kelgusyda o'qituvchining ko'magisiz unib-o'sishga layoqatli qilishdir.

E. XABBARD

Istamay mutolaa qilayotgan talaba — qanotsiz qush.

SA'DIY

Bilimni singdirib olmoq uchun uni ishtaha bilan simirmoq lozim.

A. FRANS

Dars paytidagi bekorchilik, aqliy mehnat taqozo etilgan joyda ayni uning bo'lmashligi,— bo'sh vaqt yo'qligining bosh sababidir.

II. A. SUXOMLINSKIY

Har narsaga qiziquvchanlik olimlar va shoirlarni yetishtiradi.

A. FRANS

Kimki o'qishni istamasa, — hech qachon haqiqiy inson bo'lolmaydi.

XOSE MARTI

Bilimni o'z kuching bilan egalla, sherigingning mehnat natijalarini o'zlashtirishing noinsoflik. Dars vazifalarini mustaqil bajarmaslik — tekinxo'rlikka qo'yilgan birinchi qadam.

V. A. SUXOMLINSKIY

Kimda-kim biror-bir san'at, fan va hunar sirini egallamagai ekapn, u hech qachon nimadir bir yirikroq narsani yaratishga layoqatli bo'lolmaydi.

MICHURIN

O'qimay turib, na bir san'at va na bir donishmadlikka yetishish mumkii emas.

DEMOKRIT

Kimki hech narsani qiziqib so'ramasa, hech nimani o'rganmaydi ham.

T. FULLER

Diqqat-e'tibor ko'nglimizning yagona darchasi, ongimizdagi bor narsalarning bari so'zsiz shu darcha orqali o'tadi.

K. D. USHINSKIY

Faqat diqqat qilgan odamgina xotirasida saqlay oladi.

S. JONSON

Muallim aytgan so'zni takrorlash oilan uning izdoshi bo'lib qolaverish qiyin.

D. I. PISAREV

Chinakam shogird bor narsalar negizida mavhum narsalar rivojini o'rganadi va shu yo'l bilan ustoziga yaqinlashib boradi.

GYOTE

O'z podonligini muallimlarni ayblash bilan oqlaydiganlar aslida o'z bilganlaricha hech nima qila bilmaydigan va o'zlari borishlari lozim bo'lgan joyga quloqdan tortib olib borishlarini kutib yotadigan kimsalardir.

A. DOBROLYUBOV

### Mustaqil mutolaa to'grisida

Ilm berish faqat maktabning ishi emas. Maktab shu bilimga kalit beradi xolos. Maktabdop tashqari o'qish hayotni to'laligicha qamrab oladi! Inson bir umr ilmini oshira borishi lozim.

A. V. LUNACHARSKIY

Inson hayot ekan, garchi sochi oqargan bo'lsa ham bilim olishi mumkin, bilim olishni istaydi va bilim olishi shart. Binobarin, maktabdan tashqari olinadigan har qanday bilim, chupik hayot butun borligi bilai maktab doirasiga sig'maydi, mustaqil o'qish jarayonidir.

A. V. LUNACHARSKIY

Hech bir odam mukammal, ya'ni to'la shakllangan holda dunyoga kelmaydi, ammo uning butun hayoti betinim harakatdagi o'sish va doimiy shakllanishdan iboratdir.

V. A. BELINSKIY

Har bir odam ikki xil tarbiya oladi: biriichi tarbiyani o'z hayot tajribalarini singdirish yo'li bilan ota-ona beradi, ikkinchisi, yanada muhimrog'ini esa unga hayotning o'zi o'rgatadi.

E. TELMAN

O'z hayot tajribasini har tomonlama boyitmagan odamning tarbiyasi — behuda.

E. TELMAN

Tarbiya ishida o'z-o'zini takomillashtirish jarayoniga katta o'rin berilmog'i lozim. Insoniyat faqat mustaqil o'rganish tufayligina taraqqiy etgan.

SPENSER

Har qanday chuqur bilim faqat mustaqil o'qish yo'li bilangina orttiriladi.

N. A. RUBAKIN

Insonni uning shaxsiy ma'naviy faoliyati, boshqacha aytganda, boshqa odamlardan yoki kitoblardan bilganlarini o'zicha, mustaqil o'ylashi, boshidan kechirishi, his eta bilishi o'qi-mnshli qiladi.

RUBAKIN

O'z ustingizda mustaqil ishlashdan hech vaqt to'xtamang, qanchalik o'qimang, qanchalik bilmang, ilm va o'qishning cheki va chegarasi yo'qligini unutmang.

N. A. RUBAKIN

O'z fikrini yaxshi ifodalay olmaslik — illat; lekin mustaqil fikrga ega bo'lmaslik esa undan ham battarroq illat; mustaqil fikrlar, mustaqil orttirilgan bilimlardangina tug'iladi.

K. D. USHINSKIY

Birovdan eshitib olingan bilimlar bilan qanoatlanishni sira tasavvur etolayman; o'zgalarning bilimi garchand bizni u-bu narsaga o'rgatsa ham, ammo faqat o'z aqling bilan aqli bo'la olasan.

M. MONTEN

O'zgalarning dasturi — maslahat ovozidan boshqa narsa emas.

N. A. RUBAKIN

O'zi harakat qilmasa, hech kim hech qachon maqsadiga erisholmaydi. Birov ko'rsatgan har qanday

yordam ham sen qilgan urinishlarning o'rnini bosolmaydi.

N. A. RUBAKIN

Haqiqatni o'zgalar tilidan to'la bilib, to'ti singari yodlab olgandan ko'ra, o'z hara-kating bilan chalaroq bilganing afzal.

R. ROLLAN

Tirishqoqlik ilm sari yagona yo'ldir.

B. SHOU

Fanda eng ishonchli ko'makchi o'z aqling, tafakkuringdir.

J. FABR

Tayyor e'tiqodlarni na yaxshp tanish-bilishlardan tilab, na kitob magazinidan sotib olish mumkin. Uni o'z miyamizda sodir bo'ladigan mustaqil fikrlash jarayonida shakllantira borishimiz zarur.

D. I. PISAREV

Fan cho'qqilariga chiqishga urinishdan avval fan asoslarini egallang. Boshlagan ishingizni oxiriga yetkazmay turib, keyingisiga qo'l urmang. Olgan bilimingizdagi kemtiklarni hatto eng dadil taxmin va farazlar bilan ham ifodalashga urinmang. Fanda qora ishdan qochmaslikka o'rganing.

I. P. PAVLOV

Kamolot va bilimga hech bir odam o'z-o'zidan erisholmaydi. Kimki bilimdon bo'lishni istar ekan, unga o'z faoliyati, o'z kuchi, o'z tirishqoqligi bilan erishmog'i lozim.

A. DISTERVEG

Agar chindan ham farzandlarimiz bilimli odam bo'lishni istasalar, ular bilimni mustaqil mashqlar orqali egallamoqlari kerak.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Oz bo'lsa ham bilmoq uchun ko'p o'qimoq zarur.

MONTESKYE

O'qimishlilik achchiq ildizning shirin mevasidir.

KATTA KATON



## Muhabbat qirralari

Sevgi erkinlik yo'lida qurbon bo'lishga ham tayyor.

F. SHILLER

Muhabbatdangina muhabbat tug'iladi.

V. G. BELINSKIY

Oshiqning o'zi uzsin mo'habbatning gulini,  
Axir bu noyob tuyg'u boshdan-oxir, batamom,  
Faqat uning o'ziga mangu etilgan in'om.

F. SHILLER

Bir boqishda tug'ilgan muhabbatning davosini topish ayniqsa qiyin.

J. LABRUYER

Oshiq va ma'shuqlar bir-birlari bilan uchrashganlarida mutlaqo zerikmasliklarining boisi shundaki, ular to'xtovsiz ravishda o'zlari haqida gapiradilar.

F. LAROSHFUKO

Olamda sevgilingning siyomosidan zeboroq chehra, uning ovozidan ham yoqimliroq musiqa yo'q.

J. LABRUYER

Hamma ovozlarda eng yoqimlisi — bu biz sevgan ayolning ovozidir.

J. LABRUYER

Oshiqlar visoliga hamisha vaqt yetmaydi.

I. GYOTE

Hayotga muhabbat uyg'otmoq uchun ozgina umidning o'zi kifoya. Ikki-uch kundan so'ng esa umid yo'qolishi mumkin, ammo o'rtada muhabbat tug'ilib qoladi.

STENDAL

Boshqa bir odam qalbidagi muhabbatni mahv etishdan ham og'ir va kechirilmas gunoh yo'q.

G. IBSEN

Dunyoda dahshatli yovuzliklar ko'p, ammo hammasidan ham dahshatlirog'i — muhabbatni bo'g'ish.

B. PRUS

Muhabbat o'limdek kuchliligini bilamiz, ammo u shishadek mo'rt hamdir.

G. MOPASSAN

Ko'ngil savdosida ham yil fasllariga o'xshab birinchi ayozlar nihoyatda sezilarli bo'ladi.

P. BUAST

Muhabbat jarohatlari hammavaqt ham o'ldirmagani bilan baribir hech qachon bitib ham ketmaydi.

J. BAYRON

Agar sevgini o'lchab bo'lsa, u qashshoq sevgidir.

V. SHEKSPIR

O'z muhabbati haqida shovqin-suron ko'tarishni yaxshi ko'radigan odamgina seva oladi, deyish xato; aqlli odamning his-tuyg'ulari so'zida ham, ishida ham aks etib turadi, yana ba'zilarida bu faqat amalda bo'ladiki, ehtimol, shu indamasligi uchun ham ularnin tuyg'usi kuchlidir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

O'z muhabbatingni chuchmal maqtovlardan ko'ra, foydali ish bilan izhor etganing ma'qul.

D. I. PISAREV

Chin muhabbatning tili lol, sababi, haqiqiy his-tuyg'ular so'zdan ko'ra amalda ko'proq zohir bo'ladi.

V. SHEKSPIR

Ma'shuqa turgan joyda har qanday so'zamol og'izlar ham gung-soqov bo'lib qoladi, aytishni shu qadar xohlaganidan ayni tilning uchida turgan gaplar ayniqsa esdan chiqadi.

M. SERVANTES

Ehtiros aql ishlatib o'tirmaydi.

O. BALZAK

Yuragi qanchalik kuyayotganini gapirib bera olgan odam u qadar kuymayotgan bo'ladi.

PETRARKA

Uncha sevmagan odamgina o'z muhabbatini izohlab bera oladi.

PETRARKA

Muhabbat haqida dono gapirgan erkak u qadar sevmaydi.

J. SAND

Muhabbat haqida hammaga jar solgan odam — ishqsiz odam.

V. SHEKSPIR

O'zing his etmagan muhabbatnigina batafsil gapirib berishing mumkin.

A. KARR

Jamiki oshiqlar o'zlari uddalay olmaydigan ishlarni qilishga ham qasam ichadilaru aslida imkoniyatlari doirasidagi ishni ham qilmaydilar.

V. SHEKSPIR

Kimki sadoqat haqida hech vaqt ont ichmagan bo'lsa, u hech qachon ontini buzmaydi.

AFLOTUN

Ma'lumki, o'tli tuyg'ular lo'nda, ammo kuchli ifoda etiladi.

G.R. DERJAVIN

Sevib qolgan yigitni ayblash, biror kishiga kasalligini yuziga solib, ta'na qilish bilan bab-baravardir.

Sh. DUKLA

Ilk marta sevib qolgan odamdan bu haqda ogʻiz ochmaslikni talab qilib boʻlmaydi. Ilk muhabbatga shu qadar toshqin quvonch hamroh boʻladiki, u boʻshalib turishi kerak, aks holda, oshiqni boʻgʻib qoʻyadi.

A. DYUMA

Sevgi yoki doʻstlik bobidagi qoʻrqqoqlik bemaʼnilik va buning ustiga shaxsiyatparastlikdan iborat boʻlur edi, eng avvalo oʻzimizdagi, qolaversa, sevganimiz insondagi barcha tuygʻularni mahv etgan boʻlur edi.

J. SAND

Muhabbatda ham xuddi sanʼatdagiga oʻxshab boshqalar tomonidan aytilgan gapni takrorlamaslik kerak; oʻzing his etgannigina soʻzlashing lozim; boʻlmasa-yu, gapirishga shoshilsa, oʻzi uchun bir umr gapirolmay oʻtish xavfini tugʻdiradi.

R. ROLLAN

Doʻstlik va muhabbatda biz oʻzimiz bilgan narsalardan koʻra bilmagan narsalarimizdan koʻproq baxtiyorlikka erishamiz.

F. LAROSHFUKO

Muhabbat — shunday bir soxta tanga yasovchiki, u tinim bilmay misni oltinga aylantiruvchigina boʻlib qolmay, vaqti-vaqti bilan oltinni misga aylantirib turuvchi hamdir.

O. BALZAK

Sevgi nigohi shundayki, unga mis — oltin boʻlib, qashshoqlik — boylik boʻlib, yilt etgan uchqun — dur boʻlib koʻrinadi.

M. SERVANTES

Sen mening qiyofamda sevgan odam, soʻzsiz, mendan yaxshi; men unchalik emasman. Lekin sen meni sev, shunda men oʻzimdan koʻra yaxshiroq boʻlishga intilaman.

M. M. PRISHVIN

Muhabbat sevikli kishida unda yoʻq fazilatpi koʻrib koʻpincha yanglishadi, lekin baʼzan shu muhabbatning oʻzi unda aql va koʻz ilgʻay olmaydigan goʻzallik yoki buyuklikni ham kashf etadi.

V. G. BELINSKIY

Koʻpincha, erkak bir holatda-yu, ayol esa suxsurdayligini koʻramiz. Demak, biz erkakning ayol qadrlagan yashirin fazilatlarini bilmaymiz: bu kun«Sevaman» degan soʻz sekin va joʻn aytilgandagina ayol bunga ishonadi.

Ya. GALAN

Yuraklar muhabbat bilan limmo-lim boʻlsa va visol onlaridan hijron chogʻlarigacha gupillab ura, odam bir-birining dilidagini shunchaki bir ishora bilan ham anglay ola biladi.

R. TAGOR

Sevgi hamisha unga boʻlgan ishonchdan koʻra ustun turadi. Har kuni takrorlanadigan. «Seni qanday sevishimni bilsang edi!»— degan soʻzlarga naqadar teran va cheksiz-chegarasiz haqiqat jamlangan.

V. GUMBOLDT

Hech bir narsa muhabbatni qattiq monelikdek alangalata olmaydi.

LOPE DE VEGA

Sevgi yo'lidagi har qanday g'ov uni faqat kuchaytiradi.

V. SHEKSPIR

Qarshilikdan qo'rqqan sevgi — sevgi emas.

J. GOLSUORSI

Hijron tuyg'ularni o'chirmay, aksincha, alanga oldiradi.

M. RUSINEK

Ayriliq muhabbat uchun baayni olovga tekkan shamolday gap: u kuchsiz olovni o'chiradi, kattasini esa guvillatib yuboradi.

R. BUSSI

Ko'ngil bog'lash uchun o'ta sinchkovlik shart emas, muhabbat esa oshirib ko'rsatadigan ko'zgu yordamida paydo bo'ladi.

T.BRAUN

Eng dono kishi ham sevib qolgach, endi hech bir narsani asl holatida ko'ra olmaydi... Uncha ko'zga tashlanmay yurgan ayol ham butunlay boshqacha ko'rinib, bittayu bitta zot bo'lib qoladi.

STENDAL

Savdoyi qizni sevib qolgan odam unga benihoya qizg'in, kuchli ehtiros bilan talpinadi, bu xil muhabbatning sababi — yo oshiq tabiatidagi g'alati tantiqlik, yo bo'lmasa ma'shuqada husn sehru jodusidan ko'ra qudratliroq bo'lgan sirli sehru joduning mavjudligidir.

J. LABRUYER

Sevganimizda hech narsani ko'rmaymiz.

LOPE DE VEGA

Oshiqqa xunuk narsa ham ko'pincha chiroyli ko'rinadi.

FYeOKRIT

Oshiqqa ma'shuqaning qusuri bilinmaydi.

FARRUXIY

O'z sevgilisining kamchiliklarini ham ardoqlamagan odam o'zini chinakam oshiq deyolmaydi.

P. KALDERON

Ayolning ayolligini o'sha ayol qanday erkakni sevganida bilsa bo'ladi.

V. G. BELINSKIY

Agar sevsang, muhabbatingga arziydiganni sev. Sevilgan odam Ptolomey yoki Aflotun darajasida bo'lishi shart emas, lekin oz bo'lsa-da, idrok egasi bo'lmog'i kerak.

QOBUS

Erkak kishi tanlagan qayliqqa qarab turib, u odamning kimligi, o'z qadr-qimmatini biladimi-yo'qmi,

osongina bilsa bo'ladi.

I. GYOTE

Hayotni idrok etish va uni boshqa bir zot siymosida sevishtirish — insonning vazifasi ham, iste'dodi ham mana shundadir: har bir kishi o'zini boshdan-oxir bitta odamgagina bagishlay olishi mumkin.

A. BARBYUS

## Sevgi va axloq

Muhabbat! Vu barcha ehtiroslarning cho'qqisi va eng g'olibidir. Ammo uning adadsiz zabtkorlik kuchi cheksiz-chegarasiz olijanoblik va deyarli tasavvurga sigmaydigan darajadagi beg'arazlikdan iboratdir.  
G. GEYNE

O'zini yaxshi ko'rgan odam chinakam muhabbatga qodir emas. Shaxsiyatparastlik sevgini zaharlaydigan dahshatli illatdir. Bordi-yu, shaxsiyatparast bo'lsang, yaxshisi, oila qurmay qo'ya qol.  
V. A. SUXOMLINSKIY

Agar qalbimiz sof bo'lsa, «ayol» so'zi biz uchun ulug'vorlikka limmolimdir.

E. SENANKUR

Ayolni hurmatlash — har bir sofdil kishi tug'ilishidan bosh-lab rioya qiladigan burch.  
LOPE DE VEGA

Ishq-muhabbat kasb qilib olinganda u ma'naviy gunohga aylanadi. Bunday vaziyatda u aqlni susaytiradi va yurakni miskinlashtiradi.  
K. GELVETSIY

Muhabbatni faqat sog'lom jinsiy instinktning qoniqtirish sifatida tushunmaslik kerak. Insonga ko'pdan-ko'p quvonch baxsh etuvchi bu tuyg'u g'oyaviy yaqinlik, yagona niyat sari intilish, umumiy ish uchun kurash kabi maqsadlar bilan uyg'unlashib ketmogi zarur.  
N. K. KRUPSKAYA

Ma'naviy yaqinlik, bir-birovini tushuna bilish, aqliy jihatdan monandlik erkak va ayol o'rtasida normal munosabat o'rnatilishining muhim shartidir.  
N. K. KRUPSKAYA

Ruhiy yaqinlik shunga olib keladiki, erkak kishi ayol siymosida va aksincha, ayol o'rtasida normal munosabat o'rnatilishining muhim shartidir.  
N. K. KRUPSKAYA

Ruhiy yaqinlik shunga olib keladiki, erkak kishi ayol siymosida va aksincha, ayol kishi erkak siymosida boshqa jins vakilini emas, avvalo insonni ko'radi.  
N. K. KRUPSKAYA

Ma'naviy munosabatlarda to'la samimiyat qaror topgan sharoitdagina ayol kishi bilan baxtli bo'lish mumkin.  
M. GORKIY

Oshiq-ma'shuqlar bir-biriga ruhan monand bo'lganlaridagina muhabbat chinakam ezgu hissiyotga aylanadi, shundagina muhabbat insoniyatning kela-jakdagi taraqqiyotida bizga va'da qilingan ijtimoiy xayrli ishlarning, odamlar orasida birodarlik va shaxslar teng huquqligining debochasi va garoviga aylanadi.  
N. A. DOBROLYUBOV

Muhabbat benihoya buyuk tuyg'uligi uchun ham har kimning shaxsiy, pinhona ishi bo'la olmaydi!

## B. SHOU

Sevgi — shaxs hayotini bezovchi va nihoyasiga yetkazuvchi serhasham, nafis guldir: lekin u boshqa hamma gullarga o'xshab bir tomoni bilan, bepoyon os-monga o'zining eng yaxshi ko'rinib turgan tomoni bilan ochilmog'i zarur.

A. I. GERTSEN

O'tni yallig'lantirib turish uchun yoqilgi zarur bo'lganidek, sevgiga ham teran mazmun kerak.

V. G. BELINSKIY

Sevish — bir-birovingga qarash emas, balki birgalashib bir tomonga qarash demakdir.

A. SENT-EKZYUPERI

Do'stlik, o'rtoqlik, intilish-larning hamohangligidan mahrum bo'lgan sevgi bachkana sevgidir.

N. A. OSTROVSKIY

Insonni sevish nima o'zi? Bu, insonga nima yaxshi bo'lsa, shundan quvonish, uning farog'ati uchun nimaiki zarur bo'lsa, hammasini bajo qilish, o'zining bu himmatidan lazzat topish, rohatlanish demakdir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Muhabbat bog'lash — sen o'zing saodat bilgan narsangni boshqa birovga ilinish, ilinganda ham o'zing uchun emas, balki o'zing sevgan odaming haqqi, imkoniyatingga qarab bu saodatni unga baxsh etishingdir.

ARASTU

Sevmoq — boshqa bir odamning baxtida o'z baxtingni topmog'ingdir.

G. LEYBNITS

Sevish — ishqida o'zing o'rtangan va seni ham sevgan zotni butun tuyg'u a'zolarining bilan juda yaqindan ko'rib, tuyib, sevib, vujud-vujudingdan huzurlanishingdir.

STENDAL

Sevish — o'z suyganing hayoti bilan yashash demakdir.

L. N. TOLSTOY

Muhabbat hech qachon talab qilmaydi, hamisha in'om etadi. Muhabbat doimo uqubat chekadi, hech vaqt e'tiroz bildirib, o'zi uchun intiqom olmaydi.

M. GANDI

Sevish odamning senga faqat ezgulr tilashi, yaxshilik qilishidir.

P. A. PAVLENKO

O'z ma'shuqasini mustaqil bir darajaga ko'tarilishigacha ko'maklashgan odamgina sevadi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Muhabbat — o'z kuchiga yarasha tuyg'u uyg'ota biladigan yagona ehtirosdir.

STENDAL

Muhabbat bilan do'stlik shunday bir ahil aks sadodirki, ular olgan narsasinigina bir-biriga qaytaradi.

A. I. GERTSEN

Muhabbat baxt xazinasidir: qancha ko'p taqdim etgan sari o'zi ham shuncha boyib boradi.

I. MYULLER

Chuqur muhabbat teran idrokdan ayri emas.

A. I. GONCHAROV

Aql-idrokli odam ko'r-ko'rona sevmaydi, agar u sevsa — kimni nima sababdan sevishini biladi.

N. V. SHELGUNOV

Tenglik muhabbatning eng mustahkam asosidir.

G. LESSING

Odatiy hayot tarzidan og'ishmaslik tabiiylik deb ataladi. O'z-o'zidan ma'lumki, sevgan odamingga yolg'on gapirish u yoqda tursun, hattoki haqqoniyatning musaffoligini zig'irdek bo'lsada bo'yab yoxud noto'g'ri tushuntirish ham aslo mumkin emas.

STENDAL

To'g'rilik va samimiyat erkak-larning ham, ayollarning ham eng yaxshi bezagidir.

O. GENRI

Muhabbat bor joyda ishonch ham bo'lmog'i kerak.

F. E. DZERJINSKIY

Muhabbatga hayotning shiddatli sinovlari ham, sevgi qanday boshlanganligi xususidagi jonli xotirotlar ham bab-baravar zarurdir.

A. A. FADEYEV

Hurmat-ehtiromsiz muhabbat bebaho va beqaror bo'lgani kabi, muhabbatsiz izzat-ikrom ham sovuq va zaifdir.

B. JONSON

Izzat-hurmatsiz sevgi uzoqqa bormaydi, yuksaklikka ham ko'tarila olmaydi: u bir qanotli farishtadek gap.

A. DYUMA (o'gli)

Ongli ehtiom hammavaqt hoyu havasdan mustahkamroqdir.

D. I. PISAREV

O'z sevganingni sog'inib ahvoling tang bo'lishi, ko'rarga ko'zing yo'q odam bilan yashashdan yuz chandon yengilroq.

J. LABRUYER

Insonni sevish, uning hayotiga xalal bermaslik, inson tirikchiligini keraksiz tashvishlar va ortiqcha g'amxo'rliklar bilan zaharlamaslik shunday bir afsundirki, bunga har kimning ham qurbi yetavermaydi.

D. I. PISAREV



Inson yirtqich ham, farishta ham emas; u hayvonona, darvishona emas, balki insonchasiga sevmog'i lozim.

V.G. VELINSKIY

Chinakam insoniy muhabbat biror hissiy qaysarlik yoki yurakning biror injiqligigagina emas, balki faqat o'zaro insoniy qadr-qimmat, hurmat- izzatga asoslangan bo'lmog'i kerak.

V. G. BELINSKIY

Fisq biror jismoniy qusurda namoyon bo'lmaydi — axir, jismoniy dag'allik fisq-fujur emasku, chinakam fisq-fujur jismoniy aloqada bo'layotganing ayolga nisbatan axloqan pokiza munosabat qilmasligingdir.

L. N. TOLSTOY

Biz uchun ayol baxti xususidagi ma'naviy mas'uliyatni zimmaga olganimiz holda uning qalbiga hattoki bilmay turib ozor berib qo'yishdan ham ortiqroq baxtsizlik bo'lmaydi.

V. G. BELINSKIY

Ayol ishonchini suiiste'mol etib, muhabbatini oyoq osti qilgan, ojizgina vujudini qiynab, ko'zidan alam yoshlarini oqizgan odam, mening nazdimda, ablah va razildir.

Sh. NODE

O'zgaga azob bermay, faqat ezgulikka intilgan muhabbatgina adolatlidir.

DEMOKRIT

Vafodorlik — muhabbatning doimiy orzusi.

L. VOVENARG

Sevgidagi vafodorlik — bu o'zimiz ko'ngil bog'lagan odam-dagi barcha fazilatlarga birma-bir qiziqish uyg'otadygan, uning goh u qirrasi, goh bu qirrasini afzal qilib ko'rsatadigan abadiy beqarorlikdir; shu tariqa vafodorlik beqarorlikka aylanadi, ammo u bir kishiga qaratilgan bo'ladi.

F. LAROSHFUKO

Muhabbat bu oxir-oqibat odam bolasining o'z qadr-qimmatini boshqa kishilarda aks etishidan o'zga narsa emas.

R. EMERSON

Erkak kishining iste'dodi xuddi ayol jozibasiga o'xshab — quruq va'daning o'zi. Chinakam ulug'vorlik uchun esa uning qalbi va fe'l-atvori ham o'z iste'dodiga monand bo'lmog'i kerak.

O. BALZAK

Men hayotda muhabbatga shohona o'rin berilishini inkor etaman va uning mutlaq hukmronligini ham inkor qilaman, mayda havasni ojizona oqlashlariga ham e'tiroz bildiraman.

A. I. GERTSEN

Muhabbat fikrni xiralashtirmay tiniqlashtirishi, qorong'ilashtirmay ravshanlashtirishi, binobarin, insonning qalbi va aql-idrok go'shalarida qaror topishi va bachkana ermaklar tug'diruvchi tashqi hoyu havaslargagina xizmat qilmasigi kerak.

J. MILTON

Erkak kishi qancha xushro'y bo'lsa, uning erligi va otaligi shuncha beqaror.

M. GORKIY

Muhabbatning bahosi — muhabbat sinovidan o'tayotgan odamning bahosi bilan teppa-teng. Sof odamlarda hamma narsa sof bo'ladi.

R. ROLLAN

Qat'iy xarakter kishilarni muhabbat tuyg'ulariga qarshilik ko'rsatishga majbur etadi, lekin shu qat'iyat ayni vaqtda o'sha tuyg'ularga harorat va umr-boqiylik bag'ishlaydi; ko'ngilchan odamlar esa, aksincha, ehtiroslarga osongina beriladilaru, lekin hech vaqt bu hislarga chinakamiga to'lib-toshib yurmaydilar.

F. LAROSHFUKO

Aql-idrok ma'qullamagan muhabbat qonunsiz bo'lib chiqadi: aql-idrokning ovozini o'chirmoqlik esa hirsga, hayvoniy odatlarga erk bermoq degan gap.

D. I. PISAREV

Go'zallikni ham hayo bilan sevish mumkin.

F. PETRARKA

Buzuq odamlar muhabbatsiz bo'ladi. Shu sababdan ularda uyat ham yo'q. Unday odamlar muhabbatga ehtiyojsiz bo'lganliklari uchun ham uni tilab olish, o'zla-rida taqdim etgulik muhabbat bo'lmagani sababli ham uni hadya etishni uddalab ketaveradilar.

B. SHOU

Sevgini qimmatbaho buyumday avaylang. Unga bir yomonlik qildingizmi, tamom, keyingisidan ham sira yolchimaysiz.

K. G. PAUSTOVSKIY

Sevgi bitta, soxta sevgilar esa minglab.

F. LAROSHFUKO

Muhabbat sarguzashtlarida sevgining o'zidan boshqa hamma narsa bor.

F. LAROSHFUKO

Muhabbat hayot oftobi va poeziyasidir. Biroq bizning davrimizda o'z baxti koshonasini birgina muhabbat zaminiga qurish va shu asosda yuragidagi barcha xohish-istaklarini to'la ro'yobga chiqarishga umid bog'lagan kishining holiga voy! Bizning zamonamizda bu o'zining insoniy qadr-qimmatidan yuz o'girib, erkaklikdan voz kechish degan gap.

V. G. BELINSKIY

Fisq-fujur, u qay darajada bo'lmasin, kishi qalbini abgor qilib, unga to'xtovsiz ta'sir o'tkazib turuvchi og'u zarralarini tashlab ketadi.

A. I. GERTSEN

Keksaygan paytda ayol zotiga bee'tibor bo'lib qolish yoshlikda xotin-qizlarga yoqish bobida ustasi farang bo'lganlik uchun berilgan jazodir.

O. BALZAK

Vafosiz muhabbat ham, do'stlik ham, himmat ham bo'lmaydi.

J. ADDISON

Har ko'ngilnikim vafo maskan qilur, hayo xam qilur va har maskandakim, ul topilur, bu ham topilur.  
Vafosizda hayo yo`q, hayosizda vafo yo`q.

A. NAVOIY

Sen tobingan va sevgan ayolni ko'z o'ngingda haqoratlashlariga yo'l qo'yish mumkin emas.

R. ROLLAN

Faqat yaramas odamgina ayollar bilan tortinmay munosabatda bo'ladi.

M. RUSINEK

Xotin-qizlarga hayosizlarcha munosabatda bo'la oluvchi shaxs grajdanin sifatida ham ishonchini oqlamaydi; u umum ishiga ham xuddi shunday sharmandalarcha munosabat qiladi, unga boshdan-oyoq ishonish mumkin emas.

A. S. MAKARENKO

Agar bo'lsa o'tkir tig'ing qanchalik,

Emas tul xotinning dilin ohidek.

SA'DIY

Shaxsiy his-tuyg'ulariing softligisiz fuqorolik tuyg'ularining softligini tasavvur qilib bo'lmaydi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Odamning irodasi qanchalik kuchli bo'lsa, muhabbatdagi vafosi ham shunchalik kuchli.

STENDAL

Irodasiz xayolparastlar o'ylaganidek muhabbatning sevinchi va hasrati insonni, ayniqsa yuragida o'ti bor, mard odamlarni bo'lar-bo'lmasga asir qilavermaydi.

V. SKOTT

Fisq-fujur hayvoniy hissiyotdan iborat bo'lib, u jamiki go'zalliklardan mahrumdir. Binobarin go'zallikda hayotning eng bama'ni elementlari o'z ifodasini topadi, anovi fisqda esa, bunday mazmun yo'q, u odamni hayvontabiat tubanlashtiradi.

V. G. BELINSKIY

Sevgidagi soxtagarchilik ijtimoiy ofatlardan biridir.

E. SENANKUR

Soxta sevgi nafratdan ham battar.

PLINIY

Muhabbat tanlayverish — ojizlik alomati.

O. BALZAK

...Men har qanday tarkidunyochi majruhlikka nafrat bilan qarayman, muhabbat gunoh qilib qo'yganda ham uni hech vaqt qoralamayman, ammo chinakam axloqlilikning yo'qolish xavfi va hirs o'zini

ulug'lashga intilayotgani ko'nglimni ezadi.

F. ENGELS

Faqat tuban, dag'al, iflos miyagina qachon qarasa ayol badani go'zalligi bilan band bo'ladi va o'zining xira fikrlarini faqat o'sha narsaga buraveradi.

J. BRUNO

Qalbim muhabbatda ma'naviy rohatlanishning jismoniy rohatlanish bilan teppa-teng bo'lishini orzu qilgan odamnigina haqiqiy inson deb tan olamiz.

O. BALZAK

Faqat ma'naviylikni ko'zlagan muhabbat soyaga aylanadi; lekin agar u ma'naviylikdan boshlanmasa, razillikning xuddi o'zginasidir.

G. SENKEVICH

Ayol kishi o'zidan past tuyulgan erkakni sevolmaydi. Behuzur, zavq-shavqsiz muhabbat — bor-yo'g'i do'stlikdan iboratdir.

J. SAND

## Rashk haqida

Shunday olijanob muhabbatlar borki, ular rashkka o'rin qoldirmaydi.

F. LAROSHFUKO

Chinakamiga sevgan odam rashk qilmaydi. Muhabbatning asl mohiyati — ishonch. Bordi-yu, muhabbatdan shu ishonchni tortib olingchi, unda siz uning o'z kuchiga bo'lgan ishonchi, davomiyligi, jamiki nurafshon tomonlari — binobarin, barcha ulug'vorligini tortib olgan bo'lasiz.

R. STIL

Muhabbatning rashkdan yaqinroq do'sti bo'lmaganidek, undan battarroq dushmani ham yo'q: bu ayni temirning o'zida paydo bo'lib, keyin uning qattor dushmaniga aylanadigan zangning o'zginasidir.

J. BRUNO

Eng kuchli nafrat — eng kuchli muhabbat mahsulidir.

T. FULLER

Rashk — bamosoli bir maxluq, u o'zidan-o'zi boshlanib, yo'q gaplarni yuzaga chiqaradi.

V. SHEKSPIR

Rashkchilar bahona axtarib o'tirishmaydi, ular shu sababsiz kasalga muhtalo bo'lganliklari tufayli ham rashkchidirlar.

V. SHEKSPIR

Rashkchilar chumolini — fil, qumursqani — bahaybat maxluq, taxmini — rost qilib ko'rsatadigan vahima oynagi orqali qaraydilar.

M. SERVANTES

Rashkka hammasi ravshan — ammo yo'qdir isboti!

M. Yu. LERMONTOV

Rashk shubhalari qutqusi bilan mutlaqo gunohsiz odamni ham haqoratlab qo'yish mumkin.

V. SHEKSPIR

Rashk oshiq uchun azob-uqubat, ma'shuqa uchun ranj-iztirob manbaidir.

K. GOLDONI

Rashk o'zingga boshqalardan ko'ra ko'proq yomonlik tilab olish san'atidir.

A. DYUMA (o'gli)

Jazavali rashk manfaatparastlik va shuhratparastlik qilgandan ham battarroq jinoyatlarni yuzaga keltiradi.

F. VOLTER

Jazavali sevgidan xuddi nafratdan qo'rqqanday qo'rqish kerak. Muhabbatki mustahkammi, u hamisha beg'ubor va osoyishtadir.

G. TORO

Kuchli muhabbat bilan yomon shubha murosa qilolmaydi.

P. ABELYAR

Yoqtirmaslik, hadik, shubha hamda rashk hurmat va ishonchning yetishmasligidan kelib chiqadi.  
D. I. PISAREV

Erkaklar rashki ularning qon-qoniga singib ketgan shaxsiyatparastligi, vujudini tuyqusdan qoplab olgan izzattalabligi va soxta manmanligining qo'zishidan paydo bo'ladi.  
O. BALZAK

Rashkni muhabbatga xos zarurat deb hisoblash kechirilmas anglashilmovchilikdir.  
V. G. BELINSKIY

To'la asossiz rashk na o'zini, na o'z mahbubiga ko'ngil bog'lashga doir huquqini hurmat qilolmagan ojiz odamlarga xos illatdir; bu «meniki» degan hayvoniy instinkt darajasida turgan jonzotning bachkana hukmronligini ko'rsatadi.  
V. G. BELINSKIY

Rashk — nimanidir yo'qotishdan qo'rqadigan ojiz, ochko'z hayvon ehtirosidir. Bu hissiyot odamga munosib bo'lmay, chirigan rasm-rusmlarimiz va mulkdorlik huquqining oqibatidirki, shu hissiyotni ta'sirchan fikrlovchi, xohishi bor, erkin zotga ham qo'llamoqchi bo'ladilar.  
D. DIDRO

Rashk sayoz aql illatidir.  
I. BENTAM

Rashkning bir foizi muhabbat, to'qson to'qqiz foizi esa shaxsiyatparastlikdan iboratdir.  
F. LAROSHFUKO

Rashk xususiy mulkchilik tuyg'usining bir ko'rinishidir.  
P. LAFARG

Qachonki erkak kishi ayolning o'zi bilan teng huquqligini tan olsa, unga xususiy mulk sifatida qarashdan voz kechadi.  
N. G. CHERNISHEVSKIY

Dunyoda inson yuragini jirkanch manzaralar bilan to'ldirib, rashk kabi xo'rovchi kulfat bo'lmasa kerak, deb o'ylayman.  
A. FRANS

Rashkchining muhabbati ko'proq nafratga o'xshab ketadi.  
J. MOLYER

Rashk muhabbatdan ko'ra g'arazgo'ylikka yaqin turadi.  
F. ZANDERS

Ayriliq, rashkdan tug'iladigan ko'z yoshini artib qo'yish shart ham emas, lekin bu ko'z yoshlar odamiy bir tarzda bo'lishi, u na monaxlarcha zahar-zaqqumga ham, yirtqichning yovvoyiligiga ham, xususiy mulkchining dod-faryodiga ham mutlaqo o'xshab qolmasligiga erishish mumkin va kerak.  
A. I. GERTSEN

Kimniki sevmay qo'yishibdimi, o'zidan ko'rsin, sababi, bu narsani uning o'zi vaqtida payqamagan.

F. LAROSHFUKO

Ayol muhabbatidan judo bo'lgan odam bu sevgini saqlab qololmagani uchun faqat o'zini ayblashi lozim.

N. A. DOBROLYUBOV

## Oila va jamiyat

Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir.

J. SANTAYANA

Minglab tasodiflar sinovidan o'tadigan er-xotin muhabbati kundalik eng oddiy hodisa bo'lishiga qaramasdan, eng go'zal mo'jizadir.

F. MARIAK

Oilani buzishga mo'ljallangan har qanday ijtimoiy nazariyalar yaroqsiz, shu bilan birga nomaqbuldir.

Oila — jamiyatning durru gavhari.

V. GYUGO

Oila mo'jizagina bir jamiyatchadir, butun insoniyat jamiyatining daxlsizligi ham uning jipsligiga bog'liq.

F. ADLER

Oilaviy muhabbat odamlar orasida keng tarqalgan, eng mustahkam muhabbatdir, shuning uchun ham u kishilar hayotiga ta'sir ko'rsatish jihatidan odamning eng muhim va eng hayotbaxsh tuyg'usidir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Oila inson hayotiga to'kislik bag'ishlaydi, oila baxt keltiradi, lekin har bir oila, ayniqsa jamiyatdagi oila, eng avvalo, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan qutlug' ishdur.

A. S. MAKARENKO

Faqatgina oila g'amini yeb yashash hayvoniy ochko'zlikdir, bir kishi uchun yashash — tubanlik, faqat o'zi uchun yashamoqlik esa sharmandalikdir.

N. A. OSTROVSKIY

Birgina qalb xoxishicha uy solaman degan odam uni bamisoli vulqon otilib turgan tog' ustiga qurayotganday. O'z baxtu saodatini faqat oilaviy hayotdan kutgan kishi esa bu uyni qum ustiga quradi.

A.I. GERTSEN

Tanho odam hayoti, qanchalik ta'minlanganidan qat'i nazar, qashshoqlikdan iboratdir.

A. I. GERTSEN

Faqatgina bir kishiga tikilgan, hayotning jamiki quvonchlarini uning siymosida deb bilib, qolgan hamma ishlarni azob-uqubatga aylantirgan muhabbat o'ziga ham, ikkinchi kishiga ham og'u tutqazadi.

F. E. DZERJINSKIY

Aql-idroki erta to'lishgan odam o'zini faqat oilaviy hayotga bag'ishlay olmaydi, umum manfaatlari yo'lida undan voz ham kecholmaydi.

A. I. GERTSEN

Oilaviy manfaatlar deyarli hammavaqt ijtimoiy manfaatlarni xarob etadi.

F. BEKON

Oilaviy hayot inqilobchining g'ayrat-shijoatini susaytiradi.



## M. GORKIY

Agar hayotimizning barcha maqsad-mazmuni shaxsiy baxti-mizdan iborat bo'lganda, shaxsiy baxtimiz esa birgina muhabbatda o'z ifodasini topganda edi, unda hayot deganlari chindan ham zudmat sahro bo'lib qolar edi... Ammo abadiy tafakkurga, ma'rifatchilik kasbiga shonu sharaflar! Inson uchun yurakning ma'naviy olamidani tashqari hayotning yana boshqa buyuk olami ham — tarixan mulohaza-mushohada yuritish va ijtimoiy faollik olami ham bor.

V. G. BELINSKIY

Muhabbatdan to'la-to'kis qoniqib bo'lmaydi, sevgidan to'la qoniqish yo'lini topolgan kishi esa ayanchli bo'lur edi: bundan kelib chiqadigan yagona xulosa shuki, hech qanday bitta narsa insonning ko'p istak va matblablarini qondira olmaydi.

V. G. BELINSKIY

Faqat eri va o'z bolalarinigina sevishni biladigan, qolgan biror narsa haqida tushunchasi yo'q va boshqa bir narsaga intilmaydigan ayol kulgili, ayanchli va erkak zoti muhabbatiga munosib bo'lmaganidek, o'z xotini va bolalaridan boshqani bilmaydigan erkak ham xuddi shunday kulgili, ayanchli va nomunosib odamdir.

V. G. BELINSKIY

Men o'z hayotimni poralanishi mumkin bo'lgan yurakka ham, o'tmaslashib qoladigan his-tuyg'ularga ham emas, balki hech qachon eskirmaydigan va hamma narsaga bardosh bera oladigan miyaga jamlaganman.

O. BALZAK

## Nikoh haqida

Nikoh kishilik jamiyatining birinchi pog'onasidir.

SITSERON

Tutun alangan paydo bo'lganidek, nikoh ham muhabbatga uyg'unlashib ketadi.

N. SHAMFOR

...Jinsiy sevgi o'z tabiatiga ko'ra nikohni talab qiladi... Jinsiy sevgiga asoslantani nikoh o'z tabiatiga ko'ra individual nikohdir.

F. ENGELS

Hech kim nikohdan o'tishga majburlanmaydi, ammo har qanday kishi ham modomiki nikohdan o'tgan ekan, nikoh qonunlariga bo'ysunishga majbur etilishi kerak.

K. MARKS

Har qanday nikoh ustidan bir narsa amr qilib turmog'i lozim: har bir odam o'z huzur-halovati uchungina emas, balki davlat manfaatlarini ko'zlagan holda nikohdan o'tmog'i kerak.

AFLOTUN

Nikoh muhabbatning qaror topishidir. Faqat pishib yetilgan yurakkina chinakamiga seva oladi va shundagina muhabbat nikoh misolida o'ziga hadya etilgan eng oliy mukofotni ko'radi va har qanday shuhrat qarshisida ham xiralanmaydi, balki oftob nuridan o'zining xushbo'y gullarini barq urib ochiltiradi.

V. G. BELINSKIY

Oilaviy hayot o'zaro muhabbat bilan bog'langan bo'lsa, katta baxt keltirishi mumkin.

N. K. KRUPSKAYA

Oilaviy hayotda ro'y berib turadigan mayda-chuyda kemptiklarni faqat kuchli muhabbatgina tekislab ketishi mumkin.

T. DRAYZER

O'z uyida baxtli bo'lgan kishigina baxtlidir.

L. N. TOLSTOY

Chin muhabbat barcha qiyinchiliklarga bardosh berishda ko'maklashadi.

F. SHILLER

Faqat sevib uylanishning gashti bor xolos; biror qizga uning qaddi-qomati kelishganligi uchungina uylanish xuddi bozordan keraksiz bo'lsa ham ko'zga yaxshi ko'ringan buyumni sotib olish bilan barobar.

A. P. CHEXOV

Sevmagan odamingga turmushga chiqish nafratlanarlidir.

D. I. PISAREV

Er-xotin yostiqdosh bo'lgunlariga qadar bir-birlarining odatlari, fe'l-atvorlari va xarakterlarini mukammal o'rganmagan ekanlar, ularning turmushi baxtli bo'lmaydi.

O. BALZAK

Hayotlarini bir-biriga bog'lamoqchi bo'lganlar nikohga qadar hamma narsaga ko'zlarini katta ochib qarashlari, nikohdan keyin esa ba'zan ko'rganlarini ham ko'rmaganga olishlari kerak.

M. SKUDERI

Nikohning shunday xususiyati borki, undan keyin sanamga tavof etish barham topadi. Binobarin, erkak kishi o'z ma'budasiga yaqindan turib boqsa, u qayta oddiy ayolga aylanadi.

J. ADDISON

Omadli nikoh har kuni ta'mir etib turilishi kerak bo'lgan binodir.

A. MORUA

Nikoh bahsu munozaralar bilan bo'linib turuvchi uzundan-uzoq suhbatdir.

R. STIVENSON

Oilaviy hayot, ehtimolki, hech qachon sidirg'a quvonchdan iborat bo'lolmaydi. Faqat shodu xurramlikkagina emas, g'amu anduhga ham, tashvishu baxtsizlikka ham sherik bo'la bil.

V. A. SUXOMLINSKIY

Agar faqat o'zim bo'lay desang, yaxshisi oila qurma. Baxtli muhabbatning asl mazmuni o'zini bag'ishlovdur. O'zini o'ylagan kimsa hech narsa hadya etolmaydi, faqat o'ziga olishni biladi va shu tariqa muhabbat deb atalgan tuyg'uning barcha fazilatlarini zaharlaydi. Shaxsiyatparastlik bu o'rinda xuddi jismoniy illatdek xalaqit beradi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Sevgilim yonimda bo'lsa, yer-to'la ham jannat, degan ba-landparvoz gaplar bilan o'zingni ovutma. Nikoh faqat ma'naviy emas, moddiy qovushuv hamdir. Oila qurmoqchi ekansan, moddiy jihatdan nechog'li mustaqilliging haqida, turmush o'rtog'ingni boqib kiyintirib boshpana topib bera olasanmi, mana shular haqida o'ylab ko'r.

V. A. SUXOMLINSKIY

Nikoh ko'p tashvish tug'diradi, ammo nikohsiz turmushda ham hech qanday shodlik yo'q.

S. JONSON

Nikohsiz turmush axloqsizlik oqibatidir. Har ikkala jins ham o'zlarini yaxshi odamlar qatoriga qo'shadigan qovushuvdan qochib, aksincha, xarob qiladigan qovushuv iskanjasiga tushadilar.

MONTESKYE

Oilaviy muhabbat — inson zotini ko'paytiradi, do'stona muhabbat uni takomillashtiradi, g'ayriaxloqiy muhabbat esa barbod etib, yerga uradi.

F. BEKON

O'zboshimcha erkinlik muhitida yuz bergan nikoh muhabbatni so'ndiradi.

E. SENANKUR

Bo'ydoqlik — g'ayriijtimoiy holat.

O. BALZAK

O'ylab-netib o'tirmay shartta uylan. Xotining yaxshi chiqsaku — xo'p-xo'p, yomon chiqsa — faylasuf bo'lasan.

SUQROT

Yaxshi xotin bilan yashash — hayot bo'ronlarida senga bir panohday xizmat qilsa, yomon xotin bilan yashash — kulbangda ko'tarilgan bo'ronday gap.

J. PTITSEN

Muhabbat oilaviy mashmashalarni shu qadar yoqtirmaydiki, chinakamiga baxt-saodatli bo'lmoq uchun bir-birovingda eng olijanob fazilatlarini topa bilmog'ing kerak.

O. BALZAK

Yaxshi xotin — jon malhami.

QOBUS

Ayol erkak zotining buyuk murabbiysidir.

A. FRANS

O'z erini olg'a yurgazmagan ayol uni, shubhasiz, orqaga tortadi.

J. MILL

O'z erining fikru xayolini band etgan orzu-havaslardan begona yashagan, ularni ro'yobga chiqarishga intilmagan ayol, bor-yo'g'i erkakning o'ynashi, tejamkor beka, enagadir, lekin xotin deb atalgan olijanob so'z zamiridagi haqiqiy ayol emas...

A. I. GERTSEN

Muhabbat — o'z yo'lga, ammo birga hayot kechirmoq uchun orzu intilishlar bir bo'lmog'i kerak. Busiz haqiqiy baxtli oila qurib bo'lmaydi.

N. K. KRUPSKAYA

Yoshing qaytganda sevma.

QOBUS

Odamki qirq yoshgacha sevmadimi, undan keyin ham sevmay qo'ya qolgani ma'qul.

B. SHOU

Keksalikdagi muhabbat illatga aylanadi.

O. BALZAK

Oshiq qariya tabiatdagi eng katta majruhlikdir.

J. LABRUYER

Keksaygan odam yoshlik o'tida yonolmaydi.

IBN SINO

Eski sanoch sharobga bas kelolmaydi, keksa yurak yoshlik tuyg'ulariga bardosh berolmaydi.

S.T. AKSAKOV

Ba'zi qariyalarning yosh ayollarni sevishga intilishlari yana shuning uchun ham bema'nilikki, ular o'z

muhabbatlariga muhabbat bilan javob qaytarilishini talab etadilar va shunday qilishga haqimiz bor, degan xomxayolda yuradilar. Aslini olgaida bu o'rinda ayb faqat shu qariyalardagina emas, balki ularning bema'ni kirdikorlarini qo'llab-quvvatlagan yosh ayollarda hamdir.

J. LABRUJER

Uylanmoqchi bo'lgan qariyaning birdan-bir muddaosi shuki, unga enaga kerak.

G. UOLPOL

Ayol zoti uchun qarimaslikning chinakam manbai nikohda bo'lishdir.

A. BEBEL

Qartaygan erlarning yosh xotinlari odatda hali erlari hayotligidayoq o'zlarining ko'z yoshlarini kim artib qo'yishini o'ylaydilar.

K. GOLDONI

Eri qari bo'lgan yosh ayolning ahvoli og'ir, u kemaga bog'lab qo'yilgan qayiqchaga o'xshaydi, bu qayiqcha o'z harakatini kemaga moslashtirmaydi, tagida esa langari yo'q, ammo oqshomlari o'z arqonini uzib, boshqa manzillarga tez-tez borib turadi.

FEOGNID

Yosh xotinning biqinida chol yotgandan ko'ra, shu biqinga kamon o'qi botgani yaxshi.

SA'DIY

Ael kishi go'zal va yosh bo'lganligi uchungina o'z taqdiringni uning taqdiri bilan bog'lashdan ham xavfli narsa yo'q.

V. G. BELINSKIY

Er-xotinlik oilaviy hayotda bo'lganidek, umuman, hayotda ham faqat muvaqqat huzur-halovatdangina iborat emas, u teppa-teng moyillik, o'zaro qizg'in ehtiros, xarakterlar o'xshashligini ham taqozo qiladiki, jamiyatga zarur bo'lgan bu aqida abadiy muammo bo'lib qolaveradi.

O. BALZAK

Nikoh ostonasidan o'tgan juftlik go'yo ma'iaiy olami bitta bo'lgan shaxsga aylanmogi kerak.

I. KANT

Oqila rafiqam! Agar ering yoningda bo'lishini istasang, shuning payiga tushginki, toki u hech yerda sening huzuringdagi kabi rohat-farog'at va muloyimlikka duch kelmasin.

PIFAGOR

Yaxshi er-xotinda qalb ikkita bo'lsa ham istak bitta.

M. SERVANTES

Nomus er-xotin totuvligining qoni va jonidir.

D. I. FONVIZIN

Shunga qat'iy imonim komilki, er-xotin ittifoqi tevarak-atrofdagilarning aralashuvidan xoli bo'lmog'i kerak, binobarin, bu ikki kishidan boshqa hech kimning ishi emas.

V. G. BELINSKIY

Dildagi ishonchdan kelib chiqadigan, ishtirok etayotgan kishilarning ixtiyoriy, oqilona inoqliklariga asoslangan oilaviy va ijtimoiy munosabatlarga mustahkam bo'lishi mumkin.

N. A. DOBROLYUBOV

Uylanish o'z huquqingni ikki baravar kamaytirib, zimmangga tushadigan majburiyatni esa ikki hissa oshirish demakdir.

A. SHOPENGAUER

Pishirib-kuydirish, tikib-yamash, kir yuvish, bolalarga qarash faqatgina ayollarning ishi, buni qilish erkak kishiga uyat degan g'alati, ildiz otib ketgan yanglish fikrlar mavjud. Vaholanki, buning aksi uyatliroq: holdan toygan, qachon qarasang nimjon, homilador ayol zo'r-bazo'r ovqat tayyorlayotgan, kir yuvayotgan, kasal bolasiga qarayotgan bir paytda, ko'pincha bekor yurgan, vaqtini bo'lar-bo'lmas ishlar bilan yoxud butunlay besamara o'tkazayotgan erkaklarga uyat.

L. N. TOLSTOY

Nikoh mustaqillik jihatidan teppe-teng bo'lgan erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning ifodasidir, bunda mutelik ham bir xil, majburiyat ham bir xil.

L. ANSPAXER

Ayol kishini iztiroblarga qo'ygan holda erkakni baxtli qilish qiyin.

V.GYUGO

Aksari erkaklar o'z xotinlaridan qadr-qimmat talab qiladilar, aslida ularning o'zlari bunga arzishmaydi.

L. N. TOLSTOY

Baxti uchun sevikli kishisi oldida burchdorligini tan olmaslik kechirilmas mag'rurlikdir.

G. LESSING

...Ajralishning erkinligi oilaviy aloqalarning «emirilishi»ni ko'rsatmaydi, aksincha, rivojlangan jamiyatda yagona mumkin bo'lgan va barqaror demokratik asoslarda mustahkamlanishini ko'rsatadi.

V. I. LENIN

Muhabbat, razil kishilar o'ylaganidek, inson hayotidagi faqat nikoh davrigacha bo'lgan o'tkinchi voqea emas. Bu er-xotinning butun hayoti davomida yashab, mustahkamlanib boradigan tuyg'udir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Xotin — o'yin emas, hayotimizdagi do'stimiz va yo'ldoshimizdir, shu boisdan, biz uni yoshi qaytgan paytida ham, kampir bo'lib qolganda ham sevmoq kerak, degan fikrga avval boshdanoq ko'nikib olishimiz darkor.

V.G.BELINSKIY

Ayol kishining jamiyatdagi o'rni qanday bo'lsa, unga erining munosabati ham xuddi shunday.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Agar faqat sevgi tufayligina vujudga kelgan nikoh axloqiy bo'lsa, unda sevgisi davom etayotgan nikohgina axloqiydir.

F. ENGELS

Baxtsiz nikoh oqibatida yuz beradigan qo'ydi-chiqdi, menimcha, ajralmaydigan nikohdan ko'ra

axloqliroqdir, negaki, shu qo'ydi-chiqdi tufayli yolg'onga chek qo'yiladi.

A. G. RUBINSHTEYN

Bir tomonlama o'zini qurbon berish — oilaviy hayotda noo'rin narsa, chunki u ikkinchi tomonni haqoratlaydi.

J.GOLSUORSI

Sevgida ikki xil vafodorlik bor: o'zimiz sevgan odamdan hammavaqt muhabbatimizga loyiq yangi fazilatlarni topganligimiz uchun yoki sevgida vafodorlik — vijdon burchi, deb hisoblaganimiz uchun shunday qilamiz.

F. LAROSHFUKO

Ayol kishini hurmatlay bilgan erkakka ayolni tahqirlamagan holda undan ajralisha oladi.

S. MOEM

Nikoh oniy bir tuyg'uga asoslangani uchun ham abadiy emas, u beqaror va buzilib ketishi ham mumkin. Ammo qonunchilik nikohning buzilishini juda qiyinlashtirib qo'yishi va injiqlik oldida axloqiy huquqni himoya etmog'i kerak.

G. GEGEL

Kimki ayol huquqini himoya qilsa, bola huquqini ham himoya qilgan bo'ladi, boshqacharoq aytganda — u kelajakni ham himoya qiladi.

V. GYUGO

Muhabbatni nechog'li ilohiylashtirmasinlar, ammo tabiat bu go'zal tuyg'ui odamlarning baxti uchungina emas, ularning ko'payishi va unib-o'sishi uchun ham baxshida etganini ko'rmaslik mumkin emas.

V. G. BELINSKIY

Nikoh odamzod avlodlari davomiyligini ta'min etuvchi zaruratdir.

LUKIAN

O'zaro muhabbat farzandlar tufayli mustahkamlanadi.

MENANDR

Oila farzandlardan boshlanadi.

A. I. GERTSEN

Har bir odam ham kimningdir bolasi.

P. BOMARSHE

Bolalar — jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Ularsiz jamiyat jonsiz va sovuq ko'rinadi.

A. S. MAKARENKO

Dunyoda go'dakning tilidan ko'ra tantanaliroq gimn yo'q.

V.GYUGO

Bolalar baxtni daf'atan va beixtiyor hazm qilib olaveradilar, negaki, ularning o'zi shodlik va baxtdan iboratdirlar.

## V. GYUGO

Bolalar mehnatga shodlik bag'ishlaydilar, ammo muvaffaqiyatsizliklar ular tufayli yana ham ko'proq ranj keltiradi; bolalarning sharofati bilan hayot yanada shirin, o'lim esa u qadar dahshat solmaydigandek tuyuladi.

## F. BEKON

Agar kishining xonadoni qirq yoshga kirguncha bolalar qiychuvi bilan to'lmasa, vahima bilan to'ladi.  
Sh. SENT-BEV



## **Oilada bolalar tarbiyasi**

Tartib-intizomning eng zo'r maktabi — oila.

S. SMAYLS

Yangi oilaning bosh vazifasi — inson va grajdanni tarbiyalash vazifasi bo'lmog'i kerak.

A. GRAMSHI

Oila hayotining bosh muddao va maqsadi bolalar tarbiyasidir. Bolalar tarbiyasining bosh maktabi esa eru xotin, ota-onaning o'zaro munosabatidir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Oilaviy tartibotning tashqi ko'rinishi — o'zboshimchalik bilan ish tutish ham, g'azab ham, baqiriq-chaqiriq ham, iltijo ham yalinib-yolvorishlar ham emas, balki osoyishtalik, jiddiylik va ishbilarmonlik bilan qilingan farmoyishdan iborat bo'lmog'i kerak. Bunday farmoyish berish huquqi oila a'zolarining yoshi ulug' vakili sifatida ayni sizga berilganligi xususida o'zingizda va na bolalaringizda hech bir shubha qolmasligi kerak.

A. S. MAKARENKO

O'zboshimchalikni yong'indan ham tezroq o'chirmoq zarur.

GERAKLIT

Bola uchun birinchi saboq, mayli, itoatkorlik bo'la qolsin — shunda sen nimani zarur deb topsang, o'sha ikkinchi saboq bo'ladi.

T. FULLER

Inson tabiatiga bolalikda singdirilgan fazilatlargina mustahkam va ishonchli bo'ladi.

Ya. KOMENSKIY

Farzandingizni tolesiz qilishingizning eng sinalgan usuli qandayligini bilasizmi — u nima desa, hammasiga xo'p deng.

J. J. RUSSO

Agar bolangizga yon beraversangiz, u sizga hukmdor bo'ladi; hatto uni itoat ettirish uchun ham daqiqa sayin uning aytganiga ko'nishingizga to'g'ri keladi.

J. J. RUSSO

Ko'pdan-ko'p baxtsizliklarning ildizi shundaki, yoshlikdanoq bolani o'z xohishlarini tizginlashga, bu ishni qilish mumkin, bunisini albatta qilish kerak, buni qilish esa mumkin emas, degan tushunchalarga to'g'ri yondashishga o'rgatilmaydi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Bolalar bilan elburutdan yuksak materiyalar, ularning mag'zini chaqish xususida fikrlashish yaramaydi. Bolalar orasidaxuddi shunday sharhlovga duch kelganlaridan ko'ra pastkashrog'i yo'q. Aql-idrok qolgan barcha qobiliyatlardan kyoyin taraqqiy etadi, binobarin, ishni aqlni peshlashdan boshlash — teskari ish yuritish, degan so'z. Agar barcha narsalarning sabab-mohiyati, izohi bolalarga ma'lum bo'lganda edi, ularni tarbiyalashga zarurat qolmagan bo'lur edi.

J. J. RUSSO

Ayni o'sha o'z farzandlarini yomon tarbiyalaydigan ota-onalar, umuman, pedagogikaning me'yorini mutlaqo bilmaydigan kishilargina pedagogik suhbatlar ahamiyatini haddan tashqari bo'rttirib yuboradilar.

A. S. MAKARENKO

Tarbiya san'atining o'ziga xos xususiyati shundaki, u deyarli hammaga tanish va tushunarli, ba'zi birovlariga — hatto osondek tuyuladi, kishi tarbiya san'ati bilan nazariy yoki amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shu qadar tushunarli va osondek bo'lib ko'rinaveradi.

K. D. USHINSKIY

Oilaviy tarbiya ota-onalar uchun avvalo o'z-o'zini tarbiyalash demakdir.

N. K. KRUPSKAYA

Insonni hamma: odamlar, buyum va narsalar, voqea-hodisalar, ammo eng avvalo va aksari hollarda odamlar tarbiyalaydi. Bular orasida esa ota-onalar bilan o'qituvchilar birinchi o'rinda turadilar.

A. S. MAKARENKO

Bolalarning murg'ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta'sir etmaydi va barcha ibratlar ichida esa ota-ona ibratidan ko'ra chuqurroq va mustahkamroq o'rin oladigan ibrat yo'q.

N. I. NOVIKOV

Ota-ona izzat-obro'sining poydevori faqat ularning yurish-turishi-yu, ishlari, fuqorolik qiyofalari va xulq-atvorlaridir.

A. S. MAKARENKO

Bolalarning gunohi ham, xizmatlari ham ko'p jihatdan ota-ona gardaniga tushadi va ularning vijdoniga havola etiladi.

F. E. DZERJINSKIY

Axloqiy tubanlikdan, o'rinsiz xushsuxanlikdan Ogoh bo'lmasa har kim, Rasvo bo'lgan farzandining holini ko'rar bir kun.

J. CHOSER

Agar odamlar bolalaring haqida yomon gapirishsa, ular seni yomonlayotganlaridir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Bolangizni u bilan gaplashayotgan, biror narsa o'rgatayotgan yoxud unga biror ish buyurayotganingizdagina tarbiyalayapman, deya o'ylamang. Siz uni hayotingizning har bir soniyasida tarbiyalab borasiz. So'zingiz ohangidagi zig'irdek o'zgarishni ham bola sezib yoki his etib turadi, fikringizdagi ozgina burilish ham ko'rinmas yo'llar bilan bolangizga yetib turadiki, buni o'zingiz sezmay qolasiz.

A. S. MAKARENKO

Bolalarni o'stirish va tarbiyalash ulkan, jiddiy va haddan tashqari mas'uliyatli ishdur.

A. S. MAKARENKO

X.ozirgi ota onalar farzandlarga tarbiya bera turib. Vatanimizning istiqbol tarixini, demakki, jahon tarixini tarbiyalaydilar.

A. S. MAKARENKO

Xalqning baxt-saodati bolalarni to'g'ri tarbiyalashga bog'liq.

J. LOKK

Bolalar — bizning kelajagimiz! Ular maqsad va g'oya-larimiz yo'lida kurashmoq uchun yaxshi qurollangan bo'lishlari kerak.

N. K. KRUPSKAYA

Bolalar ertangi kunimizning hakamlari, qarashlarimiz, ishlarimizning munaqqidlaridir, ular yangi turmush formalarini bunyod etish uchun ulug' ishlarga chog'lanib, dunyoga kelgan kishilardir.

M. GORKIY

Bolalarimiz — bizning kek-saligimiz. Yaxshi tarbiya — bizning baxtli keksaligimiz, yomon tarbiya — bo'lg'usi g'am-alamlarimiz, ko'z yoshlarimiz, boshqa odamlar oldidagi, butun mamlakat oldidagi aybimiz demak.

A. S. MAKARENKO

Tarbiya... nihoyatda mashaqqatli ish. Mana endi hammasi joyida bo'ladi, deb o'ylaysan! Qarasang, ishlar boshqacha: hammasi endi boshlanayotgan bo'ladi.

M. Yu. LERMONTOV

Bola tarbiyasi uchun davlatni boshqarishdan ko'ra ham teranroq mushohada, undan ham chuqurroq donishmandlik kerak.

U. CHENNING

Bolasini suyishni tovuq ham biladi. Ularni tarbiyalay olmoq esa — qobiliyat va keng hayotiy bilimlarni talab etuvchi davlat miqiyosidagi buyuk ishdur.

M. GORKIY

Mezanadan turib va'z aytish, minbarda hammani og'zingga qaratish, o'rtaga chiqarib saboq berish bittagina bolani tarbiyalashdan ko'ra xiyla yengilroqdir.

A. I. GERTSEN

Bir odam bilan gaplashishdan ko'ra olomon bilan ganlashish birmuncha osonroq.

J. RENAR

Tarbiya masalasida mayda narsa yo'q.

N. I. PIROGOV

Ota-onalar ko'pincha «tarbiya» so'zi bilan «ma'lumot» so'zini chalkashtirib qo'yadilar va bolaga ma'lum darslarni o'qitib o'rgatish bilan unga tarbiya berdik, deya o'ylaydilar. Yillar o'tgach, ota-onalarning hafsalalari pir bo'lishining sababi ham mana shunda.

A. G. RUBINSHTEYN

Mening fikrimcha, barcha mutafakkirlar tarbiyani yo'rgakdan boshlash kerak, degan xulosaga kelganlar.

N. I. PIROGOV

Inson tarbiyasi u tugilishi hamono boshlanadi; chaqaloq hali gapirmaydi, so'zga quloq solmaydi,

ammo o'rgana boshlaydi. Bilish tarbiyadan kelib chiqadi.

J. J. RUSSO

Yoshlikda yuqqan odat va rusum nihoyatda mustahkam bo' ladi; biz buni tarbiya deb ataymizu, lekin bu tub mohiyati bilan erta shakllangan odat-ko'nikmalardan boshqa narsa emas.

F. BEKON

Odamga bolalikdan singdirilgan odatlar yosh daraxt tanasiga o'yib yozilgan harflarga o'xshaydiki, ular daraxt bilan birga o'sadi, voyaga yetadi daraxtning tarkibiy qismiga aylanib qoladi.

V. GYUGO

Bosilgan qadam — odatga, odat — xarakterga, xarakter esa qismatga aylanadi.

U. TEKKEREY

Bolalarda o'z-o'zini emas, odamlarni sevish tuyg'usini tarbiyalamoq kerak. Buning uchun ota-onaning o'zi odamlarni sevishi lozim.

F. E. DZERJINSKIY

Odatda farzandlarimizga bilimlarimizni berish o'zimizning ixtiyorimizda, orzu-intilishlarimizni esa undan ham ko'proq berishimiz kerak.

Sh. MONTESKYE

Hayotdan to'la zavqlanish, ya'ni baxtga erishmoq uchun — bolalarda «buyuk muhabbat» uyg'otish — vatanga, millatga, insoniyatga, tafakkur qudratiga ishonishga, inson qalbining go'zalliklari oldida hayratlanishga o'rgatmoqqa qodir bo'lgan narsa faqatgina insonga, shaxsga nisbatan jonli va hayotbaxsh hurmat hislarini tugdira bilishdir.

M. GORKIY

Bolalaringizga yaxshilikni singdirib o'stiring, unga baxtni faqatgina shu beradi.

L. BETHOVEN

Muntazam taraqqiy etadigan, gullab-yashnaydigan va hamisha baxt-saodatli jamiyat bunyodkorlari bo'lgan shaxslarda yaxshi xarakterlarni shakllantirmoq uchun har biri yoshlikdanoq kuchli va qobiliyatiga qarab kundalik foydali ishga o'rgatilmog'i kerak.

R. OUEN

Bolalik boshdan-oxir bayramdan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Bolalarning kuchiga yarasha mehnat shijoati bo'lmasa, u holda bola mehnat — baxtligini tushunib yetmaydi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Jismoniy mashqlar aqliy mashg'ulotlarga zarar yetkazadi, deya fikr yuritish ayanchli yanglishuvdir! Go'yo bu ikki ish bir-biri bilan yonma-yon, bir-biriga mushtarak holda olib borilishi mumkin emas emish!

J. J. RUSSO

Agar bolalar mehnat qilishga undalmaganlarida na savodxonlikka, na muzika, na gimnastikaga, hattoki insonda ezgulikni mustahkamlovchi nomusga ham o'rganmagan bo'lur edilar. Odatda nomus ana shu mashg'ulotlarning yetarligidan dunyoga keladi.

DEMOKRIT

E'tiboringizni bolalardagi qusur va illatlarga barham berishgagina emas, ularda hayotbaxsh muhabbat uyg'otishga qarating; muhabbat bor joyda — axloq bolaga tuyg'u sifatida singdirib yuborilmog'i kerak.  
G. GEGEL

Odamsodning birinchi tarbiyachilari onalardir.  
O. GOLDSMIT

Bolalari bo'la turib zerikkan ayol nafratga loyiqdir.  
JAN POL

Bizga yaxshi onalarni beringlar, biz yaxshi odamlar bo'lib yetishamiz.  
JAN NOL

Bolaga munosabat masalasida o'zi axloqan toza bo'lishi uchun ham ona zarur bilimlarga ega bo'lmog'i kerak. Nodon ona esa mehru muhabbati qanchalik kuchliligidan qat'i nazar, yomon tarbiyachi bo'lib qolaveradi.  
N. I. MECHNIKOV

Haqiqiy va to'la insoniy grajdanlik hayoti bilan yashagan onagina bolalarni yaxshi tarbiyalaydi, bu masalada ibrat ko'rsatadi, mehru muhabbat, hayratu olqish oladi, odamlarda o'ziga taqlid qilish istagini uyg'otadi. O'z burchini bolalarga xizmat qilish bilan chegaralab qo'ygan ayol esa tarbiyachi ona emas, o'z bolalarining qulidir.  
A. S. MAKARENKO

Ota dunyodan ko'z yumganda, bolalariga ota o'rnini bosadigan ayolgina chinakam onadir.  
I.GYOTE

Ota-onalar o'z bolalarini sertashvish va saxovatli qalb bilan sevadilarki, bu hol bola tarbiyasiga zarar yetkazadi.illat bo'lmaydi. Yomonlik yo'q qilib tashlansa-yu, o'rni yaxshilik bilan to'ldirilmasa, buning samarasi bo'lmaydi: bu narsa bo'shliqni vujudga keltiradi, bu bo'shliq esa to'xtovsiz ravishda boshqa bo'shliq bilan to'lib boradi; birini quvsangiz, ikkinchisi paydo bo'ladi.  
V.G.BELINSKIY

Tarbiyaning ilk bosqichida bolalar siymosida amaldorni ham, shoirni ham, hunarmandni ham emas, insonni ko'rmoq zarur, keyin u inson bo'lgani holda oxir-oqibat u yoki bu kasbni egallaydi.  
V. G. BELINSKIY

Yahshi tarbiya sifati haqida ko'p mulohaza yuritadilar. Tarbiya deganlari garchi yaxshi xislatlarni o'z ichiga olsa-da, men undan, eng avvalo, sotqin odamni tarbiyalamaslikni talab etardim.  
J. J. RUSSO

Bolalar olami uchun va istagan yoshdagilar uchun ham g'oyatda zarur bo'lgan bitta axloqiy saboq borki, u ham bo'lsa hech kimga yomonlik qilmaslikdir.  
J. J. RUSSO

Ilk tarbiya hamma narsadan ham muhim bo'lib, u shubhasiz ayollar zimmasidadir.  
J. J. RUSSO

Millatning kelajagi onalar qo'lidir.

O. BALZAK

Dastlabki paytlarda bola uchun ona tarbiyasi hamma narsadan muhimroqdir, binobarin ahloq bolaga tuyg'u sifatida singidirib yuborilmog'i kerak.

G.GEGEL

Boshqacha bir ziyrak osoyishta muhabbat ham borki, u bolalarni vijdonli qilib tarbiyalaydi. Haqiqiy otalik muhabbati xuddi shunday bo'ladi.

D. DIDRO

Ota bo'lish otalik qilishdan ancha yengil.

V. O. KLUCHEVSKIY

Ota bo'lish juda oson. Otalik qilish esa qiyin.

V. BUSH

Tug'dirgan emas, tarbiyalagan — ota.

MENANDR

Ota donoligi bolalar uchun chinakam saboqdir.

DEMOKRIT

Maktablar ko'pligiga qaramay, yaxshi otalarsiz yaxshi tarbiya bo'lmaydi.

N. M. KARAMZIN

Qorovuldan tortib ministrigacha — istagan xodimni xuddi shunday yoki undan ham qobiliyatlirog'i bilan almashtirish mumkin. Yaxshi otani esa yaxshi ota bilan almashtirib bo'lmaydi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Bitta ota yuzta o'qituvchidan ustun demakdir.

J. GERBERT

Otaning qattiqqo'lligi — ajoyib dori: achchig'idan ko'ra shirini ko'p.

EPIKTET

Ota bolalarni bino qilish, ularni yedirib-ichirish bilan o'z zimmasidagi vazifaning uchdan birinigina bajargan bo'ladi. U bolalarini odamzod qatoriga qo'shmog'i, jamiyatga esa — faol kishilarni, davlatga — grajdaninni yetishtirib bermog'i kerak. Shu uchala qarzini uzishi mumkin bo'lgani holda bu ishni bajarmagan har qanday kishi aybdordir, bordi-yu, bu qarzning yarminigina uzsa, yana battarroq aybdor bo'ladi. Kimki zimmasidagi otalik burchini bajarmasa, u ota bo'lish huquqidan mahrumdir.

J. J. RUSSO

Bolani tarbiyalash jarayonida kelgusidagi uning oldida turgan keksalikni ham o'ylamoq kerak.

J. JUBER

O'z o'g'lini hech bir foydali ishga o'rgatmagan odam o'g'ri boqayotgan bo'ladi.

T. FULLER

Yomon bolalar uchun ota-onani jazolamoq kerak.

M. GORKIY

Ota-onaning farzandga muhabbati ko`r-ko`rona bo`lmasligi kerak. Bolaning hamma talabini bajaraverish, uni ham-mavaqt ham konfet va shunga o`xshash narsalar bilan siylayverish uning qalbini majruh qilib qo`yishdan boshqa narsa emas.

F. E. DZERJINSKIY

Ota-onalar tomonidan barcha injiqliklariga quloq solib, erka-tantiq qilib o`stirilgan bolalar xudbin va irodasiz kishilar bo`lib yetishadilar.

D. E. DZERJINSKIY

O`z bolalarini o`ta yasantirib qo`yish va ularni erkalatib yuborish aqldan emas.

I.T.POSOSHKOV

Bolani baxtli qilaman deb, uni go`daklikdan erkalatib taltaytirish aqldan emas.

V. GYUGO

Bolalarni shirinliklar, pechene va konfetlar bilan siylab, ulardan sog`lom kishilar yetishtirib bo`lmaydi. Ma`naviy oziq ham xuddi yegulik kabi oddiy va to`yimli bo`lmog`i kerak.

R. SHUMAN

Bolalarni hammavaqt ham taqdirlayverish yaramaydi. Buning oqibatida ular o`zlariga bino qo`ya boshlaydilar va bolalarda sal narsaga o`zlarini taroziga solish fikri kuchaya boradi.

I. KANT

Bolaning sazasini o`ldiraverish va barcha harakatlari, o`y-fikrlarini tinimsiz yo`lga solaverish doimo uni hayotga yaroqsiz qilib boradi; bunday bolalar faqat aytganini qiladigaigina emas, afsuski, o`ta shaxsiyatparast va o`ziga bino qo`ygan kishilarga aylanadilar.

F. F. LESGAFT

Ota-ona muhabbatining faqat bolaga qaratilishi dahshatli adashuvdir.

A. S. MAKARENKO

Bolaga sajda qilmang: ulg`ayganda u joningizni oladi.

N. BUAST

Hatto bolalar bilan muomalada ham to`g`ri so`z bo`l: biron narsa va`da qildingmi, bajar, aks holda, uni yolg`onchilikka o`rgatasan.

L. N. TOLSTOY

Haqqoniylik hamma joyda, ayniqsa, tarbiya masalasida eng muhim omildir.

L. N. TOLSTOY

Bolalarni shafqatsizlik bilan ham qo`rqitilmaysan, ular faqat yolg`ongagina toqat qila olmaydilar.

L. N. TOLSTOY

O`zingiz shubha bilan qaragan iarsani bolaga mutlaqo o`rgata ko`rmang, agar siz uning nozik-nihol

yillarida bolalik onlarining pokizaligi va ilk taas-surotlari unda muhrlanib qolsin, deb uning qalbiga nima bilandir ta'sir etmoqchi bo'lsangiz, u holda ayniqsa yolg'ondan ogoh bo'ling, chunki aytilayotgan narsaning yolg'onligini o'zingiz sezib turasiz.

J. RESKIN

Uddasidan chiqib bo'lmaydigan narsa haqida bolaga va'da bermang va uii hech qachon aldamang.

K. D. USHINSKIY

Bolalikka buyuk hurmat-ehtirom bilan qarash lozim.

YUVENAL

Inson shaxsiyatini chinakamiga hurmat qiluvchi kishi uni o'z farzandi siymosida, ya'ni bola o'z «meni»ni his etib, tevarak-atrofdagi olamdan ajralib chiqqanini anglagan daqiqalardan boshlaboq hurmat qilmog'i zarur.

D. I. PISAREV

Go'dak — idrokli vujddir, u o'z hayotidagi ehtiyojlar. qiyinchiliklar va to'siqlarni yaxshi biladi. Bu o'rinda unga nisbatan zolimona amru farmonlar, majburiy tartib-intizom, ishonchsiz nazorat emas, balki shirin muomalali mu-rosa, tajribaga ishonch, hamkorlik, ahil yashash ko'proq qo'l keladi.

Ya. KORCHAK

Bola haqida haqqoniy va adolatli fikr yuritmoq uchun biz uni o'z olamidan yulib olib, o'zimiz bilan teng qo'ymasligimiz, balki biz ularning ruhiy olamiga kirib bormog'imiz kerak.

N. I. PIROGOV

O'z bolaligini unutgan tarbiyachi yomon tarbiyachidir.

M. EBNER-ESHENBAX

Bolalikka bolalik onlarida pishib yetilish imkonini bering.

J. J. RUSSO

Bolalikni seving, uning o'yin va ermaklariga, murg'akkiia tabiiy tuyg'ulariga e'tibor bering! Labdan kulgi arimaydigan, qalb shu olamdan to'xtovsiz huzurlanadigan o'sha daqiqalarni qay biringiz, axir, achinish bilan eslamaysiz?

J. J. RUSSO

Bolani aqlli va mulohazali qilmbq uchun uni baquvvat va sog'lom o'stiring: mayli, u ishlasin, tinmasin, yugurib-elsin, baqirib-chaqirsin, ishqilib, doimiy harakatda bo'lsin!

J. J. RUSSO

Tarbiya sohasidagi eng og'ir nuqson haddan tashqari shoshqaloqlikdir.

J. J. RUSSO

Agar siz bolalarning sho'xliklariga yo'l bermasangiz, unda hech qachon donishmandlarni dunyoga keltira olmaysiz.

J. J. RUSSO

Mayli, bola sho'xlik ham, to'polon ham qilsin, faqat bu sho'xligi va to'poloni zararli bo'lmasin, jismoniy va axloqiy hayosizlikka aylanib ketmasin; mayli bu sho'xligi va to'poloni beixtiyor, o'ylanmay qilingan



bo'lsin, ammo ahmoqona va bema'ni bo'lmasin, binobarin, aslida ruhsizlik va jonsizlikdan yomoni yo`q.

V. G. BELINSKIY

Qobiliyatni ko'rsatish uchun imkoniyat bo'lmagan joyda qobiliyatning o'zi ham yo`q.

L. FEYERBAX

Bolani o'yinga to'g'ri o'rgata bilish mahorati unga olam sirlarini mutolaaga qaraganda kengroq va ishonchliroq namoyon etadi.

J. FABR

Bolalarning o'yinida ko'pincha chuqur ma'no yotadi.

F. SHILLER

Bolalarning aksari o'yinlari kattalarning jiddiy faoliyatiga taqliddir.

Ya. KORCHAK

Faollik, ish, xizmat katta yoshdagi kishilar hayotida nechog'li ahamiyatga molik bo'lsa, bolalar uchun o'yin ham ana shunday muhim ahamiyat kasb etadi. Bola o'yinda o'zini qay holda tutsa, o'sib-ulg'aygach, ishda ham aksari o'zini shunday tutadi. Shu boisdan ham bo'lajak arbobning tarbiyasi avvalo uning o'yinida yuz beradi.

A. S. MAKARENKO

O'yin shunday bir ulkan yorug' oynadirki, u orqali bolaning ruhiy dunyosiga, uni o'rab olgan olam haqida hayotbaxsh tasavvur va tushunchalar to'lqini kirib turadi. O'yin sinchkovlik va qiziquvchanlik olovini o't oldiruvchi uchqundir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Bolalar go'zallik, o'yin, ertak, muzika, rasm, xayol, ijodiyot olamida yashamoqlari kerak.

V. A. SUXOMLINSKIY

Bolalar hamisha nima bilandir bajonidil band bo'ladilar. Bu juda foydali, shuning uchun unga xalaqit berish emas, aksincha, ularning doimo biror-bir ish bilan mashg'ul bo'lishlarining chora-tadbirlarini ko'rish kerak.

Ya. KOMENSKIY

Bolani go'dakligidanoq shunday shart-sharoitga qo'ymoq kerakki, toki u yashasin, o'ynasin va mehnat qilsin, o'z quvonch va qayg'ularini boshqa bolalar bilan birga baham ko'rsin.

N. K. KRUPSKAYA

Bola shaxsi kollektivdagina mukammal va har tomonlama rivojlana oladi.

N. K. KRUPSKAYA

Bolalarning kollektiv hayoti shodu xurramliklar bilan to'la bo'lgandagina jamoatchilik instinkti kuchli bo'lgan kishilarni tarbiyalab voyaga yetkazish mumkin.

N. K. KRUPSKAYA

Ota-onalar o'z huquqlaridan foydalanib, bolalariga e'tiqod va dunyoqarashlarini zo'rlab singdirishga o'rinish bilan ularga qanchalik ziyon yetkazishlarini bilmaydilar.

F. E. DZERJINSKIY

Xuddi bola fikri kabi bola hissiyoti ham zo'rlik qilmasdan boshqarilmog'i lozim.

K. D. USHINSKIY

Qobiliyati bo'lmasa majburlama.

Ya. KOMENSKIY

Kam tahqirlangan bola o'z qadr-qimmatini yaxshi anglaydigan kishi bo'lib yetishadi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Qo'rqitish billn bolada faqat tubanlikni, buzuqlikni, ikkiyuzlamachilikni, razil qo'rqqoqlikni tarbiyalash mumkin.

F. E. DZERJINSKIY

Haddan tashqari qattiqqo'llik va ko'r-ko'rona intizom o'rnatgan o'qituvchi — bolalarning boshiga tushgan kulfat.

F. E. DZERJINSKIY

Majburlab o'rgatish, siquv, zo'rlash tufayli erishilgan hamma narsa omonat, noto'g'ri va ishonsizdir.

Ya. KORCHAK

Bolani so'kishsa, urishsa va turli yo'llar bilan xafa qilishsa, u murg'akligidanoq o'zini yolg'iz seza boshlaydi.

D. I. PISAREV

Urgan kishidan bola nafratlanadi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Bolalarni qilmagan gunohlari uchun qiynash yoki loaqal arzimagan ayblari uchun qattiq jazo berish ularning ishonchi va hurmatidan butunlay mahrum bo'lish demakdir.

J. LABRUYER

Ortiqcha qattiqqo'llik va haddan ziyoda shafqatlilik bo'ladi: bularning har ikkalasidan ham birdek qochish kerak.

J. J. RUSSO

Bema'ilarcha ko'ngilchan bo'lish ham haddan tashqari qattiqqo'l bo'lish singari aqlsizlikdir.

A. F. PISEMSKIY

Umuman barcha axloqsiz munosabatlar ichida bolalarga to'ralarcha munosabatda bo'lish eng og'ir axloqsizlikdir.

G. GEGEL

Ota-onalar ayni o'zlari singdirgan nuqsonlari uchun farzandlarini kamdan-kam kechira oladilar.

F. SHILLER

Men or-nomus va erkinlikni hurmat qilish ruhida o'stirilayotgan yosh qalbni tarbiyalashdagi har qanday zo'rlikni qoralayman. Qattiqqo'llik va majburiylikda qandaydir tobelik belgilari bor, men aql,

ehtiyotkorlik va mahorat bilan erishib bo'lmagan maqsadga kuch bilan aslo erishib bo'lmaydi, deb hisoblayman.

M. MONTEN

Qo'pol kuch ishlatganga qara-ganda yaxshi gap bilan har doim ko'proq natijaga erishasan.

EZOP

Axloqiy ta'sir kuchi har qanday kuchdan ustundir.

N. V. GOGOL

Inson his-tuyg'ulari ko'pincha so'zga nisbatan ibratdan kuch oladi yoki susayadi.

P. ABELYAR

Nasihatgo'ylik bilan yaxshilikka yetishish qiyin, o'rnak ko'rsatish orqali esa oson.

SENEKA

O'rnak ko'rsatish do'q-po'pisadan kuchliroq ta'sir etadi.

P. KORNEL

O'rnak ko'rsatish va'z-nasihatga qaraganda har doim kuchliroq ta'sir qiladi.

S. JONSON

Namuna ko'rsatgan holdagina inson eng yuksak natijaga erishadi.

S. SVEYG

Bola o'zini sevgan odamni yaxshi ko'radi, uni faqat sevib tarbiyalash mumkin.

F. E. DZERJINSKIY

So'kib chorak maqsadga, suyub va siylab esa hamma narsaga erishish mumkin.

JAN POL

Yaxshi gap bilan maqsadiga erisholmagan odam qattiqqo'llik bilan ham erisha olmaydi.

A. P. CHEXOV

Farzandlaringiz qabringiz ustida yig'lay olishlari uchun ularning ko'z yoshlarini to'kmang.

PIFAGOR

Shunday g'aroyib otalar ham borki, ular to umrlarining oxirigacha faqat farzandlarini o'zlaridan bezdirish bilangina shug'ullanadilar.

J. LABRUYER

## Ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi o'zaro hurmat

Izzat-hurmat ota va onani, shuningdek, bolalarni ham qo'riqlab turuvchi posbondir; u ota-onani kulfat va g'amdan, bolalarni esa vijdon azobidan qutqaradi.

O. BALZAK

Ota-onaga nisbatan hurmat va muhabbat, hech shubhasiz, muqaddas tuyg'udir.

V. G. BELINSKIY

Farzand ato qullig'in chu odat qilg'ay,  
Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay,  
Har kimki atog'a ko'p rioyat qilg'ay,  
O'g'lidan anga bu ish siroyat qilg'ay.

A. NAVOIY

Ota va ona! Bu muqaddas nomlar oldida barcha madhiyalar hech narsa emas, barcha balandparvoz maqto'vlar o'g'illik muhabbati va minnatdorchiligi oldida puch va arzimadir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

...Ota-ona qalbi, bu eng olijanob hakam, eng yaxshi do'st, bu alangasi intilishlarimizning muqaddas majmuasini isitadigan muhabbat quyoshi!

K. MARKS

Ota-onaga muhabbat — barcha yaxshi fazilatlarining asosi.

SITSERON

Inson boshida uchta kulfat bor: o'lim, qarilik va yomon farzandlar. Qarilik va o'limga hech kim o'z eshigini yop olmaydi, biroq yomon farzandlardan uyni farzandlarning o'zlari asrashi mumkin.

V. A. SUXOMLINSKIY

Ona-otang bilan munosabatda rostgo'y bo'l. Ular ma'qullaydigan ishga ulardan ruxsat va ijozat so'ra. Intizomli farzand bo'lish qiz va o'g'ilning haqiqiy erkinligidir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Biz hamisha qarzdor bo'lgan eng ulug' zot onadir.

N. A. OSTROVSKIY

Ona — zamindagi yagona xudodir.

E. LEOUVYE

Murg'ak bolalar tili va dilidagi xudo — ona.

U. TEKKEREY

Ona muhabbatidan muqad dasroq va beg'arazroq hech narsa yo'q; har qanday mehr-muhabbat, har qanday ehtiros ham unga nisbatan yo' o'jiz, yo' g'arazlidir.

V. G. BELINSKIY

Ona qalbi bitmas-tuganmas mo'jizalar manbaidir.

P. BERANJE

Inson o'z onasini ruhiy jihatdan ham o'ziga qadrdon deb bilishi noyob baxtdir.

M. GORKIY

Jahonning butun g'ururi onalardan. Quyoshsiz gullar ochilmaydi, sevgisiz baxt yo'q, ayolsiz muhabbat yo'q, onasiz shoir ham, qahramon ham bo'lmaydi.

M. GORKIY

Mehri cheksiz, butun dunyoni ko'kragi bilan boqqan ayolni — Onani sharaflylik! Insondagi butun go'zallik quyosh nurlari-yu, Ona mehridan.

M. GORKIY

Sen bolalikdan ona ko'zlariga boqib, ulardagi tashvish va halovatni, surur va hayajonni ko'rishga o'rganmagan ekansan —bir umrga axloqiy jihatdan nogiron bo'lib qolasan. Sevgidagi qo'pollik singari axloqiy nogironlik ham kishilar boshiga kulfat, jamiyatga zarar keltiradi.

V. A. SUXOMLINSKIY

Ko'rnamak o'g'il begonadan yomon. U jinoyatchidir, chunki onaga nisbatan e'tiborsiz bo'lishga o'g'ilning haqqi yo'q.

G. MOPASSAN

Ajdodlar hurmatini chin qalbdan bajo keltiruvchi kishi baxtlidir.

I. GYOTE

Boshni fido ayla ato qoshig'a,  
Jismni qil sadqa ano boshig'a.

A. NAVOIY

Ajdodlarga hurmatsizlik axloqsizlikning birinchi belgisidir.

A. S. PUSHKIN

Bola o'sayotib ota-onasini, aka-ukalari va opa-singilla-rini, o'z maktabini, vatanini sevishga o'rganmagan, uning xarakterida chuqur shaxsiyatparastlik belgilari tarbiya tongan bo'lsa, u o'zi tanlagan ayolni ham chuqur seva olishiga ishonish juda qiyin.

A.S. MAKARENKO

Ota-onasini, o'rtoqlari, do'stlarini sevmagan yigit qaylig'i va xotinini ham hech qachon sevmaydi. Shahvatsiz muhabbat ko'lami naqadar keng bo'lsa, jinsiy muhabbat ham shu qadar olijanob bo'ladi.

A. S. MAKARENKO

Biz farzandlarimiz bilap sevgi to'g'risida qanchalik donolik va kamsuqumlik bilan gaplashsak, bolalarimizning kelajakdagi sevgisi ham shunchalik go'zal bo'ladi, biroq bu sipolik bizning bola xulqiga doimiy va muntazam ko'rsatadigan e'tiborimiz bilan omuxta bo'lmog'i lozim.

A. S. MAKARENKO

Bolalaring senga qanday munosabatda bo'lishini istasang, ota-onangga ham shunday munosabatda bo'l.

ISOKRAT

Otalar bilan bolalar bir-birlaridan rozi-rizolik kutib o'tirmasdan, zarur narsalarni oldindan bir-birlariga berishlari lozim, lekin bu ishni birinchi bo'lib ota qilishi kerak.

DIOGEN

Siz ota-onangiz bilan qanday muomalada bo'lsangiz, bolalaringiz ham siz bilan shunday muomala qilishini yodda tuting.

FALES

Ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi munosabat ham sevishganlar o'rtasidagi munosabat singari mashaqqatli va shu qadar hayajonlidir.

A. MORUA

Bolalar yigirma besh yoshgacha ota-onalarini sevadilar; yigirma besh yoshda ularni qoralaydilar, so'ngra ularni kechiradilar.

I. TEN

Eng razil, ayni paytda eng oddiy va azaliy ko'rnamaklik — bu farzandlarning ota-onani qadrlamasligidir.

L. VOVENARG

Yaqin kishilaringdan birortasi yetkazgan jarohat ayniqsa qattiq azob beradi.

BAVRIY

Qarindoshlar o'rtasidagi adovat begonalar bilan bo'ladigan adovatdan ancha ogirdir.

DEMOKRIT

Ota-onalar bilan farzandlar o'rtasida butunlay sir bo'lmasligi dunyoda eng kam uchraydigan hodisadir.

R. ROLLAN

Bolalar o'z ota-onalarida o'tmishni, ota-onalar o'z farzandlarida kelajakni ko'radilar; ota-onalarda bolalariga nisbatan farzandlarning ota-onalarga muhabbatiga qaraganda ko'proq mehr uchratar ekanmiz, bu qayg'uli, ayni paytda tabiiy holdir. Xotirotlaridan ko'ra orzu-umidlarini ko'proq yaxshi ko'rmaydigan odam bormi?

I.ETVES

Avvaliga biz bolalarimizni o'rgatamiz. So'ngra o'zimiz ulardan o'rganamiz. Kimki buni xohdymas ekan, o'z davridan orqada qoladi.

Ya. RAYNIS

O'z farzandlarini baxtli qilishga intiluvchi mehribon ona ko'p hollarda o'zining tor qarashlari, kaltabin mo'ljallari, keraksiz g'amxo'rlik va mehribonliklari bilan ularning qo'l-oyog'ini bog'lab qo'yadi.

D. D. PISAREV

Har bir ona o'ziga qaraganda tsizi yaxshiroq erga tegishiga umid qiladi va o'g'li hech qachon otasidan yaxshi xotin ololmasligiga ishonadi.

M. ANDERSEN-NEKSE

Hayotning muhim vaziyatlarida ota-onaning suyanchig'i bo'lish ajoyib ish, biroq ularning ko'p ikir-chikir va bema'ni talablari jonli, erkin, dadil iste'dodni bo'g'adi.

A.S. GRIBOYEDOV

Vasiylikka olingan bolami yoki butun bir xalqmi, bundan qat'i nazar, u balog'atga yetgach, qoida bo'yicha vasiylik to'xtatiladi. Balog'at yetgandan keyin davom etadigan vasiylik zo'ravonlikka aylanadi.  
V. GYUGO

To'g'ri, bolalarga — hali ular bola ekan — ota-onalar vasiylik qilishlari kerak, biroq ayni paytda ular bir umr bola bo'lib qolmaydigan tarzda tarbiyalanishlari lozim.  
X. VILAND

Otaning xizmatlaridan bola foydalanmasligi kerak.  
M. SERVANTES

Butun avlod-ajdodingdan ko'ra bitta ko'zgu seni halol baholaydi.  
V. MENSEL

Gap kimning bolasi ekanligingda emas, kim bilan ulfat tutinganligingda.  
M. SERVANTES

Albatta o'g'il xotin tanlash huquqiga ega, biroq o'zining butun baxtini munosib naslida qoldirib ketayotgan ota ham bu ishda loaqal maslahati bilan ishtirok etishga haqlidir.  
V. SHEKSPIR

Yaxshi kuyovga duch kelgan kishi o'g'il topadi, yaramas kuyovga uchragan kishi qizdan ham ajraladi.  
DEMOKRIT

Muttahamni uydan quvish oila uchun katta baxtdir.  
P. BOMARSHE

### Qadr-qimmat bulog'i

Xarakterli odam nimalarnidir boshidan o'tkazgan va har turli kechinmalarda chiniqqan odamdir, unda umid bog'lasa bo'ladigan qandaydir kuchli fazilat bor demakdir.

E. TELMAN

Xarakter bitta yoki bir qancha xususiyatlar bilan emas, balki ularning darajasi va o'zaro munosabatlariga qarab aniqlanadi.

JAN POL

Xarakter har kimning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun g'ayrat bilan intilishidan iborat.

I. GYOTE

Xarakter katta yoxud kichik ishda o'z qobiliyating ko'lamida his qilgan narsangnigina izchillik bilan amalga oshirishingdan iboratdir.

I. GYOTE

Insonning hayot tarzi uning xarakteri.

I. GYOTE

Xarakter printsiplar asosida harakat qilish qobiliyatidan iboratdir.

I. KANT

Xarakter — inson qobiliyatlarining bulogi.

K. FIShYeR

Jiddiylik — xarakter asosi.

O. BALZAK

Gul uchun hid qanday ahamiyatga ega bo'lsa, inson uchun xarakter ham shunday ahamiyatga molikdir.

Ch. SHVAB

Xarakterli kishilar o'zlari mansub bo'lgan jamiyatning vijdonidirlar.

R. EMERSON

Har bir kishining xarakteri zarar yoki foyda keltirish xususiyati bilan boshqalar baxtiga ta'sir ko'rsatadi.

A. SMIT

Qat'iy xarakterli kishilargina muloyim bo'lishlari mumkin: boshqalardagi sirtqimu-loyimlik aslida osongina mijgovlikka aylanadigan oddiy zaiflikdir.

F. LAROSHFKO

O'z burchini chuqur his qilish xarakterning gultojidir.

N. V. SHELGUNOV

Inson xarakteri uning hal qiluvchi daqiqalardagi harakatlari orqali yaxshi bilinadi.

S. SVEYG



Eng jiddiy damlarda inson har qachongidan ham sezilarliroq o'sadi.

T. DRAYZER

Tafakkurdan tafakkur tugiladi, lekin faqat qalb va irodaning amaliy harakatigina xarakterni chiniqtiradi.

K. D. USHINSKIY

Iste'dod sukunat qo'ynida yetiladi, xarakter hayot bo'ronlarida toblanadi.

I. GYOTE

Har bir kishi xarakterida yo'q qilib bo'lmaydigan nimadir mavjud: bu xarakterning negizidir.

G. LIXTENBERG

Irodali kishi o'zining har bir so'zi va ishida haloldir.

S. SMAYLS

So'zing va ishing bir joydan chiqishi uchun kuchli xarakterga ega bo'lmoq lozim.

A. I. GERTSEN

Men inson xakteri deb uning axloqiy odatlari majmuasini atayman.

STENDAL

Xarakter — bu qat'iy shakllangan irodadir.

NOVALIS

Yaxshi xarakter butun umrga yetadigan boylikdir.

U. GEZLITT

Aqlga nisbatan xarakter kishilarni ko'proq yaqinlashtiradi.

E. RENAN

Yaxshi xarakterli kishining hayoti ham yaxshi bo'ladi.

DEMOKRIT

Yaxshilik qila olmasang, bori yomonliq ham qilma.

A. NAVOIY

Yaxshilikni bilmasang, bori yaxshilarga qo'shul.

A. NAVOIY

Yaxshilik tegrasida uyrula olmasang, yaxshilar tegrasida uyrul.

A. NAVOIY

Agar xarakter umuman yaxshi bo'lsa, ayrim kamchiliklarning borligi ham bilinmaydi.

Sh. MONTESKYE

Mazmunidan qat'i nazar, xakterning kuchliligi hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan qimmatbaho boylikdir. Xarakter kuchi faqat qalbning tabiiy manbalaridan olinadi, tarbiya butun insoniy fazilatlar manbai bo'lgan ana shu kuchni hamma narsadan ham ko'proq asramog'i lozim.

K. D. USHINSKIY

Inson ko'pgina moyilliklar va xarakter xususiyatlari bilan dunyoga keladi, ularning rivojlanishi juda ko'p darajada tevarak-atrofdagi sharoitga bog'liq.

A. BEBEL

Buyuk xarakterlarning aksari qismi kurashda yuzaga keladi, bu kurash esa ancha yoshlikdan boshlanadi.

D. I. PISAREV

Xarakter mehnatda toblanadi, kimki o'z mehnati bilan rizqi ro'zini topib kelmagan ekan, u ko'pchilik hollarda umrbod ojiz, lanj, bo'shang bo'lib qolaveradi.

D. I. PISAREV

Inson xarakteri atrofidagi vaziyatga qarab o'zgarib turadi.

G. PLEXANOV

Eng arzimas ikir-chikirlar ham xarakterning shakllanishiga ko'maklashadi.

L. N. TOLSTOY

Zimdan kuzatganga hech narsa yuzaki emas. Xarakter ikir-chikirlarda o'zini ko'rsatadi.

E. BULVER-LITTON

Inson xarakteri eng muhim vazifalarni vijdonan bajarish tufayli vujudga keladi.

S. SMAYLS

Qat'iy qoidalarga amal qilmagan kishining deyarli xarakteri ham yo'q. Xarakter bo'lganda u o'ziga qoidalar zarurligini ham his etardi.

N. SHAMFOR

Qo'rqqoqlik va befarosatlik doimiy bo'lishi mumkin, biroq qat'iylik faqat kuchi, ko'tarinkiligi, aql-idroki bilan ajralib turuvchi xaraktergagina xos.

D. DIDRO

Kuchli xarakter kuchli oqim singari to'siqqa uchrashi bilan g'azabga keladi va yana ham kuchayadi, lekin to'siqni ag'darib tashlagach, o'zi uchun chuqur o'zan ochadi.

K. D. USHINSKIY

Qat'iylik aql jasoratini amalda qo'llashdir, u ongli niyatni taqozo etadi.

F. VOLTER

Qat'iy xarakter aqlning topqirligi bilan uyg'unlashmog'i lozim.

L. VOVENARG

Shunday axloqli yoki, agar istasangiz, shunday xarakterli kishilar borki, ular bilan umuman aloqada bo'lmaganing, ulardan iloji boricha kamroq shikoyat qilganing va hatto ular bilan bahsda haq bo'lishni o'zingga ep ko'rmaganing yaxshiroq.

J. LABRUYER

Inson xarakterida uning aqliga nisbatan ko'proq nuqson bo'ladi.

F. LAROSHFUKO

Aql-idrok amriga itoatkorona amal qilmoq uchun bizning xarakterimiz ojizlik qiladi.

F. LAROSHFUKO

Xarakterning bo'shligi, bu tuzatib bo'lmaydigan birdan-bir kamchilikdir.

F. LAROSHFUKO

Irodasiz odam xarakteridan ko'ra ham bema'nilik yo'q.

J. LABRUYER

Jamiyatda irodasiz odamdan ko'ra xavflirog'i yo'q.

J. DALAMBER

Irodasiz odam — odam emas.

N. SHAMFOR

Ko'pincha ataylab emas, balki xarakterning bo'shligi sababli sotqinlik qilinadi.

F. LAROSHFUKO

Faqat to'g'ri tashkil etilgan, intizomli, mustahkam, serif-tixor kollektiv hayotida insonning uzoq muddat davomida ishtirok etishi tufayligina xarakterni tarbiyalash mumkin.

A. S. MAKARENKO

Yaxshi xarakter yaxshi asarlar singari muqaddimadan ko'ra pirovardda qoyil qoldiradi.

F. VOLTER

Inson xarakterini to'g'ri topishga intilish — dunyodagi eng og'ir ish. Har bir ayrim shaxs, ayniqsa, iste'dodli shaxs qarama-qarshiliklar tugunidir.

T. DRAYZER

Har bir kishining uch xarakteri bor: boshqalar unga nisbat bergani; uning o'zi o'zirniki deb bilgani va nihoyat, uning haqiqiy xarakteri.

V. GYUGO

## Iroda va sabot-matonat haqida

Har qaysimiz o'z shaxsimizning qadr-qimmatini o'zimiz zarb qilamiz, inson o'z irodasiga qarab buyuk yoki jo'n bo'ladi.

S. SMAYLS

Faqat halol va beg'araz faoliyatdagina insoniy fazilatlar uchun shart-sharoit mujassam, faqat iroda kuchidagina tanlagan sohamizdagi muvaffaqiyatlarimizga shart-sharoit mavjud.

V. G. BELINSKIY

Hech narsa o'z-o'zidan, harakat va irodasiz, qurbon va mehnatsiz yuzaga chiqmagtdi. Insoniy iroda, birgina qat'iy odam irodasi ham shu qadar buyukki...

A. I. GERTSEN

Agar inson irodasi sof, maqsad sari fidokorona yo'nalgan va o'zida okean quyunini mujassamlashtira olgan bo'lsa, unday iroda ko'p narsaga qodir, u dahshatli kuchga ega, unga deyarli chegara yo'q.

A. I. GERTSEN

Insondagi nafsoniyat, o'zini qaror toptirish uchun sarflangan iroda taqdir ezib tashlamasligi uchun qarshilik ko'rsatishida unga kuch-quvvat beradi.

E. TELMAN

Iroda odamzodning farqli belgisidir, faqat aqlgina irodani boshqarish uchun abadiy qoidadir.

F. SHILLER

Voqealar oqimi bizning dadil irodamizga va harakatimizga bog'liq.

G. UELLS

Jiddiy, teran, haqiqiy iroda ong avvalo maqsadga erishishga ishonch tasavvuri bilan uyg'unlikda ifodalanadi.

I. GYOTE

Bizning shaxsimiz bog', irodamiz esa uning bog'bonidir.

V, SHEKSPIR

Aql iroda yo'lini yoritadi, iroda esa faoliyatni idora qiladi.

Ya. KOMENSKIY

Iroda yo'q joyda yo'l ham yo'q.

B. SHOU

Fikrning ishga aylanishi iroda emasmi!

A. A. BESTUJEV-MARLINSKIY

Iroda iste'dodga nisbatan ko'proq iftixor qnlsa arziydi va shunday bo'lishi kerak. Agar iste'dod — tabiiy moyilliklarning o'sib-ulg'ayishi bo'lsa, qat'iy iroda esa — bu iroda itoat ettirib, bostirib turadigan ko'nikmalar, havaslar ustidan, u yengib o'tadigan to'siq va g'ovlar ustidan, u qahramonona bartaraf qiladigan har qanday qiyinchiliklar ustidan har bir daqiqada qo'lga kiritiladigan g'alabadir.

O. BALZAK

Dadillik va iroda tufayli ko'p hollarda aqli zaifroq odamlar aqllilar ustidan g'olib chiqa oladilar.

U. VERT

To'g'ri xulq odam bilim yetishmasligiga qaraganda iroda yetishmasligidan ko'proq azob chekadi.

G. SPENSER

Shunday odamlar borki, ular umidsizlangan yoki asabiylashgan holda, o'z ahvollaridan zavqlanadilar, hatto faxrlanadilar. Bu seni pastga olib ketayotgan ot jilovini qo'yib yuborib, yana uni qamchilashing bilan baravardir.

L. N. TOLSTOY

O'zyamizni o'zimizga oqlab ko'rsatish uchun biz ko'n hollarda o'zimizni maqsadga erishish uchun kuchimiz yetmaganday qilib ishontiramiz, aslida biz kuchsiz emas, irodasizmiz.

F. LAROSHFUKO

Bizda irodaga qaraganda kuch ko'p, biz aksari hollarda o'zimizni o'zimizga begunoh ko'rsatish maqsadida ko'p narsalarni o'zimizning imkoniyatlarimizdan, xoli deb hisoblaymiz.

F. LAROSHFUKO

Irodali kishi uchun hech qanday qiyin ish yo'q.

ERAZM ROTTERDAMSKIY

Iechog'li metin bo'lmasin, dunyoda inson irodasi va tafakkuriga qarshi tura oladigan devor yo'q.

J. AMADU

Sroda kishi qiyofasi bilan qo'shilgan holda insonni amalda to'g'ri ifodalaydi.

A. V. LUNACHARSKIY

Qaysar odatni yenga olgan irodadan go'zalroq hech narsa yo'q.

R. ROLLAN

O'z ustingdan qozongan g'alabang eng buyuk g'alabadir.

P. KALDERON

O'z ustingdan qozongan galaba shunday bir yagona tantanaki — undagi muvaffaqiyat beminnatdir.

F. SHERIDAN

Hech narsani hal qilmaydigan iroda haqiqiy iroda emas; irodasiz odam hech qachon bir qarorga kelolmaydi.

G. GEGEL

Kurashda matonatli kishilar yutib chiqadi.

K. N. BESTUJEVRYUMIN

Qat'iyatsiz odam hech qachon o'ziga-o'zi xo'jayinlik qilolmaydi.

U. FOSTER

Hamma narsani tavakkalchilikka tashlab qo'ygan kishi o'z hayotini qimorga aylantiradi.

T. FULLER

O'zini tuta bilgan odam hammadan kuchlidir.

SENEKA

Tayinsiz va irodasiz odam rulsiz va kompassiz kemaga o'xshaydi, u shamol esishiga qarab yo'nalishini o'zgartiraveradi.

S. SMAYLS

Ehtiyotkor bo'ling va sovuqqonlikni saqlang. Xuddi otashin qalb singari o'zini tuta biladigan bosh ham kerak.

J. LEBBOK

Qat'iy iroda yetishmagan odamda aql ham yetishmaydi.

V. SHEKSPIR

Irodasiz kimsalar qo'rqoqlardir, modomiki qo'rqoq ekan — demak, u ojiz.

I. P. PAVLOV

Kuchli iroda, bu faqat nimadir xohlab, unga erishishgina emas, balki zarur bo'lganda nimadandir voz kechishga o'zini majbur qila bilish hamdir. Iroda, bu shunchaki istak va uning qondirilishi emas, balki u ham istak, ham qanoat, kerak bo'lsa, undan voz kechish hamdir.

A. S. MAKARENKO

Boshqalarni ko'p narsada kechir, o'zingni esa hech narsada kechirma.

PUBLILY SIR

Hissiyot va aql iroda uchun zarurdir, zero, men faqat ular orqali nima xohlashim yoki xohlamasligim kerakligini, men nima qilishim yoki qilmasligim lozimligini bilib olaman.

L. FEYERBAX

Iroda faqat arziyasiz narsalarga, faqat qandaydir ma'nosiz narsalarga osilib oladigan bo'lsa, u qaysarlikka aylanadi. Qaysarlik xarakter mohiyatiga emas, faqat uning tashqi shakliga egadir. Qaysarda — ya'ni xarakterga parodiyada — inson shaxsi nafrat tug'diradi, qaysarlik kishining boshqalar bilan munosabatiga to'siqlik qiladi.

G. GEGEL

Qaysarlik aqlimizning chegaralanganligi oqibatida yuzaga kelgan: biz fikrimiz doirasiga sig'maydigap narsaga uncha ishonmayroq qaraymiz.

F. LAROSHFUKO

Qat'iyat aql va iroda ittifoqi asosidagi kuchdir. Qaysarlik kuchga o'xshab ko'rinsa-da, asli, ojizlikdir; ojizlik iroda va aql ittifoqidagi mutanosiblikning yo'qligidan kelib chiqadi.

V. A. JUKOVSKIY

Qat'iyatlilik aql jasoratidir, u ongli dadillikni taqozo etadi. Qaysarlik esa, aksincha, o'z ixtiyorini yo'qotish degan gap.

F. VOLTER

Tirishqoqlik bilan qaysarlik o'rtasidagi farq shundan iboratki, tirishqoqlik kuchli xohishga asoslangan bo'lsa, qaysarlik, aksincha, hech nimani xohlamaslikdan kelib chiqadi.

G. BICHER

Qaysarning eng yaxshi e'tirozlari yo'lda yotgan toshlar bilan baravar: ularni oyoq bilan tepib yuboradilar va ustidan hatlab o'tib ketadilar.

P. BUAST

Qaysarlik aqli qisqalik, nodonlik va o'zbilarmonlik samarasidir.

F. LAROSHFUKO

Qaysarlik — ahmoqlarning niqobi.

Ya. B. KNYAJNIN

Mushaklarimiz singari irodamiz ham muttasil kuchayib borayotgan faoliyatimiz tufayli mustahkamlanadi; mashq qildirmasangiz, siz so'zsiz nimjon mushak va ojiz irodaga ega bo'lasiz.

K. D. USHINSKIY

Aql to'siqlarni yengib o'tishda charxlanadi.

R. ROLLAN

Qiyinchiliklar kishida ularni yengish uchun zarur qobiliyat tug'diradi.

U. FILLIPS

Irodasini kuchaytirish niyatidagi kishi to'siqlarni yengib o'tishga odatlanishi lozim.

I. P. PAVLOV

Hayotimiz — yashash davomida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni yengishga ketgan kuchimizning qiymatiga teng.

F. MORIAK

Yengil erishilgan galabalarining qadri bo'lmaydi. Mashaqqatli kurash natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlar bilangina faxrlansa arziydi.

G. BICHER

O'zingga, o'z kuchingga ishonch hosil qila borishing kerak, bunday ishonchga esa to'siqlarni yengib o'tish, irodani tarbiyalash, uni «mashq qildirish» tufayli erishiladi. O'zingdagi va o'zingdan tashqaridagi o'tmishning yaramas sarqitlarini yenganga o'rganishing zarur... O'z ustingdan qozongan kichik bir g'alabang ham kuchingga kuch qo'shadi.

M. GORKIY

O'z badanini mashq qildirish orqali odam chidamli, epchil bo'la boradi, shu singari o'z aqlingni, irodangni ham mashq qildira borishing kerak.

M. GORKIY

Ruhiy sog'lomlik, bardamlik, aql va irodaning ijodiy kuchiga ishonch bizga hammadan ham ko'ra zarurroqdir.

M. GORKIY

O'zingdagi iroda sustligining eng mayda belgilari — injiqlikni, sirkasi suv ko'tarmaslik, jizzakilikni, yig'loqilikni, g'ayritabiiy man-manlikni bartaraf qil. Ana shu ururlardan individualizm unib chiqadi.  
V. A. SUXOMLINSKIY

O'zingni o'zingga bo'ysundi-rishni, o'z ustingdan hokimlik qilishni bolalik chogingdan o'rgan. Senga yoqmaydigan, ammo bajarilishi zarur bo'lgan ishlarni qilishga o'zingni majburla. Burchdorlik irodaning bosh manbaidir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Irodasiz kishi har qanday muttaham qo'lida o'yinchoqdir.

N. K. KRUPSKAYA



## Xarakter sinovi

Taqdirning bevafoqligi mard odam yo'lidagi sinov toshidir.

T. FULLER

Baxtsizlik xarakterni obdan sinovdan o'tkazadi.

O. BALZAK

Musibat inson hayotining qayrog'idir.

L. N. TOLSTOY

Baxtsizlik maktabi eng yaxshi maktabdir.

V. G. BELINSKIY

Musibat kishilar va xalqlar xarakteridagi kuchlarni hamma narsadan ham ko'proq ochadi.

N. M. KARAMZIN

Baxtsizlik temirchining bolg'asiga o'xshaydi: ham majaqlaydi, ham toblaydi.

K. BOUVI

Zarurat kishini boshqa paytda aslo erisha olmaydigan narsasiga erishtiradi.

F. FENELON

Har qanday baxtsizlikning ko'lami uning mohiyati bilan emas, balki bu baxtsizlik insonda qanchalik aks etishi bilan o'lchanadi.

G. SENKEVICH

O'zingni bezovta qilayotgan narsalarga munosabatingni o'zgartir, ana shunda ular xavfidan xoli bo'lasan.

MARK AVRELIY

Dono odam uchun haddan tashqari xursandlikka berilish ham, ortiqcha g'am-g'ussaga botish ham birdek nomunosibdir.

J. J. RUSSO

Eng uqubatli daqiqalarda ham ruhingni baland tutishga harakat qil.

GORATSIY

Musibat mardlikka turtki bo'ladi.

SENEKA

Mardlik qarshisida taqdir zarbalari cho't emas.

DEMOKRIT

Har qanday sharoitda ham ruhingni tetik tut.

L. N. TOLSTOY

Baxtsizlikdagi osoyishtalik a'lo nav dorivordir.

PLAVT

Vaziyatga moslashish va tashqi dahshatlarga qaramasdan osoyishtalikni saqlash eng yuksak insoniy donishmandlikdir.

D. DEFO

Hech qachon azob chekmagan odam emas, balki umidsizlikni boshidan kechirgan va uni yenggan kishi optimistdir.

A. N. SKRYABIN

Vaziyat qanchalik qiyin va og'ir bo'lsa, qat'iylik, faoliyat, jur'at shunchalik zarurligi va hafsalasizlik esa shu qadar zararligini esda tut.

L. N. TOLSTOY

Qanday qiyin sharoitda yashashingizga to'g'ri kelmasin, tushkunlikka berilmang, zero o'z kuchingizga ishoich va boshqalar uchun yashash ishtiyoqi juda katta kuchdir.

F. E. DZERJINSKIY

Hech qachon tasavvuringdagi darajada baxtsiz bo'lmaysan.

B. PRUS

Durustroq izlasang, har bir holatda ham quvonchli nimadir topiladi.

D. DEFO

Bugungi kuning musibatli bo'lsa, bundan ham og'ir paytlar yuz bergani, ular ham o'tib ketganini o'ylab, ovunishing kerak.

N. M. KARAMZIN

Hech tuganmas baxtsizlik bo'lmaydi, qayg'u-g'amning umidga nisbatan vahimasi ko'proq.

L. NOVKNARG

Umidsizlik bizning eng katta xatolarimizdan biridir.

V. VOVENARG

Har qanday baxtsizlik ham har doim bo'rttirilgan bo'ladi. Uni hamisha yengish mumkin.

A. S. MAKARENKO

Baxtsizlikdan qutulish uchun har doim taqdir darcha qoldiradi.

M. SERVANTES

Og'ir baxtsizlik uzoq cho'zilmaydi, maydalari esa e'tibor berishga arzimaydi.

J. LEBBOK

Baxtsizlik ta'siriga berilma, biroq unga qarshi ikki baravar mardlik bilan peshvoz chiq.

VERGILIY

Har qanday tumanda ham yo'l topsa bo'ladi. Eng muhimi bo'sh kelmaslik va olg'a yurishdir.

R. ROLLAN

Diling kuymasin noumidlik bilan,

Yorug' kun tug'lgay qaro kechadan.

SA'DIY

Kishi o'zining ayanchli ahvolidan qutulishni jon dilidan istar ekan, bunday istak natijasiz qolishi mumkin emas.

PETRARKA

Bizni baxtsizlik va ko'ngilsizliklardan asrashga, qodir barcha vositalar, agar ular halol bo'lsa, faqat joizgina emas, balki har qanday maqtovga ham sazovordir.

M. MONTEN

Baxtli daqiqada haddan tashqari katta ketmaslik, falokatda esa ishonchni yo'qotmaslik lozim.

KLEOVUL

Falokatga nisbatan har qanday qarshilik ham baxtsizlikdan qutqaravermaydi, biroq har qanday baxtsizlik qarshilik ko'rsatmay irodani yo'qotishdan boshlanadi.

L. M. LEONOV

Achchiq ko'z yoshlari tommaganda hayot qadahi ko'ngilni aynitar darajada chuchmal bo'lardi.

PIFAGOR

Hayot qimorida hammavaqt oshig'i olchi kelaveradigan odam yo'q.

B. PRUS

Har bir kulfatning nimadir davosi ham bor. Puling oz bo'lsa — tashvishing kam. Omading uncha yurishmasa — hasad qiluvchilar ham kam. Hatto yuragimizga qil sig'maydigan paytlarda xam biz ko'ngilsizlikning o'zidan emas, balki tasavvurimizdagi ko'ngilsizlikdan ezilamiz.

SENEKA

Hayot juda og'ir bo'lganda ham yashay bil. Uni foydali qil!

N. OSTROVSKIY

Bardosh bering va kelajak davrlar uchun ham kuchli bo'lib qoling.

VERGILIY

Tanadagi yara kabi qalbdagi yara ham hayot kuchi bilan ichdan tuzaladi.

L. N. TOLSTOY

Baxtsizlik ham qo'rqqoqa o'xshaydi: u qo'rqib qaltirayotganlar ketidan quvadi, o'ziga qarshi dadil kelayotganlardan esa qochadi.

A. JYUVE

Azob chekmaslik insonga xos emas, azobga chidamaslik esa er kishiga yarashmaydi.

SENEKA

Dunyoda hech kim baxtsizlikka mardona bardosh beradigan kishidek hurmatga sazovor bo'lolmaydi.

SENEKA

Nodonlar baxtsizlikka itoat qiladilar va bo'sunadilar, aqli rasolar esa undan ustun turadilar.

U. IRVING

Eng shafqatsiz to'siqlarni yengib o'tishga jon-jahdi bilan intilish insonni inson qilib turuvchi oliy fazilatdir.

L. BETHOVEN

Buyuk qalb egalari azob-uqubatga botinan bardosh beradilar.

F. SHILLER

Mayda xafagarchiliklar til dagina zohir, chuqur qayg'u esa sukutlidir.

SENEKA

Nomusli kishigina astoydil qayg'u chekadi.

F. GEBBEL

Mard odam nola qilmay dildan azob chekadi, ojiz kimsa esa azob chekmay turib nola qiladi.

P. BUAST

Kulfatga bardosh berolmaydigan odam baxtsizdir.

BIANT

Haddan tashqari ezilib ta'sirlanish haqiqiy baxtsizlikdir.

K. VEBER

Inson o'zi haqida qanchalik kam o'ylasa, u shunchalik baxtliroqdir.

L. BERNE

Odamlar maqtaydigan narsalari bo'lmasa, o'z baxtsizliklari bilan maqtanadilar.

A. GRAF

Boshiga musibat tushgan odamga siz har doim kam qayg'urayotgandek tuyulaverasiz.

S. JONSON

O'zgartirolmaydigan narsangga o'zingni yerga urmay bardosh ber.

SENEKA

Yuz berishi muqarrar bo'lgan narsadan qo'rqib yig'lash bolalikdir.

V. SHEKSPIR

Yo'qotilgan va buning ustiga bir umr yo'qotilgan narsa to'g'risida qayg'urish befoydadir.

V. SHEKSPIR

Kulfatga tushganda faqat bitta yo'l —

G'amni hech o'ylama, tetik, bardam bo'l.

V. SHEKSPIR

Qutulish mumkin bo'lmagan narsaga bardosh bera bilish kerak.

M. MONTEN

Biz baxt deb ataydigan narsaga ham, baxtsizlik deb ataydigan narsaga ham, ularning har ikkalasiga sinov deb qaraydigan bo'lsak, biz uchun foydalidir.

L. N. TOLSTOY

Baxtsizlikka bardosh berish haddan tashqari omadlilikka bardosh berishchalik qiyin emas: baxtsizlikka bardosh berish sizni chiniqtiradi, keyingisi esa bo'shashtiradi.

S. SEGUR

Omadyorlik qusurimizni, baxtsizlik esa fazilatlarimizni ochib tashlaydi.

F. BEKON

Taqdir senga g'animlik qilgandagiga qaraganda u senga kulib boqqanda o'zingni tuta bilishing ancha mushkulroqdir.

F. LAROSHFUKO

Kuchli hayotiy larzalar mayda vahimalar jarohatini davolaydi.

O. BALZAK

Mayda kulfatlar g'azabimizni qo'zg'aydi, kattalari esa aqlimizni joyiga keltiradi. Darz ketgan qo'ng'iroqdan so'niq tovush chiqadi: uni ikkiga bo'lsangiz — yana tiniq ovoz beradi.

JAN POL

Baxtsizliklar g'oyat katta foyda keltiradi, ular qalbni yuksaltiradi, o'z ko'zimiz oldida o'zimizni baland ko'taradi.

A. I. GERTSEN

Baxtsizlik insonni boyitmasa ham unga donolik bag'ishlaydi.

J. REY

Baxtsizlik kishini yumshatadi: o'shanda uning tabiati sezgir va oddiy bo'ladi va odatiy, kundalik holatda turgan, inson tasavvuriga sig'maydigan narsalarni tushunadigan bo'lib qoladi.

N. V. GOGOL

Kitoblardan olinmaydigan donishmandlikni azob-uqubat va g'am-g'ussadan zarralab yig'ib olish bizning qismatimizdir.

N. V. GOGOL

Muhtojlik damlarini unut, lekin ular o'rgatgan saboqni esdan chiqarma.

S. GESNER

Hayot qiyinchiliklarida toblangan odam baxtli va uch karra baxtlidir.

J. FABR

## O'zni tuta bilish to'g'risida

Hamma g'alabalar o'z ustingdan qozonilgan g'alabadan boshlanadi.

L. M. LEONOV

Haqiqiy buyuklik o'zni tuta bilishdan iborat.

F. LAFONTEN

O'zni tuta bilish hayotdagi eng oliy ne'matlarning biridir.

J. PRENTIS

O'zingizni tuta bilar ekansiz, hukmingiz ham buyuk bo'ladi.

SENEKA

Faqat dushmanlarni yenggan kishi mard bo'lmasdan, o'z hissiyotlaridan ustun kelgan kishi ham marddir.

DEMOKRIT

O'z ruhini bo'ysundirgan kishi shaharlarni zabt etgan kishidan ham kuchliroqdir.

E. XEMINGUEY

Hayotdagi eng birinchi va eng asosiy fazilat o'zni tutishga harakat qilishdir.

V. GUMBOLT

Qalbning qudratli ustivorligi mislsiz in'omdir. U bor ekan, hayotda hech narsa qo'rqinchli emas.

ARXILOX

O'zini yenga bilgan kishidan ko'ra kuchliroq g'olib yo'q.

G. BICHER

O'zini mardona yenga olish — men uchun har doim ongli inson faxrlansa arziydigan eng buyuk yutuqlardan biridek tuyulib keladi.

P. BOMARSHE

O'zini tuta biladigan kishigina erkindir.

F. SHILLER

Mardlik bilak kuchida va shamshir o'ynatish san'atida emas, mardlik o'zni tuta bilishda va adolatli bo'lishdadir.

SA'DIY

Inson o'ziga-o'zi bo'ysunishni va o'z qarorlariga itoat qilishni o'rganmog'i kerak.

SITSERON

## Xulq madaniyati haqida

Barcha fazilatlar singari o'zni tuta bilish ham mashq orqali rivojlanadi. Kimki katta yoshga yetganda o'z ehtiroslarini boshqarishni xohlar ekan, bunga u yoshligidan o'rganmog'i lozim.

G. SPENSER

Qiziqqon odam har doim ham badfe'l bo'lavermaydi. Biroq odam qanchalik shiddatli va toz bo'lsa, u o'zini tutish ko'nikmasiga ham ko'proq ega bo'lishi kerak.

N. V. SHELGUNOV

Insonning tushunmay va o'zini tuta bilmay qolgan payti uning eng yomon holatidir.

M. MONTEN

Ehtiyotkor va sovuqqon bo'ling. Sovuqqonlik otashyuraklik singari zarurdir.

J. LEBBOK

Kurash bor ekan, o'z ustingdan g'alaba qilishing mumkin va u haqiqiy g'alabadir; ruhning kamolati ham jism kamolatidek mashaqqatli.

A. I. GERTSEN

Uyurda kuchli fillar ko'p bo'lishiga qaramay, agar ular esankirab qolishsa, echki suruvidan farq qilmay qoladilar.

B. MUKERJI

Tajanglik va qaysarlikni kuchlilik belgisi, deb hisoblaydiganlar katta xato qiladilar. Jazavaga tushgan odamni hatto olti kishi zo'rg'a ushlab tursa ham, bari bir u kuchsizdir.

T. KARLEYL

Aksari tinch oqar daryolar sershovqin shalolalardan boshlangani bilan, biroq ularning hech biri to dengizgacha o'ynoqlab, ko'pirib borolmaydi. Bu sokinlik ko'z ilg'amas buyuk kuch belgisidir; hissiyotlar va fikrlar toshqinligi, teranli-gi ham ortiqcha shiddatni taqozo etmaydi.

M. Yu. LERMONTOV

Insonning haqiqiy kuchi uning shiddatida emas, balki sobit osoyishtaligidadir.

L. N. TOLSTOY

Insonning imkoni boricha vaziyatni o'zi ko'proq baholab, iloji boricha vaziyatga o'zi tobe bo'lmasligi, so'zsiz, uning eng buyuk xizmati bo'lib qolaveradi.

I. GYOTE

## Xulq-atvor to'g'risida

Madaniyat to'g'risidagi tushuncha nihoyatda keng — u yuz yuvishdan tortib, inson tafakkurining eng yuksak cho'qqilarigacha boradi.

M.I. KALININ

Inson o'z ishlarining in'ikosidir.

F. SHILLER

Inson o'zining qator xulq-atvoridan boshqa narsa emas.

G. GEGEL

Inson — xulq-atvor jarayonidir.

A. GRAMSHI

Aqli ravshan, axloqiy pok va jisman ozoda bo'lish kerak.

A. P. CHEXOV

Ynsonda hamma narsa: yuz ham, kiyim ham, qalb ham, fikr ham go'zal bo'lishi lozim.

A.P. CHEXOV

Xulq — har kim o'z qiyofasini ko'rsatadigai ko'zgudir.

I. GYOTE

Dunyo — bir ko'zgu, u har kimning qiyofasini aks ettirib beradi.

U. TEKKEREY

Faqat qilingan ishlarga qarab biz ichki kechinmalar, o'y-xayollar, faoliyat va boshqa his-tuyg'ular to'g'risida fikr yuritamiz.

K. GELVETSIY

Jamiyat kishilarning fazilatini faqat ularning xulq-atvoriga qarab belgilaydi.

K. GELVETSIY

Har qanday odob o'zining ichki negiziga ega.

I. GYOTE

Kishilar jiddiy ishlarda o'zlarini yaxshi ko'rsatishga urinadilar; mayda ishlarda esa qiyofalarini namoyon etadilar.

N. SHAMFOR

Odamlar g'oyalar bilan emas, xulq-atvor bilan yashaydilar.

A. FRANS

Dono kishilarning xulq-atvori — aqldan, o'rtamiyona odamlarniki — tajribadan, o'ta nodonlarniki — noilojlikdan, jonivorlarniki esa — tabiatdan yuzaga keladi.

SITSERON

Odamlarning xulq-atvori kitobdagi izohlar singari ularning eng muhim fazilatlarini belgilab beradi.



D. TOMAS

Ahmoqona xatti-harakatlar pastkashlik, xavf-xatarsiz qilingan ezguliklar esa oddiy bir holdir. Hayotini xavf ostida qoldirsa ham ulkan va ulug' ishlarni qilgan odamgina yaxshi odamdir.  
PLUTARX

Faqat aqli va qalbi toza kishigina to'la ma'nodagi yaxshi va ishonchli odamdir.  
K. D. USHINSKIY

Kishilar qusur va fazilatlarimiz xulq-atvorimizdan bilinib turadi, deb o'ylaydilar-u, ammo o'sha qusur va fazilatlar har bir daqiqada o'zini sezdirib turishini esa payqamaydilar.  
R. EMERSON

Eng kichik, eng arziyas, eng sezilmas ishimizda ham bizning butun xarakterimiz ko'rinadi; ahmoqning kirib-chiqishi ham, o'tirib-turishi ham, sukut saqlashi ham, faoliyati ham aqli kishinikiga o'xshamaydi.  
J. LABRUYER

Ko'ylak belni ixchamlashtirib turganidek xatti-harakat ham axloqni oshkor qiladi.  
F. BEKON

Odob — jamiyat qonunlari ichida eng ahamiyatlisi va eng hurmatga sazovoridir.  
F. LAROSHFUKO

Faqat san'atdagina emas, insonning barcha ishlarida ham nafosat talab etiladi.  
ERAZM ROTTERDAMSKIY

O'zingni odob qoidalariga rioya qilishdan xoli tutishing nuqsonlaringni erkin namoyon etishing uchun vosita izlayotganing bo'lmasin tag'in?  
Sh. MONTESKYE

Bebosh xulq-atvor doimo bebosh printsiplarga olib keladi.  
S. SMAYLS

Sotsial buzqlik o'zi rivojlanayotgan sotsial muhitdan rang oladi.  
O. BALZAK

Nimaiki yaxshi bo'lsa hurmatga sazovordir, hurmatga sazovor narsa har doim yaxshidir.  
SITSERON

Xayrli ishlarning yana bir afzalligi shundaki, u qalbni yuksaltiradi va uni yanada ezgu ishlarga moyil qilib qo'yadi.  
J. J. RUSSO

Yaxshi xulqlar mayda fidoyiliklardan tashkil topgan.  
R. EMERSON

Yaxshi ishda doimo saxovat haj, o'sha ishni qilishga kuch ham yetarli bo'ladi.  
Sh. MONTESKYE

Doimo biror ish qilishni juda istagan paytingda to'xtab, istayotgan ishing yaxshi-yomonligini o'ylab ko'r.

L. N. TOLSTOY

Ishni o'ylab ko'rguncha ikkilan, o'ylab ko'rgach, dadil bo'l.

L. N. TOLSTOY

Sening har bir xulq-atvoring boshqa kishilarga ta'sir etadi; yoningda inson borligini unutma.

V. A. SUXOMLINSKIY

Xatti-harakatlar — fikrlar mevasidir. Fikr teran bo'lsa — ishlar ham yaxshi ko'chadi.

B. GRASIAN

Yaxshi o'ylasang, fikrlar pishib ezgulikka aylanadi.

L. N. TOLSTOY

Qilish lozim bo'lmagan ishni xayolingda ham qilma.

EPIKTET

Kishi biror xushaxloq ish qilib qo'ygani bilan himmatli bo'lib qolmaydi; uning shu xush-axloqi xarakterining doimiy belgisiga aylangandagina u himmatlidir.

G. GEGEL

Fazilatlilik shundaki, yaramas niyatlardan voz kechish emas, balki ulardan mutlaqo holi bo'lish kerak.

B. SHOU

Aql nuri bilan yoritilmagan ezguliklar ham zarar keltirishi mumkin.

O. BALZAK

Inson farishta ham, hayvon ham emas, uning baxtsizligi shundaki, u farishta bo'lishga qancha ko'p urinsa, shuncha ko'p hayvonga aylana boradi.

B. PASKAL

Inson o'z himmatini haddan tashqari oshirib yuborsa ham uni nuqsonlar qurshab ola boshlaydi.

B. PASKAL

Har qanday ezgulik oshirib yuborilgan hamono illatga aylanadi.

F. KOLLER

Har qanday oshirib yuborish cheklanganlik egizagidir.

V. G. BELINSKIY

...Har qanday oshirib yuborishlar nomaqbuldir; har qanday yaxshilik va foydali narsa ham oshirib yuborilsa, ma'lum chegaradan o'tgach, yomonlik va ziyonga aylanishi mumkin va albatta aylanadi.

V.I. LENIN

Insondagi nuqsonlar xuddi uning afzalliklari davomiga o'xshaydi. Ammo agar fazilatlar keragidan ortiq davom etsa, keraksiz vaqtda va keraksiz joyda ko'zga tashlansa ular nuqsondir.

V. I. LENIN

Har bir kishida va uning yurish-turishida har doim o'zingni ko'rishing mumkin.

L. N. TOLSTOY

Boshqalarning xulq-atvorini muhokama qilayotib, o'z xulqingni esla.

L. N. TOLSTOY

Boshqa odamlarda xush ko'rmagan odatlardan o'zing ham ehtiyot bo'l.

KATTA KATON

Uxlamoqchi bo'lganingda kun bo'yi qilgan barcha ishlaringni bir aniqlab olmaguncha ko'zingni yumma.

PIFAGOR

Qo'rqib emas, burch tuyg'u haqqi bema'ni ishlardan tiyilish lozim.

DEMOKRIT

Ezgulikda yashashimiz uchun biz doimo o'z-o'zimiz bilan kurash olib bormog'imiz kerak.

J. J. RUSSO

Begunoh bo'lish — aybsiz bo'lish degan so'z, marhamatli bo'lish esa yaramas tuygularing va niyatlaringni yengib o'tishing demakdir.

U. PENN

Himmat — nuqsondan o'zingni tiyishing emas, unga intilmasligingdir.

B. SHOU

Yaxshilikning foydasi shu qadar ravshanki, hatto yaramas odamlar ham naf ko'rib qolishni ko'zlab yaxshilik qiladilar.

L. VOVENARG

Axloqiy nopokliging o'zingga-o'zing nafrat bilan qara-shing belgisidir.

APULEY

Yaxshilar ketidan agar choparsan,  
Istaging baxtingni shunda toparsan.

SA'DIY

Yaxshiga yaxshi bo'l, yomonga yomon,  
Gulga gul bo'lginu tikanga tikan.

SA 'DIY

Iflos pashsha butun devorni bulg'ashi, arzimas iflos qiliq esa butun ishni buzishi mumkin.

A. P. CHEXOV

To'kilgan obro' singan guldonga o'xshaydi — uni chegalash mumkin, biroq darz joylar doimo ko'rinib turadi.

B. SHOU

Ko'p yaxshiliklarni yo'qqa chiqarish uchun ozgina nuqson yetarlidir.

PLUTARX

Bema'ni ishning zarari shundaki, u o'z ichida yangi qabihliklar urug'ini yashirgan bo'ladi.

F. SHILLER

«Hamma shunday qiladi-ku» degan so'zlar bilan yo'ldan ozdirish og'ir kulfatlarni boshga soladigan eng oddiy soxtagarchilikdir.

L. I. TOLSTOY

O'zgalarning yaramas ishlarini pesh qilish mag'zavada yuvinishdir.

J. PETI-SAN

Aqlli odam o'zgalari aybini ko'rib, o'z kamchiligini yo'qotadi.

PUBLILIY SIR

Sening qandaydir noto'g'ri ishlaringni hech kim bilmasligini istasang, bunday ishlarni hech qachon qilma.

R. EMERSON

Be'mani ish uni qilgan paytda emas, balki oradan vaqt o'tgach, uni eslaganimizda bizg'a azob beradi, chunki uning jarohati ketmaydi.

J. J. RUSSO

Bizni hech narsa nuqsonlarimizdek kishanlay olmaydi.

O. BALZAK

Aybi ko'p kishining hokimi ham ko'p.

F. PETRARKA

Har qanday bo'lmag'ur ishning aybdor yelkasiga tushiradigan qamchisi bor.

V.O. KLUCHEVSKIY

Adolatsiz ishning oldini olish lozim. Agar bunday qila olmasak, loqal adolatsiz ishga yordam bermasligimiz kerak.

DEMOKRIT

## Qadr-qimmat to'g'risida

Avvalo o'zingni hurmat qila bil!

PIFAGOR

Boshqalar huzurida ham, pinhona tarzda ham isnod keltiradigan ish qilma. O'zingga nisbatan hurmat birinchi darajali qonuning bo'lmog'i kerak.

PIFAGOR

Inson o'zini hurmat qilishi lozim.

M. GORKIY

O'z qadr-qimmatini bilmasdan turib, ma'naviy boylikka yetishishni tasavvur qilish qiyin.

V. A. SUXOMLINSKIY

O'z-o'zini hurmat qilmasdan turib, axloqiy poklik va shaxsning ma'naviy boyligi kamol topmaydi. O'zini izzatlash, or-nomus, g'urur, o'z qadr-qimmatini

ni bilish tuyg'usi — tuyg'ularni yanada nafis qilib charxlaydigan sayqaltoshdir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Izzatlablik o'z holicha ehtimol nuqsonidir, biroq u ko'p hollarda qadr-qimmat manbaidir.

KVINTILIAN

Nafsoniyati yo'q kishi nochor odamdir. Nafsoniyat bamisoli yerni joyidan siljitish mumkin bo'lgan Arximed dastagidir.

I. S. TURGENEV

Shaxsiyatparastlik o'z-o'zini nobud etishdir. Shaxsiyatparast odam tikkaygan mevasiz daraxtday qurib boradi, biroq izzat-nafs mukammallik sari faol intilishda qudratli kuch manbaidir.

I. S. TURGENEV

O'zidan xotirjamlik ajib bir narsaki, zero bu o'z qobi-liyati nimalarga qodirligini biladigan kishi fazilatidir.

T. GOBBS

O'z kuchingni his etishing kuchingga kuch qo'shadi.

L. VOVENARG

Har bir odam o'ziga qanday baho qo'ysa, uning qimmatini o'shanga to'g'ri keladi.

F. RABLE

Inson o'z kuchiga ishongan joydagina biror narsaga erisha oladi.

L. FEYERBAX

O'z-o'zingga ishonch buyuk ishlarning eng birinchi zarur shartidir.

S. JONSON

Ishonch — eng qudratli ijodiy kuch.

M. GORKIY

O'ziga ishongan odamning qo'lidan ko'p narsa keladi.

A. GUMBOLT

O'zishta ishonmay turib, daho bo'lishing mumkin emas.

O. BALZAK

Eng dahshatli ishonchsizlik o'z-o'zingga ishonmaslikdir.

T. KARLEYL

Aksari muvaffaqiyatsizliklarimizning sababi o'zimizga ishonmasligimizdir.

K. BOUVI

Aql o'ziga ishonmasligi aqlni hayron qoldiradi.

B. PASKAL

Shubha — xoin: u bizni urinib ko'rishdan qo'rqitib, erishishimiz mumkin bo'lgan yaxshi narsalardan ko'n hollarda mahrum etadi.

V. SHEKSPIR

O'zimizga bo'lgan ishonchimiz o'zgalarga ishonchimizning` asosini tashkil etadi.

F. LAROSHFUKO

Samoviy olam bilan kishining ichki dunyosi o'rtasidagi tafovut kuchayib ketgan taqdirda biz o'ylab ko'rishimiz va o'z-o'zimizdan: ayrim narsalar hatto o'zingga iqror bo'lishdan uyalsang, qanday odamsan? — deb so'rashimiz lozim.

N. A. OSTROVSKIY

Kishilar o'zgalarning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilmasalar, insonparvarlik tuyg'usi haqoratlanadi, odam o'z qadriga yetmasa, insonparvarlik tuyg'usi yana battarroq haqoratlanadi va aziyat chekadi.

V. G. BELINSKIY

Bezbet maqtanchoq jirkanchlidir, biroq biror kuchga inonmaydigan, biror fazilatga ega bo'lmagan kishi jirkanchlikda undan qolishmaydi.

V. G. BELINSKIY

O'z qadr-qimmatini anglash aqlli odamni yanada kamtarin, shuning bilan birga yanada ustivor qiladi.

F. CHESTERFILD

O'z-o'zidan nafratlanish hech qachon tinchlik bermay bir umrga yurakni ezib, hayotimizdagi har qanday quvonchni zaharlab, qalbni insonga nafrat va umidsizlik og'usi bilan to'ldiruvchi ilondir.

K. MARKS

O'zini hurmat qilgan odam boshqalarni ham izzat-ehtiroimga o'rgatadi.

L. VOVENARG

O'zini arzimagan narsa uchun ulug'laydigan kishi boshqalarni sira hurmat qilolmaydi, har ikkala holda ham u qabih fikrlarini namoyon etadi.

N. I. NOVIKOV

Asli qiyofangni ko'rsatishdan qo'rqishing, demak, o'zingdan nafratlanishingni bildiradi. Moslashib olish va pinhon tutish san'ati ko'p hollarda o'z kamchiliklarini indamay turib tan olishdan boshqa narsa emas.

J. MASSIYON

Nafsoniyatdan ko'ra o'zini hurmat qila olmaslik ko'proq tanbehga loyiq.

V. SHEKSPIR

O'zini hurmat qilish hech qachon o'zini kamsitishdek tubanlikka aylanmaydi.

V. SHEKSPIR

O'zingni o'z qobiliyatingdan ustun qo'yishing ham, o'zingni kamsitishing ham yaramaydi.

I. GYOTE

O'z fazilatlarini o'zi gapirgan odam kulgiga loyiqdir, ularni anglamagan esa — tentak.

F. CHESTERFILD

O'zini yetarli hurmat qilmaslikdan ham o'ziga bino qo'ygandagidek nuqsonlar kelib chiqadi.

M. MONTEN

Seni hurmat qilishlarini istasang, o'zingni hurmat qil.

B. GRASIAN

O'zini hurmat qilmagan odamni boshqalar ham izzatlamasligi aniq.

N. M. KARAMZIN

O'zini hurmat qilmagan hech bir kishi baxtli bo'la olmaydi.

J. J. RUSSO

Hamma ham o'zini-o'zi sevish huquqiga ega emasmi? Nahotki, ishtiyoq bilan qilgan ishimiz noo'rin bo'lib tuyulsa?

L. VOVENARG

Sen haqingda qanday fikrda bo'lishlaridan qat'i nazar, o'zing to'g'ri deb bilgan ishingni qil. Tanbehga ham, maqtovg'a ham birdek beparvo bo'l.

PIFAGOR

O'zligicha qola bilgan odam baxtlidir.

F. GAGEDORN

Odamlar nima desa deyaversinlar, o'z yo'lingdan qolma.

A. DANTE

O'z qiyofasini yo'qotmaslikka harakat qilish muvaffaqiyat qozonishning yagona vositasidir.

STENDAL

Seni kim deb hisoblashlari emas, aslida kimliging muhimdir.

PUBLILIY SIR

Yaxshi nom qoldirishdan o'tadigani yo'q, bu nomni esa hech narsa qadr-qimmatchalik mustahkam qilib yaratmaydi.

L. VOVENARG

Odam pulsiz, uysiz, yer-mulksiz qolsa sadqayi sar — bularning hammasi unga tegigali emas. Insonning o'z haqiqiy mulki — insoniy qadr-qimmatini yo'qotishi achinarlidir.

EPIKTET

Qadr-qimmat insonni eng yuksaklikka ko'taradi, uning faoliyatiga, butun intilishlariga olijanoblik bag'ishlaydi.

K. MARKS

Yaxshi fazilatlarga ega bo'la turib, jamiyatda yuksak mavqega orishmaslik mumkin, biroq jilla qursa qandaydir fazilatga ega bo'lmay turib, bunday mav-qega erishish mumkin emas.

F. LAROSHFUKO

Nuqsonsiz odam emas, balki fazilatli odam hurmatlidir.

V. O. KLUCHEVSKIY

Haqiqiy fazilat daryoga o'xshaydi, qanchalik chuqur bo'lsa, shunchalik sokin oqadi.

M. MONTEN

Insonning fazilati favqulodda jasoratlar bilan emas, balki uning kundalik ishlari bilan o'lchanadi.

B. PASKAL

Insonning haqiqiy qadr-qimmatini shundaki, hatto uni hasadchilar ham maqtashga majbur bo'ladilar.

F. LAROSHFUKO

Erkak kishining shani xususan shundan iboratki, u tekinxo'r, haromtomoq bo'lmasligi kerak.

V. A. SUXOMLINSKIY

Insonning qadr-qimmatini to'g'risida uning yaxshi fazilatlariga qarab emas, balki uning shu fazilatlaridan qanday foydalanishiga qarab fikr yuritish lozim.

F. LAROSHFUKO

Buyuk fazilatlarga ega bo'lish yetarli emas, ulardan foydalana bilish ham kerak.

F. LAROSHFUKO

Shuichaki yaxshi bo'lmay, nimadir yaxshilik qiling.

G. TORO



## Suhbatlashish mahorati xususida

Birdan-bir haqiqiy ne'mat odamlarning bir-biri bilan muloqotidir.

A. SENT-EKZYUPERI

Gapirisha bilish talantdir.

STENDAL

Suhbat — bahamjihat quriladigan bino.

A. MORUA

Bir soatlik suhbat ellikta maktubdan afzal.

M. SEVINE

Bahslashish ko'plarning qo'lidan keladi, oddiygina suhbatlashishni esa kamdankam kishi uddalaydi.

A. OLKOTT

Kishilar fahmlari yetmaganlikdan emas, ortiqcha g'ururlari tufayli qaysarlik qilib, eng sog'lom fikrlar bilan ham kelishmaydilar: qarasarlar, to'g'ri ish oldingi safni egallab qo'ygan bo'ladi, oxirgi o'rinda bo'lishni esa ular istashmaydi.

F. LAROSHFUKO

Insonlik bahsda va safarda bilinadi.

J. GERBERT

Odamni aralashib yurgan davrasiga qarab bilish mumkin bo'lganidek, uning tiliga qarab ham shaxsiyati to'g'risida fikr bildirsa bo'ladi.

J. SVIFT

Odamning so'zidan faqat uning qanday ko'rinish niyatidaligini bilish mumkin, aslida uning qandayligini so'zlarini ifodalashdagi imo-ishoralardan, yuz bujmaytirishlaridan, binobarin, uning og'rinib qilgan harakatlaridan ham bilib olish mumkin.

F. SHILLER

Odamlar bilan ularning aqliga monand gaplash.

SA'DIY

Dono bilan so'zlashganda kam gap bo'l.

KATTA KATON

Aqlli kishining ishorasi ham kifoya.

TERENSIY

Oliy maqsad sari yetaklamaydigan mukammallikka hech qachon hojat ham yo'q.

P. A. PAVLENKO

Nozik his qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishiga butun tafsilotni aytib berishga urinish zerikarli va haqoratli ta'sir etadi.

R. LUKSEMBURG

Hech kimga soʻz bermay suhbat mavzuini ulab ketaverish shaxsiyatparastlikning eng joʻn koʻrinishidir, uning qoralanishi toʻgʻri.

G. SPENSER

Oʻz vaqtida fikr bildirish katta sanʼat talab qilganidek, oʻz vaqtida sukut saqlash ham hazilakam mahorat emas.

F. LAROSHFUKO

Koʻp gapirish bilan koʻp fikr aytish boshqa-boshqa narsa.

SOFOKL

Jiddiy narsalar toʻgʻrisida oddiy gapirish kerak: bu oʻrinda balanparvozlilik bemavrid; arziyas narsalar toʻgʻrisida gapirganda esa faqat yaxshi ohang, usul va fikrgina ularga mazmun bagʻishlashini esda tutmoq lozim.

J. LABRUYER

Yaxshi bilmaydigan narsalarni koʻp hollarda butunlay tushunarsiz soʻzlar bilan tushuntirishga harakat qiladilar.

G. FLOBER

Koʻpchilik oʻzlarini oʻylatmaydigan allaqancha lugʻatga egadirlar; bu lugʻat kam maʼno anglatadigan va shuning uchun ham istagan narsaga qoʻllasa boʻlaveradigan soʻzlardan tashkil topgan. Bu boʻsh shishalarga yonishtirilgan yorliqlardir.

G. LANSON

Suhbatni shunday olib borish kerakki, suhbatdoshlarning har biri undan naf olsin, bilimi yanada boyisin.

GERAKLIT

Bizga nimadir bilim beradigan soʻzlar, ayniqsa, hamma narsadan azizdir.

ARASTU

Yaxshi gapirish uchun yetarli aqlga, sukut saqlash uchun yetarli mulohazaga ega boʻlmaslik katta baxtsizlikdir: har qanday surbetlikning ildizi shunda.

J. LABRUYER

Oqillar nazdida gar oʻltirish odobdir,  
Maslahat tashlaganda soʻzga koʻrsatgil himmat.

Ikki narsa aqlga sigʻmaydi agar bilsang,  
Soʻzlash payti sukutu keraksiz joyda suhbat.

SAʼDIY

Hamma ishda va har qanday suhbatlarda sabr-qanoatli boʻling.

J. LEBBOK

Tilning aqldan oldinga ketishiga yoʻl qoʻyma.

XILON

Taassurotlar qanchalik tez va shiddat bilan aytib berilsa, ular shunchalik yuzaki va bir lahzali bo'lib chiqadi.

N. A. DOBROLYUBOV

Dbimo boshqalardan aqlliroq bo'lish istagidan ham ko'ra bema'ni ahmoqlik yo'q.

F. LAROSHFUKO

Suhbatni aql emas, o'zaro ishonch hamma narsadan ko'proq qizitadi.

F. LAROSHFUKO

Haddan tashqari ko'p gapiradigan odam hech kimga yoqmaydi, u go'yo o'z romanining qahramonini tasvirlagandek hamisha o'zi haqida o'zi gapiradi.

F. CHESTERFILD

Faqat ahmoq odam xiralik qiladi; aqlli odam o'zining davraga kerakligi yoki ortiqchaligini darhol payqaydi-yu, odamlarning joniga tegmayoq jo'nab qoladi.

J. LABRUYER

Ko'p o'ylaydigan odam iloji boricha kam so'z ishlatib, ko'proq fikr berishga intilib gapiradi.

U. IRVING

O'zi haqida uzundan-uzoq gapiradigan odam shuhratparastlikdan qochib qutulolmaydi.

D.YUM

G'alati gap bilan odamlarni hayratga solaman deganlarida tayinli bir iarsa aytolmaydilar.

L. VOVENARG

Suhbatni otangdan qolgan merosday bilib, undan boshqalarni bebahra qilish huquqiga egamas, deb o'ylama, aksincha, boshqa hamma sohada bo'lganidek, suhbatda ham har kim o'z navbatita ega bo'lishini nazarda tutmoq kerak.

SITSERON

Doim o'zing gapiraversang —hamisha haq bo'lib chiqasan.

O. BALZAK

O'zining ham gapirish navbati kelishini bilmaganda, hech istaganingda achchiqlanmaslik va birorta sovuq yoki ko'ngilni og'ritadigan so'z aytmaslik eng muhim masaladir.

EPIKTET

Har bir kishi oqilona o'ylash va gapirishga intilsin, biroq boshqalarni o'z didi va hissiyotlarining nuqsonsizligiga ishontirishga urinmasin: bu nihoyatda mushkul ish.

J. LABRUYER

O'z fikringni isbotlashda va agar xato bo'lsa boshqa fikrlarni inkor qilishda vazmin so'zlar va iboralarni ishlat.

F. CHESTERFILD

Ba'zi odamlar uchun gap — ranjitish vositasi: tillaridan nayza otib, achchiq iztehzoz qiladilar, so'zlari — xuddi zaharga qorishtirilgan erman sharbatiday; zaharxanda, tahqir, haqorat og'izlaridan so'lakday

oqib tushaveradi.

J. LABRUYER

Soʻz xulq-atvor demakdir.

L. N. TOLSTOY

Shaxsiy baxtga erishish uchun ish bilan birga soʻzga eʼtibor bering katta ahamiyatga ega.

N. V. SHELGUNOV

Biz bittagina soʻz bilan oʻzimizga va oʻzgalarga qanday zarar yetkaza olishimizni yetarli tasavvur qilmaymiz, bu zararni deyarli tuzatib boʻlmaydi.

F. LAMENNE

Bilginki, sening farosatsiz, sovuq, beparvo soʻzing xafa qilishi, dilni ogʻritishi, ranjitishi, iztirobga solishi, larzaga tushirishi, dovdiratib qoʻyishi mumkin.

V. A. SUXOMLINSKIY

Til uchiga kelib turgan ikkita soʻzdan doimo eng oddiysini tanlang.

P. VALERI

Yaxshi suhbatdosh boʻlishning faqat bitta usuli bor, bu tinglay bilishdir.

K. MORLI

Koʻp odamlar yaxshi gaplarni soʻylashi mumkin, biroq kamdan-kam odam tinglay biladi, chunki tinglash aql ishlatishni talab qiladi.

R. TAGOR

Tinglash aqlli odam koʻp hollarda ahmoqqa koʻrsatadigan muruvvatdir, lekin ahmoq hech qachon bunga muruvvat qaytarmaydi.

P. DEKURSEL

Gapirishni bilmasang, tinglashni oʻrgan.

POMPONIY

Tinglashni oʻrgan, ana shunda sen hatto yomon gapiradiganlardan ham naf olishing mumkin.

PLUTARX

Tinglashda birinchi, gapirishda esa oxirgi boʻl.

E. KAPIYEV

Tinglash sanʼati gapirish sanʼati bilan deyarli teppa-tengdir.

P. BUAST

Odam qanchalik kamgap boʻlsa, shuncha yutadi: kishilar uning aqlli ekani haqida oʻylay boshlaydilar, buning ustiga, asli oʻsha odam aqlli boʻlsa, hamma uning nihoyatda zukko odamligiga ishonch hosil qiladi.

J. LABRUYER

Muloyim xarakterni koʻp hollarda kuchli xarakter deb hisoblaganlari singari, kamgap odamni ham

ko'plar uzoq vaqtgacha aqlli odam sanab yuradilar.

L. BERNE

Suhbatda vazminlik va o'rinli gapirish gapga chechanlikdan yuqori turadi.

F. BEKON

Ul adabdurki, yaxshi va yamong'a va ulug va kichikka bajo keltirurlar. Andoqki, barcha haloyiqdan o'zlarin kichik va kamroq tutarlar va barchag'a xizmat huzurida bo'lurlar. Hattoki o'z farzandlariga, xodim va mamluklarig'aki, har necha alardan beqoidalig' ko'rsalar xushunat bila alarga so'z demaslar, balki nasihatni yumshog' va chuchuk til bila qilurlar.

A. NAVOIY

Kamgaplik va kamtarinlik suhbatda g'oyat foydali fazilatdir..

M. MONTEN

Odam kam gapirsa, aqlliroq ko'rinadi.

M. GORKIY

Tokim birorta so'z deguncha inson, Aybila hunari barchadan pinhon.

SA'DIY

Berilib ting'lash va yaxshi javob qaytarish suhbat paytida eng oliy mukamalliklardan biridir.

F. LAROSHFUKO

Eskirgan may ko'p ichishga yaramagani singari qo'pol muomala ham suhbatda ketmaydi.

PIFAGOR

Qanday so'z aytsang, javobiga ham o'shani eshitasan.

GOMER

Aqlli javob olmoqchi bo'lsang — aqlli savol ber.

I. GYOTE

Bema'ni savollar bermasangiz, men ham sizga yolg'on gapirmayman.

O. GOLDSMIT

O'rinsiz savol xunuk javobga sabab bo'ladi.

I. ENGELS

Yaxshi gapirish uchun insonda aql yetmasligi yoki indamaygina qo'ya qolish uchun idrok yetishmasligi musibatdir.

J. LABRUYER

Gapirish va harakat qilish vaqsh kelguncha jim turolmaydigan kishi chyt inson emas.

T. KARLEYL

Sukut saqlashni bilmaydigan odam boplab gapirolmaydi ham.

SENEKA

Sukut saqlashni bilmagan kimsa kamdan-kam yaxshi gapira oladi.

P. SHARRON

Aqlli bo'lishni istasang, mulohaza qilib so'rashni, diqqat bilan tinglashni, muloyim javob qaytarishni va boshqa aytadigan gaping bo'lmasa, indamas-likni o'rgan.

I. LAFATER

Indamasdan faqat ko'p narsa aytish emas, balki ko'p ish qilish ham mumkin.

E. KAPIYEV

Ba'zan sukut har qanday gapdan ham ma'noli bo'ladi.

Sh. MONTESKYE

Sukut beodoblik, qo'pollik yoki hasad yuzaga keltirgan har qanday kelishmovchilikka qarshi eng to'g'ri javobdir.

I. SIMMERMAN

Nafratli sukutdan ortiq xo'rlovchi javob bo'lmas.

M. MONTEN

Odamlar qanday so'zlashni o'rganadilar, asosiy gap esa — qanday va qachon sukut saqlay bilishda.

L. N. TOLSTOY

Sukut ba'zan goyat ajib va yoqimli so'zamollikka nisbatan ham serma'nolik va afzallik kasb etadi hamda juda ko'p hollarda yuksak donishlikdan dalolat beradi.

J. ADDISON

Sukut saqlash har doim ham aqllilikdan dalolat emas, biroq u har qalay ahmoq emaslikni isbotlaydi.

P. BAUST

Yaxshi so'zlovchi kishining sukut saqlashi uncha yomon ham gapirmayotgan odamning valaqlashidan ko'ra ko'proq hurmat uyg'otadi.

N. 1PAMFOR

Ma'lumki, ko'p hollarda g'oyaviy suhbat degani shundan iboratki, har xil kitobchalarning sarlavhalari yodaki beriladi.

G. SENKEVICH

Biz odatda, bilmagan narsamiz haqida ko'p gapiramiz. Chunki shu haqda o'ylaymiz. Aqlimizning ishi ham shu tomonga qaratilgan, hoynahoy, faqatgina ishga qaratilgan.

P. VALERI

Uzoq suhbatdan so'ng o'tgan gaplarni bir eslashga urinib ko'r, shunda gapirilganlarning aksariyat qismi behuda, keraksiz va ko'pincha ahmoqona bo'lganiga hayron qolasan.

L. N. TOLSTOY

Aytar so'zing bo'lmasa, sukut saqlaganing ma'qul.

V. G. BELINSKIY

Agar odamlar faqat bilgan narsalarini gapirganlarida qanchalar jimjitlik hukm surishini bir tasavvur

qilib ko`ring.

K. CHAPEK

O`zingga ayon narsanigina gapir, bo`lmasa sukut saqla.

L. N. TOLSTOY

Ahmoqona gapirgandan ko`ra, aql bilan indamay qo`ya qolgan  
ma`qul.

PUBLILiy SIR

Yo sukut saqla, yoki sukutdan tuzukroq biron narsa gapir.

PIFAGOR

Men bilgan narsam haqida gap sotish nodonlikdir.

M. PRISHVIN

Nodon uchun sukut saqlashdan yaxshisi yo`q; biroq u o`zi uchun nima yaxshiligini bilganda nodon  
bo`lmas edi.

SA`DIY

### **Boodoblik, xushmuomalalik, dag'allik haqida**

Insonparvar kishining yurish-turishidan ko'rinib turuvchi axloqiy odob mavjudki, bunday odob tajang odamda bo'lmaydi.

D. DIDRO

Biz o'zimizda boodoblik tuyg'usini rivojlantirmog'imiz kerak, aks holda, kishilar hurmatini qozonib olgach, uni tezda boy berib qo'yishimiz ham mumkin. Bu saboq kishiga nihoyatda qimmatga tushadi va afsuski, o'z avlodini ham bu og'ir qarzdan qutqarolmaydi.

I. GYOTE

Boodoblik yordamida hattoki kuch bilan erishish mumkin bo'lmagan g'alabaga ham erishish mumkin.

J. LEBBOK

Olijanob bo'lishning o'zi kifoya emas, boodoblik ham zarur.

A. AMIEL

Hayotda muvaffaqiyat qozonish uchun iste'dodlilikdan ko'ra kishilar bilan xushmuomalada bo'lish ko'proq muhimdir.

J. LEBBOK

Modomiki bir-ikki og'iz shirin so'z odamni baxtiyor etsa, shuni qizg'angan odam ablahdir.

T.PEN

Xushmuomalalik va kamtarlik kishining chinakam ma'rifatliligidan nishona.

O. BALZAK

Xushmuomalalikka haq to'lanmasa ham u ko'p naf keltiradi.

M. MONTEGYU

Tasviriy san'at asarlarini yaxshi ko'rinsin uchun bajonidil yorug' joyga qo'yamiz, odamlar bilan ham xuddi shunday xushmuomalada bo'lishimiz kerak.

R. EMERSON

Qo'pollikni hech qanday bahona oqlay olmaydi.

T. G. SHEVCHENKO

Kishilarning xushmuomala bo'lishlari uchun umrlari bermalol yetadi.

R. EMERSON

Hushmuomalani qizg'anma, mayli oshirib yubor.

M. SERVANTES

Hamma bilan xushmuomalada bo'l, ko'pchilikka inoqlash, faqat ayrimlar bilangina rasmiy muomala qil.

V. FRANKLIN

Barchaga iltifotli bo'lu, ammo takallufsizlik qilma.

V. SHEKSPIR



Kechirim soʻraganda ham haqorat qilgandagidek oshirib yubormang.

V. SHEKSPIR

Xushmuomalalik ham agar pisanda qilinsa, haqoratga aylanadi.

B. GRASIAN

Kimki yoqimtoy boʻlishni istasa, xuddi shu yoqimtoy boʻlishni istagani uchun ham doimo yoqimsiz koʻrinadi.

Ye. B. VAXTANGOV

Ortiqcha iltifot haddan tashqari bachkana koʻrinadi.

MARK TVEN

Beodoblik — alohida bir illat emas, balki kuruq manmanlik, burch tuygʻusining yoʻqligi, tanballik, bemaʼnilik, xayolparishonlik, dimogʻdorlik, xasad singari koʻpgipa illatlarning oqibatidir.

J. LABRUYER

Eng ogʻir haqorat sendan hech bir yomonlik koʻrmagan kishining haqoratidir.

ABUL FAROJ

Sizga munofiqlik qilishini sira kutmagan odamingizning xafa qilishiga ayniqsa chidash qiyin.

EZOP

Oshkora etilmaydigan tuygʻularimizdan biri ayniqsa nafratdir.

A. RIVAROL

Nafrat — razillikni, baʼzan aqli zaiflikni yashiruvchi niqobdir; nafrat saxovat, aql va odamlarni tushunish xislati yetishmasligining belgisidir.

A. DOBE

Koʻpincha jahлга nisbatan nafratni yashirgan yaxshiroq: xafagarchilik unutilishi mumkin, biroq nafrat esa hech qachon kechirilmaydi.

F. CHESTERFILD

Sharttakilik, dagʻallik, betga choparlik — shunday nuqsonlarki, hatto ulardan baʼzi oqil odamlar ham mustasno emas.

J. LABRUYER

Surbetlik ataylab qilingan xatti-harakat emas, balki xarakter nuqsonidir; tugʻma nuqsonidir.

J. LABRUYER

Aksari yoshlar oʻzlarini dagʻal va qoʻpol tuta turib, buni yana tabiiy hol deb biladilar.

F. LAROSHFUKO

Qoʻpollik oʻz qadr-qimmatini unutish demakdir.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Feʼl-atvorda moʻtadillik hamisha ezgulikdir.

T.PEN

Qo'pollik — ruhiy qashshoqlik.

M. EBNER-ESHENBAX

Qo'pollik ham bukrilik kabi mayiblikdir.

M. GORKIY

Beodoblik — johillik urug'i.

S. VATLER

Minnatdorchilik barcha yaxshiliklar ichida eng oddiy bo'lgani holda, ko'rnamaklik esa barcha illatlar ichidagi eng yomon illatdir.

T. FULLER

Ko'rnamak odamdan ham mudhishroq yana kim bo'lishi mumkin?

V. SHEKSPIR

Minnatdorchilik — eng katta yaxshiliklarning biri. Ammo minnatdorchilik talab qilishdagi me'yor esa undan ham katta yaxshilikdir.

F. GEBBEL

Kilgan har bir saxovating uchun minnatdorchilik talab etish savdolashish degan so'z.

A. DEKURSEL

Minnatdorchilik tashakkur bildirilayotgan kishining huquqi emas, balki minnatdorchilik aytayotgan odamning burchidir; minnatdorchilik talab qilish — ahmoqlik, minnatdor bo'lmaslik esa tubanlikdir.

V. O. KLUCHEVSKIY

Senga qilingan yaxshilikni unutma, lekin o'zing qilgan yaxshilikni unut.

PUBLILY SIR

Agar kishi o'zi yaxshi ko'rgan odamiga yaxshilik qilgan bo'lsa, keyin bu ishini har qanday sharoitda ham eslab yurmasligi kerak.

J. LABRUYER

Hammaga va har kimga gapirib yuriladigan yaxshilikni yaxshi ish deb bo'lmaydi.

D. MUKERJI

Agar kishi ba'zan his-tuyg'ularini jilovlay olmasa ham har qalay doimo tilini jilovlay olmog'i kerak.

P. BUAST

So'kinish odati kuchaygan sari beixtiyor yomon xatti-harakatlarga mayillik ham kuchaya boradi.

ARASTU

Agarda til har narsani valdirayversa, hamma o'zini noqulay sezadi.

J. J. RUSSO

Shirin so'zli shilgay dushmai po'stini, Dag'al so'zli dushman qilar do'stini.

## SA'DIY

Soʻz — shamol, haqoratli soʻz esa yelvizak kabi zararlidir.

V. SHEKSPIR

Yomon soʻz kuchli dalil boʻlolmaydi.

V. O. KLUCHEVSKIY

Kuchlilik soʻkinishga muhtoj emas.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Shovqin-suron hech nimani isbotlamaydi. Tuxum qoʻygan tovuq xuddi bir kichik sayyorani tuqqandek qaqillaydi.

MARK TVEN

Shovqin-suron uchun mayda odamlarni — nogʻorachilarni tanlaydilar.

G. LIXTENBERG

Kishini haqoratlash uchun koʻp vaqt kerakmas, lekin uning foydasi ham oz.

D. I. PISAREV

Oʻzgaga qilgan muruvvatingni doʻstga ham, dushmanga ham maqtama.

FIRDAVSIY

Yaxshilik qilgan emas, yaxshilik koʻrgan gapirsin.

SENEKA

Bergan minnat qilmasin, olgan — gapirsin.

M. SERVANTES

Agar xayrli ish qilsam-da, bu ishim hammaga ayon boʻlib qolsa, men bundan sevinmayman, oʻzimni jazolagandek his etaman.

N. SHAMFOR

Sen dunyoda koʻrnamak odamlar borligidan ranjib yuribsan. Vijdoningdan soʻrachi, senga yaxshilik qilgan odamlarning bari ham oʻzingdan roʻshnolik koʻrganmi.

SENEKA

Koʻrnamaklar taxmin qilganimizdan koʻra ancha oz, negaki, saxiylar ham oʻylaganimizga qaraganda ancha kam.

Sh. SENT-EVREMON

Bizdan nimadir yaxshilik koʻrgan odamimizni uchratsak, darhol uning minnatdorchilik bildirishini eslab qolamiz. Vaholanki, oʻzimiz minnatdorchilik bildirishimiz zarur boʻlgan kishilarni koʻrganimizda esa bu narsa xayolimizga ham kelmaydi.

I. GYOTE

Hammadan ham yaxshilikni tez unutadilar.

F. SHILLER

Deyarli hamma odamlar mayda-chuyda yaxshiliklarga shukrona bildiradilar, ko'pchilik esa uncha arzimaydigan yaxshiliklardan minnatdor bo'ladi, ammo hech haqiqiy yaxshilikning qadriga yetmaydi.  
F. LAROSHFUKO

Ko'rnamaklikning birinchi odimi — yaxshilik qilgan odamning niyatipi sinchiklashdir.  
P. BUAST

O'ylamay qilingan gunoh uchun so'kmaganlaridek, majbur bo'lib qilingan yaxshilik uchun ham maqtash kerak emas.  
YEVRIPID

Yaxshilikni darrov qaytaraman deyishning o'zi ham ko'rnamaklikdir.  
F. LAROSHFUKO

Yaxshilikka yarasha tashakkur bildira olish ham oson emas, buning uchun ko'p kuch sarflash kerak.  
J. LABRUYER

Ko'rnamakka iltifot ko'rsatish — u qadar baxtsizlik emas, ammo qabih odamdan yordam so'rash katta baxtsizlikdir.  
F. LAROSHFUKO

Nafratimizga uchragan kimsalarning yordamiga muhtoj bo'lish og'ir musibatdir.  
QOBUS

## O'git va nasihatlar haqida

Biz hech narsani nasihatlik saxiylik bilan aytib tashlayvermaymiz.

F. LAROSHFUKO

Chavandozlikdan xabari yo`q odam otni qanday minish haqida maslahat bermaydi. Ammo axloq masalasida biz boshqacharoq ish tutamiz. Bu yerda biz o`zimizni hamma narsani biladigan va istagan odamga nasihat qilishga qodirmiz, deb hisoblaymiz.

K. GELVETSIY

O`zgalarning ishi xususida donolik qilish o`z shaxsiy ishi-ii eplashga qaraganda ancha osondir.

F. LAROSHFUKO

Aql o`rgatish va aqlli bo`lish mutlaqo boshqa-boshqa narsalardir.

G. LIXTENBERG

Eng qiyini — o`z ishini anglab yetish, eng osoni — o`zgalarga nasihat aytish.

FALES

Biz chelaklab nasihat aytamizu, ammo o`zimiz tomchilab qabul qilamiz.

U. OLJER

Odamlar hech narsani nasihatdek nafratlanib qabul qilmaydilar.

J. ADDISON

Nasihat xuddi kunjut yog`idek yoqimsiz: uni birovga ichirish osonu, ammo o`zimiz ichishimiz koni azob.

V. SHOU

Maslahat so`rash — bu bir kishi ikkinchisiga ko`rsatadigan eng yuksak ishonchdir.

F. BEKON

Boshga kulfat tushganda kimki noto`g`ri maslahat bersa, maslahat berishni istamagani.

SENEKA

Quruq javoblar odilona savollarni mahv etadi va aqlni o`tmaslaydi.

A. I. GERTSEN

Sizdan nuqul pul so`ragan odamga hech qachon maslahat bermang.

P. KALDERON

Baxtsizga nasihat berish baxtli odam uchun oson.

ESXIL

Sizdan iltimos qilinmagan ishni o`zingizdan-o`zingiz bajarmang.

O. BALZAK

O`zing istagan narsani birovga tirkama; did har kimda har xil.

B. SHOU

Barchani o'z gazi bilan o'lchash tor aql ko'chasiga kirishdir.

D. I. PISAREV

O'zgalari oldida berilgan nasihat ta'nadek botadi.

QOBUS

Yoqimli maslahat berma, yaxshi maslahat ber.

SOLON

Osonlik bilan foydalansa bo'ladigan maslahatgina naflidir.

L. VOVENARG

Yaxshi maslahat hech qachon kechikib aytilmaydi.

B. JONSON

O'z ustidan g'olib chiqa oladiganlardangina maslahat so'ra.

LEONARDO da VINCHI

Birortasi bilan o'z ishing yuzasidan maslahatlashmoqchi bo'lsang, eng avvalo, o'z ishlarini qanday yo'lga qo'yib olganiga e'tibor qil.

ISOKRAT

Yaxshi maslahat kimdan chiqqanining ahamiyati yo'q.

T. FULLER

Dushmandan ham o'rganish mumkin.

M. MONTEN

Dono odam dushmandan ham ko'p narsa o'rganadi.

ARISTOFAN

G'anim so'ziga kirish — xatolik, ammo unga teskari ish tutmoq uchun uni tinglamoq darkor. Bu chinakam haq yo'ldir.

SA'DIY

Yaxshi maslahatni qabul qilmoq — shaxsiy imkoniyatlarni yanada oshirmoq, degani.

I. GYOTE

O'zini dono hisoblagan odamga aql o'rgatmoqchi bo'lgan kishi vaqtini bekor ketkazadi.

DEMOKRIT

Odamlarning maslahatlashmoqchi bo'lish odatlarida qanchalar riyokorlik bor! Maslahat so'rayotgan kishi o'z do'stining fikrlariga o'zini hurmat bilan quloq tutayotgandek ko'rsatadi, vaholanki, aslida unga kimningdir e'tibori kerak, kimdir uning ishini ma'qullab, o'sha ishi uchun javobgarlikni ham o'z zimmasiga olishi kerak.

F. LAROSHFUKO

Odamning o'zi istamasa, hech qanday o'git-nasihatlar unga to'g'ri yo'l ko'rsatolmaydi.

R. ROLLAN

Qaysarga nasihat qilgan kishining o'zi nasihatga muhtojdir.

SA'DIY

Ahmoq bilan munozara qish — ko'rga chiroq yoqqan bilan barobar.

P. BUAST

Sen aytgan o'rinli gapning ahmoq qulogiga yetmay qolib ketishi hamma narsadan ham achinarli.

Sh. MONTESKYE

Maslahatga kirmaydigan odamga yordam bermaslik kerak.

B. FRANKLIN

Tentaklarning ustozlari so'z emas, baxtsizlikdir.

DEMOKRIT

Shunday odamlar borki, ularning qulog'ini kesib tashlama-guningcha eshitishni istashmaydi.

G. LIXTENBERG

Tentakka maslahat berish — ko'rga ko'zgu tutish bilan baravar.

I. MYULLER

So'z ta'sir qilmagan odamga kaltak ham o'tmaydi.

SUQROT

Nodon qulog'iga pand, xuddi qafasda shamol,

Olamning nasihati g'alvirdagi suv misol.

SA'DIY

Har qanday kishi ham o'zi tushunadigan narsaga quloq soldi.

I. GYOTE

Birovga maslahat berish mumkin, ammo uni yaxshi xulqqa o'rgatib bo'lmaydi.

F. LAROSHFUKO

Maslahat beradilaru, ammo uni ishlatish uchun aql berolmaydilar.

F. LAROSHFUKO

Ahmoq beixtiyor yaxshi maslahat berib qolsa, aqlli odam uni bajarishi kerak.

G. LESSING

## Maqtovlarga munosabat

Maqtovlar ham misoli zardek noyob bo'lsagina qadrli.

B. JONSON

Maqtoiv doim oqilonalidir.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Maqtashga arziri odamlarning maqtovigina yoqimlidir.

GNEY NEVIY

Sendan hech qanday muruvvat ko'rmagan kishininggina maqtovi eng durust maqtovdir.

ABUL FAROJ

Muttahamning maqtoviga uchishdan ham ortiqroq xunuk ish yo'q.

R. SHUMAN

Bama'ni maqtov gapirgani ham, maqtalganni ham yerga uradi.

F.GRIMM

Yaramas shaxsni maqtash bilan maqtaluvchining obro'yi oshmaydi, maqttaganning yuzi qora bo'ladi.

P. A. VYAZEMSKIY

Kimki seni maqtasa, shu rostligini bilish uchun o'zingni tekshirib ko'r

KATON

Agar maqtovni noloyik deb topsang, bilginki, bu xushomad.

DEMOKRIT

Seni maqtasalar, tananga yaxshilab o'ylab ko'r, o'zing shunga loyiqmisan, loyiq bo'lsang, bilginki, seni kalaka qilishgan.

F. CHESTERFIELD

Omadli odam shaxsiy fazilatlarim uchun meni yaxshi ko'radilar, deya hech qachon o'ylamasligi kerak.

LUKAN

Me'yorsiz maqtov – yomon maqtov: kishini ko'tar-ko'tar gaplar emas, dalillar maqtashi kerak.

J. LABRUYER

Bama'ni odam vaqt o'tishi bilan maqtov va har turli izzatlarga deyarli har doim befarq bo'lib qoladi.

J. LEOPARDI

G'oyat irodasiz va g'oyat kaltafahm odamgina o'zi sazovor bo'magan maqtovlardan huzurlanishi mumkin.

A. SMIT

Biz hayotdagi yutuqlarimizga qanchalik ikkilansak, maqtovlar va dovuqlarga shu qadar orzumand bo'lamiz.

A. BERGSON



Foydali tanbehni soxta maqtovdan a'lo ko'radigan aqlli kishilar barmoq bilan sanoqlidir.

F. LAROSHFUKO

Ahmoqning tanbehi ham — maqtovdan gap.

SENEKA

O'zimizda yetishmaydigan fazilatlarga taalluqli maqtovlar doimo bizga yoqadi. Ahmoqqa aqllisan, aldoqchiga do'nyodagi eng rostgo'y odamsan, deb ko'ring, u darhol sizga quchoq ochadi.

G. FILDING

Ahmoq bizni maqtashi bilan u darrov ko'zimizga bama'ni bo'lib ko'rinadi.

F. LAROSHFUKO

Biz halol maqtovlarni e'tiborsiz qabul etamizda, qilmagan ishlarimizni maqtaganlarida esa buni o'zimiz bilib tursak ham minnatdor bo'lib tinglaymiz.

O.GOLDSMIT

Ayrim hollarda bizga g'irt yolg'onligi ma'lum maqtovlar ham yoqaveradi.

L. VOVENARG

Xushomad — soxta chaqa bo'lib, manmanligimiz tufayligina mUomalada yuradi.

F. LAROSHFUKO

Agar biz o'zimizga-o'zimiz xUshomad qilmaganimizda birovning xUshomadidan bUzilmasdik.

F. LAROSHFUKO

XUshomadga o'ch odamning tengi xUshomadgo'y.

V. SHEKSPIR

Ortiqcha maqtovnini men og'U deb bilaman.

I. A. KRILOV

Maqtovdan yoqqan odamni o' buzadi.

J. J. RUSSO

X,azilga yo'yib ham yolg'on gapirish, maqtash kerak emas. Sen haqingda istagan odam nima o'ylasa-o'ylayversin, sen qanday bo'lsang, o'shandayligingcha qolaver.

V. G. BELINSKIY

Sizni maqtab, o'zgalarni yomonlaganning so'zini hech tinglamang.

L. TOLSTOY

Kimki tabiatan qo'rqqoq bo'lsa, o'zi biror-bir jasrrat ko'rsatishi u yoqda tursin, hatto o'rtoqlarini ham vahimaga soladi.

TOMAS MOR

Bizning mamlakatimizda qoʻrqqoq nafratga loyiq maxluqdir... Qoʻrqqoq — bugungi sotqin na soʻzsiz, kurashda ham xoindir.

N. A. OSTROVSKIY

Bir marta qoʻrqqoqlik qilgan odam kelasi safar ham shunday qiladi.

J. GOLSUORSI

Qoʻrqqoqlik hech qachon axloqiy boʻlolmaydi.

M. GANDI

Qoʻrqqoqlik — rahmsizlikning boshi.

M. MONTEN

Rahmsizlik hamisha ojizlik, qoʻrqqoqlik, vahimadan kelib chiqadi.

K. GELVETSIY

Qoʻrqqoqlik kuchaysa qattiq -qoʻllikka oʻtadi.

G. IBSEN

Odamlarni qoʻrqitishni istaganlar ayni paytda oʻz qoʻrqqoqliklarini namoyon etadilar.

R. EMERSON

Nafrat — qoʻrqqoqning qoʻrqib ketganidan paydo boʻlgan oʻchi.

B. SHOU

Qoʻrqqoq xavf oʻtgandan keyingina doʻq-poʻpisa qiladi.

I. GYOTE

Qoʻrqqoqlik va hadik tufayli ortga chekinish hanuzgacha mohirona uddaburonlik hisoblanyb kelmoqda.

O. BALZAK

Odam oʻz qilmishiii oqlash uchun bir sababdai boshqa har qanday sababni topadi, oʻz jinoyatlarini oqlash uchun bir bahonadan boshqa har qanday bahonani topadi, oʻz tinchini taʼminlash uchun bir vajdan boshqa har qanday vajni topadi-yu, faqat qoʻrqqoqligini oʻylamaydi.

V. SHOU

Oʻziga-oʻzi achinish jurʼatsizlikning eng pastkash koʻrinishir.

MARK AVRELIY

Jurʼatsizlik bizda faqat nafrat uygʻotadi.

F. SHILLER

Erkak kishining barcha saʼyi harakati mardlarcha boʻlishi kerak.

A. KAZBEGI

Xotinchalish erkak inson zoti uchun mudhish dogdir.

V. G. BELINSKIY

Qoʻrquvni yengish — odamning epg birinchi vazifasi. Uning tizzalari qaltirab tursa, harakatlari

qullarcha davom etaveradi.

T. KARLEYL

Qo`rquv aqllilarni tentak, kuchlilarni ojiz qiladi.

F. KUPER

Qo`rquv tilyoglamalikni keltirib chiqaradi.

DEMOKRIT

Qo`rqoqni har qanday firibgar ham xo`rlyadi.

P. BOMARSHE

Qo`rquvga qul bo`lish — eng yomon qullik.

B. SHOU

Odamning odamligi qo`rquvni qay daraja yengishida bilinadi.

T. KARLEYL

Qo`rqmay yashash kerak. Qo`rqoqqa doim qo`sha ko`rinadi, mard odamga esa har qanday og`ir ish ham oson tuyuladi.

F. V. GLADKOV

## Shuhratparastlik, takabburlik

Shuhratparastlik eng kuchli xohishdir. Meni bu xohishdan xalos etgin, qolganlaridan esa o'zim qutulaman.

R. SHERIDAN

Shuhratparastlik odamlarning eng tabiiy xususiyatidir, lekin ayni paytda odamlarni tabiiylikdan mahrum etuvchi ham shu shuhratparastlikdir.

L. VOVENARG

Hech qachon, hech bir sharoitda o'zingga manmanlik va takabburlikni ixtiyor etma.

A. P. CHEXOV

Takabburlik — jonsiz bir mato: Yuvsu kalta, qilmagin xato.

V. SHEKSPIR

Ko'kka parvoz qilmoqchi bo'lgan odam kechki soyaga o'xshab, bir soat ichidayoq uzayib, o'z egasidan ham kattalashib ketadi; go'yo xiralashgan sari cho'zilayotganga o'xshaydida, bir daqiqadan so'ng qarasang — yo'q.

E. SENANKUR

Kishiga aql qancha yetishmasa, unda shuncha takabburlik bor.

A. POP

Kim o'zini hurmat qilolmasa — u baxtsiz, ammo kim o'zidan ortiqcha mamnun bo'lib ketsa, u tentak.

G. MOPASSAN

O'ziga bino qo'yish va man-manlik baxtsizlikdir, u kishini ahmoq qilib qo'yadi.

K. LIBKNEXT

Ahmoqlik va takabburlik og'aini.

P. BOMARSHE

Shuhratparastlikka berilish azaldan donolarpi beaql qilib kelgan.

I. KANT

Agar shuhratparastlik kimnidir baxtga yetkazgan bo'lsa, hoynahoy o'sha odam tentak bo'lsa kerak.

J. J. RUSSO

Shuhratparastlik buyuklikdan ko'ra ko'proq ojizlik belgisidir.

J. SVIFT

Shuhratparast o'zi bilan o'zi shu qadar bandki, uning ko'ngliga zig'ircha ham begona narsa sig'maydi.

T. PEN

O'zidan boshqani bilmaydiganlar mislsiz fazilatlar axtaradilar.

J. LABRUYER

Eski mo'yna shamoldan hurpayadi, beaql kalla esa — takabburlikdan.

M. KLLUDIUS

Doimo dimog'dor yurish o'rtahollikning niqobi, xolos.

F. VOLTER

G'o'dayish — gavdaning shunday bir sirli xususiyatiki, shu bilan aqlning kamligi pardalanadi.

F. LAROSHFUKO

Nuqsosht bor, ayniqsa ruhiy nuqsonli kishilar doimo o'zlari haqida yuqori fikrda bo'ladilar. Go'yo saxiy tabiat kimni boshida aqldan qisgan bo'lsa, o'sha kamchilikni to'ldirish uchun manmanlikni qo'shimcha chora sifatida yuboraetganday.

I. GYOTE

Izzattalablik — bu aqlning kemptikligidir.

U. DEVENANT

Ba'zi kishilarning ulug'vorligi dimog'dorlik, qat'iyligi rahmsizlik, aql-farosati firibgarlik bilan aralashib ketadi.

J. LABRUYER

Izzattalablik pastkash yurakni halol yurakka qaraganda tezroq alanga oldiradi: xashak g'arami yoki kapa saroydan ko'ra tezroq yonib tugaydi.

N. SHAMFOR

Ahmoq odam hatto amalidan — ministrmi yoki bosh mirzolikdan tushsa ham o'zining butun kibru havosi va bema'ni takabburligini tashlamaydi.

N. SHAMFOR

Shuhratiarast odam o'zi haqida yaxshi gapirib ham, yomon gapirib ham huzurlanadi; kamtar odam esa o'zini sira gapirmay qo'ya qoladi.

J. LABRUYER

Shuhratparast odam hamisha pastkash bo'ladi.

P. I. CHAYKOVSKIY

Shuhratnarastlik bizning dilimizda va o'zimizga qarshi harakat qiluvchi dahshatli kuchdir.

V.GYUGO

Shuhratparastlik bizni aql bovar qilmas darajada xohishimizga qarshi harakat qilishga majbur etadi.

F. LAROSHFUKO

Shuhratparastlik o'zimiz loyiq bo'lmagan shon-shuhratga bevaqt ega bo'lishga urinishdan boshqa narsa emas.

A. SMIT

Dono odam o'zi qilgan ishning yaxshiligiga ishonish uchungina e'tirof etishlarini istaydi; shuhratparast esa maqto'v talab etadi.

P. BUAST

Maqto'v har qancha ortiqcha bo'lgan taqdirda ham maq'taluvchida har qanday maq'tovlardan o'zining yuqori turishi va o'z fazilatlarini bilangina maq'tovchilarning og'zini ochib qo'ygani haqida bosh qotirib ko'rishdek ustunlik bor.

B. FONTENEL

Sayoz va bo'sh odam o'zining yo'q fazilatlarini haqida yaxshi gan eshitsu, shuhratparastligi tutib taltayib ketadi, maqtanib, o'z ishi va o'z shaxsiga nisbatan zig'irdakkina tanqidiy qaray olish layoqatini ham yo'qotib qo'yadi.

D. I. PISAREV

Ahmoq odam — yana buning ustiga boshi aylanib qolsami...

J. GOLSUORSI

O'ziga bipo qo'ygan odam jamiyat ko'ksida qotib qolgan shishdir.

M. GORKIY

Takabburlik o'ziga mahliyo bo'lib o'zgalarga past nazar bilan qarashdan kelib chiqadi.

M. MONTEN

Mansabsiz odam qarshisida osmondan kelib, mansabdorlar qarshisida sharmandalarcha yerga egilishimizning birdan-bir sababi takabburligimizdir.

J. LABRUYER

Ko'pchilik ichida o'zini kalondimog' tutib kekkaygan odam, agar u hurmat qilishlarini istayotgan bo'lsa, ayni shu istagiga zid natijaga erishadi.

J. LABRUYER

Soxta hurmat hech bir ish qilmay turib manmanlikka berilishning jazosidir.

N. SHAMFOR

Hammaning e'tiboriga tushishga intilish — o'sha odamning o'ziga ziyon, chunki hech bir narsa yurakni kishilarga yoqaman, deb urinishdek barbod etmaydi.

M. GORKIY

Shuhratparastlik kishi boshiga tushadigan og'ir kulfat-larning manbai.

J. J. RUSSO

...Kimniki izzatlablik alvastisi rom etgan ekan, uni boshqarishga endi aqlning kuchi yetmaydi va u tengsiz kuch, imlagan tomonga qarab chopaveradi...

K. MARKS

Mechkay shuhratparastlik odamning ongini zaiflashtiradi va u o'ziga yaqinlashib kelayotgan xatarni sezmaydi.

EZOP

Shuhratparast kishilar donolar nafrati-yu, tentaklar hayratini uyg'otib, tekinxo'rlar sig'inadigan kimsaga va o'z ehtiroslarining quliga aylanadilar.

F. BEKON

Izzatlablik aralashgan joyda samimiyatga o`rin yo`q.

O. BALZAK

Men haddan tashqari izzat-talablik bilan shubha-gumonni doimo birga ko`rganman.

G. LIXTENBERG

Bizning izzatlabligimiz boshqalarga zarar yetkazmasligi — juda kam, to`g`rirog`i, snra uchramaydigan hodisadir.

M. SERVANTES

Shuhratparastlik kishini mahmadona qilib qo`yadi.

L. SHOPENGAUER

O`z fazilatlarini o`zgalar huzurida osmonga ko`tarish qanchalar kulgili bo`lsa, holilikda ularga tan berish shu qadar donolikdir.

F. LAROSHFUKO

Halol odam hammaning izzatini qozonaman, deya yelib-yugurishi shart emas: izzatning o`zi uning ixtiyorisiz, o`z oyog`i bilan kelsip.

N. SHAMFOR

## Maqtanchoqlik

Odamlar hammavaqt ham boshqalar o'ylaganchalik bo'lavermaydilar.

G. LESSING

O'z afzalliklarini ko'p gapiradigan odam ko'pincha yaxshi odam bo'lib chiqmaydi.

J. NERU

O'z yaxshiliklari bilan maqtangan odamdan qo'rqaver.

M. EBNER-ESHINBAX

Odamlar o'z nuqsonlarini ko'rsatmaydilar — ularning aksariyati nuqsonlarini soxta niqob bilan yashirishga urinadilar.

O. BALZAK

Ma'naviy majruhlik ko'pincha va g'oyat mohiroia bir tarzda tashqi yoqimtoylik bilan nardalanadi.

M. GORKIY

Maqtanchoqlar ham sirti jimjima miltiq kabi ichi qaltiroq tashi yaltiroq.

PIFAGOR

Mardlik haqida ko'proq qo'rqoqlar, yaxshilik haqida esa ichiqoralar gapirishadi.

A. N. TOLSTOY

Hozirgi ishidan maqtanilmagan odam ilgari xizmatlari bilan maqtanadi.

SITSERON

Maqtanchoq odamlar donolarga kulgi, ahmoqlarga esa hayratomuz pasha, xushomadgo'ylarga osongina o'lja va o'z shuhratparastliklarining qulidirlar.

F. BEKON

Kuch bilan maqtanish buqani yelkada ko'tarmoq, ya'ni: o'sha buqaga o'xshash bilan barobardir.

V. FONTENEL

Maqtovning ortidan quvma, ammo bor kuching bilan maqtovga sazovor bo'lishga intil.

Ya. KOMENSKIY

O'z-o'zini maqtash kishini yerga uradi.

M. SERVANTES

Kimki sirdoshi oldida maqtansa, so'zsiz, kulgiga qoladi.

EZOP

Aslida serhimmat bo'lgan kishilar hech vaqt kerilmaydilar.

F. LAROSHFUKO

Odam o'zini-o'zi ko'tara olmaganidek, o'zini-o'zi maqtamasligi ham kerak. Aksincha, o'zini maqtashga har qanday urinish kishilar ko'zi o'ngida uning obro'yini to'kadi.

L. N. TOLSTOY



Tashqi ko`rinishini ko`z-ko`z qilgan odamlarning ichi bo`sh.

O. BALZAK

O`z aqlligidan maqtanmaslik uchun ham zo`r aql kerak.

F. LAROSHFUKO

Kishi o`z fazilatlari haqida qancha kam bilsa, u bizga shuncha ko`p yoqadi.

R. EMERSON

Agar o`zingizga dushman orttirishni istamasangiz, odamlardan ustunligingizni sezdirang.

A. SHOPENGAUER

O`z fazilatlarimiz to`g`risida qancha ko`p gapirsak, unga shuncha kam ishonadilar.

P. BOSHEN

Sizning yaxshiligingizga odamlar ishonishini istaysizmi? Unda o`sha yaxshiligingizni maqtamang.

B. PASKAL

Kishi o`zini ayblasa hammavaqt ishonadilaru maqtasa sira ishonishmaydi.

M. MONTEN

Barchaga yoqish istagi eng kulgili istakdir.

I. GYOTE

Kishilarda bor xislatlar u qadar kulgili emas, o`zi yo`gu, ammo bo`lishini istaganlari kulgili.

F. LAROSHFUKO

Zaruratsiz o`zing haqingda bir og`iz ham gapirma. Avval qilgan, hozir qilayotgan va keyin qiladigan ishlaring xususida ham sira maqtanma.

K. D. USHINSKIY

O`zi haqida ko`p gapirishdan ham xunukroq ish yo`q.

J. LEOPARDI

Yaxshisi, biz o`zimizni maqtamaylik, biron bizni maqtasin.

DEMOKRIT

Biz aslida qanday bo`lsak, shunday bo`lganimizda va hech qachon boshqacha bo`lib ko`rinishga urinmaganimizda edi, biz odamlar ko`zi o`ngida yutardik.

F. LAROSHFUKO

Men aslida boshqachaman, deb dono kishilarni ishontirishingdan ko`ra, chindan ham o`zing istaganingdek bo`lishing ko`p jihatdan osonroqdir.

G. LIXTYENVYERG

Barcha maqtanchoqlarning birdan-bir qismati shuki, ular ertami-kechmi, harqalay pand yeyishadi.

V. SHEKSPIR

## G'urur va dimog'dorlik to'g'risida

Aftidan, barcha tug'ma ehtiroslarimiz ichida, ayniqsa g'ururimizni yengishimiz qiyin bo'lsa kerak; uni qancha berkitma, u bilan qancha olishma, bo'g'ma, chala o'lik qilma — bari bir u yashayveradi, vaqti-vaqti bilan haddan oshib, o'zini ko'rsatib turadi.

B. FRANKLIN

G'urur barchaga xos xususiyat: ammo farqi shundaki, uni qachon va qaerda ko'rsatishni bilish kerak.

F. LAROSHFUKO

Garchi g'urur yaxshilik hisoblanmasa-da, lekin ko'p yaxshiliklarning boshidir.

J.KOLLINZ

Chinakam g'urur o'ta tortinchoq bo'ladi va kishilar mulohazasidan qo'rqadi.

N. V. SHELGUNOV

Agar biz haqiqiy g'ururli bo'lganimizda dunyoni bu qadar razilliklar bosmas edi.

I. ZEYME

G'urur — olijanob hissiyot — u shaxsiy kamchiliklardan ko'z yummaydi. Dimog'dorlik esa buning aksi.

G. LIXTENBERG

Dimog'dorlik g'ururga pichingdir.

E. FEYXTERSLEBEN

G'urur odamning shaxsidan boshqa uning barcha illatlarini yo'qotadi.

R. EMERSON

Hamiyatimiz emas, g'ururimiz bizni ayb qilib qo'ygan kishilarga aql o'rgatishga undaydi; biz ularni o'nglash uchun emas, o'zimizni ko'z-ko'z qilish uchun ularga dakki beramiz.

F. LAROSHFUKO

G'urur ko'nincha haqiqiy ulug'vorlikka g'ov bo'ladi.

M. JANLIS

G'urur — o'zga hamma odamlarga nisbatan o'ziga xos bir nafratdir.

TEOFRAS

Mag'rur kishilar boshqalardagi g'ururni singdira olmaydilar.

B. FRANKLIN

Agar bizni g'urur qiynamaganda, boshqalarning g'ururidan shikoyat qilmas edik.

F. LAROSHFUKO

Mag'rur odam kamdan-kam olihimmatdir: u doimo o'zi munosib bo'lganidan kam olyapman, deb o'ylaydi.

G. BICHER

G'urur kalta o'ylash va o'z-o'zini bilmaslikdan kelib chiqadi.

J. ADDISON

Pastkash qalb, ortiqcha g'urur — achigan balchiqday gap.

P. BUAST

To'xtovsiz gapirib, birovga quloq solmaslik mag'rurlik belgisi.

DEMOKRIT

Past odamlarning g'ururi shundan iboratki, ular doimo o'zlari haqida gapiradilar, chinakam insonlarning g'ururi esa o'zi haqida mutlaqo gapirmaslikdir.

F. VOLTER

Mag'rurning ko'rinishi xunuk.

A. TERMIZIY

G'urur hamisha yomon darslikdir va o'rtamiyonalikning nimdosh pardasidir.

J. MASIYON

Mayda odamlarda g'urur katta bo'ladi.

F. VOLTER

G'urur — ojizlar yupanchi.

L. VOVENARG

Ortiqcha gurur — pastkash qalb niqobi.

I. S. TURGENEV

Magrur odam muz qobig'iga o'ralib qolishi turgan gap. Bu qobiqni hech bir tuyg'u yorib o'tolmaydi.

L. N. TOLSTOY

G'urur — sirg'anchiq qoya bo'lib, pastlikda bizni takabburlik va manmanlik kutadi.

P. DEKURSEL

O'zimizdagi bema'ni xislatlarni o'zimizchalik hech kim bilmaydi, lekin shunga qaramay, hech kim bizni o'zimizchalik yuqoriga ko'tarmaydi.

F. SHENMAN

O'ziga mahliyo odam o'z xislatini shu qadar kattalashtirib ko'radiki, uning oldida mikroskop ham hech gap emas.

A. POP

Shuhratparastlik — xushomadgo'ylikning yuksak cho'qqisi.

F. LAROSHFUKO

Shuhratparastlik oldida har qancha xushomadgo'ylik ham uch pul.

F. LAROSHFUKO

Shuhratparastlik bobida qancha-qancha kashfiyotlar qilinmasin, bari bir uning hali ko'z tegmagan joylari ko'p.

F. LAROSHFUKO

O'z-o'ziga mahliyolik umrbod davom etadigan hikoyatdir.

O. UAYLD

Agar tabiat kimningdir aqlida g'ov qoldirsa, odatda man-manlik ohapg bilan suvab ketadi.

G. LONGFELLO

O'ziga-o'zi mahliyo odamga teng kelish qiyin.

SITSERON

Kim o'zini haddan tashqari yaxshi ko'rsa, uni boshqalar yaxshi ko'rmaydi, chuiki odob yuzasidan unga raqib bo'lib o'tirmaydilar.

V.O. KLUCHEVSKIY

O'z-o'ziga mahliyolik va dimog'dorlik o'z qadrini bilish tuyg'usi emas.

F. M. DOSTOYEVSKIY

O'ziga-o'zi mahliyo odam — ahmoq bilan surbet orasidagi dardisardir: unda ahmoqdan ham, surbetdan ham nimadir bor.

J. LABRUYER

Tabiat kimnidir yaxshi fazilatlardan qisgan bo'lsa, o'sha odam bu kamchilikni takabburlik bilan yopmoqchi bo'ladi.

ERAZM ROTTERDAMSKIY

Surbetlik chegaradan chiqqan izzatlablikdir: izzatlab odam charchatadi, jonga tegadi, bezdiradi; surbet jirkantiradi, g'azabga soladi, qonni qaynatadi, tahqirlaydi.

J. LABRUYER

Magrurlik g'alati xususiyatga ega. Kishi qancha aqlli, o'qimishli, ajoyib iste'dod egasi, hatto qalbi toza bo'lmasin — agar u ortiqcha gerdaysa, yuqo-ridagi bari fazilatlari qusurga aylanadi.

L. N. TOLSTOY

O'zidan hayratlanish va o'zini aqlli deya qat'iyon ishonish baxtsizlikdir, faqat aqlsiz yoki aqli kalta odamlargina shunday dardga muhtalo bo'lishlari mumkin.

J. LABRUYER

Kishi o'zidan qanchalik mamnun ekan, unda mamnun bo'ladigan xislatlar shu qadar kamdir.

L. N. TOLSTOY

Odam o'zi haqida qanchali yuqori fikrda bo'lsa, uniig ahvoli shu qadar mo'rtidir.

L.N. TOLSTOY

Kishi shaxsini yerga uruvchi illatlardan eng qabihi va nafratga loyig'i o'ziga o'zi mahliyolikdir.

U. TEKKEREY

Faqat o'zini o'ylaydigan donolik, qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar qabihlikdir.  
F. BEKON

O'ziga-o'zi mahliyolik shishirilgan pufak, uni teshilsa, faqat havo chiqadi.  
F. VOLTER

## Ayyorlik

Ayyorlik — juda chegaralangan kishilarning fikrlash tarzi bo'lib, bu fikrning zohiri bilan botini mutlaqo turlichadir.

I. KANT

Muttasil ayyorlik qiliga fikran cheklantanlik belgisidir va deyarli hammavaqt bir yerda ayyorlik qilaman degan odam boshqa joyda o'zini oshkor otadi.

F. LAROSHFUKO

Ayyorlik g'irt aqlsizlikdir: o'z maqsadiga to'g'ri yo'l bilan erisholmagan odam unga yolg'on-yashiq, ogri yo'l bilan erigaishga urinadi; ayyorlikning fojiasi shundaki, u bir marta bilinmaydi, ammo keyin hammavaqt otning qashqasidek ko'rinib turadi.

J. LOKK

Tulkidek ayyorlik insonga yotdir. Mayda chaqa bo'lish uyat, isnoddir.

ARISTOFAN

Virovdan ayyorroq bo'lish mumkinu, lekin hammaga ayyorlik qilib bo'lmaydi.

F. LAROSHFUKO

O'taketgan ayyor odamlar ko'pincha dog'da qoladilar, chunki ular boshqalarni aqlliroq, to'g'rigo'i, ayyorroq deb o'ylab, ortiqcha harakat qilib qo'yadilar.

G. FILDING

Odam birovlarini aldayapman, deya o'ylayotgan paytida o'zi osongina aldanib qoladi.

I. KOZELSKIY

Aldanishning sinalgan yo'li o'zingni boshqalardan ayyorroq deb hisoblashingdir.

F. LAROSHFUKO

Men, doimo aldamchi pirovard natijada o'zini aldaydi, deb takrorlaganman va yana takrorlayveraman.

M. GANDI

O'z ayyorligini yashira oladi gan ayyor hali shu paytgacha tug'ilmagan.

J. LOKK

Hayotda shunday holatlar bo'ladiki, soddalpk va oshkoralik eng nozik ayyorlikka aylanadi.

J. LABRUYER

Ayyorlik bilan firibgarlikning orasi — bir qadam, birinchisidan ikkinchisiga o'tish juda oson: ayyorlikka yolg'on qo'shilsa, tap-tayyor firibgarlikdir.

J. LABRUYER

## Yolg'onchilik

Yolg'onchilik — qabih illat.

M. MONTEN

Yolg'onchilik o'g'rilikdan battar.

J. RENAR

Yolg'onchilik — yovuzlik timsoli.

V.GYUGO

Faqat yaramaslargina aldashadi.

F. M. DOSTOYEVSKIY

Yolg'onni bu qadar fosh etishimizning boisi shundaki, eng pastkash illatlar ichida ayniqsa yolg'onni berkitish ham va unga bo'yin egish ham osoi.

F. VOLTER

Agar yolg'on ham haqiqat singari bir xil bo'lganda-ku, ahvolimiz ancha yengillashardi. U holda biz yolg'on so'zlayotgan odamning gapini teskari tushunib qo'ya qolardik. Lekin haqiqatning aksi bo'lgan yolg'onni minglab qiyofasi bor va uning had-chegarasi yo'q.

M. MONTEN

Kishi yanglishgan paytda buni har qaiday odam sezadi, ammo aldayotganda esa hamma ham sezavermaydi.

I. GYOTE

Yolg'onchi — inson deb atalishga loyiq emas.

F. FENELON

Irodasiz yurak, farosatsiz aql, buzuq xarakterni yolg'on fosh etadi.

F. BEKON

Hammadan ham ko'ra men qo'rqqoqlik va ojizlik tufayli to'qilgan yolg'ondan jirkanaman.

A. I. KUPRIN

Yolg'onchilik va makr — ahmoqlar bilan qo'rqqoqlar panohi.

F. CHESTERFIELD

Yolg'onchilik inson qalbi va jismiga hadsiz uqubat yuklaydi.

Sh. RUSTAVELI

O'z vijdonini aldash — insonning hayotidan ezilishining eng keng tarqalgan va eng qabih ko'rinishidir.

L. P. ANDREYEV

Yolg'onchilik zo'rlik boshlangan joyda tug'iladi.

K. A. FEDIN

Yolg'onchi yolg'onsiz yashay olmaydi.

I.I . XEMNISER

Yolg'onchilikka o'rgangan odam ishda ham, bekorchilikda ham yolg'on so'zlayveradi.

I. I . XEMNISER

Ma'lum vaqt hiyla-nayrang bilan shug'ullanib yurgan odam endi usiz turolmaydi: qolgan narsalarning bari unga zerikarli ko'rinadi.

J. LABRUYER

Yolg'on ham ichkilikbozlikning o'zi. Yolg'onchi o'layotganda ham yolg'on gapirib o'ladi.

A. P. CHEXOV

Shira — maysani, zang — temirni, yolg'on esa qalbni kemiradi.

A. P. CHEXOV

Insonni ayni yolg'onchilik tahqir etadi.

O. BALZAK

Yolg'onning doimiy hamrohi — ayyorlik.

J. LOKK

Shaxsiy manfaat yo'lida o'zini-o'zi aldash qalbakilik; o'zgalar manfaati uchun aldash — soxtalik; ziyon yetkazish uchun aldash — bo'hton, bu yolg'onning eng yomon zahridir.

J. J. RUSSO

Yolg'onchiga hatto u to'g'ri gapirganda ham ishonmaymiz.

SITSERON

Yolg'onchining jazosi uning gapiga hech kim ishonmay qo'yishida emas, balki uning o'zi endi hech kimga ishonmasligidadir.

B. SHOU

Yolg'onchilik hayotda suyanchiq bo'lmaydi.

N. K. KRUPSKAYA

Ojizlarning kuchi hiyla-nayrangda.

V. SHEKSPIR

Qalbaki narsa hech qachon pishiq bo'lmaydi.

P. BUAST

Yolg'on beviqor qilur odamni, Yolg'on sharmisor qilur odamni.

SA'DIY

Eng qabih yelg'on ko'pincha sukut saqlagan holda ifodalanadi.

R. STIVENSON

To'la haqiqatgina maqtovg'a loyiq, chala haqiqat hech narsaga arzimaydi.

S. SVEYG



Chala haqiqat yolg'ondan xavfli; chala haqiqatga qaraganda yolg'onni ajratish oson, chala haqiqat esa sezdirmaslik uchun ikki hissa pishiqroq niqob kiyib oladi.

T. GIPPEL

Chala haqiqatni fogn etish g'irt yolg'onni fosh etishdan ko'ra ikki bora qiyin.

O.OMELLI

Birov soxtalashtirilgan haqiqat — eng xavfli yolg'onidir.

G. LIXTENBERG

Haqiqatlar ichiga kirib qolgan birgina yolg'on hamma haqiqatni shubhaga qo'yadi.

P. BUAST

Aldayotgan odam yelkasida qanchalik og'ir yuk borligini o'ylamaydi, chunki u birinchi yolg'onini davom ettirish uchun yana yigirma martalab yolg'on so'zlaydi.

A. POP

Har kimki so'zi yolg'on, yolg'oni zohir bo'lg'ach yolg'on. Yolg'onni chindek aytuvchi suxanvar — kumushni oltin bilan ro'kash qilg'uvchi zargar.

A. NAVOIY

Kimki bir yolg'on gapirdimi, yana ganiradi. Axir bitta yolg'onni boshqa yettitasi bilan quvvatlash kerakda.

F. RYUKKERT

Kim xotirasiga uncha ishonmasa, kelishtirib yolg'on ham so'zlolmaydi, deb bejiz aytishmaydi.

M. MONTEN

Agar siz faqat bor gapni aytsangiz, boshqa narsalarni o'ylab o'tirishingiz shart emas.

MARK TVEN

Albatta, bilmay turib ham yolg'on gapirib qo'yish mumkin, ammo «yolg'onchi», degan tushuncha qasddan yolg'on so'zlash ma'nosini bildiradi.

B. LASKAL

Yolg'on gapirayotganingni sezsang, og'zingni yumishing har vaqt ham kech emas.

A. DYUMA (o'g'li)

Yolg'on kuchga kirgan vaqtda ham baribir hech vaqt haqiqatga aylanmaydi.

R. TAGOR

Bordi-yu, yolg'onga duch kelsang, sen uni yo'q qil. Yolg'on faqat yo'q qilishlari uchungina mavjud.

T. KARLEYL

## Riyokorlik, xushomadgo'ylik, ikkiyuzlamachilik

Riyokorlik, xushomadgo'ylik va ikkiyuzlamachilik eng katta yovuzlikdir. Niqobga o'ralgan bu yovuzliklarni seza bil, unga nisbatan g'azabkor va murosasiz bo'l !

V.A.SUXOMLINSKIY

Tentaklar orasida riyokorlar deb ataluvchi bir toifa bor,ular to'xtovsiz ravshda o'zlari va o'zgalarni aldashni o'rganganlari o'rgangan, ammo aslida ular hammadan ko'ra ko'proq o'zlarini aldaydilar.

LEONARDO DA VINCHI

Boshqalarga qaraganda ko'pincha eng riyokor kishilar aldanib qoladilar.

U. GEZLITT

Odammi o'gshga maqtash xushomadgo'ylik belgisidir.

ARASTU

Hammani maqtaydigan odamga ishonma.

J. KOLLINZ

Ishonmagil maddoh, so'zamollarga,  
Zarracha naf uchun seni madh etar.

Bir kuni murodin hosil etmasang,  
Ikki yuzdan ortiq ayb sanab ketar.

SA'DIY

Maqtov nodonlarda, gumon o'zingdan  
Bo'lur, gururlanma go'zal so'zingdan.

SA'DIY

Hadeb maqtayverish — xushomadgo'ylik.

ARASTU

Birovga yoqish san'ati — aldash san'atidir.

L. VOVENARG

Barcha xushomadgo'ylar odatda aldamchilar.

I. ENGELS

Achchiq tanbehdan qo'rqma, Allalovchi so'zdan ko'rq.

Ye.BARATINSKIY

Inson haqida uning xulqi, voqea va hodisalar haqida ko'ngling nima desa, o'shani gapir. Sendan kimdir nimadir kutayotgan taqdirda ham xushomad qilma. Bu seni munofiq, laganbardor va oxiri borib razil muttahamga aylantirish uchun qilingan harakatdir.

V. A. SUXOMLINSKIY

Riyokor — doimiy kul.

R. ROLLAN

Illatning qo'lidan kelgan yaxshilik — riyokorlik.

F. LAROSHFUKO

Yaxshilik niqobiga o'ranmagan yoki uning ko'magiga suyanmagan bironta ham illat yo'q.

J. LABRUYER

Riyokorlik — og'ir ish emas, har bir yaramasning qo'lidan keladi, lekin ochiqchasiga, samimiy va yurakdan gapirish va kulish esa faqat olijanob qalb egalarigagina xosdir.

Sh. PETEFI

Firibgarlik bilan tilyog'lamalik — tug'ishgan og'a-inilardir.

A. LINKOLN

Xushomadgo'y odamlar surbetlarcha riyokorlikka hurmat bilan qaraydilar.

O. BALZAK

Manfaat uchun yoqimtoy bo'lib qolgan odamlar — eng tund odamlardir.

L. VOVENARG

Olgirlar hech narsadan jirkanmaydilar.

L. VOVENARG

Xushomadgo'y kim? U epchil va ziyrak aql egasi bo'lib, sal ko'zingiz tushishi bilanok, yetti bukilib kulimsiraydi, har bir so'zingizni entikib qarshi oladi va nima qilsangiz, hammasini ko'r-ko'rona olqishlaydi.

J. LABRUYER

Buyuk kishilar hech qachon xushomad qilmaydilar, xushomad — mayda odamlarning ishi, ular o'zlari havas qilgan atoqli shaxslarning hayotiy muhitiga kirib olish uchun yana ham maydalashishga tayyor kimsalardir.

O. BALZAK

Faqat pastkash odamgina oldingda maqtab, orqangda g'iybat qiladi.

PIFAGOR

Illat va nuksonlaringni ko'ra-bila turib, ularni oqlaydigan na hatto ma'qullaydiganlarga yaqin yo'lama. Bunday kishilar yo laganbardor, yo qo'rqoq, yoki.ahmoqdirlar. Har qanday baxtsizlik yoki kulfatda ulardan yordam kutma.

G. S. SKOVORODA

Xushomad sadoqatga mutlaqo yopishmaydi.

ERAZM ROTTERDAMSKIY

Xushomadgo'ylik nafratdap xavfliroq.

B. GRASIAN

Tulki terisini yopingan tekin maqtovdan qo'rq.

GORATSIY

Gʻanimning yolgʻoniga, laganbardorning shirin suxaniga uchma; birinchisi ayyorlik toʻrini tashlagan, ikkinchisi esa yovuz jigʻildonini ochib turibdi.

SAʼDIY

Xushomad rasmdagi aslaha-yaroqqa oʻxshaydi: koʻzingni quvontirgani bilan hech bir nafi yoʻq.

PIFAGOR

Kimki xushomadni taqdirlasa, u oʻsha xushomadni qidirgan.

T. FULLER

Yetti boshli ajdardan emas, tilyogʻlama odamdai qoʻrq.

QOBUS

Xushomadgoʻy uy hayvonlari ichidagi eng xavflisidir.

DIOGEN

Boʻysungandek koʻrinib, keyin hukmron boʻlish uchungina xushomad qiladilar.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Qullarcha boʻyin ekkan odamning bari ham qul boʻlavermaydi.

G. LIXTENBERG

Xushomadgoʻy shuning uchun xushomad qiladiki, u oʻzi haqida ham, oʻzgalar haqida ham yaxshi fikrda boʻlmaydi.

J. LABRUYER

Hurmatlagan odamlariga hech qachon tilyogʻlamalik qilmaydi-lar, chunki hurmat odamni ulugʻlaydi, tilyogʻlamalik esa yerga uradi.

PUBLILIY SIR

Xushomadgoʻylardan qoching — ular bashang kiyinib olgan oʻgʻ-rilardir.

U. PENN

Xushomadgoʻy — dushmandan yomon.

TASIT

Kimdir tovoningni yalasa, tishlashga ulgurmasidan oyogʻingda ezib tashla.

N. VALERI

Qabih xushomadgoʻy va aldamchidan koʻra oshkora dushman yaxshi; bundaylar insoniyatni bulgʻaydilar.

PETR

Nafrat va xushomad — haqiqat kushandalari.

F. LAROSHFUKO

Kimki xushomadga uchsa, himoyasiz qoladi.

A. GRAF

Tentaklarni xushomad bilan qo'lga tushiradilar.

M. ANDERSEN-NEKSE

Sirkadan ko'ra asalda pashsha ko'proq o'ladi.

J. LAFONTEN

Xushomadgo'y illatlar ko'mak-chisi.

SITSERON

Xushomad — jinoyatlarni tug'diradigan oziq.

J. GEY

Xushomadni tentaklarning ozig'i, deb aytishadi, lekin shunga qaramay, qanchadan-qancha dono kishilar ham ma'lum vaqt davomida shu oziqdan ozgina bo'lsa-da, totib qolishga urinadilar.

J. SVIFT

Biz huquqlarimiz to'g'risida gapirgan odamlarni mamnuniyat bilan eshitamizu, ammo burch-majburiyatlarimizni eslatgan-larni esa uncha xush ko'rmaymiz.

E. BORK

Odatda biz bizdan hayratlanganlarnigina chin yurakdan maqтайmiz.

F. LAROSHFUKO

Dunyoda ming bora ayon haqiqat:

Xushomad — xunuk hol; lekin

Qalbgga yo'lni qanday toparkin.

I. A. KRILOV

## Ezmalik

Beodoblik faqat qilmishda emas, soʻzda ham boʻladi.

ABUL FAROJ

Tajriba bizga qayta-qayta shuni isbotlaydiki, odamlar oʻz tillariga boshqa hamma narsadan koʻra ham kamroq hukmronidirlar.

B. SPIPOZA

Odamlar oz soʻzlay turib, koʻp narsani ifodalay olganlari holda, farosatsizlar esa, aksincha, toʻxtovsiz gapirib, bari bir hech narsa bermaslik xususiyatiga egadirlar.

F. LAROSHFUKO

Soʻz ham misoli yaproqqa oʻxshaydi: daraxtning bargi koʻp boʻlsa, mevasi oz.

A. POP

Qotma odam qalin chopon kiyishni yoqtiradi, maʼnisi kam odam esa — oʻzini soʻz bilan shishiradi.

M. MONTEN

Aytar soʻzi boʻlmagan odam — gapdan tinmaydi.

G. SHOU

Toʻxtovsiz vaysash — qobiliyatsizlik belgilaridan biri.

J. LABRUYER

Aytar soʻzi yoʻq odam koʻp gapiradi.

L. N. TOLSTOY

Ezmalik aqli pastlik belgisidir.

A. N. SUMAROKOV

Aqli kaltaning — tili uzun.

ARISTOFAN

Oʻylay bilmaydiganlar ezmalik qiladilar.

R. SHERIDAN

Nogʻora taʼlimini berma: u ichi boʻshligi uchun shovqin soladi.

O. N. BETLING

Umuman olganda, kam biladiganlar koʻp gapiradi, koʻp biladiganlar esa kamgap boʻladilar.

J. J. RUSSO

Dononing tili qalbida, tentakning qalbi esa tilida.

N. V. SHELGUNOV

Dono odamlar fikr aytishdan oldin oʻylab koʻradilar, tentaklar shartta gapirib yuboraveradilar.

G. GEYNE

Kim qanchalik nodon bo'lsa, shuncha tez xulosa chiqaradi.

E. KONDILYAK

Faqat yuzaki bilim va mavhum fikrlargina ezmalikka olib keladi.

B. GALDOS

Nimaidir aytish istagi nimanidir o'rganish istagidan deyarli hammavaqt kuchlilik qiladi.

D. I. PISAREV

Kimki tersayib, ko'p gapirsa, u kerakli narsalarni o'rganolmaydi.

DEMOKRIT

Nimadir bir yangi gap aytish istagida kishilar qanchadan-qancha bema'ni gaplarni vaysaydilar.

F. VOLTER

Gapdonlik san'ati hech bir ish qilmaydigan odamlardagina katta hayrat uyg'otadi.

N. A. DOBROLYUBOV

Bekorchi odamlar doimo sergap bo'ladilar. Qancha kam o'ylaganing sari shuncha ko'p gapirasan.

Sh, MONTESKYE

Ish bilan band bo'lganda faqat zarur bir gap chiqsagina gapiradilar: bekorchilikda esa odam hadeb so'zlagisi kelaveradi.

J. J. RUSSO

Agar birovni qandaydir qilmishdan to'xtatib qolmoqchi bo'lsangiz, siz uni shu haqda gapirshiga majburlang: odamlar qanchalik ko'p gaiirganlari sari ish qilishga ishtiyoqlari gauncha susayadi.

T. KARLEYL

Vekorchilikni hech narsa quruq gapdek rag'batlantira olmaydi.

L. N. TOLSTOY

Dudyodagi eng sergap odamlar bekorchilardir.

P. A. PAVLENKO

Nahslashganda sen doimo ezmalardan nari qoch:

Hammaning tili burro. aqlchi — oz odamda.

KATON

To'gri so'zlab, ezmalikdan qoch.

DEMOKRIT

Sergap bo'lma, negaki, sergaplik shunday bir bo'shliqqa o'xshaydiki, unda qoqiladigan toshlar ham ko'p.

ABUL FAROJ

Bugun faqat bugungi zarurini aytgin sen,  
Qolganini qo'y bugun, kezi kelar unga ham.

GORATSIY

Har narsadan o'zni tiyish uchun odamga kuch kerak, lekin shular orasidan eng qiyini tilni tiyishdir.  
Eng muhimi ham aslida shu.

L. N. TOLSTOY

Kim ko'p gapirsa, bema'nilikni ham ko'p gapiradi.

P. KORNEL

O'z tilini idora qilolmagan odamda haqiqat bo'lmaydi.

M. GANDI

Ezma odam qiladigan ishni goho yovuz odam ham o'zyga ravo ko'rmaydi.

P. BUAST

O'tkir til — qobiliyat, uzun til — jazo.

D. D. MINAYEV

Tabiatning ezmalarni ko'rarga ko'zi yo'q.

J. RENAR

Sergaplik odatda diqqinapaslikni yuzaga chiqaradi.

M. SERVANTES

Sergaplik doimo yoqimsiz.

M. SERVANTES

Odam ko'p gapirib qo'yganda hammavaqt qandaydir vajdoni azoblanib, o'ng'aysizlanib yuradi.

I.S. TURGENEV

Yolg'on ezmalik bilan yashiringan bo'ladi, yolg'on ma'lumki, barcha illatlarning boshi.

M.Ye.SALTIKOV-SHCHEDRIN

Sergap o'zini yaxshi ko'rsatmoqchi bo'ladi-yu, ammo nafratga uchraydi, bironvga qarashmoqchi bo'lsa — xira pashshaga aylanadi, odamlarni hayratga solmoqchi bo'lsa — kulgiga qoladi; u do'stlarini yerga urib, dushmanlariga xizmat qiladi.

PLUTARX

Safsatabozni qo'sh qamchi bilan savalaydilar.

ESXIL

Odam oz so'zlaganidan juda kam afsuslanadi, aksincha, rosa ezmalanganidan esa tez-tez pushaymon yeb turadi. Bu hammaga ma'lum, ammo hamma yoddan chiqaradigan ko'hna haqiqatdir.

J. LABRUYER

Zarur gapni aytolmaganing uchun bir marta attang qilsang, tilingni tiyolmaganing uchun esa ming karra attanglaysan.

L. N. TOLSTOY

Aytur so'zni ayt, Aytmas so'zdan qayt.



A. NAVOIY

Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz.

A. NAVOIY

Og'izga kelganini demak nodonning ishi,

Olig'a kelgann yemak hayvonning ishi.

A. NAVOIY

O'ylamay aytilgan so'zni ham

otilgan toshdek ushlab qolish qiyip.

MENANDR

Til — chaqmoqtosh, so'z — uchqun. Hey, gairayotgan odam, ehtiyot bo'lmasang, o't tushib ketishi mumkip.

E. KAPIYEV

Kimga nimani gapirayotganingni tez-tez o'ylab tur.

TORASIY

Eng yomoni — tiyilmagan til.

YEVRIPID

Bilganingni hammavaqt ham gapiraverma, ammo gapirayotganingni esa hammavaqt bil.

M. KLAUDIUS

Bilag'onligingdap maqtanma, indamay turib gururlan.

P. A. PAVLENKO

Kimki sir bilishini maqtandimi, sirning yarmini ochib ulgurdi, qolganini ham so'zsiz ochadi.

JAN POL

Kimki bilganinn vaysasa, bilmaganini ham gapiradi.

F.BEKON

Hatto tanishlarga ham biror narsa haqida maqsadsiz gapirish faqat bekorchi ezmalargagina xos xususiyatdir.

D. II. PISAREV

O'zgarlar siriga quloq solish — birovniq molipn garovga olishdek gap.

N. PAMFOR

Senga ishonib aytilgan sirni, senga ishonib toshirgan molu-dunyodan ham afzalroq ehtiyot qilib saqla, negaki, halol kishilarda qasamdan ham kuchli xarakter bo'lishi kerak.

ISOKRAT

O'zgarlar sirini oshkor etish — sotqinlik, o'z sirnnp oshkor etish ahmoqlikdir.

F. VOLTER

Sir — bir kishiga ogirlik qiladi, ikki kishi uchup ayni muddao, uch kishi bilganda esa sirligi ham qolmaydi.

I. XOUVEL

Faqat uch kishigii sir saqlay oladi, agar ularping ikkitasi o'lgan bo'lsa.

V. FRANKLIN

Hech kim sirni o'sha sirni bilmagan odamdek saqlay olmaydi.

F. ROXAS

O'z sirini saqlamoqlik — donishmadlik, biroq boshqalardan buni kutish teitaklikdir.

O. XOLMZ

Agar o'zimizki sirimizni saqlay olmasak, buni boshqalardan qanday talab qilishimiz mumkin?

F. LAROSHFUKO

Sir ham bamisoli to'r: bitta tuguni yechilsa, hammasi chuvalib ketadi.

V. GYUGO

Haddai tashqari oshkoralik ham yalang'ochlik singari xunuk ko'rinadi.

F. BEKON

Har qanday yalangochlik, hatto qalb yalangochligi ham haqoratlidir. Sir boy bermaslik odamlarni nariroqda ushlab turadi va bizii muhofaza etadi. Bu iiyatlarimizni yashirib turuvchi pardadir.

F. BEKON

Har bir kishining ham oyga o'xshab yorishmaydigan tomoni borki, uni hech kimga ko'rsatmaydi.

MARK TVEN

Agar odamlar bir-birlarini boshdan-oxir aniq bilganlarida, bir-birlaridan tiraqaylab qochgan bo'lardilar.

I. KANT

Agar siringni dushmaning bilmasin desang, uni do'stingga ham aytma.

QOBUS

Dushmanidan yashirganingni do'stingga ham aytma, zero do'stlikning abadiyligiga kafillik yo'q.

ABUL FAROJ

Dushmanga alaming so'zlama aslo.

Quvonib demasin: «Alhamdulillah!»

SADIY

Dushmaning bilishi lozim bo'lmagan gapni do'stingga ham aytma.

A. SHOPENGAUER

Birovga sir aytib, saqla degandan,

Dil sirin. hech kimga aytmagan ma'qul.

Ariq tyshib ketsa bog'lab bo'lmaydi,

Suvni eng boshidan qaytargan ma'qul.

Bekitiqcha soʻzni aytib boʻlmaydi,  
Har majlisda aytib, qaytib boʻlmaydi.  
SA'DIY

Sir ichni qizitadi, man etish man etilgan narsaga qiziqishni kuchaytiradi.  
D. I. PISAREV

Kishining boplab soʻzlashga aqli yoki ehtiyot yuzasidan sukut saqlashga farosati yetmasa — bu falokat bilan teng.  
J. LABRUYER

Ertami-kechmi, barcha sirlar ochiladi. Sira ochilmay qoladigan sir yoʻq.  
M. M. PRISHVIN

## Yovuzlik, zolimlik

Har xil kishilar va har xil mijozlar bo'ladi. Ayrimlarning masalan, barcha ehtirosu ko'tarinki qiyofasi sovuq yovuzlikdan iboratdir va undaylar faqat yovuzlik qilayotgan paytlaridagina uddaburon, iqtidorli va hatto soglom bo'lib ketadilar.

V. G. BELINSKIY

Pastkash kimsalar uchun muqaddas va buyuklikka o'zlarining iflos qarashlari va fikrlarini chaplab, o'z nochorliklarining alamini olishdan ham ko'ra yoqimliroq narsa yo'q.

V. G. BELINSKIY

Qabih odamga saxovat ham, donishlik ham qabihlik bo'lib ko'rinadi: iflosga — ifloslik yoqadi.

V. SHEKSPIR

Kechki odam kekning o'zi singari doimo bemulohaza ish qiladi. Bu egizak xususiyatdir, ulartting birini ajratsang, ikkinchisi shol bo'ladi.

N. V. SHELGUNOV

Yomon odam misoli ko'mir: mabodo kuydirmasa ham seni qora qiladi.

ANAXARSIS

Yovuz odamlar kishi tanasida yurib, faqat yara bor joyda to'xtaydigan nashshaga o'xshaydilar.

J. LABRUYER

Yovuz uchun yovuz xabarni eshitishdek yoqimli taskin yo'q.

Sh. RUSTAVELI

Rahmsiz kishilar birovning kulfatidan shodlanadi.

VAJA PSHAVELA

Tajribadan bizga ma'lumki, o'zimizni qancha ayab, suyasakda, o'zgalarga nisbatan shafqatsiz bo'lsak, bu bir gunohning ikki tomonidir.

J. LABRUYER

Muttaham doimo yovuz; jasur esa muruvvatlidir.

I. I. DMITRIYEV

Berahmlik va qo'rquv yakkash, bir-birini qo'llaydi.

O. BALZAK

Yovuzlik hamisha shafqatsizlik va zaiflikdan kelib chiqadi.

SENEKA

Shafqatsizlik jasoratga hamroh bo'lolmaydi.

M. SERVANTES

Qahr-g'azab o'z yo'lida irodasizlikdir.

L. P. CHEXOV

Qasd olishdan mayda va pastkash qalbgina rohatlanadi.

YUVENAL

Fosiqdin hayo tilama,  
Zolimdan vafo tilama.

A. NAVOIY

Itidin kiyikka va mushukdan kabutarga shafqat maholdir.

A. NAVOIY

Qasos — ojiz qalbning yovuz merosi,  
Mag'rurlar qalbidan haydalgan bir his.

K. KORNER

Yiqilganni depsishni muttaham qo'rqqoq boshlaydi.

OVIDIY

Saxovat iiqobi ostida yovuzlik qilinmaganda edi, dunyoda bu qadar yovuzlik bo'lmasdi.

M. EBNER-ESHENBAX

Yovuzlik hamisha himmat qo'ltiqtayog'ida yuradi.

M. M. PRISHVIN

O'taketgan jinoyatchi ham o'zini xaspo'shlashga va o'zi qilgan jinoyat ahamiyatsiz va zarurat yuzasidan yuz berganligiga shpontirmoqchi bo'ladi.

G. LESSING

Afsus — fosh etilishidan sarosimaga tushgan qahr-g'azab, o'z ojizligini sezgan ojiz quturishdir.

A. AMIEL

Adovatchilikka qarshi adovat uygoting.

A. FRANS

O'zgarlar kulfatini masxaralash aslo kechirilmasligi kerak.

A. P. CHEXOV

O'taketgan nafrat bizni o'sha nafratlagan odamimizdan ham tubanlashtirib yuboradi.

F. LAROSHFUKO

Kattami, kichikmi, sira yovuzlik qilmaslik kerak.

EZOP

Bironta ham yovuz odam baxtli bo'lolmagan.

YUVENAL

Yovuz odamlarning hayoti doimo notinch.

D, DIDRO

Kimdanki ko'pchilik qo'rqsa, u ham ko'pchilikdan qo'rqishi kerak.

SOLON

Kimki yovuzlik ustiga yovuzlikni qalashtiraversa, qo`rquvi ham shu qadar oshaveradi.

SENEKA

Qo`rquv bilmayin desang, yovuzlik qilma.

QOVUS

Kim yovuzlik urug`ini setssa — pushaymon yig`ar.

SA'DIY

Tavba qilmoq kerak odatda bir bor,

Zahar yutib bo`lmas ikki qur zinhor.

A. SHUKUR

## Jizzakilik

Achchiq ustida hech narsani boshlama! Bo`ron paytida kemaga o`tirgan odam ahmoqdir.

I. GAUG

Sustkashlik faqat g`azablangan vaqtdagina foydali.

PUBLILIIY SIR

G`azablanganingda g`azabingni bosishni o`zingga majburiyat bil.

QOBUS

G`azabga tushgan bo`lsang, gapirishdan avval o`ngacha sana, juda ilojn bo`lmasa yuzgacha sana.

T. JEFFERSON

Kimki kuchli g`azabdan o`zini tutsa, u ancha-muncha aqli.

PLAVT

Odamlar ko`pincha o`z kaltafahmliklarini g`azab bilan to`ldiradilar.

U. OLJER

Odamlar doimo gazabimdan es-hushimni yo`qotib qo`yibman, deb yuradilaru, aslida o`sha paytda o`zlarining haqiqiy basharalarini ko`rsatadilar.

E. XOU

G`azab — ojizlik quroli.

Jazava — zaiflik alomati.

A. DYUMA (otasi)

G`azab — bir oniy aqlsizlik-dir...

GORATSIY

G`azab — johillik manbai.

SHARL DE KOSTER

G`azab bir muddatlik oshkora nafratdir; nafrat yashirin, doimiy g`azabdir.

Sh. DYUKLO

G`azabimiz va alamimiz bizni g`azablantirgan narsadan ko`ra ko`proq zarar yetkazadi.

J. LEBBOK

G`azab hatto aqli raso odamni ham ezib, yerga uradi.

BABRIY

Jahl ahli bila kimki ulfat bo`lg`ay,

Ul ulfati ichra yuz ming ofat bo`lg`ay.

A.NAVOIY

G`azab boshqalarga qanchalik yoqimsiz bo`lmasin, g`azablanayotgan odamga ko`proq og`ir. G`azab bilan boshlangan narsa uyat bilan tugaydi.

L. N. TOLSTOY

Bizni g'azablantirgan odamga achchiq ustida shunday ayblarni qo'yamizki, osoyishta paytimizda o'ylab qarasak, o'zimizga ham kulgili tuyuladi.

K. D. USHINSKIY

G'azab ustida jazo berish jazolash emas — qasd olishdir.

P. BUAST

G'azab ustida bergan har bir zarbamiz oxir-oqibat o'zimizga kelib tushadi.

U. PENN

G'azabnok bo'lish ko'pincha birovlarining aybi uchun o'zimizdan qasd olishimizga o'xshaydi.

J. SVIFT

G'azabga tushish birovning xatosi uchun o'zimizdan o'ch olishimizdir.

A. POP

G'azab hamma joyda, ayniqsa, haq ishda o'rinsizdir. Chunki uni xiralashtirib loyqalatadi.

N.V.GOGOL

G'azab uchun dalilning keragi yo'q. U faqat sabab axtaradi.

I. GYOTE

G'azab doimo asosga, ammo ko'pincha bo'sh asosga ega.

B. FRANKLIN

G'azabning emas, aqlning ovozig quloq sol.

V. SHEKSPIR

G'azab hamisha yomon nasihatchidir.

E. ZOLYA

G'azab qo'ziganda gapirish ham, nimadir qilish ham kerak emas.

PIFAGOR

Betayin va jilovsiz g'azab xuddi betayin saxovat yoki mehribonlik kabi halokatlidir.

K. D. USHINSKIY

Haddan oshgan g'azab qo'rquv tug'dirur, me'yorsiz erkalash olomon ko'z o'ngida obro'yingni to'kur. Barchaning joniga tegar darajada shafqatsiz va uchragan kimsa seni turtib ketar darajada mo'min bo'lma.

SA'DIY

Kimki o'z tengiga bo'sh kelmasa, kuchlilar bilan munosabatda o'z qadr-qimmatini saqlasa, himoyasizlarga nisbatan o'zini yqii tuta bilsa — u hammadan o'zib ketadi.

FUKIDID



### **Chiqisha olmaslik, buzuqchilik**

Janjalga, fitna va ichiqoralikka moyillik — betayin odamlarning ishi.

PINDAR

Faqat bir tomon aybdor bo'lganda edi, janjal bunchalik uzoq cho'zilmasdi.

F. LAROSHFUKO

Ma'lumki, barcha janjallarning o'ziga xos xususiyati ikkala tomonning zaifligidir.

F. VOLTER

Janjallashayotgan ikki kignining aqllirog'i — ko'proq aybdor.

I. GYOTE

Janjalga ikki kishi kerak: hech qachon o'shalarning biri bo'lmang.

J. LEBBOK

Kim bilandir janjallashayotganda shuni nazarda tutish kerakki, janjal oxiri borib do'stlikka aylansin.

DIODOR

Kishilar ko'pincha tasavvurdagi xafagarchiliklari uchunoq tanishlaridan ranjib, g'azablanib, ularga sovuq munosabat qilib yuradilar.

J. LEBBOK

Hayotda bo'lib turadigan har xil janjallar paytida kishi o'zini yaxshi tutishi xarakterning ustunligini ko'rsatadi.

G. TEODOR

Mard kishiga qarganda qo'rqqoq odam ko'proq janjal chiqaradi.

T. JEFFERSON

Men hammavaqt gazabimni bosishga va janjalda yon berishga harakat qilaman, natijada janjalni tinchlatishtga erishaman, keyin esa osoyishta holatda hammasi joy-joyiga tushib ketadi. Deyarli hamisha janjal boshidayoq to'xtatilmaganiga afsuslanishga to'g'ri keladi.

L. N. TOLSTOY

## Salomatlik to'g'risida

Sog'lom odam tabiatning eng bebaho asaridir.

T. KARLEYL

Inson — tabiatning yer yuzidagi oliy mahsulidir. Biroq tabiat yaratgan mo'jizalardan bahra olmoq uchun inson sog'lom, baquvvat hamda zukko bo'lmog'i zarur.

I. I. PAVLOV

Biz insonning har tomonlama kamol toptirmoqni istaymiz, toki u bemalol yuguradigan, suzadigan, tez va chiroyli odimlay oladigan bo'lsin, uning to'rt muchasi sog' bo'lsin, qisqasi, u mehnat va mudofaaga hamisha hozir turishi uchun jismonan hamda aqliy qobiliyati bab-baravar rivoj topgan rosmansa, sog'lom odam bo'lsin.

M. I. KALININ

Sog'lik — boylikdan a'lo.

J. REY

Sog'lik — oltindan qimmat.

V. SHEKSPIR

Vshlikda u qadar qadriga yetilmagan sog'lik balog'at yillarida chinakam baxtga aylanadi; umrning ko'pi ketib, ozi qolgan paytda esa odam yashashning mazasini tushuna boshlaydi.

I. M. KARAMZIN

Insonning nazdida salomatlikning bahosi yo'q, chunki salomatlik bo'lmasa, na farog'at va na xashamat tatiydi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Jismon baquvvat odam issiq, a ham, sovuqqa ham bardosh beradi. Xuddi shuningdek, ruhan tetik odam gazabga ham, qayguga ham, shodlikka ham, boshqa kechinmalarga ham chidaydi.

EPIKTET

Sog'lik undan bahramand kishiga ham boshqalar uchun ham buyuk ne'matdir.

T. KARLEYL

Siz o'z sog'ligingizni tong va bahordan oladigan huzur-halovatingizga qarab baholang.

G. TORO

Sog'likning o'zi huzur yoki u yoqimli olov tafti kabi so'zsiz huzur baxsh etadi.

T. MOR

Sog'lik hayotning shunday ne'matidirki, chindan ham betob podshodan sog'lom gado ming karra baxtiyordir.

A. SHOPENGAUER

Baxtimizning o'ndan to'qqiz ulushi sog'ligimizga bog'liq.

A. SHOPENGAUER

Baxt, eng avvalo soglik demakdir.

G. KURTIS

Vaxt salomatlik samarasidir, binobarin, har bir odam o'z a'zolarini asrab-avaylamog'i lozim.

S. SMAYLS

Hayotning qadriga yetmagan odam undan bahramand bo'lishga ham loyiq emas.

LEONARDO DA VINCHI

Sog'lik — donolar uchun davlat.

P. BYeRANJYe

Umrimiz jahblatimiz tufayli qisqaradi.

G. SPENSER

Inson 100 yil yashashi mumkin. Lekin biz o'zimizning tiyiqsizligimiz, palapartishligimiz, o'z organizmimizga nisbatan shafqatsizligimiz tufayli bu muddatni ko'p yillarga qisqartirib yuboramiz.

I. P. PAVLOV

Kishining kuchdan qolishp yemiruvchi yillar kasri emas, ko'pincha bebosh yoshlikning asov g'alayonlari oqibatidir. Yoshlikdagi maishiy tiyiqsiz nafs keksalykka shalviragan tanani hadya etadi.

SITSERON

Hech kim umri qisqa bo'lib tugilmaydi, uni o'zimiz qisqartiramiz; umrimiz tugal, ammo uni biz yelga sovuramiz. Agar oqilona foydalanilsa, umr juda uzoq davom etadi.

SENEKA

Odamlar uzoq umr xohlashadi-yu, ammo uni ehtiyot qilishmaydi.

J. LABRUYER

Shunday paytlar keladiki, odam yuz yil yashamasdan oldin o'lishga uyaladigan bo'ladi, bunga imonimiz komil.

I. M. TARXANON

Umr bizga uni so'nggi daqiqalarga qadar mardona himoya qilish sharti bilan berilgan.

Ch. DIKKENS

Boshqalar uchun yashamoqchi bo'lgan odam o'z hayotiga ham befarq bo'lmasligi lozim.

J. GYUYO

Yaxshi odam o'zini avaylashi kerak.

M. GORKIY

## Badan tarbiya haqida

Biz materialistlar — quvnoq kishilarmiz, biz — sog'lom odamlarmiz, binobarin, jismoniy tarbiyaning ulkan mohiyatini yaxshi his qilamiz.

A. N. LUNACHARSKIY

Gimnastika, jismoniy mashqlar, piyoda yurish mehnat qobiliyatini va salomatligini saqlab qolmoqchi bo'lgan, chinakam va shodmon hayot kechirishni xohlagan har bir odamning kundalik turmushidan mustahkam o'rin olmog'i lozim.

GIPPOKRAT

Salomatlikni saqlash hamda har turli kasalliklarning ol-dini olishda badantarbiya va harakatdan yaxshi vosita yo'q.

M. Ya. MUDRON

...Har kungi zaruriy gimnastikani kanda qilma, o'zingni majburlab bir necha o'n martalab (muttasi) har xil harakatlar qil! Bu juda muhimdir.

V. I. LENIN

Hayot harakatni talab qiladi.

PLUTARX

Harakat — hayot xazinasi.

ARASTU

Men harakatni keksayishga qarshi kurashniig eng samarali vositasi deb bilaman.

V. V. GORINEVSKIY

Harakat ta'sir jihatdan har qanday dorining o'rnini bosishi mumkin, lekin dunyodagi jamiki dori-darmon harakatchalik ta'sir ko'rsatolmaydi.

T. TASSO

Harakat hayotdir, harakatning kamayishi hayotiy jarayonlarni susaytiradi.

V. V. GORINEVSKIY

Jismoniy mehnat qilmaslik, harakatsiz, faqat aqliy mehnat bilan shugullanish — g'am-tashvish keltiradi.

L. N. TOLSTOY

Mutanosiblikni saqlash, go'zal va soglom bo'lish uchun faqat fan va san'at sohasidagi bilimlarning o'zi kifoya qilmaydi, buniig uchun umr bo'yi badantarbiya va gimnastika bilan shugullanish talab etiladi.

AFLOTUN

Jismonan baquvvat odamgina yaxshi hayot kechiradi.

M. I. KALININ

Jismoniy go'zallik hamisha soglomlik, jo'shqin g'ayrat haqidagi tushuncha bilan uyg'unlashib ketadi.

L. N. TOLSTOY

To'g'ri aql-idrokli bo'lishni istagan odam o'z tanasini parvarish qilib turishi kerak.

R. DEKART

Ma'naviy sog'lom bo'lish uchun jisman bardam bo'lish ham lozim.

L. N. TOLSTOY

Ruh qal'asini saqlab qolish uchun jism qal'asini mustahkamlash zarur.

V. GYUGO

Sport ishonch-e'tiqod madaniyatini, tetiklik madaniyatini shakllantiradi.

A. V. LUNACHARSKIY

Gimnastika inson yogaligini uzaytiradi.

J. LOKK

Gimnastika tibbiyatning shifotbaxsh tarkibidir.

AFLOTUN

Yomgir daraxt g'uborini yuvganiday, gimnastika ham badan g'uborini tozalaydi.

GIPPOKRAT

Tajriba shuni ko'rsatadiki, gimnastika kishini erkin hara-kat qilishga o'rgatish bilan birga, uni talay eski dardlardan ham forig etadi.

K. D. USHINSKIY

Badantarbiya va o'zni tiyish tufayli ko'p odam tabobatga muhtojlik sezmaydi.

J. ADDISON

O'z vaqtida, me'yori bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo'lamaydi.

IBN SINO

Badantarbiya bilan mashg'ul bo'linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir tartibga rioya qilmoq ham shart.

IBN SINO

Badantarbiya ko'plab dori-darmonning o'riini bosishi mumkin, lekin birorta dori ham badantarbiyaning o'rnini bosolmaydi.

A. MYUSSE

Xotirani kuchaytirishning eng muhim sharti asablarning soglom bo'lishidir. Buning uchun esa badantarbiya bilan shug'ullanish lozim.

K. D. USHINSKIY

Gimnastika yordamida tana muvozanatini yanada yaxshilashni xohlayman.

SUQROT

Tana harakati aql harakatiga naqadar ta'sir ko'rsatishini tasvirlash mahol.

PLINIY

Daraxt shamolsiz, yomg'irsiz, issiq va sovuqsiz ko'karolmaydi, shular bo'lmasa borib-borib qurib qoladi, xuddi shuningdek, inson tanasiga ham har xil harakat va jiddiy mashqlar zarur.

Ya. KOMENSKIY

Salomatlik ham xuddi kasal-lik kabi yuqumlidir.

R. ROLLAN

Agar 30, 40 va hatto 50 yoshda badantarbiya bilan shug'ullanmasalar, buni bekorchilik buyuk farog'at hisoblangan o'tmishdan qolgan bid'at deb tushunmoq kerak.

V. V. GORINEVSKIY

Badantarbiyani tark etgan odam aksari xarob bo'ladi, zero xarakatsiz qolgan a'zolarning quvvati zaiflashadi.

IBN SINO

Sog'ligingda yugurmasang, og'riganingda chop-chop qilasan.

GORATSIY

Aqliy mehnatdan keyingi xordiq bekorchilik emas, balki jismoniy mehnatdir, bu faqat huzurbaxsh bo'libgina qolmay koni foyda ham. Aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan almashtirib turish kerak.

K. D. USHINSKIY

Asosiy dori-darmonlar — sof havo, sovuq suv, arra bilan bolta.

V. D. POLENOV

Sovuq suv shifo etadi, kasallikning oldini oladi, tanani chiniqtirib, ruhingizni tetiklashtiradi.

A. SELS

Sayr va cho'milishdan keyin yoshargandek bo'laman, eng muhimi, tana harakati bilan miyamni mashq qildirib, dam oldiraman.

K. E. SIOLKOVSKIY

Yurganim sayin fikrim tiniqlashadi. Bir joyda turganimda deyarli fikr yurit olmayman; tanam hammavaqt harakatda bo'lishi kerak, ana o'shanda aqlim ham harakatga keladi.

J. J. RUSSO

Harakat va piyoda yurish miyaga turtki berib, fikrni ishga soladi.

J.J. RUSSO

Yurganimda tafakkurim tiniqlashib, fikrni ifoda etishning yana yaxshi usullarini topaman.

I. GYOTE

Salomatlik va a'zoyi-badanning har tomonlama kamolotsiz insonni to'kis va go'zal qiyofada tasavvur qilib bo'lmaydi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Aqliy qobiliyatlarini iloji boricha ko'proq saqlab qolish va to'la-to'kis hayot kechirishni xohlagan odamlar turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishlari va gigiena qoidalariga to'la rioya etishlari lozim.

I. I. MEChNIKOV

Palogat yoshpda amal qilinadigan oqilona gigiena, nazarimda, organizmni tez qarishdan asraydigan eng yaxshi vositadir.

F. VURLER

Gigiena inson rivojini yanada takomillashtirishi, tanazzulini sekinlashtirishi, hayotinp mustahkamlab, o'limipi orqaga surishi lozim.

M. PETENKOFER

Inson organizmida rntmdan kuchli hukmron yo`q. Hsch bir a`zo ritm izmidan chiqib ketolmaydi.

I. P. PAVLOV

Inson hayotining butun asosi — tabiat har bir kishiga in`om etgan ritmdan, nafas olishdan iborat.

K. S. STANISLAVSKIY

Oqpl odamning butun harakati o`z organizmini ilma-teshik bo`lib ketgan qayiqday yamab-tuzatishga sarf bo`lmasligi kerak, aksincha, shunday yashash kerakki, organizm ilojp boricha kamroq zararlansin va binobarin, yamab tuzatishlarga iloji boricha kamroq duchor bo`lsin.

D. I.PISAREV

## Me'yorning foydasi haqida

Uzoq yashashning birdan-bir siri umrni qisqartirmaslikda.

E. FEYXTERSLEVEN

Uzoq yashamoqchi bo'lsang, kam-roq ovqatlan.

B. FRANKLIN

Taomning eng yaxshi qaylasi — nafsni tiyish.

SUQROT

Og'zingni ehtiyot qil: hamma kasallik og'iz orqali o'tadi. Shunday qilginki, ovqatdan keyin ham ishtahang qarnay bo'lsin.

L. N. TOLSTOY

Agar me'yoridan chiqib ketilsa, to'qlikning ham, ochlikning ham, boshqa narsalarning ham xosiyati bo'lmaydi.

GIPPOKRAT

Nafsini tiya olmaydiganlar, taom, sharob va sevgi lazzati-ni totishda me'yorni bilmaydiganlarning huzur-halovati ko'pga bormaydi, ular faqat yeyish yoki ichish paytidagina rohat qiladilar, ammo tiyila bilmaslik oqibatida tortadigan azoblari behisob va beadad bo'ladi.

DEMOKRIT

Agar odamlar faqat qorinlari judayam ochgan paytdagina ovqatlanishganda, shunda ham odatdagi, toza va to'yimli taomni iste'mol qilishganda edi, ular dard nimaligini bilishmagan va o'z tanalari bilan ruhlarini onson idora eta olgan bo'lishardi.

L. N. TOLSTOY

Hech kim me'yoridan ortiq yeb-ichmasligi kerak.

PIFAGOR

Tush paytida kamroq ovqatlan, kechqurun esa undan ham kamroq bo'lsin, chunki butun sog'ligimiz oshqozonimizga bog'liq.

M. SERVANTES

Har doim to'yib ovqatlangandan ko'ra ahyon-ahyon och qolgan ma'qul.

ABUL FAROJ

Ulug' odamlar hamisha taomda tiyinganlar.

O. BALZAK

Sihhat tilasang, ko'p yema,

Izzat tilasang, ko'p dema.

A. NAVOIY

Nafsni tiya bilmaslik borib-borib kishini nobud qiladi; badnafslilik ertami-kechmi imoratni qulatadigan poydevor ostidagi ko'zga ko'rinmas suvdir.

J. BLEKKI



Hayotni saqlashi lozim bo'lgan ovqat me'yoridan oshsa, u muqarrar o'limga mahkum etuvchi zaharga aylanadi.

J. LABRUYER

Hazm bo'lmagan taom uni yegan odamning o'zini yeydi.

ABUL FAROJ

Kuchimizni qirqadigan darajada emas, balki kuchimizga kuch qo'shadigan miqdorda yeb-ichaylik.

SITSERON

Ortiqcha suv ekinga zarar bo'lganiday, haddan ortiq taom ham tanaga zarardir.

ABUL FAROJ

Tanang imorati dosh bera oladigan miqdorda taom tanovul et.

L. JOMIY

Stol ustidagi behisob noz-ne'matlarni ko'rganimda ularning har birida, xuddi pistirmadagiday, bod suvchechak, isitma va yana ko'plab kasalliklar yashirinib yotganday tuyuladi.

J. ADDISON

Bizning ozuqa moddalarimiz shifobaxga bo'lmogi, shifobaxsh dori-darmonlarimiz esa ozuqa bo'lmogi kerak.

GIPPOKRAT

Parhez taomlarning ta'siri davomli, dori-darmonlarning ta'siri esa o'tkinchidir.

GIPPOKRAT

Agar ovqatga haddan tashqari ruju qilish hayvonlik bo'lsa, taomga takabburona beparvo qarash nodonlikdir, hamma narsada bo'lganiday o'rtacha me'yorni saqlash kerak: berilib ham ketmang, e'tiborsiz ham qoldirmang.

I. P. PAVLOV

Iste'mol qiling, lekin suistemolga aylanmasin — donolarning taomili shu. Ortiqcha tiyinish ham, oshirib yuborish ham baxt keltirmaydi.

F. VOLTER

Me'yor — tabiatning ittifoqdoshi, sog'liqning posbonidir. Binobarin, yeb-ichishda ham yurish-turishda ham va hatto muhabbatda ham me'yorni saqlang.

ABUL FAROJ

Buyuk, hamisha bezarar, hamisha xaloskor dori — bu oqilona, me'yori bilan lazzatlanish, xotirjamlik va badantarbiyadir.

FENELON

Mashq va me'yor hatto keksalikda ham ma'lum daraja avvalgi quvvatni saqlab qolishi mumkin.

SITSERON

Me'yor quvonchga quvonch qo'shib, huzur-halovatingizni oshiradi.

DEMOKRIT

Me'yorni salomatlikning onasi deyish mumkin.

MAKSIM VALERIY

Me'yordan oshsa har qanday faoliyat foydadan ko'ra ko'proq zarar keltiradi.

APULEY

Me'yorni bilmasang, eng yoqimli narsa ham behad yoqimsiz narsaga aylanadi.

DEMOKRIT

Lazzatlanish qancha oz bo'lsa, shuncha shirin.

EPIKTET

Lazzat kosasini oxirigacha sipqorsak, uning tubida maydan ko'ra quyqum ko'pligini sezamiz.

O. BALZAK

Yaxshi, hatto eng yaxshi narsaga ham har kuni duch kelinsa, tez jonga tegadi.

G. LESSING

Hech narsa hammavaqt bir xilda yaxgai bo'lolmaydi, chunkn o'gaa yaxshi ham o'zining cheksiz yaxshiligidan adoyi tamom bo'ladi.

V. SHEKSPIR

Lazzat esda qolishi uchun uni kamaytirish kerak.

Ch. BAKSTON

Hammavaqt lazzatlanish — hech qachon lazzat olmaslik demakdir.

F. VOLTER

Borib-borib me'daga tegmaydigan lazzatning o'zi yo'q.

KATTA PLINIY

Oson va haddan ziyod nasib etgan lazzatu sevinchlar oxir-oqibatda o'z nomini oqlamaydi.

M. SEVINE

Keragidan ortiq narsaga intilish — muhtojlik ketidan quvish demakdir.

PUBLILIY SIR

Ozita qanchalik qanoat qilsak, muhtojlik shunchalik kamroq tahluka soladi.

L. N. TOLSTOY

Ortiqcha narsalardan voz kechgan odam muhtojlikdan xalos ,bo'lgan odamdir.

I. KANT

Hech narsa ortiqcha bo'lmasin.

GALEN

Har qanday ortiqchalik illatdir.

SENEKA

Hamma narsada me'yor bo'lishi kerak.

SOLON

Hech qanday ortiqchalikka yo'l qo'ymaslik, xohishini tiya bilish kerak. Aslida xohish muxabbat, ijod, uzoq umrning qudratli madadkoridir.

A. A. BOGOMOLETS

Har qanday ortiqcha narsa yo asabni, yoinki didni rasvo qiladi.

J. JUBER

Inson o'z tabiatiga ko'ra faqat kelajakda soglom bo'lish uchungina emas, balki bugungi kunda tetik-bardam yurish uchun ham me'yorni saqlaydi.

I. KANT

Ortiqcha narsaga ruju qilish ko'pincha zarur narsadan mahrum bo'lishga olib keladi.

SOLON

Dono odam xohishga qarshi kurashib yurishdan ko'ra undan voz kechish afzalligini yaxshi biladi.

F. LAROSHFUKO

Shunday bir zo'r qoidani hamisha yoshlarga eslatib turish kerak: hech narsa ortiqcha bo'lmasin! Zero hamma yerda o'zni ortiqchalik va behalovatlikdan saqlash imkoniyatini topish mumkin.

Ya. KOMENSKIY

Lazzatni oshira bilish san'ati unga nisbatan ehtiyotroq bo'la olishdan iborat.

J. J. RUSSO

Hissiy lazzatlanish umrni qanchalik qisqartirsa, aqliy lazzatlanish uni shu qadar uzaytiradi.

P. BUAST

Eng yoqimli lazzatlanish eng kam yuz beradigan lazzatlanishdir.

DEMOKRIT

Eng ulug donolik hamma narsadan voz kechish emas, balki eng kichik, arzimas narsalardan x,am rohatlana bilishdan ibo rat.

Sh. RESKIN

Har qanday huzur-halovat — agar unda adolatsizlik va ortiqchalik bo'lmasa, agar u tabiiy istak mahsuli bo'lsa hamda nozikta'b inson xohishlariga mos tushsa — bu rohatdir.

SENANKUR

Dunyodagi barcha tirik mavjudotlar ichida faqat insongina o'ziga foydali narsani bilmaslitiga iqror bo'lishdan uyaladi.

KATTA PLINIY

Mavjud huzur-halovatdan shunday foydalanginki, kelgusida bo'ladigan huzur-halovatga zarari

tegmasin.  
SENEKA

Ko'pchilik umrining talay qismini hayotining qolgan bo'lagini raddibalo qilishga sarflaydi.  
J. LABRUYER

Uzluksiz ichkilykbrzlik, tizginsiz muhabbat va me'yoridan ortiq shahvoniylikdan ko'ra qarilikni tezlashtiradigan narsa yo`q.  
ERAZM ROTTERDAMSKIY

Bir nafaslik lazzat ko'pincha bir umrlik azob-uqubatga sabab bo'ladi.  
K. VILAND

Har qanday huzur-halovatga mayl qo`ymaslik kerak, faqat nojo`ya bo'lmaganlari bundan mustasnodir.  
EPIKTET

Gapirib bo'lmaydigan huzur-halovat — halovat emas.  
F. ROXAS

Oxir-oqibat tarixi chiqadigan lazzatdan nariroq yurish kerak.  
SOLON

Foydasi yo`q har qanday lazzatdan voz kechmoq lozim.  
DEMOKRIT

Yoqimli narsani foydali narsa bilan omixta qilgan odam hamisha yutadi.  
J.J. RUSSO

Huzur-halovatning quli bo'lib qolgan odam tanasini ham, ruhiyatini ham majruh qiladi.  
SUQROT

## Kasallik, davolanish va shifokor odobi haqida

Ming xil kasallik bor, ammo sog'lik bittaginadir.

L. BERNE

Dardning sonsanog'i yo'q.

KATTA PLINIY

Eng yomon dard o'ldiruvchi dard emas, balki davosi yo'q darddir.

M. EBNER-ESHENBAX

Kasallik — barvaqt qarishning o'ziga xos ko'rinishi.

A. POP

Salomatligini ehtiyot qilib yurgan odam o'ziga nima foydaligini har qanday shifokordan ko'ra yaxshiroq biladi.

SUQROT

Uzoq betob yotgan odam tabibdan ko'ra ham bilimdonroq bo'lib qoladi va o'z dardiga shu darajada tushunib yetadiki, hatto tajribali tabiblarga ham bu layoqat kamdan-kam nasib etadi.

O. BALZAK

Biz haqiqiy kasalliklardan tashqari ko'pdan-ko'p tasavvurdagi kasalliklarga ham giriftor bo'lamiz.

J. SVIFT

Agar odam o'z tanasi yoki ruhiy holatini tadqiq qilishga kirishsa, albatta o'zida kasal topadi.

I. GYOTE

Dard haqida umuman o'ylamaslik yoki kamroq o'ylash kerak.

A. P. CHEXOV

Betob bo'lganda kasallik haqida o'ylamaslik kerak, zero odam o'ylagan dardiga o'ralashib qoladi. Yaxshisi, hamma narsani miyadan chiqarib tashlab, butunlay boshqa narsalar to'grisida o'ylagan, gailashgan yoki o'qigan ma'qul.

N. METNER

Eng sog'lom va chiroyli, qaddi-qomati kelishgan odamlar hech narsadan asabiylashmaydigan odamlardir.

G. LIXTENBERG

Xushchaqchalik sog'lomlik belgisigina emas, balki kasallikdan xalos qiluvchi eng samarador vosita hamdir.

S. SMAYLS

Xushchaqchaq odamlar tez tuzalishadi, har qanday kasallik naytida ham xursand kayfiyat joiz.

X. BOSTREM

Xursandchilik kishining hayotga muhabbatini oshirib, tanasini chiniqtiradi.

I. P. PAVLOV

Sog' tanda soglom aql bo'lishiga intilish zarur.

YUVENAL

Asab sistemasini mustahkamlaydigan hamma narsa umrni uzaytiradi, aksincha, uni susaytiruvchi narsalar umrni qisqartiradi.

P. MANTEGASSO

Jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishning eng muhim sharti ruhiy tetiklikdir. Ruhiy tushkunlik o'lim bilan chatishtan. Ruhiy tetiklik organizmimizga yangidan hayot baxsh etib, modda almashuvini yaxshilaydi.

U. GODVIN

Umrni qisqartiruvchi omillar orasida qo'rquv, qayg'u. umidsizlik, zerikish, tushkunlik, hasad, nafrat yetakchi o'rinni egallaydi.

K. GUFELAND

Kasallikning eng yaqin ittifoqchisi bemorning umidsizligidir.

M. GORKIY

Qochayotganimizni ko'rgan dushman battar quturib ketganiday, dard ham qo'rqayotganimizni sezsa, yanada beshafqat bo'ladi. Ammo u qarshilikka duch kelishi bilan bo'shshib qoladi. Binobarin, dardga bo'yin egmay, u bilan olishish kerak.

I.MONTEN

Eng yomon dard o'z dardiga bog'lanib qolishdir.

SENEKA

Hayotini boy bermaslik tashvishi bilai yashagan odam hech qachon hayot zavqini bilmaydi.

I. KANT

Inson o'z dardi haqida gapi-rishni yaxshi ko'radi, ammo bu uning hayotidagi eng noxush damlardir.

A. P . CHEXOV

Ba'zilar nuqul sog'lom bo'lay deb tashvish chekkashshklari uchungina boshlari darddan chiqmaydi, boshqalar esa kasal bo'lishdan qo'rqmaganliklari tufayligina sog'lom yurishadi.

V. O. KLUCHEVSKIY

Jazavaga tushish — kasallik emas, xarakter: bu xarakterning eng muhim belgisi o'ziga ishonmaslikdir.

P. DYUBUA

Jazava — barcha kasalliklariing tasqarasi.

J. SHARKO

Agar inson bolaligi va o'smirligidan boshlab tizginini asablariga berib qo'ymagan bo'lsa, uning asablari muloyim va itoatkor bo'ladi.

K.D.USHINSKIY

Orani buzishgacha olib boradigan haddan ziyod asabiylik umrni qisqartiradi.

A. A. BOGOMOLETS

Sogʻayish shartlaridan biri sogʻayish xohishidir.

SENEKA

Iroda barcha dori-darmonlardan koʻra koʻproq yordam beradi.

M. GORKIY

Sogʻayishga ishonch — yarim sogʻayish degan soʻz.

F. VOLTER

Oʻz dardini tushunib, davolanishga shay turish shifo tonishning boshlanishidir.

M. SERVANTES

Oʻzini sogʻlom deb hisoblovchi bemorni davolab boʻlmaydi.

A. AMIEL

Tabibga dardini oshkor qilmagan odam qanday shifo tonadi?

Sh. RUSTAVELI

Shifokorlarni oʻqymishli odamlar ham tan olmasliklari mumkin, ammo tabobatni faqat joqillargina inkor etadi.

P. BUAST

'Gabobat hamma sanʼatlar ichida eng olijanob sanʼatdir.

GIPPOKRAT

Doktorning mehnati chindan ham eng unumli mehnatdir: u sogʻliqni saqlash yoki qayta tiklash orqali jamiyatga yoʻqolib ketishi mumkin boʻlgan barcha kuchlarni inʼom etadi.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Vrachlik kasbi — jasorat, bu kasb fidoyilikni, qalb va fikr sofligini talab qiladi.

A. P. CHEXOV

Aftidan, vrachlarning butun moʻjizalari ularning bemorga nisbatan diqqat-eʼtiborlarining kuchliligidadir. Ana shu kuch tufayli shoirlar tabiatga jon baxsh etishsa, vrachlar bemorlarni oyoqqa turgʻizishadi.

M. M. PRISHVIN

Oʻz bemorini davolashga ki-rishgan shifokor bu ishni nazokat va ochiq chehra bilan bemorga xush keladigan tarzda amalga oshirishi kerak. Badqovoq shifokor oʻz kasbida hech qachon baraka topmaydi.

M. MONTEN

Faqat tetik odamgina vrach boʻlishi mumkin.

P. DOBUA

Chalasavod vrachlar odatda sershubha boʻlishadi.

E. FEYXTERSLEBEN

Vrachning ochiq chehrasi bemorning sog'aya boshlashi demakdir.

F. ROXAS

Suhbatidan keyin bemor yengil tortmagan vrach vrach emas.

V.I. BEXTEREV

Umr qisqa, san'at yo'li olis, qulay fursat o'tkinchi, tajriba aldamchi, mulohaza bildirish og'ir. Binobarin, faqat tabibning o'zigina barcha zarur narsalardai foydalanib qolmasdan, balki bemor ham, tevarak-atrofdagilar ham va tashqi muhit ham tabibga uning faoliyatida ko'makdosh bo'lmog'i lozim.

GIPPOKRAT

Dori-darmon dardga qaraganda sekinroq ta'sir qiladi.

TASIT

Ruh bilan tanning bir-biriga o'zaro ta'siridan habardor bo'lganim uchun tanaga shifo bo'ladigan ruhiy malhamlar mavjudligini aytib o'tmoqni burchim, deb hisoblayman.

M. Ya. MUDROV

Ruhni davolamay turib, tanani davolab bo'lmaydi.

SUQROT

Psixoterapiyasiz etik yamash yoki o'simliklarni payvand qilish mumkin, ammo inson organizmiday ta'sirchan narsani davolab bo'lmaydi.

E. SIGEN

Vrachning bir og'izgina tasallisi bemorga naqadar shifobaxsh ta'sir ko'rsatishini va aksincha, ishontirishning nechog'li qudratga ega ekanligini bilmaydigan yoki bilishni istamaydigan vrachnig sovuq va ayovsiz hukmi bemorni ba'zan ajal domiga olib borib qo'yishini hamma biladi.

V. M. BEXTEREV



## Yoshlik, keksalik va umrboqiylik to'g'risida

Kasallikni faqat uning nomiga qarab emas, balki bemorning o'zini, uning a'zoyi badanini, organlarini, uning quvvatini davolash kerak.

M. Ya. MUDROV

Yaxshi shifokor ma'lum dardlarning davosini biladigan, agar o'ziga noma'lum kasallik bo'lsa, bemorga yordami tegadiganlarni chaqiradigan kishidir.

J. LABRUYER

Davolovchi vrach tajribasi osha borgan sari gigienaning qudratini va dori-darmonning nisbatan zaifligini ko'proq tushuna boshlaydi.

G. A. ZAXARIN

Ayrim dori-darmonlar dardning o'zidan ko'ra ham xavfliroqdir.

SENEKA

Kelajak — profilaktik meditsinaniki. Bu fan davolovchi meditsina bilan qo'lni-qo'lga berib, insoniyatga shak-shubhasiz foyda keltiradi.

N. I. PIROGOV

Darrov ta'sir qilmagan zaharning zahri baribir kamayib qolmaydi.

G. LESSING

Dono odam dardiga malham qidirib yurgandan ko'ra kasallikni o'ziga yo'latmaydi.

TOMAS MOR

Eng yaxshi dori hordiq va nafsni tiyishdir.

B. FRANKLIN

Mehnat bilan me'yor — insonning eng sodiq shifokori mana shu: mehnat ishtahani ochadi, nafsni tiyish esa ishtahani suiiste'mol qilmaslikka garov bo'ladi.

J. J. RUSSO

## Yoshlik haqida

Hayot har bir kishiga ulkan va bebaho tuhfa in'om etadi, bu kuch-quvvatga to'la yoshlik, bilim va kurashga chanqoqlik, ishonch va orzu-umidga to'la o'spirinlikdir.

N. A. OSTROVSKIY

Yoshlik — buyuk afsungar.

A. S. PUSHKIN

Yoshlik o'zining olijanob tashabbusi, sofdillikka, adolatga, bashariy haqiqatga behudud intilishi bilan taraqqiyotning buyuk kuchlaridan birini tashkil qiladi.

N. V. SHELGUNOV

Yoshlik, bu — orzu. Bu — ishonch. Bu — jasoratga intilish. Bu — lirika va romantika. Bu — kelajakka tuzilgan ulkan rejalar. Bu — istiqbolning boshlanishi.

N. HIKMAT

Agar yoshlik orzusi bo'lmaganda inson hayoti bir nuqtada to'xtab qolgan bo'lardi, ko'pgina ulug' goyalar xayolparast yoshlikning beg'ubor nalagida nish urgan.

K. D. USHINSKIY

Yoshlik shu narsa bilan baxtiyorki, uning kelajagi bor.

N.V.GOGOL

Yoshlik inson hayotining so'nggi yillari uchun urug' qadala-digan bahor pallasidir.

Ya. B. KNYAJNIN

Yoshlik paytida shunday ulug' fikrlar tug'iladiki, bu fikr-lar kelajakda insonni ko'klarga ko'tarishi lozim.

K. GELVETSIY

Yoshlik — xuddi aqlni alg'ov-dalg'ov etuvchi sarmastlikka o'xshaydi.

F. LAROSHFUKO

O, yoshlik! Yoshlik! Ehtimol, butun latofating siri hamma narsani uddalash imkoniyatiga ega ekanligingda emas, balki hamma narsani uddalayman, deb o'ylash imkoniyatiga ega bo'lganligingdadir.

I. S. TURGENEV

Yoshlik — olijanob tuyg'ularning bokira pallasini.

N. G. CHERNISHEVSKIY

Olov nayting, chaqmoq damlaring

Yodingda tut, unutmaz zinhor...

I. AKSAKOV

Yoshlikning o'zi hayot poeziyasidir, har bir odam umrining boshqa pallalariga nisbatan yoshligida yaxshiroq bo'ladi.

V. G. BELINSKIY

Ayniqsa, g'ayritabiiy narsalarga ishtiyoq kuchli bo'lgan yoi lik pallasida kishi jasoratga intiladi, qalbi doimo hammaga va hamma narsaga ochiq bo'ladi.

N. V. GOGOL

Yoshlik — dovyuraklik fasli.

STENDAL

Yoshlik hamisha fidoyilikdir.

A. I. GERSYON

Yoshlik iisoniyatning eng ajoyib, eng harakatchan otryadidir.

M. I. KALININ

Yoshlar ertangi kunning asosiy kuch-qudratidir.

A. V. LUNACHARSKIY

Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang, men senga keyingi avlodning tabiati qanday bo'lishini aytib beraman.

E. BERK

Yoshlik kishiga faqat bir marta beriladi, har bir odam yoshdigida boshqa yoshdagiga nisbatan barcha yuksak va porloq narsalarga yaqinroq bo'ladi. Qarigan chog'ida ham qalb mehri va haroratini So'ndirmay, yoshliginni saqlab qolgan odam baxtiyordir.

V. G. BELINSKIY

Beozor yoshlik yillaridan kamolotniig vazmin yo'llariga otlanar ekansiz — hamma narsani, insonga xos barcha harakatni o'zingiz bilan birga ola keting, yo'lda qoldirmang: keyin uni o'rnidan siljita olmaysiz!

N. V. GOGOL

Muayyan maqsad, o'zni idora qila bilish, samimiyat, mehnat-sevarlik, vaqtni qadrlash — mana shu xislatlarni egalla-shingiz lozim, yigitlar.

N. P. OGAREV

Yoshligingni asra. Dunyoda undan yaxshi palla yo'q. Undan qimmatli narsa ham yo'q! Yoshligingni, xuddi oltin kabi, istagan narsaga ishlatishing mumkin.

M. GORKIY

Hayot juda ajoyib, unda jozibadorlik benihoya ko'p, lekin yoshlarni ulkan qimmatga ega bo'lgan hamda insonni har tomonlama kamol to'itiradigan narsalarga da'vat etish kerak.

M. I. KALININ

Dunyoda hech narsa kishini o'soirinlik yillariday musaffo va olijanob qilolmaydi, kuchli ijtimoiy manfaat ularni asrab-avaylaydi.

A. I. GERTSEN

Kimda-kim yoshligida o'zini ulug va ajoyib ishlar bilan yoki loaqal oddiy, lekin halol va foydali mehnat bilai mustahkam bog'lamagan ekan, u yoshligi qanchalik xushchaqchaq o'tgan va qanchalik yorqiy xotiralar qoldirgan bo'lmasin, uni hayf ketgan, deb hisoblayverishi mumkin.

D. I. PISAREV

Yoshlik — ajoyib: uni yelga sovurish jinoyatdir.

B. SHOU

Vofoyda o'tgan yoshlik — musibat.

OBOY QO'NONBOYEV

Insonning so'nayotganini ko'rishdan dahshatli manzara yo'q.

A. I. GERTSEN

Qulochni keng yozib yashash kerak. Bu faqat rassom va shoirlargina emas, balki har bir yosh mehnatkashga aloqador.

S.G.KONENKOV

Tugilishdanots narvozga shay bo'lish dunyodagi eng oliy baxtdir.

ARISTOFAN

Yoshlik biror narsa to'g'risida mulohaza qilishdan ko'ra ixtiro qilishga, maslahatdan ko'ra amalga oshirishga, muayyan bir ish bilan shug'ullanishdab ko'ra turli-tuman xayolotlar bilan yashashga moyilroq bo'ladi.

B. BEKON

Yoshlikdagi yanglishishlarpi kechirmoq kerak. Shunday aldamchi shu'lalar bo'ladiki, ular yo'lovchiga haqiqiy yo'lni, soxta shu'lalardan holi bo'lgan yo'lny ko'rsatib beradi.

R. SHUMAN

Talantsiz yigit mo'ysafiddir.

J. RENAR

O'smirlikdagi tushkunlik — yoshlikka xos kasallik.

I. I. MECHNIKOV

Yoshlikdagi go'rlik davrida ko'zga tashlanadigan bilarmandlikni unchalik yoqtirmayman, zero u novdaga o'ralib olib, uning o'sishiga xalaqit beradigan chirmovuqqa o'xshaydi.

R. SHERIDAN

Tushkuplikka tushgan yosh yigitning qiyofasidan ayanchli qisfa yo'q.

M. TVEN

Odamlarda o'ziga nisbatan qiziqish uyg'otmasdan hayot kechirish hayfdir.

M. GORKIY

O'qishda, mehnatda, fanda, xalqqa astoydil xizmat qilishda o'z baxtingni topasan.

N. D. ZYELINSKIY

O'z zamonangdan yuqori yurishga harakat qil.

G. LIXTENBERG

Qo'lingdan kelsa zamondan ilgariroq yur, agar qo'lingdan kelmasa, zamon bilan barobar qadam

tashla, ammo hech qachon zamondan orqada qolma.

V. Ya. BRYUSOV

Sustkashlik illatlar ichidagi eng jirkanchlisidir.

R. ROLLAN

Yoshlikdagi isrofgarchilik qarilikka berilgan shunday bir xirojki, uni keyin o'ttiz yil davomida ustamasi bilan to'lab borishga to'g'ri keladi.

K.KOLTON

Yoshlikdagi gunohimizni keksayganda yuvishga to'g'ri keladi.

ERAZM ROTTERDAMSKIY

Kimda-kim o'n olti yoshida erkaklikka o'tsa, oltmish yoshida yosh bolaga aylanadi.

T. FULLER

Har ikki jinsning qarilik-dagi qismati yoshligi nimaga isrof qilinganiga bog'liq.

STENDAL

Yoshlikdagi qusurlarni qariguncha saqlab qolish kerak emas, chunki qarilikning o'z qusurlari bo'ladi.

I. GYOTE

Yoshmisan, keksani sen hurmat ayla,

O'zing ham qariysan, hozirdan o'yla.

ATTOR

Keksaga ko'mak ber — suyangan tog'ing, Buni tushunarsan qarigan chog'ing.

N. XISRAV

Keksalarning insoniy zaifliklariga nisbatan muruvvatli bo'ling.

V. A. SUXOMLINSKIY

Men hashla qilishni bilmaydigan, raqiblari ham bo'lmagan issiq-sovuqni pisand qilmaym mangulik gulchambari ketidan yelib-yugurish o'rniga bir chetda. biqinib yashaydigan ojiz va qo'rqqoq, sustkash va odamovi ezgulikni maqtay olmayman.

J. MILTON

Olg'a, bir zum ham tinim bilmaydigan hayot bilan birga faqat olg'a qarab yurish kerak.

E.ZOLYA

Hayotga xushmanzara daraxtzorga kirgan betashvish maishatparast bo'lib emas, balki hayot va sirlar to'la muqaddas o'rmonga kirganday ehtirom bilan qadam tashlash kerak.

V. V. VERESAYEV

Hayotga tetapoya kirib kelayotgan yoshlar tortinchoq yoki hatto uyatchanroq bo'lishlari kerak: o'ziga ishonch va bamaylixotirlik odatda surbetlikka olib boradi.

F. LAROSHFUKO

Keksayganda yoshlikdagi butun kuch-quvvat bezavol ishga sarf bo'lganini his etishdan ortiq tasalli

yo`q.  
A. SHOPENGAUER

Yoshlikda shunday ish qilginki, yillar o`tib, keksalik keltirgan zararning o`rnini qoplaydigan ish bo`lsin. Keksalikning ozigi donolik ekanini yodda tutib, yoshlikda shunday harakat qilginki, keksalik oziqsiz qolmasin.

LEONARDO DA VINCHI

Yoshlik — donolikni o`rganadigan palla, keksalik esa uni qo`llaydigan paytdir.

J.J. RUSSO

Yoshlikda nimani eksang, ulg`ayganda o`shani o`rasan.

G. IBSEN

Biror narsani o`rganish, yangi odatlarni singdirish va bir-biriga zid fikrlarni toqat bilan eshitida qobiliyatiga ega bo`lgan odam yoshligini saqlab qoladi.

E. EBNER-ESHENBAX

Bolalikdayoq barkamol bo`lishni judayam zarur deb hisoblamayman, odam maktabni tugatganidan keyin ham ko`p narsalarni o`rganishi mumkin, ammo mashg`ulot ko`nikmasi va aqliy kamolotning asosi yoshlikda shakllanadi.

A. I. GERTSEN

Keksalarning ustidan kulma — bir kun o`zing ham qartayasan.

MENANDR

Eng to`g`risi, keksalikning hayotiy tajribasini yoshlikning kuch-g`ayrati bilan omixta qilishdir.

B. SHOU

Menga yosh yigitdagi keksalarga xos ba`zi bir xislatlar, mo`ysafiddagi yoshlarga xos fazilatlar yoqadi.

SITSERON

Mayli, keksalikdagi donolik yoshlikdagi kuch-g`ayratni yo`lga solsin, yoshlikdagi kuch g`ayrat esa keksalikdagi donolikka madadkor bo`lsin.

K. S. STANISLAVSKIY

Keksalar o`rgatish, maslahat berish huquqiga egadirlar. Ana shu ma`naviy huquqni hurmat qila bil.

V. A. SUXOMLINSKIY

Biz keksalarning donoligidan juda kam foydalanamiz.

L. VOVENARG

Yoshlik quvvati-yu, keksaning aqli — G`alaba garovi, bu xalqning naqli.

G. M. KRJIJANOVSKIY

## Keksalik haqida

Yoshlik bilan keksalik orasidagi muddat naqadar qisqa!

Sh. MONTESKYE

Yoshlik o'tib borayotganini hech kim sezmaydi, ammo uning o'tib ketganini hamma his qiladi.

SENEKA

Keksalik xuddi qorday to'satdan bosadi, Ertalab tursangiz — hammayoq oppoq.

J. RENAR

Jasorat tugagan kuni qarilik boshlanadi.

A. MORUA

Me'yor, ehtiyotkorlik, mutaassiblik, havf-xatar va nogahoniy o'zgarishdardan uzoqroq yurish xohishi ko'pincha qarilikning doimiy hamrohi bo'lib qoladi.

J. NERU

Qariganda aqliy nuqsonlar tashqi qiyofadagi nuqsonlar kabi yaqqolrok, ko'zga tashlana boshlaydi.

F. LAROSHFUKO

Keksayganini odam qachon sezadi? Buni orzu-umiddan voz kechib, faqat xotiralar bilan yashay boshlaganda his qiladi.

F. ZANDERS

Qariganingda ko'proq yoshliging haqida o'ylaysai.

A. DYUMA (otasi)

O'spirinlik yillari beqiyosdir. Keksalik unga vaqt tuman lari orasidan boqipshi xush ko'radi. Mo'ysafid odam shom pallasida tong shafagini orzu qiladi.

J. BAYRON

Qariganda ko'zlar yuzdan bosh orqasiga o'tib qoladi: nuqul orqaga qaraysan, oldiida hech narsani ko'rmaysap, ya'pi umrlar bilan emas, balki xotiralar bilan yashay boshlaysan.

N. O. KLYuChYeNSKIY

Ktlar umid bilai yashashadi, keksalar esa xotira bilan.

F. ZANDERS

Keksalar uchup o'tmish xotirasi sahroda yo'lovchiga ko'ringan sarobga o'xshaydi.

P. BRANJE

Qarilik haqidagi o'ydan ko'ra kishini tez qaritadigap narsa yo'q.

G. LIXTENBERG

Qarilikni o'ylaganing sari qariysan,

E. KAPIYEV

Koksalikka yaqinlatganda vaqt yana tez o'ta boshlaydi.

E. SENANKUR

Keksaygan sayyn hayotga muhabbat ortib, o'lim dax,shati kuchayadi.

J. LABRUYER

Biz uzoq yashashni orzu qilamizu, ammo qarishdan qo'rqamiz.

J. LABRUYER

Qarish ko'ngilsiz narsa, ammo uzoq yashashing birdan-bir yo'li shu.

Sh. SENT-BYEN

Qarishii hech kim xohlamaydi ammo uzoq yashashni hamma istaydi.

P. BUAST

Qarilik shunday bir hukmronki, u bizga o'limni ro'kach qilib, yoshlikning butun huzur-halovatini man qilib qo'yadi.

F. LAROSHFUKO

Qarilik tashvishlari odatdagi hayot tashvishlarinint o'zginasi, faqat uning kuchaygan shaklidir.

A. FRANS

Qarilik shuning uchun ham ko'ngilsizki, keksayganda biz faqat shodlikdan emas, balki orzu-umidlardan ham mahrum bo'lamiz.

JAN POL

Qarigaiingda o'z odatlaringning quli bo'lib qolasan.

G. FLOBER

Kishi oltmish yoshga to'lgandagina oilaning bebaho maskanligini his qila boshlaydi.

E. BULVER-LITTON

Hayot o'z qadr-qimmatini yo'qota boshlagani sayin biz u haqda ko'proq o'ylay boshlaymiz; keksalar yoshlarga qaraganda ortiqroq kuyib-pishadilar.

J.-J. RUSSO

Keksaya olish san'atidan ko'ra uni yenga olish san'ati ulug'roqdir.

I. GYOTE

Qirq yosh — yoshlikning intihosi, ellik yosh — qarilikning ibtidosi.

V. GYUGO

Keksalik darddir, uni har qanday kasallik kabi davolash lozim.

I. I. MECHNIKOV

Yashab qo'ygani yoshimizga qaramay, biz ko'p jabhalarda ko'r bo'lib qolamiz, qancha yoshga kirgan bo'lishimizdan qat'i nazar, bizda ko'pincha tajriba yetishmaydi.

F. LAROSHFUKO



Keksaya olish — san'at, unga hamma ham muyassar bo'lavermaydi.

F. LAROSHFUKO

Keksalik san'ati yoshlarga to'g'anoq emas — suyanchiq, raqib emas —muallim, befarq emas,— hamdard bo'lish demakdir.

A. MORUA

Haqiqiy hayot ellik yoshdan keyin boshlanadi. Bu yoshda odam chinakamiga pishib yetiladi, boshqalar o'rnak olsa arzigulik xislatlarga ega bo'ladi, birovlarga saboq bo'ladigan narsa-larni tushunib yetadi.

U. BOK

Ha, nuroniy mo'ysafid bo'la olish buyuk san'atlardan biridir, insoniyat o'zligini donishmand qariya qiyofasida butun borligi bilan namoyon etsa ajab emas, uning qalbi hammaga ochiq, u ,pngi avlodni muborakbod etadi, unga o'z tajribasini uzatadi.

A. V. LUNACHARSKIY

Hamisha o'zimizni yoshimizga munosib tarzda tutaylik.

GORATSIY

Yil fasllarini adashtirmaganimizday, yoshimizni ham chalkashtirmaylik; har bir yoshga xos tabiiylikni saqlashimiz va tabiatga qarshi kurashmasligimiz lozim, zero noo'rin urinishlar hayotni siyqalashtirib, undan to'la bahramand bo'lishga xalaqit beradi.

J. J. RUSSO

Yosharish yoshga nisbatan nomunofiq turmush tarziga kechikib qadam bosishdir.

TEOFRAS

Keksa odam yoshlikni da'vo qilsa — katta kamchilikdir.

A. DYUMA (otasi)

Keksayganda qo'rs bo'lish ,tentaklikka yaqin turadi.

F. LAROSHFUKO

Palaiartish kiyinish ham, kiyimga haddan tashqari zeb berish ham qarilikka xos no-chorlikni bo'rttirib, keksalarning yuzidagi ajinni ko'paytiradi.

J. LABRUYER

Keksalikning o'ziga xos ko'rki bor, bu ko'rkdan jo'shqinlik va ehtiros emas, balki so'niqlik va taskin ufurib turadi...

A. I. GERTSEN

Yo'lini bilgan odamga keksalik ham huzur-halovat og'ushidir.

SENEKA

Hayot shomi o'zi bilan birga shamchirog'ini ko'tarib keladi.

J. JUBER

Keksayganimizda ham yoshlik paytimizdagiday xushchaqchaq bo'lib qolaylik. Yoshlikda to'rg'ay kabi tong qo'shig'ini kuylaymiz. Qariganda esa bulbul yanglig' oqshom navosini chalaylik.

K. BOUVI

Ajinlar faqat avvalgi tabassum o`rinlarini ko`rsatib tursin.

M. TVEN

Ajinlarda quvnoqlik jilva qilganiga nima yetsin! Nuroniylik deb shuni aytadilar.

V.GYUGO

Qariganda muhabbatsiz yashay olgan odam yoshligida ham sevgan emas, zero muhabbat yosh tanlamaydi.

JAN POL

Yetmish yetti yoshda odam quyi-lishi kerak.

S. JONSON

Keksalik ahmoq uchun — og`ir yuk, johil uchun — qish, ilm ahli uchun ayni hosil davridir.

F. VOLTER

Fanga, muzikaga, teatrga va umuman, tashqi olamga muhabbati saqlanib qolgan qariyalar baxtiyordirlar. O`zidagi bor narsalar insonga qariganda ayniqsa asqatadi.

V. GYUGO

Qariganda ayniqsa yalqovlik va bekorchilikdan ehtiyot bo`lish kerak.

SITSERON

Qariganda yoshlikdagiga nisbatan ko`proq ishlash kerak.

I. GYOTE

Yoshi oltmishdan oshgan odamga faqat bitta maslahatim bor: ishlash va yana ishlash!

A. SHVEYSER

Mehnat va ijod keksayishni sekinlashtiradi.

S. T. KONENKOV

Qariyaning miyasi qari otga o`xshaydi. Mehnat qobiliyatini saqlab turish uchun tinimsiz mashq qilishi lozim.

G. ADAMS

Hamma narsaga qiziqishini yo`qotgan odam xotirasini ham yo`qotadi.

I. GYOTE

Ko`p odam yoshiga nisbatan ancha oldin qariydi.

T. BRAUN

Tabiat nomutanosibliklar bilan to`la. Ba`zan u keksalarning boshini yoshlarning yelkasiga o`rnatib qo`yadi, ba`zan esa sakson yillik muz ostiga qaynab turgan yurakni jo etadi.

R. EMERSON

Goh sochdagi oq adashtiradi:

Usti g'ubor bosgan asriy shishada  
Otashnafas gulob qalqib turadi.  
M. Yu. LERMONTOV

Qarilik ko'ylakkaingan g'u-borga o'xshaydi — u xarakterdagi hamma qusurlarni sirtga olib chiqadi.  
V. O. KLUCHEVSKIY

Uzoq yashaganini faqat yoshi-ga qarab baholaydigan qariyadan nochor odam yo'q.  
SENEKA

Nodon qariya hamisha kalon-dimog' va takabbur bo'ladi.  
J. LABRUYER

Vazmin va xushmuomala qariya hammaga yoqadi.  
DEMOKRIT

Kuch va ko'rk yoshlik bezagi, qarilikning bezagi esa zakovat va mulohazakorlikdir.  
DEMOKRIT

Yosh yigit dono bo'lmog'i lozim, ammo buni ko'z-ko'z qilmasligi kerak, keksa odam esa, garchi dono bo'lmasa ham o'zini dono ko'rsatishga urinishi zarurdir.  
F. CHESTERFIELD

Qarilik ranj, ammo nolimagan odamga u fuqorodir.  
F. VOLTER

Qarilik hayot gullarini so'litib, nishlarini o'tkirroq qilad.  
SA'DIY

Keksalikning ko'pdan-ko'p zaif tomonlari bor, u shunday nochor, nafratga uchrashi ham hech gapmas, binobarin, qariganda orttiriladigan eng yaxshi boyluk — bu yaqin kishilarning muhabbatiga sazovor bo'lishdir. Buyruq va do'q-po'pisa unga qurol bo'lolmaydi.  
M. MONTEN

Og'ir-vazmin, qovushuvchan va xushfe'l qariyalar keksalikni yaxshi o'tkazishadi, jizzakilik va badqovoqlik hamma yoshda ham ortiqcha yuk bo'ladi.  
SITSERON

Qarilik baxt bo'lolmaydi, «baxtli keksalik», degan gapni johil odamlar o'ylab chiqarishgan. Qarilik yo osoyishta, yoki g'am-hasrat bilan o'tish mumkin. Izzat-ikrom ko'rgan qariyalar osoyishta kun kechiradilar. Unutilgan, yolg'iz qolgan keksalarning esa kuni g'am-hasrat bilan o'tadi.  
V. A. SUXOMLINSKIY

Beg'amlik yoshlarning sho'ri bo'lganiday, ortiqcha kuyunchaklik keksalarning sho'ridir.  
V. SHEKSPIR

## Barhayotlik uchun kurash

Hayot barhayotlik uchun kurashdir...

M. M. PRISHVIN

Hayot o'limni hech qachon pisand qilmaydi. O'lim ro'parasida u qahqaha uradi, qo'shiq aytib, raqsga tushadi, quradi, teradi va sevadi. Faqat o'limning o'zini alohida ajkratib qararak, uning bo'm-bo'shligini ko'rib, xijolat tortamiz.

R. TAGOR

O'lim inson uchun hech narsa emas, chunki biz bor paytimizda o'lim bo'lmaydi, o'lim bor joyda esa biz bo'lmaymiz.

EPIKUR

Odam faqat men mavjudman, deb bilganda edi, o'lim haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmasdi.

E. KONDILYAK

Donishmand odam umrining oxiriga borib o'limning faqat chetdan qaraganda, yaqin kishilari uchungina dahshatli ekanini, o'zi uchun esa hech narsa emasligini, qanday tug'ilgan bo'lsa xuddi o'shanday ketishini tushunadi...

M.M.PRISHVIN

Hayot bilan vidolashayotgan paytda o'lim dahshati sezilmaydi, faqat qon va tana o'lim bilan olishishi, unga qarshilik ko'rsatishi mumkin, aql-idrok esa loqayd va befarq tomoshabin bo'lib turaveradi.

E. KAPIYEV

Odamlarning o'lim degan narsani bilishi aslida ularning o'limdan bexabarligi vajidap unchalik qo'rqinchli tuyulmaydi; qazo vaqtining noaniqligi abadiyatga o'xshab ketadi.

J. LABRUYER

Tabiat bizga o'lim haqida o'ylamaslik salohiyatini ato etgan, aks holda, olam harakatdan to'xtab qolgan bo'lardi.

F. GVICHCHARDINI

O'lim muqarrarligini hammamiz yodda tutishimiz va binobarin, mangu barhayot bo'lib qolish ishonchi bilan yashashimiz kerak.

F. GVICHCHARDINI

Agar bizga o'limni yoki hech qachon o'lmaslikni tanlash zarur bo'lib qolsa, hech birimiz aniq bir qarorga kelolmasdik. Tabiat o'limni muqarrar qilib, bizni bu mushkulotdan xalos etgan.

J. LABRUYER

O'limning muqarrarligini hamma biladi, ammo u yaqin emasligi tufayli hech kim o'lim haqida o'ylamaydi.

ARASTU

O'lolmayman, deb tashvish tortmang: vaqt-soat yetganda tabiatning o'zi bunga yaxshilab o'rgatib qo'yadi; siz uchun ham hammasini o'zi hal qiladi, bu haqda bosh qotirib yurmang...

M. MONTEN

O'lyamdan qo'rqish ham, qo'rqmaslik ham mumkin — u muqarrardir.

I. GYOTE

Donishmandning o'limi o'lim-ni pisand qilmaydigan o'limdir.

SENEKA

Suqrot: «O'ttiz hukmdor seni o'limga hukm etishdi» — degan odamga: «Ularni esa tabiat o'limga mahkum etgan» — deb javob beribti.

M. MONTEN

Hayoti eng qadrlı bo'lgan odamlar o'limdan shuncha kam qo'rqishadi.

I. KANT

Odam yaxshi bo'lgan sari o'limdan kamroq qo'rqadigan bo'ladi.

L. N. TOLSTOY

O'lim dahshati yaxshi turmushga teskari proportsionaldir.

L. N. TOLSTOY

Matonatli kishilarga o'limning yaqinlashuvi unchalik ta'sir qilmaydi, chunki ularning har biri so'nggi daqiqagacha irodasini saqlab qoladi.

F. BEKON

O'limga tik qarash, o'z-o'zini aldashga urinmasdan uning yaqinlashayotganini oldindan sezish, so'nggi daqiqaga qadar dadil turish, bo'shashmaslik va qo'rqmaslik irodali kishilarga xos xislatdir.

D. I. PISAREV

O'lim ham xuddi hayotga o'xshamog'i lozim, chunki o'lganimiz bilan biz boshqacha odam bo'lib qolmaymiz.

M. MONTEN

Inson qalbiga xudbinlik qancha chuqur ildiz otgani sayin unda o'lim dahshati shuncha mustahkam o'rnasha boshlaydi.

V. G. PLEXANOV

Tirik odamning o'lim haqida o'ylashi bema'nilikdir.

M. GORKIY

O'lim haqidagi o'ylar bizni chalg'itadi, chunki bunday xayollar bizni yashashni unutishga majbur qiladi.

L. VOVENARG

O'limdan qo'rqqan odamning hayoti ham tugaydi.

I. ZEYME

O'lim dahshatidan o'lish ahmoqlikdir.

SENEKA

Hayotdan ko'z yumish vahimasi bilan yashagan odam hech qachon hayot lazzatini tatiy olmaydi.

## I. KANT

Muqarrar narsadan qoʻrqish nodonlikdir.  
PUBLILIY SIR

Yuz yildan keyin yashamasligimizni oʻylab koʻz yoshi qilish yuz yil burun yashamaganimiz uchun koʻz yoshi toʻkishdek bemaʼni ishdur.

M. MONTEN

Oʻlim — jiddiy hodisa, u hayotning bir qismi. Mardona oʻlish kerak.

A. V. LUNACHARSKIY

Shafqat nuqtai nazaridan qaraganda, oʻlim shuning uchun ham yaxshiki, u qarilikka chek qoʻyadi. Yaroqsizlikning oldini oluvchi oʻlim yaroqsiz holga keltiruvchi oʻlimdan koʻra afzaroqdir.

J. LABRUYER

Oʻlmoq tugʻilmoqday tabiiydir. Muhim ish ustida oʻlgan odam ogʻir jangda yaralangan, ammo avvaliga ogʻriqni sezmaydigan yaradorga oʻxshaydi. Zero olijanob fikrlar bilan yashovchi odam oʻlim azobini mutlaqo sezmaydi.

F. BEKON

Umr uzun, oʻlim qisqa, shuning uchun ham undan qoʻrqish kerak emas.

F. E. DZERJINSKIY

Hayot — abadiy, oʻlim esa bir lahzadir.

M. Yu. LERMONTOV

Insonning baxt-saodati yaxshi oʻlish emas, balki yaxshi yashamoqdan iborat.

M. MONTEN

Hayotni koyib, lekin baribir yashab yurgan odamdan koʻra uni olqishlab yashagan odam aqlliroq emasmi?

L. N. ANDREYEV

Oʻlish xohishi ruhiyatning eng soxta va xayoliy holatidir.

V. G. BELINSKIY

Hayot bilan vidolashuvga sababi koʻp boʻlgan odam juda ayanchlidir.

EPIKUR

Hayotdan faqat loqaydlik va yalqovlik tufayligina nafratlanish mumkin.

L. N. TOLSTOY

Oʻlimdan qoʻrqmasdan va uni xohlamasdan yashash kerak.

L. N. TOLSTOY

Yashab turib oʻziga oʻlim tilash qazo vaqti yetganda tirik qolishga urinishday bemaʼnilikdir.

A. FRANS

O'limni orqavorotdan bilgan odamlargina o'ziga o'lim tilaydi.

U. MIZNER

O'z joniga qasd qilganlar, menimcha, birovdan o'ch olish uchun emas, balki o'zidan va o'zining nochor va nobop turmushidan nafratlanganidan hayot bi-lan vidolashadi. O'z-o'zidan nafratlanish dahshatli tuyg'u!

E. KAPIYEV

Eng botir va eng oqil odamlar har qanday sharoitda ham o'lim haqida o'ylamaydigan odamlardir.

F. LAROSHFUKO

Inson ezgulik va muhabbat yo'lida o'limni xayoliga keltirmasligi kerak.

T. MANN

Zakovatli odamni hayotga nis-batan muqaddas ehtiromidan tanib olish mumkin.

V. GYUGO

Yashash matlabi o'lgandan keyin ham barhayot bo'lib qolishdan iborat.

M. JALIL

Yomon ham o'tar, yaxshi ham —yaxshi bil,

Seni yaxshi nom birla yod etsin el.

SA'DIY

Inson o'limdan keyin faqat yerda yashashi mumkin.

A. BARBYUS

O'zgushn mangu xotira qoldiradigan insonlar uchun tug'ilish chinakam baxtdir.

PERIKL

O'lim barhaq bo'lsa ham biz yo'q bo'lib ketadigan narsalarga mute bo'lib qolmasligimiz, aksincha, iloji boricha abadiyat cho'qqisiga ko'tarilishimiz va o'zimizdagi eng yaxshi xislatlarga suyanib yashashimiz kerak.

ARASTU

O'limdan qo'rqqan odam biron-bir ezgu ish qilolmaydi, buyrak toshi, bod, tutqanog'i yoki shunga o'xshash boshqa bir sabab bilan o'lib ketgandan ko'ra, ezgu ish uchun jonni fido qilgan ma'qul.

D. DIDRO

O'limdan omon qolishni eplolmasang, loaqal sharaf bilan o'l.

EZOP

Abadiyat yo'lida yashovchi in-son uchun o'lim qo'rqinchli emas.

U. PENN

Hayot qisqa, lekin shuhrat mangu bo'lishi mumkin.

SITSERON

Umumiy g'oya bilan ruhlangan va umum manfaatiga xizmat qilgan odam o'lmaydi.

D. N. MAMIN-SIBIRYAK

Inson o'ladi, barhayot bo'lib qolishning birdan bir imkoniyati o'zidan keyin o'lmaydigan nimadir qoldirishdir.

U. FOLKNER

Bo'lak yaxshi nom istama, shul yetar —

Seni yaxshi odam desa el agar.

SA'DIY

Barhayotlik mangu nimadir ustida ishlashdir.

E. RENAN

O'z ichingdan abadiyatni topolmaysan.

A. SENT-EKZYUPERI

Hech kim o'limga chap berolmaydi, lekin odamlar o'zlarining buyuk ishlari bilan o'zlariga shunday haykal quradilarki, bu haykal quyosh turguncha turadi.

G. FABRISIUS

Yashab turib, dunyoda o'zining borligini bildira olmaslik — menga dahshat bo'lib tuyuladi.

N. V. GOGOL

Kasal bo'lish yaxshi emas, o'lish undan ham yomon, biroq, o'zingdan keyin hech narsa qoldirmasligingni sezib turib kasal bo'lish va o'lish — hammasidan ham yomon.

V. G. BELINSKIY

O'limdan qo'rqmayman. Yo'q, aslo! Izsiz yo'qolishdan qo'rqaman.

M. Yu. LERMONTOV

Dunyodagi barcha ne'matlardan faqat yaxshi nom qoladi, hatto shuni ham qoldirolmagan odam baxtsizdir.

SA'DIY

Ongimizni o'stirish yoki biron-bir dardni davolash yo'lida jonini fido qilgan odam o'la turib ham hayotga xizmat qiladi.

A. SENT-EKZYUPERI

Buyuk maqsadlarga xizmat qilsa kim,  
Inson birodarin o'ylasa agar,  
Kurashga baxsh etsa butun hayotin —  
Hayoti tarixda qolar muqarrar.

N. A. NEKRASOV

Xotirasi o'zi sevgan odamlar qalbida muqaddas saqlanadigan odam, menimcha, o'limdan keyin ham barhayot bo'lib qolish uchun zarur ishni qilib qo'ygan odamdir.

G. EBERS

Kelajakka ishonib yashagan va uning porloq bo'lishi uchun jon fido qilgan har bir odamni toshdan



o'yib ishlagan haykalga qiyos qilsa bo'ladi.

Yu. FUCHIK

Inson jisman o'lsa-da, ruhan yo'q bo'lmaydi, u o'z xulq-atvori, qilgan ishlari va ijodi bilan tevarak-atrofdagilar hamda jamoat orasiga singib ketadi. Agar u hayotda murdaga o'xshab yashamagan bo'lsa, tirik qolganlar ongida yashashda davom etaveradi. Jonli kollektiv o'liklarni tiriltiradi.

N.Ya. MARR

Insoniyat deganimizda, tiriklardan ko'ra ko'proq marhumlarni nazarda tutamiz.

K. A. TIMIRYAEV

Inson o'ladi, ammo xalq barhayotdir.

M. GORKIY

Odamlar insoniyat yashamog'i uchun o'ladilar.

V. G. BELINSKIY

Men o'lsam, o'rnimga boshqalar keladi. Xalqdan ko'ra ba-davlati yo'q.

F. JOLIO-KYURI

Hech qanday texnika insonni o'limdan saqlab qololmaydi. Ammo-lekin ma'naviy qudratning bu bilan ishi yo'q. U hayotda shunday bir umumiy yo'nalish yasashi kerakki, bu yo'nalish vijdon va nomus talablarini qondirish bilan birga kishiga muqarrar o'limni qo'rquv bilmay, xijolat va ta'nalarsiz, xotirjam qarshi olish imkonini bersin.

N. K. MIXAYLOVSKIY

Kishi umri oxirlab qolgan paytda ma'yus tortib, olisdan imlab chaqiruvchi yorqin manzillarni ko'rish menga ham nasib qilarmikin, deya o'z-o'ziga savol beradi. Shunda u o'z ortidan bardam-baquvvat yoshlar kelayotganini, keksalik bilan yoshlik haqiqatni kashf etish yo'lidagi uzluksiz mehnatda qorishib ketajagini o'ylab, tasalli topadi.

N. Ye. JUKOVSKIY

Shunday marhumlar borki, ular tiriklardan ko'ra barhayotroqdir, lekin shunday tiriklar ham borki, ular marhumlardan ko'ra marhumroqdir.

R. ROLLAN

Marhumlar har xil bo'ladi, ularning ayrimlari o'tgan ming yilliklar qa'ridan turib ho-zir ham bugungi porloq kunimiz yo'nalishini belgilab beradi.

M. M. PRISHVIN

Adbiyot olamida o'lim yo'q, bunda marhumlar ham xuddi tiriklar kabi ishlarimizga aralashib, o'zimiz bilan yonma-yon yuradilar.

N. V. GOGOL

Agar siz o'zingizga abadiy haykal o'rnatmoqchi bo'lsangiz, qalbingizni ezgu kitobga jo qiling.

P. BUAST

Hayotning butun quvonchi ijodda. Ijod qilish o'limni mahv etishdir.

R. ROLLAN

Men go'yo bir jon, muhabbati bor  
Qalblarda yashayman, bo'lmayin abgor,  
Menga begonadir dunyoda ajal.  
MIKELANJELO

O'z asarlarida yashagan odam sirayam o'lmaydi.  
K. BOUVI

O'lim dahshati bizni mehnat qilishga undaydi, zero butun hayot mehnatdadir.  
J. RENAR

Uzidan keyin loaqal bittagina yangi, porloq fikr qoldirgan, insoniyatga nafi tegadigan atigi bittagina  
jasorat ko'rsatgan odam bo'lsa, demak, u dunyodan befarzand o'tmaypti.  
A. A BESTUJEV-MARLINSKIY

Umrboqiylik, to'la ma'noda bo'lmasa ham, shubhasiz, avlodlarda namoyon bo'ladi.  
L. N. TOLSTOY

Umr qisqa, lekin inson o'z farzandlari timsolida qayta yashay boshlaydi.  
A. FRANS

Gar desang ayovsiz o'lim qilichin,  
Nasllar qoldirgin yashamoq uchun!  
V. SHEKSPIR

Sendan o'g'il qolsa kelajakda yosh,  
U sening o'rningda qarshilar quyosh.  
V. SHEKSPIR

Burchni ado etganlik tuyg'usi o'lim dahshatini yakson etadi, halol kechirilgan umr esa xotirjam ko'z  
yumish imkonini beradi.  
M. GORKIY

Kunni yaxshi o'tkazgan odam tunda tinch uxlaganiday, foydali umr kechirgan odam qiynalmay jon  
beradi.  
LEONARDO DA VINCHI

Dalada ishlab turib qazo qilishni xohlardim.  
M. MONTEN

Ish ustida jon berishni xohlayman.  
OVIDIY

Kurashishga qurbim yetmay qolgan ondan boshlab o'limimg'a roziman.  
F. ENGELS